

90^{yil}
TDIU

MINTAQAVIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

M.A.KADIROV, M.T.ASKAROVA, A.T.AXMEDIYEVA

**MINTAQAVIY RIVOJLANISH
STRATEGIYASI**

DARSLIK

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2021

UO‘K:334.722.2(075.8)
KBK 65.9(50‘)09ya73
K 56

M.A.Kadirov, M.T.Askarova, A.T.Axmediyeva,. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi. Darslik –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2021, 410 bet.

ISBN 978-9943-7395-9-8

Taqrizchilar:

N. Maxmudov, i.f.d., professor;

B.B. Berkinov, i.f.d., professor.

ISBN 978-9943-7395-9-8

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2021.

MUNDARIJA

	KIRISH.....	6
I BOB.	MINTAQAVIY RIVOJLANISH STRATEGIYASISI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI	
1.1.	Mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli.....	9
1.2.	«Mintaqa» tushunchasi, mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli va ahamiyati.....	12
1.3.	Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.....	15
II BOB.	GLOBALLASHUV JARAYONIDA MINTAQAVIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINING MUHIMLILIGI	
2.1.	Mamlakat mintaqaviy rivojlanish strategiyasining eng muhim yo‘nalishlari.....	17
III BOB.	MINTAQAVIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI	
3.1.	Mintaqalar rivojlanishini tartibga solishning maqsadi va vositalari.....	29
3.2.	Davlat boshqaruv tizimida funksional tahlil va samarali makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish.....	32
IV BOB.	MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISH TAMOYILLARI	
4.1.	O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy bo‘linishining tarixi va hozirgi holati.....	43
4.2.	Mintaqani rivojlantirish strategiyasini shakllantirish tendensiyalari va uning hozirgi holati.....	45
V BOB.	MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISH INDIKATORLARI	
5.1.	Mintaqaviy boshqarishni nomarkazlashtirish sharoitida iqtisodiy strategiyani shakllantirish.....	57
5.2.	Mintaqaviy rivojlanish omillari va indikatorlari.....	76
VI BOB.	MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	
6.1.	Mintaqaviy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishni xorij tajribasi.....	90
6.2.	Mamlakatimiz mintaqalarining iqtisodiy salohiyatini baholash.....	112
VII BOB.	HUDUDIY TAVOFUT VA NOTENGLIKLARNI BARTARAF ETISH	
7.1.	Mintaqaviy notengliklarning sabablari.....	120
7.2.	Hududiy strategik rivojlanish va boshqaruvni nomarkazlashtirish mexanizmlari hamda mahalliy boshqaruv organlarining o‘rni.....	123

VIII BOB.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA UNING MINTAQAVIY RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI	
8.1.	Mintaqalarda mehnat resruslaridan samarali foydalanish.....	137
8.2.	Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘rta va uzoq muddatli istiqbollari.....	151
IX BOB.	MAHALLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT	
9.1.	Mahalliy va mintaqaviy iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	161
9.2.	Mintaqaviy rivojlanishda iqtisodiy vositalardan foydalanish imkonoiyatlarini kengaytirish.....	165
X BOB.	MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISHNI TA‘MINLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	
10.1.	O‘zbekistonda qabul qilingan davlat dasturlarining vazifalari va obyektlari.....	186
10.2.	O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy rivojlanishda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.....	192
10.3.	O‘zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanishining soliqqa tortish va moliyaviy dastaklarini takomillashtirish.....	210
XI BOB.	MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISHDA HUDUDIIY RAQOBATDOSHLIK USTUNLIKLARIDAN FOYDALANISH	
11.1.	Mintaqaviy boshqarishni nomarkazlashtirish sharoitida mintaqalar raqobatdoshliligini oshirish yo‘llari.....	223
11.2.	Mintaqalar iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirishda ixtisoslashuv darajasining ahamiyati.....	245
XII BOB	MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISHNI TA‘MINLASHDA KLASTER MEXANIZMINI AXAMIYATI	
12.1.	Mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishida klaster mexanizmining ahamiyati.....	259
12.2.	Agroklasterlarni rivojlantirish hududlarining eksport saloxiyatiga ta’siri.....	275
XIII BOB.	MINTAQALARNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	
13.1.	Axborot tizimlarini shakllantirish va uning hududiy rivojlanishga ta’siri.....	285
13.2.	Raqamli iqtisod infratuzilmasini rivojlantirish.....	292

XIV	“YASHIL IQTISOD” VA MINTAQANING STRATEGIK	
BOB.	RIVOJLANISHI	
14.1.	“Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirishining nazariy-metodologik jihatlarini.....	297
14.2.	Barqaror rivojlanishga erishishda qayta tiklanuvchi energetika rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari.....	301
XV	MINTAQADA INNOVATSION IQTISODNI	
BOB.	RIVOJLANISHI VA UNI STRATEGIK RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI	
15.1.	Xalqaro raqobatni o‘shirish sharoitida hududiy innovatsiya ekotizimlarini shakllanishi.....	321
15.2.	Hududlarda ilmiy g‘oyalarni tijoratlashtirishning xorij tajribasi.....	332
XVI	MINTAQALARNI STRATEGIK RIVOJLANISHIGA	
BOB	KOMPLEKS YONDASHUV VA HUDUDY MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	
16.1.	Raqobatbardosh bozorlarni rivojlantirish sharoitida mintaqalar iqtisodiyotining kompleks rivojlanish darajasi.....	351
XVII	MINTAQALAR IQTISODIYOTINING SALOHIYATI	
BOB.	VA UNING BARQAROR RIVOJLANISH BILAN BOG‘LIQLIGI	
17.1.	Hududlar iqtisodiy salohiyatining baholash usullari va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	374
17.2.	Hududiy mehnat resurslarini prognoz qilish va rejalashtirish..	384
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	393

KIRISH

Mamlakatda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar jarayonida iqtisodiyotni markazdan boshqarish darajasidan hududiy va tarmoq darajasida boshqarishga bosqichma-bosqich o'tkazish, hududlarda tegishli dasturlarni amalga oshirish, hududiy organlar huquqlarini kengaytirish, ularning maqom va mas'uliyatini oshirish birinchi navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar jadal davom ettirilmoqda. Biz birinchi marta kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy qarorimizni ochiq e'lon qildik. Bunga tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, investitsiya va biznes muhitini yaxshilash hamda zamonaviy infratuzilmani barpo etish, odamlarni yangi kasbhunarlarga o'rgatish va aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali erishmoqdamiz".¹

So'nggi paytlarda mintaqalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish faollashdi, bu birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlar sifatida o'rganishda namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati uzoq vaqt davomida asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash jarayonlariga davlat ta'siri siyosati bo'lib kelganligi tasodif emas. Faol mintaqaviy siyosatni olib boradigan ushbu davlatlar rivojlanmagan hududlarni rivojlantirish, depressiya qilingan sanoat maydonlarini qayta qurish, aglomeratsiyalarni nomarkazlashtirish va sanoat ishlab chiqarish konsentrat-siyasi ustidagi maydonlar, klasterlarni shakllantirish va boshqalar bilan ajralib turadi.

Tobora chuqurlashtirilayotgan islohotlar davomida masalaga shu nuqtai nazardan yondashilib, hududiy ko'p ukladli iqtisodiyotni boshqarishning shakllanishi va rivojlanishini baholash shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy darajalarda hududiy dasturlarni ishlab chiqish bosqichida ham, ularni amalga oshirishda ham bir qator kamchiliklar mavjud. Ular asosan aniq tadbirlarni ishlab chiqish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ilg'or shakllari va usullarini tatbiq qilishning uslubiy negizini qayta ko'rib chiqishni taqozo

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи.

etmoqda. Shuningdek, hududlar va hududlar darajasida istiqbol uchun ishlab chiqilgan aniq maqsadli dasturlar, ularni amalga oshirish usullari va mexanizmlari to'la shakllanmagan. Bu, o'z navbatida, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishiga, aholi turmush darajasini oshirishga, ishlab chiqarish va xususan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlanishga erishishda ko'p jihatdan mamlakat ichki mintaqalari taraqqiyotiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi davrda ishlab chiqarishni to'g'ri mintaqaviy tashkil qilish, mintaqalarning yer-suv, mineral xomashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

So'nggi paytlarda mintaqalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish faollashdi, bu birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlar sifatida o'rganishda namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati uzoq vaqt davomida asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash jarayonlariga davlat ta'siri siyosati bo'lib kelganligi tasodif emas. Faol mintaqaviy siyosatni olib boradigan ushbu davlatlar rivojlanmagan hududlarni rivojlantirish, depressiya qilingan sanoat maydonlarini qayta qurish, aglomeratsiyalarni nomarkazlashtirish va sanoat ishlab chiqarish maydonlari, klasterlarni shakllantirish va boshqalar bilan ajralib turadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yana da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-sonli "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida hamda 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5614-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respub-

likasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida” PQ-4702-sonli Qarori va boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalar ushbu qo‘llanmada o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” dasturida mamlakatimizda yuz bergan ijobiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda hududlarni iqtisodiy tarraqiyotiga alohida e’tibor berilishi kerakligi ta’kidlangan.

Ushbu darslik Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi bilan hamkorlikda yaratilgan (i.f.d., prof. A Usmonov, i.f.d., prof. Z Adilova, i.f.n., dots. A. Abduvaliev, i.f.n. Sh. Akramova, i.f.n. L. Xazratkulova, Sh. Zokirov, D. Mirzarayimov va boshqalar.).

I BOB. MINTAQAVIY RIVOJLANISH STRATEGIYASISI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli.

1.2. «Mintaqa» tushunchasi, mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli va ahamiyati.

1.3. Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi XX asrning 80-yillari o‘rtasida shakllangan va iqtisodiyotning fundamental asoslaridan biri hisoblanadi hamda hozirgi koronavirus pandemiyasi sharoitida bu masalalar tobora dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev, 10-noyabr kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining videoanjumanida “...pandemiya salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida ShHTning savdo-iqtisodiy hamkorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish bo‘yicha uzoq muddatli hujjatlarini qabul qilish orqali savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni kuchaytirish” masalalari taklif etildi.

Tadqiqot natijalari respublikamizda barcha tarmoq va hududlarda hali ishga solinmagan zaxiralar va imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Tabiiy va moliyaviy resurs imkoniyatlari cheklangan bo‘lishiga qaramasdan iqtisodiy o‘shishga erishgan aksariyat xorij mamlakatlar tajribasi ham ularda aynan ichki zaxiralardan unumli foydalanilganini ko‘rish mumkin.

Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda mavjud zaxira va imkoniyatlarini safarbar qilish strategiyasining qo‘llanilishi asosan tashqi muhitga bog‘liqlikni pasaytirish va jahon bozorlaridagi beqarorlik sharoitida amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda mavjud imkoniyatlardan foydalanish va ichki zaxiralarni safarbar qilishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq qilishning dolzarbligi quyidagilar bilan asoslanadi:

– qiyosiy tahlil milliy iqtisodiyotda foydalanilmayotgan imkoniyatlar hamda dastlabki tadqiqotlar qo‘shimcha zaxiralar mavjudligini ko‘rsatdi;

– moliya-bank tizimini rivojlantirishning metodologik asoslarini o‘rganish iqtisodiy o‘sish va moliyaviy xizmatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash zarurligini belgilab berdi;

– iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning me‘yoriy ko‘rsatkichlar tizimini ilmiy asoslash zarurligi aniqlandi;

– ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirish maqsadida ortiqcha xomashyoga ega hududlarni aniqlash va qo‘shimcha quvvatlarni baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini o‘rganish kerakligi aniqlandi;

– raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hisobiga milliy iqtisodiyotni raqabatbardoshligini oshirish yo‘llari aniqlandi;

– aholini ish bilan ta‘minlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mehnat resurslarini shakllantirish va taqsimlashning ilmiy-nazariy usullarini takomillashtirish kerakligini ko‘rsatdi.

Shu munosabat bilan mazkur hisobot doirasida olib boriladigan tadqiqotlarning maqsadi mavjud imkoniyatlarni aniqlash usullarini ilmiy asoslash va ichki zaxiralarni safarbar qilish mexanizmlarining nazariy asoslarini takomillashtirish asosida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun 2020-yilga quyidagi vazifalar qo‘yilgan: ichki zaxira va imkoniyatlarni safarbar qilish strategiyasining ilmiy asoslarini tadqiq qilish, funksional tahlil - davlat boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha takliflarni tayyorlash, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarining o‘rganish, investitsiya strategiyalaridan maqsadli foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish, budget-soliq va pul-kredit siyosati strategiyasini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish, samarali makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish maqsadida “xarajat-natija” jadvali ishlab chiqish, O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetining daromadlar va xarajatlar qismi ijrosini tahlil qilish, O‘zbekistonda ichki zaxira va imkoniyatlarni safarbar qilishda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning ahamiyati tadqiqotlari asosida raqamli iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va roli ochib berish; fond bozori investitsion salohiyatini tadqiq qilish asosida, fond bozoriga aholi pul mablag‘larini institutsional investorlar orqali jalb qilishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish; fan va ta‘lim sohasida raqamli

marketingni rivojlantirishning konseptual asoslarini o‘rganish, Oliy ta’lim tizimida innovatsion menejmentni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish takliflarini ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mehnat bozorini sifatli kadrlar bilan ta’minlash muammolarini o‘rganish yoshlar bandligi darajasi va uni boshqarish mexanizmlarining zamonaviy holatini tahlil qilish; ichki zaxira va imkoniyatlarni safarbar qilishda hududlarning eksport salohiyatini tadqiq qilish asosida hududlarni raqobat ustunliklarini amalga oshirishga marketing yondashuvi metodologiyasini ishlab chiqish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va qayta ishlash sohasini ist’emol bozorlarini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar berish, meva-sabzavot mahsulotlari turlarini kengaytirishga uslubiy yondashuvlar ishlab chiqish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini turlarini kengaytirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar va tavsiyalar berish, hududiy darajadagi tarkibiy o‘zgarishlarga raqamli iqtisodiyotning ta’sirini ochib berish.

Mintaqaviy iqtisodiy strategiyaning shakllantirishning nazariy asoslari va uning davlat tarafidan tartibga solish mexanizmlaridan foydalanishning xorij tajribasi, xususan, O‘zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Ushbu munosabatdan mazkur hisobot doirasida olib boriladigan tadqiqotlarning maqsadi mintaqaviy boshqarishni nomarkazlashtirish sharoitida iqtisodiy siyosatni shakllantirish yo‘llarini o‘rganish; O‘zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanishining soliqqa tortish va moliyaviy dastaklarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish; O‘zbekiston Respublikasi hududlariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini va investitsion muhitni takomillashtirish yo‘llarini taklif etish; O‘zbekiston hududlariga investitsiya resurslarini faol jalb qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish; hududiy agrosanoat majmuasida innovatsion jarayonlarni tashkil qilishning klaster mexanizmini o‘rganish; hududlarning innovatsion salohiyatini baholash uslubiyotini ishlab chiqish; xalqaro raqobatni o‘shirish sharoitida hududiy innovatsiya ekotizimlarni shakllantirish takliflarini ishlab chiqish; hududlar absorpsion salohiyatini oshirish orqali investitsiya muhitini yaxshilashning istiqbollarni o‘rganish; O‘zbekiston Respublikasida budjet bilan ta’minlanganlik bo‘yicha ichki mintaqaviy differentsiatsiya tahlilini amalga oshirish; budjetlararo munosabatlar

tizimi samaradorligini baholashda xorij tajribasini o‘rganish; O‘zbekiston Respublikasida budjetlararo transfertlar tizimini optimallashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etish; O‘zbekiston hudularini iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy dastaklarini va soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish takliflarini ishlab chiqish; eksportning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning metodologik asoslarini takomillashtirish takliflarini ishlab chiqish; hududning eksport salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish takliflarini ishlab chiqish; hududlarning eksport salohiyatini oshirishning amaliy chora-tadbirlarini taklif etish; raqamli iqtisodiyotning hududlar tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishdagi rolini ochib berish; hududlar brendini shakllantirishning xorij tajribasini o‘rganish; hududlar brendini shakllantirish va mintaqaviy rivojlanishning marketing vositalarini hisobga olgan holda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligini oshirish takliflarini ishlab chiqish; hududlarda klaster yondashuvi asosida ilmiy g‘oyalarni tijoratlashirishning xorijiy tajribasini o‘rganish; hududiy oliy ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klaster yondashuv: maqsadli dasturlash mexanizmining o‘rni va ahamiyatini ochib berish; maqsadli dasturlash mintaqalar iqtisodiyoti rivojlanishini tartibga solish vositasi sifatida tahlil qilish; demografik prognozlashtirish hududlar rivojlanishini strategik rivojlantirish vositasi sifatida o‘rganish; demografik prognozlarni hisobga olgan holda hududiy mehnat bozorlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.

1.2. «Mintaqa» tushunchasi, mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli va ahamiyati

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fanining predmeti mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvini, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, muhim tabiiy-iqtisodiy, demografik va ekologik xususiyatlarini hamda ularning hudud ichidagi, hududlararo va davlatlararo iqtisodiy aloqalarini o‘rganadi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, Mintaqaviy rivojlanish fanining asosiy vazifasi ijtimoiy ishlab chiqarishning hududiy jihatlarini o‘rganishdan iborat.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasini fan sifatida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlari

va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etadi; mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo‘nalishlarini belgilaydi; hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalarni o‘rganadi. Bundan tashqari, Mintaqaviy rivojlanish ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o‘rganadi. Zero, har bir hudud iqtisodiyoti, eng avvalo, mamlakat yagona xo‘jalik majmuasining tarkibiy qismidir.

Shu bilan birga, mazkur fan mamlakat va hududlarning tabiiy resurs salohiyatini, mamlakatning jahon xo‘jaligi tizimidagi o‘rni, aholi, mehnat resurslari va hozirgi demografik muammolarni o‘rganadi; bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat va hududlarning iqtisodiy darajasini tahlil qiladi hamda ishlab chiqarish kuchlarining asosiy omillarini aniqlaydi. **Mintaqa** – mamlakat yagona xalq xo‘jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o‘zaro munosabati tufayli hosil bo‘lgan yaxlit birlikdir.

Hozirgi paytda tubdan o‘zgarib borayotgan O‘zbekistonning zamonaviy xo‘jalik majmuasi murakkab tarmoqlar tizimini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida elektrotexnika va elektronika, metallurgiya, mikrobiologiya va kimyo sanoati tarmoqlarida ko‘plab yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda qishloq xo‘jaligi hamda bu soha mahsulotlarini qayta ishlash va xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari bo‘lib qolmoqda.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasini ijtimoiy fan hisoblanadi. U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o‘rganadi. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasini iqtisod nazariyasi, sotsiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

“Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” va “Iqtisodiy geografiya” fanlari olib borayotgan ilmiy tadqiqotlarning maqsadlari o‘zaro o‘xshash.

Amaliy jihatdan ular iqtisodiyot hududiy tuzilmasini takomillash-tirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish masalalari bilan shug‘ullanadilar. Lekin tadqiqot uslublari va yo‘nalishlari bo‘yicha tafovutlar mavjud. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimiga tayanadi, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash usullarini keng qo‘llaydi, ishlab chiqarishni joylashtirishning iqtisodiy boshqarish mexanizmini o‘rganadi.

Shuning uchun Mintaqaviy rivojlanishda ko‘pgina iqtisodiy omillarni (mehnat unumdorligi o‘sishi, milliy daromadni hududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baho va tariflarning hududiy tafovutlari va h.k.) chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy usulblardan foydalaniladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

Tizimli tahlil. Ushbu uslub bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi (maqsad qo‘yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxmini bayon etish, tarmoqlarni joylashtirish xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish); u tarmoqlar tuzilmasi, ularning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish imkonini beradigan ilmiy bilish uslubidir.

Tizimlash uslubi. U o‘rganilayotgan hodisalarni alohida belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda tasniflash, turlash, umumlashtirish va boshqa usullar qo‘llaniladi. Balans uslubida iqtisodiy tahlillar tarmoq va hududiy balanslar yordamida tushuntiriladi. **Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi** o‘z navbatida yana 3 tarkibiy qismdan iborat: hududiy usul (ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashtirish va rivolantirish yo‘llarini mintaqaviy darajada o‘rganish); tarmoq uslubi (tarmoqlar iqtisodiyotini geografik jihatdan tadqiq etish); mahalliy uslub (ishlab chiqarishni uning birinchi bo‘g‘ini – alohida shahar, aholi punkti darajasida joylashtirish va rivojlantirishni o‘rganish).

Kartografik uslub. Ushbu uslub ishlab chiqarish xususiyatlarini ko‘rgazmali aks ettirish imkonini beradi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish (mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining hududiy mutanosibliklarini modellashtirish, mintaqa xo‘jaligini tarmoqlar bo‘yicha modellashtirish, mintaqa xo‘jalik majmualarining shakllanishini modellashtirish).

Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan hududni unga bo‘ysunuvchi iyerarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar – iyerarxik pog‘onaning quyi bosqichlarini egallab turgan ma‘muriy-hududiy birliklar hisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaharlar.

Ijtimoiy so‘rovlar uslubi. Ular juda xilma-xil: standart holda intervyu; alohida tarmoq vakillari bilan yakka tartibda suhbat, olimlar, mutaxassislar va mintaqalar rahbar xodimlarining ochiq chiqishlari bo‘yicha dalillarning tahlili va b.q.

Shunday qilib, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o‘rganish nihoyatda ko‘plab usul va vositalarga tayanadi. Ulardan mintaqashunos mutaxassislar o‘zlarining ish jarayonlarida, shu bilan birga, talabalar va aspirantlar kurs, diplom ishlari va dissertatsiyalarini yozish davomida foydalanishlari mumkin.

1.3. Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘tishi munosabati bilan Mintaqaviy rivojlanish strategiyasisi fanining ahamiyati ortib bormoqda. Mintaqalarni o‘rganishda hozirgi paytda ularda ro‘y berayotgan holatni chuqur (qaysi jihatlari ortayotganini) tushunish lozim. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida O‘zbekistondagi har bir mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha. Masalan, Toshkent shahri, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari asosiy xalq xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishiga ko‘ra respublikaning boshqa mintaqalaridan oldinda turadi. Aksincha, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha quyi o‘rinlarni egallaydi.

Qishloq xo‘jaligida ortiqcha ishchi kuchlari mavjudligi – Farg‘ona vodiysi viloyatlari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa, aksincha, qishloq xo‘jaligini xodimlar bilan ta‘minlash jiddiy muammo bo‘lib turibdi. Navoiy viloyatida ishsizlik darajasi yuqori.

Hozirgi vaqtdagi mintaqaviy siyosatning muhim vazifalaridan yana biri iqtisodiy kooperatsiya va mintaqalararo hududiy mehnat taqsimotini takomillashtirishdan iborat. Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri turli hududlar aholisining turmush darajasi bo'yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o'rganadi. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasini iqtisod nazariyasi, sotsiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo'jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o'rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo'nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Tayanch so'zlar: mintaq, milliy iqtisodiyot, rivojlangan obyekt, iqtisodiyot, mutaxassislar, tamoyil, usullar, predmet, bog'liqlik.

Nazorat savollari:

1. «Mintaqa» tushunchasi deganda nima nazarda tutiladi?
2. Mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli nimadan iborat?
3. Mintaqaviy rivojlanish fanining o'rganish obyektiga nimalar kiradi?
4. Iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarni tayorlashdagi roli nimadan iborat?
5. Mintaqaviy rivojlanish fanining asosiy tamoyillari nimadan iborat?
6. Mintaqaviy rivojlanish fanining asosiy usullari nimadan iborat?
- 7.. Fanning predmeti nima bilan ifodalanadi?
8. Mintaqaviy rivojlanish fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi nima bilan ifodalanadi?

II BOB. GLOBALASHUV JARAYONIDA MINTAQAVIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINING MUHIMLILIGI

2.1. Mamlakat mintaqaviy rivojlanish strategiyasining eng muhim yo‘nalishlari

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotlarni o‘zaro bog‘liqligi kuchaymoqda, jahon bozorlarida raqobat kuchaymoqda va moliyaviy-iqtisodiy beqarorlik mavjud barcha zaxira va imkoniyatlardan foydalanish va milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish yo‘llarini izlashga undamoqda.

Mamlakat mintaqaviy rivojlanish strategiyasining eng muhim yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi: iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishga yo‘naltirilgan faol investitsiya siyosatini amalga oshirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar doirasida ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani, shuningdek, xususiy sektorni rivojlantirish.

O‘tgan davrda milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha qilingan ishlarga qaramay, investitsion faollikni oshirish borasida mintaqalarda hamon jiddiy kamchiliklar va muammolar mavjud, chunonchi:

– xorijiy investorlar va mahalliy tadbirkorlar bilan uchrashuvlar davomida ta‘kidlanishicha, qonunchilik barqaror emas, amaldagi normativlarga muntazam qo‘shimcha va tuzatishlar kiritilmoqda, xorijiy va mahalliy investorlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan qarama-qarshi qoidalar mavjud. Bunda xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash haqida «Investitsiyalar va investitsion faoliyat to‘g‘risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish va joriy qilish bo‘yicha vazifa hali bajarilmagan;

– kredit olish investitsiya faoliyatiga mablag‘lar kiritayotgan tadbirkorlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi;

– investitsiyalar jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar, jumladan, mintaqaviy investitsion va biznes-forumlar va turli konferensiyalar ko‘pincha yuzaki xarakterga ega.

Samarali raqobat muhitini yaratish, tovarlar va xizmatlar bozorlarida monopoliyalarni kamaytirish, davlat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish va davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni olib tashlash, «agar xalq boy bo‘lsa, davlat boy va kuchli bo‘ladi» tamoyilini amalga oshirish.

Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning Davlat reestrda 90 turdagi tovarlar, ishlar va xizmatlar bo‘yicha 94 ta xo‘jalik yurituvchi subyekt mavjud, ya’ni 2018-yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 14 ta xo‘jalik yurituvchi subyektga qisqargan (o‘tgan yilning xuddi shu davrida 107 turdagi tovarlar, ishlar va xizmatlar bo‘yicha 104 ta xo‘jalik yurituvchi subyekt mavjud bo‘lgan). Raqobat muhitini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishda hali muammolar mavjud. Misol uchun, 25 hokimiyatdagi inventarizatsiya natijalariga ko‘ra, «Raqobat to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi birinchi qismining uchinchi va sakkizinchi xatboshilari buzilishining 65 holati, xususan, xo‘jalik yurituvchi subyektga shartnomalarni ustuvor tuzish, alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati uchun imtiyozli yoki diskriminatsion shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish nuqtai nazaridan ochib berildi.

Moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni va raqobatni tahlil qilishga juda kam e‘tibor berilmoqda. O‘zbekiston kredit bozorida berilgan kreditlarning 89%i banklar tomonidan davlat ulushi ishtirokidagi banklar tomonidan taqdim etilgan. Bundan tashqari, ularning 69,3%i to‘rtta yirik davlat banki (Milliy bank, «O‘zsanoatqurilishbank», «Asaka bank», «Ipoteka bank») tomonidan taqdim etilgan. Davlatning kredit bozorida mavjudligi ham ichki, ham tarmoqlararo raqobatning rivojlanishiga imkon bermaydi.

Bundan tashqari, tijorat banklari kredit berish uchun shartlari, xususan, % stavkalari bo‘yicha ham juda o‘xshash. Markaziy Bank qayta moliyalash stavkasi yuqori belgilangan, shu sababli kreditlash stavkalari 30% darajasida. Shunday qilib, O‘zbekistonda bank bozorida raqobatning yo‘qligi sababli ularning tanlash huquqini cheklovchi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yomonlashtiruvchi kredit shartlari iste’molchilariga keng ko‘lamda tanlov o‘tkazmaslik tendensiyasi kuzatilmoqda.

Moliya bozori segmentlari o'rtasidagi raqobat holatining tahlili shuni ko'rsatdiki, qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi holatida ham kredit bozoriga nisbatan raqobatchi bo'la olmaydi.

Sug'urta bozorining tahlili mintaqaviy kesimda raqobat yo'qligini ko'rsatadi. Hududlarda ancha monopollashgan bozorlar mavjud bo'lib, ularda davlat sug'urta kompaniyalari bo'lgan «O'zagrosug'urta» AJ va «O'zbekinvest» EIMSK kabi yetakchilar katta ulushga ega.

Asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ichki bozorda makroiqtisodiy muvozanat va narx barqarorligini ta'minlash. 2020-yilda iqtisodiy o'sish asosiy drayverlari.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida INI hisoblash uchun uchta yirik guruhga bo'lingan 350 ta nomdagi iste'mol tovarlari va xizmatlari to'plamidan foydalaniladi: oziq-ovqat mahsulotlari (96 nom), nooziq-ovqat mahsulotlari (188 nom) va xizmatlardan (66 nom) iborat iste'mol tovarlari va xizmatlardan foydalanadi.

2017-yil o'rtacha oylik INI o'sishi 1,1% darajasida yuzaga keldi. 2017-yilning sentabr-dekabr oylarida iste'mol sektorida umumiy inflatsiya ko'rsatkichi 7,6%ni tashkil qildi. 2018-yil o'rtacha oylik INI o'sishi 1,1% bo'lgan holda 2018-yil 1-sentabrdan iqtisodiyotga inflatsiyaning bosimi kuchaydi. Xususan, yilning faqat so'nggi to'rt oyida tovar va xizmatlar uchun iste'mol narxlari o'sishi 7,6% ni tashkil qildi. 2019-yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol bozorida tovar va xizmatlar 5,6% ga qimmatlashdi. 2018 yilning iyuniga nisbatan respublika iste'mol sektorida o'rtacha narx darajasi 13,6 % ga oshdi.

2019-yil respublika iste'mol sektorida inflatsiya 14,4%ni tashkil qildi. Oziq-ovqat mahsulotlari 15,9%, nooziq-ovqat mahsulotlari – 16,1%, xizmatlar – 8,6%ga qimmatlashdi.

Inflyatsion jarayonlarning quyidagi asosiy omillarini ajratib ko'rsatish mumkin: devalvatsiya va milliy valutani erkinlashtirish bo'yicha olib borilayotgan siyosat inflatsiya sur'atining tezlashuviga olib keldi hamda tovar va xizmatlar narxlarining umumiy o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Yiriklashtirilgan guruhlar kesimida oylik iste'mol narxlari indekslarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, nooziq-ovqat mahsulotlari uchun xizmatlar va narxlar tariflarining o'zgarishi barqaror o'sish

tendensiyasi bilan ajralib turdi (ushbu guruhlar uchun INI avvalgi oyga nisbatan har oyda 100,0% yuqori edi).

Nooziq-ovqat mahsulotlar uchun iste'mol narxlari indeksi o'sishi ta'siri bo'yicha yetakchilik qurilish materiallari (INI ta'siri 0,8 p.p.), kiyim-bosh (0,8 p.p.), transport vositalari uchun yoqilg'i (0,6 p.p.), ko'mir (0,5 p.p.) va poyabzal (0,3 p.p.) mahsulotlariga tegishli. Ushbu mahsulot guruhlari uchun narxlarning umumiy o'sishi iste'mol narxlari indeksini yillik hisobda 3.0 p.p. ga o'sishini ta'minladi.

Mamlakat aholisi uchun xizmatlar narxlari va tariflari yiliga o'rtacha 8-9% o'sib bordi. Bu sohada aloqa xizmatlari tariflari – 23,9%, yuridik va bank xizmatlari – 15,0%, maishiy xizmatlar – 8,3%, uy-joy kommunal xizmatlar – 7,1%, yo'lovchi transport xizmatlari – 6,9% ga oshgani asosiy inflatsiya omillari bo'ldi.

Umuman olganda, xizmatlar uchun iste'mol narxlari indeksi kommunal sohada tartibga solinadigan tariflarning o'sishi, yo'lovchi transportida yo'l haqining oshirish, dam olishni tashkil qilish bo'yicha xizmatlar, ta'lim xizmatlari, sport, aloqa, shuningdek, maishiy xizmatlar xarajatlarining oshishi ta'siri ostida shakllandi.

Ikkinchidan, iqtisodiyot tarkibini yanada diversifikatsiya qilish va, birinchi navbatda, mineral xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini va ishlab chiqarishning energiya sarfini pasaytirish, mahalliyashtirish darajasini chuqurlashtirish va importga qaramligini kamaytirish bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish.

O'zbekiston mineral resurslar va qimmatbaho metallarga, jumladan, oltin, mis, qo'rg'oshin, molibden, kumush, volfram va ruxga boy. Mis, uran va oltin boshqalardan ko'proq qazib olinadi. O'zbekistonda yer ostida 100 ga yaqin mineral xomashyo turini o'z ichiga oladigan 2700 dan ortiq turli foydali qazilmalar konlari mavjud². O'zbekiston hududining atigi 20%i o'rganilgan bo'lib, yangi konlarni aniqlash uchun ulkan salohiyat mavjud. Mutaxassislarning fikricha, respublika foydali qazilma boyliklarining yer qa'ridagi foydali qazilma salohiyati qiymati 5,7 trln. AQSH dollarga teng bo'lib,

²<http://kommersant.uz/hedropolzovanie-v-uzbekistane-rasshirenie-vozmozhnostej-dlya-investirovaniya/>

ulardan 1 trln. AQSH dollardan ortig‘i allaqachon o‘rganilgan zaxiralar va tayyorlangan konlar qiymatidir³.

Foydali qazilma konlari yer qa‘ridan foydalanuvchilar aniqlangan zahoti foydalanish uchun taqdim etiladi, natijada davlat budjeti foydali qazilmalar soliqlaridan daromad oladi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Hozirgi kunda mineral xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, mavjud kimyo sanoati ishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, tayyor eksportga yo‘naltirilgan kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va kengaytirish maqsadida 2017-2021-yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish Dasturi qabul qilingan. Dastur doirasida 4,7 mlrd. AQSH dollar miqdoridagi 40 dan ortiq investitsion loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ushbu dastur 3 ming kishi uchun yangi ish o‘rinlari yaratishga imkon berishi kutilmoqda⁴.

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyoti dunyodagi eng ko‘p energiya sarflaydigan mamlakatlardan biri sanaladi. Misol uchun, mamlakat YaIMning energiya zichligi qo‘shni Qozog‘istonga nisbatan 35% va Germaniyaga nisbatan uch barobar ko‘pdir. Mamlakatda iste‘mol qilinadigan barcha energiyaning 40% ga yaqini ishlab chiqarish jarayonida ko‘pincha eskirgan texnologiyalardan foydalanadigan sanoat sohasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston hukumati 2030-yilga borib iqtisodiyotning energiya sig‘imini qariyb 50 ga kamaytirishni maqsad qilgan⁵. Shu maqsadda iqtisodiyotning asosiy energiya talab qiluvchi tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat dasturlari yo‘lga qo‘yilmoqda. Eskirgan uskunalar va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Energiya samaradorligi asbob-uskunalarini ekspluatatsiya qilish va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlarni kamaytirish, unumdorlikni oshirish, shuningdek, energiyaning kamroq sarflash hisobiga mablag‘larni tejashga xizmat qiladi.

³<https://kun.uz/ru/news/2018/07/20/zapasy-poleznyh-iskopaemyh-v-nedrah-uzbekistana-ocenili-v-57-trln>

⁴<https://www.uzdaily.uz/ru/post/38553>

⁵<https://podrobno.uz/cat/economic/uzbekistan-poluchil-200-millionov-dollarov-na-povyshenie-energoeffektivnosti-predpriyatiy-/>

Tashqi iqtisodiy faoliyatda:

Birinchidan, yaqin va uzoq xorij mamlakatlari, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan iqtisodiy va investitsion hamkorlikni kengaytirish.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikning asosiy yo'nalishlari savdo, investitsion va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish, yuqori texnologiyalarni uzatish, fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash va madaniyat sohasidagi hamkorlik hamda mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashdan iborat. Bunda Yevropaning yetakchi mamlakatlari, xususan, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama aloqalarni yanada yuqori bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratiladi.

MDH davlatlari orasida asosiy tashqi savdo hamkorlari Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston hisoblanadi, ularning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 28,5%ni tashkil etadi, boshqa mamlakatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSH va Italiya asosiy hamkorlar bo'lib, ularning umumiy tashqi savdo aylanmadagi ulushi 41,9%ni tashkil etadi. Respublika rezidentlarining tashqi savdo operatsiyalari asosan Osiyo (umumiy tovar aylanmasining 47,4%), Yevropa (42,7%) va Ameika (2,3%) mamlakatlari bilan amalga oshirilib, ularning umumiy tovar aylanmasidagi ulushi 92,4% ni tashkil etadi.

Ikkinchidan, xorijiy mamlakatlar bilan, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan savdo hamkorligini kengaytirish, transport yo'laklari va logistika yo'llarini rivojlantirish orqali mamlakatning tashqi bozorlardagi mavqeini mustahkamlash. O'zbekiston ham qo'shnilari singari to'g'ridan to'g'ri dengizga chiqish imkoniga ega bo'lmasa-da, u Markaziy Osiyo qalbida strategik o'rin egallab, mintaqaning barcha davlatlari bilan chegaradoshdir. Bundan tashqari, Respublika Markaziy Osiyoda ehtimol, eng rivojlangan transport infratuzilmasiga ega.

O'zbekiston umumiy uzunligi 5800 km bo'lib, shundan 4300 km umumiy foydalanishda bo'lgan yaxshi rivojlangan temiryo'l tizimiga ega. Temiryo'l tarmog'ining zichligi 1000 km² ga 12,9 km yo'l bo'lib,

buni bemalol Turkiya (15,6 km) va Norvegiya (12,9 km) bilan taqqoslash mumkin.

Ichki yuk tashishning (shu jumladan, truboprovodlar) taxminan 34%i, eksport va import umumiy hajmining deyarli 80%i temir yo'llarga to'g'ri keladi. Mamlakat temiryo'l infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilishda davom etmoqda. 2017-yilda Urganch–Xiva (400 km) va Qarshi–Kitob (122 km) liniyalari qurilishi boshlandi. Temiryo'l liniyalari O'zbekistonni barcha qo'shni davlatlar bilan bog'lab, Rossiya va Xitoyga yaqinlikni ta'minlaydi. Termiz–Hayraton (O'zbekiston) va Mozori-Sharifni (Afg'oniston) bir-biri bilan bog'lovchi liniya ham qurilgan bo'lib, hozirda «O'zbekiston temiryo'llari» temiryo'l operatori tomonidan xizmat ko'rsatilmoqda.

Tranzit salohiyatini yanada oshirish uchun 2017-yil Xitoy, Qirg'iziston va O'zbekiston Sharqiy Osiyoni Turkmaniston, Eron va Turkiya orqali yoki 2017-oktabirda ochilgan yuqori tezlikdagi Boku-Tblisi-Kars orqali bog'laydigan, O'zbekistondan Qirg'iziston orqali Xitoyga olib boradigan yangi temir yo'l qurilishi haqida bitim imzoladilar. Sobiq SSSR respublikalari va boshqa mamlakatlarda temiryo'l izlari o'rtasidagi farqqa qaramasdan, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temiryo'li Xitoy va Yevropa o'rtasida transport vositasida tashish vaqtini 7-8 kunga qisqartiradi. Temiryo'l qurilishini 2018-yil boshlash rejalashtirilgan edi, biroq loyiha hanuzgacha muhokama bosqichida qolib ketmoqda. Ushbu yo'l Xitoyning dengiz portlariga eng qisqa va arzon yo'lni ochib, O'zbekistonning transport nuqtai nazaridan ochiqlovchi ancha oshirgan bo'lardi. Avtomobil yo'li uzunligi 184 000 km, shundan 42 000 km umumiy foydalanishdagi katta avtomagistrallarga to'g'ri keladi. 2018-yilning fevralida avtotransport va temiryo'llar uchun tranzi tartib-taomillari soddalashtirildi, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston yo'lagi bo'ylab yuk transporti harakati boshlandi. 950 km uzunlikdagi yo'nalish yuk mashinalarining yo'ldagi vaqtini 8 kundan 2 kungacha qisqartirib, bir tonna yuk xarajatlarini 200-300 dollarga pasaytirishga imkon beradi. Turkmaniston bilan transport aloqalari Amudaryoda yo'l va temiryo'l ko'priklari ochilganidan keyin, Tojikiston bilan esa yangi temiryo'l liniyasi va transport vositalari uchun to'qqizta chegara punkti ochilganidan so'ng sezilarli darajada yaxshilandi.

“2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da “makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash” ko‘zda tutilgan.

“Barqaror rivojlanish” – bu YaIMning miqdoriy va sifat jihatidan o‘shirish, qayta tiklanadigan tabiiy, ishlab chiqarish va mehnat omillari bilan ta‘minlangan rivojlanishdir. Shu bilan birga, rivojlanishning barqarorligi vaqt davrlarida – rivojlanishning joriy, o‘rta va uzoq muddatli davrlarida ko‘rib chiqilishi kerak. Hozirgi davrda yuqori iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlash vazifasidan kelib chiqib, YaIM o‘shirishning yuqori sur‘atlari bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli istiqbollari hisobga olib, uning barqaror rivojlanishini ta‘minlagan holda, YaIM o‘shirish sur‘atlari asosan intensiv iqtisodiy o‘shirish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ya‘ni asosan intensiv rivojlanish omillari (TFP) asosida shakllantirilishi kerak.

O‘zbekistonda 2016-yilgacha bo‘lgan so‘nggi o‘n yil ichida yalpi ichki mahsulotning o‘shirish sur‘ati yiliga 7-8%ni tashkil etdi. Ushbu o‘shirish sur‘atlarining uzoq vaqt davomida saqlanib turishi iqtisodiyotning o‘rta va ayniqsa uzoq muddatli istiqbolda rivojlanishini ta‘minlashda ma‘lum bir xavf tug‘diradi, chunki yuqori o‘shirish sur‘atlari asosan qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarning, ayniqsa energiya resurslarining katta hajmlarini qo‘shimcha jalb qilish hisobiga ta‘minlandi.

Shu sababli, barqaror rivojlanish talablaridan kelib chiqib, faqatgina yoki hech bo‘lmaganda, asosan intensiv o‘shirish omillari hisobiga iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlash zarur.

Barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlari orasida ularning deyarli yarmi u yoki bu tarzda to‘g‘ridan to‘g‘ri aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Bular: qashshoqlikni har qanday shakllarini keng masshtabda bartaraf etish; ocharchilikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish; har qanday yoshda sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash va farovonlikni oshirish; umumqamrovli va adolatli, sifatli ta‘limni ta‘minlash hamda

barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish; gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish; samarali bandlikni oshirish va hamma uchun munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish; shahar va qishloqlarning ochiq-ligi, xavfsizligi, yashash uchun qulayligi va barqarorligini ta'minlash kabi maqsadlardir.

Iqtisodiy va ijtimoiy muammolar orasida eng ahamiyatli va mavjud bo'lgani – bu shahar va qishloq o'rtasidagi farqni bartaraf etishning umumiy muammosidagi maqsadli vazifa hisoblangan shahar va qishloq aholisining turmush darajasini tenglashtirishdir.

Shahar va qishloq o'rtasidagi farqlar, ularni bartaraf etishning umumiy qonuniyatlariga ega bo'lib, ayrim mintaqalarda mintaqaviy xususiyatlarga qarab har xil darajada namoyon bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ularni yengib o'tish yo'nalishlari va muddatlariga ta'sir qiladi.

Shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish vazifasi qishloq aholisining ulushi nisbatan yuqori, aholining yuqori tabiiy o'sishi, ayniqsa qishloq mehnat resurslari va qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining notekis taqsimlanishi hamda qishloq xo'jaligining yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi nisbatan yuqori bo'lgan hududlarda nisbatan keng masshtabli va murakkab hisoblanadi.

Mintaqaviy rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tabiiy-iqlimiy va boshqa xususiyatlari shahar va qishloq o'rtasidagi farqlarni bartaraf etish jarayonining turli jihatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas va bu muammoning mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish dolzarbligini sezilarli darajada oshiradi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, shahar va qishloq o'rtasidagi farqlarning umumiy muammosida shahar va qishloq aholisining turmush darajasini tenglashtirish ko'rilar ekan, iqtisodiy jarayonlarni bevosita ishlab chiqarish bosqichida tahlil qilish, sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi iqtisodiy farqlarning haqiqiy darajasini va ushbu tarmoqlarda ishchilar daromadlarini aniqlash, ularning taqsimlash va iste'mol sohalaridagi shakllari zarurati aniqlanadi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda zamonaviy shahar va qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, ularning rivojlanish istiqbol-lari, shahar va qishloq o'rtasidagi farqlarning mazmuni va tuzilishi muammolari, iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yo'llari,

ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitdagi o'zgarishlarning mohiyati va mazmuni, ularning shahar va qishloq o'rtasidagi farqlarni bartaraf etishdagi o'rni va roli, qishloq aholisining ijtimoiy rivojlanishi, oilaviy munosabatlar va boshqalar keng o'rganilmoqda va ochib berilmoqda.

Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, shahar va qishloqlar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etish muammosini o'rganishda ba'zi muammolar hal qilinmagan va bahsli bo'lib qolmoqda.

Ko'pgina asarlarda ushbu muammoni o'rganayotganda u yetarli darajada izchil emas, bizning fikrimizcha, u yoki bu masalalarni yechishda siyosiy iqtisod bo'yicha jihatlar saqlanib qolmoqda. Shahar va qishloq o'rtasidagi farqlarni bartaraf etish muammosida mulk shakllaridagi farqlarning roli to'g'risida savol tug'iladi.

Bu kabi savollar muhokama markazida qolmoqda:

Bir tomondan qarama-qarshi va boshqa tomondan shahar va qishloq orasidagi mavjud farqlar o'rtasidagi munosabatni haqli ravishda ko'rish mumkinmi?

Shahar va qishloqlar o'rtasidagi farqlarni umumiy majmuasini yengib o'tish mumkinmi?

Bizning fikrimizcha, quyidagi muammoli savol yetarlicha aniqlik kiritilmaganligicha qolmoqda: shahar va qishloqlar o'rtasidagi farqlarning iqtisodiy asoslari nimada? Shahar va qishloqlar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etishning haqiqatan ham ilmiy asoslangan usullarini topish aynan shu masalaning yechimiga bog'liq.

Shahar va qishloqlar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etishning iqtisodiy asoslarini o'rganish, bizning fikrimizcha, sof mahsulot, zaruriy mahsulot va qo'shimcha mahsulot kabi ishlab chiqarishning chuqur jarayonlarini bevosita aks ettiradigan muhim toifalar bilan yetarli darajada bog'lanmasdan amalga oshirilmoqda.

Shahar va qishloqlar o'rtasidagi farqlarning umumiy ifodasi sanoat va qishloq xo'jaligida sof moddiy mahsulotning ishlab chiqarilishi va taqsimlanishi hisoblanib, ushbu farqlarning darajasini aniqlash uchun sof moddiy mahsulotning taqsimlovchi, ya'ni ishlab chiqarish jarayonining o'zida chinakam moddiy asosga ega tashqi shaklini taqqoslash zarur.

Sof moddiy mahsulot namoyon bo'lishining ijtimoiy shakllarini (ish haqi, foyda va boshqalarni) sanoat va qishloq xo'jaligining haqiqiy hissasi bilan taqqoslash murakkab jarayon hisoblanadi, ya'ni

ularning moddiy asoslari zaruriy va qo‘shimcha mahsulotlar bilan, uslubiy yondashuv sifatida, milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari o‘rtasida moddiy ne‘matlarni taqsimlashdagi nisbatlarni ularning mavjud darajasini baholash nuqtai nazaridan ham, kelajakda ushbu nisbatlarni optimallashtirish nuqtai nazaridan ham ilmiy asoslash darajasini oshirish imkonini beradi. Ushbu natijalar, shuningdek, sanoat va qishloq xo‘jaligiga zarur kapital qo‘yilmalarni aniqlash, ularning mahsulotlariga narxlarni belgilash, ijtimoiy tadbirlarga mablag‘lar va boshqalarni aniqlash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, shahar va qishloqlar, shahar va qishloq aholisi o‘rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni bartaraf qilish jarayonining tezlashishini ta‘minlab, xalq xo‘jaligi tarmoqlarida boshqaruvning iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish masalalarini amaliy hal qilish uchun chinakam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarishining obyektiv, ya‘ni yengib bo‘lmaydigan tabiiy, texnologik va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, shahar va qishloq aholisi o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni bartaraf etish faqat agrosanoat integratsiyasi asosida uning turli tashkiliy va iqtisodiy shakllarida (agrosanoat korxonalarini, klasterlar va boshqalar) mumkin bo‘ladi.

Ushbu konseptual vazifadan, o‘z navbatida, aholisi qishloq xo‘jaligi bilan ham, mavsumdan tashqari davrda sanoat mehnati bilan ham shug‘ullanishi kerak bo‘lgan shahar tipidagi aholi punktlari va kichik shaharlarni rivojlantirish yo‘nalishida odamlarni ko‘chirish tamoyillari va takomillashtirish vazifalari kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida (2019-yil 10-yanvar, PF-5623-sonli) quyidagilar ta‘kidlanadi: “Olib borilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida yirik strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bir qatorda shaharlar aholisi farovonligining o‘shishi va barqaror rivojlanishiga yetaklovchi omil sifatida urbanizatsiya jarayoni tegishli darajada hisobga olinmagan. Natijada so‘nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, shahar aholi punktlari soni esa atigi 1065 dan 1071 gacha ko‘paygan”.

Qishloq aholisi turmush darajasining o‘shishini tizimli va keng miqyosda ta‘minlash mumkin, ya‘ni agrosanoat integratsiyasining

ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish va shu asosda tumanlardan boshlab qishloq joylarini rivojlantirish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish (ichki va tashqi) hamda investitsiyalardan oqilona va samarali foydalanish, qishloq joylarini, shu jumladan ijtimoiy infratuzilmani boshqarish tizimini takomillashtirish. Shu maqsadda quyidagi kontseptual yo‘nalishlar taklif etiladi.

Tayanch so‘zlar: globallashtirish, xalqaro raqobat, dunyo bozori, mintaqaviy rivojlanish, strategiya, eksport, xalqaro savdo, iqtisodiy o‘rnatish, investitsiya, o‘rnatish sur‘ati.

Nazorat savollari

1. Globallashtirish tushunchasiga qanday izoh berasiz?
2. Xalqaro raqobat nimadan iborat?
3. Milliy iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalashuvi nimalarni o‘z ichiga oladi?
4. Globallashtirish va mintaqaviy rivojlanishning bog‘liqligi nimada?
5. Mintaqaning eksportga yo‘naltirilgan siyosati nimadan iborat?
6. Xalqaro savdoni mintaqaviy rivojlanish strategiyasidagi o‘rni nima bilan ifodalanadi?
7. Iqtisodiy o‘rnatish sur‘atlariga qaysi omillar ta‘sir ko‘rsatadi?

III BOB. MINTAQAVIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI

3.1. Mintaqalar rivojlanishini tartibga solishning maqsadi va vositalari.

3.2. Davlat boshqaruv tizimida funksional tahlil va samarali makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish.

Davlat hududiy siyosatining asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

– mamlakatda hududiy siyosatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish;

– hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan qat’i nazar, yagona minimal ijtimoiy standartlar va teng ijtimoiy himoyani ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash;

– hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tenglashtirish;

– atrof-muhit ifloslanishini to’xtatish hamda uning ifloslanishi oqibatlarini yo’qotish, hududlarni kompleks ekologik himoya qilish;

– o’ta muhim strategik ahamiyatga ega hududlarni ustuvor rivojlantirish;

– hududlarning tabiiy iqlim xususiyatlaridan to’liq foydalanish;

– o’zini o’zi boshqarishni kafolatlanishini ta’minlash.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda hududiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mintaqalarda ko’p ukladli iqtisodiyot, shu jumladan, kichik tadbirkorlikni shakllantirish, tovar, mehnat va kapitalning umumdavlat va hududiy bozorlari hamda institutsional va bozor infratuzilmasi shakllanishiga ko’maklashish; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonidagi katta farqlarni kamaytirish, ularda aholi farovonligini oshirishning o’z iqtisodiy bazalarini mustahkamlovchi sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish; hududlar iqtisodiy tuzilmasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o’zini oqlaydigan darajasiga erishish, bozor sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirish; hududlararo infratuzilmaviy tizimlarni (transport, aloqa axborot va boshqalar) rivojlantirish; ekologik va favqulodda holatlarga

uchragan, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan, demografik va migratsion muammolar mavjud hududlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish.

Hududiy o'sish nazariyalarini ko'rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o'sish modelarini qo'llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o'sishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o'xshatish mumkin (development economics). Ikkinchisi esa, alohida korxonalar va firmalarning xatti-harakatlarini tahlil etishga asoslangan. Chunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatiga belgilab beradi. Kompaniyalar o'z faoliyatini u yoki bu hududda olib borishlarining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali ko'rib chiqiladi.

Tahlil etilayotgan nazariyalarni ishlab chiqish bilan ham iqtisodiy geografiya mutaxassislari, ham iqtisodchilar shug'ullanishgan. Chunki iqtisodiy geografiya bilan hududiy iqtisodiyot o'rtasida aniq chegara o'rnatishning iloji yo'q. Hududiy nazariyalar sohasida Rossiya iqtisodchilari va geograflari tomonidan ham katta tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular asosan G'arb olimlari fikrlarini rivojlantirganlar. Bu borada ayniqsa, universitet rayon maktabining ijtimoiy va iqtisodiy geografiya vakillari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganlar. N.N. Baranskiy, N.N. Kolosovskiy, I.A. Viti, Yu.G. Saushkin kabi olimlar ushbu yo'nalishni mustahkamlashga katta hissa qo'shganlar.

Klassik standart nazariyalar 1920-yillarda A. Predel va T. Palander tomonidan tanqid qilinadi. A. Predel muvaffaqiyatli joylashtirish joylarini ko'rsatib o'tgan (ya'ni optimal joylashtirish joyini matematik aniqlash imkoniyatini inkor etgan). T. Palander maxsus (turli xil tarmoqdagi korxonalar uchun) va umumiy standart nazariyalarini taklif etdi. Joylashtirish nazariyalari rivojlanishi yangi bosqichining (taxminan XX asr o'rtalarida boshlangan) ko'zga ko'ringan vakillari Avgust Lesh va Devid Smit hisoblanadi. Ularning nazariyalari yangi yoki neoklassik standartlar bilan ataladi (bu yerda «neoklassik» tushunchasining neoklassik iqtisodiyot nazariyasiga aloqasi yo'q).

Joylashtirishning dinamik nazariyalari, yuqorida aytib o'tilganidek, XX asrning birinchi yarmida vujudga keldi. Birinchi sodda dinamik konsepsiya sifatida X. Xotelling modelini aytish mumkin. U 1920-yillardagi ishida o'zaro raqobatlashadigan ikkita ishlab chiqaruvchi korxonani optimal joylashtirishni isbotlab bergan.

Dinamik nazariyalarda statik nazariyalardan farqli ravishda ko‘proq ko‘p zavodli kompaniyalar ko‘rib chiqiladi. R.Vernoning mahsulot ishlab chiqarish davri konsepsiyasini garchi, u mintaqaviy nazariya doirasidan chetga chiqib ketgan bo‘lsa ham, joylashtirishning dinamik nazariyasi deb hisoblash mumkin (1960-yillarda paydo bo‘lgan).

Hududiy o‘shish nazariyalari tahlilini boshlashdan oldin, u bilan bog‘liq ikkita masalani ko‘rib chiqish zarur. Birinchisi – «o‘shish» va «rivojlanish» kategoriyalarining nisbatlari, ikkinchisi – o‘shish muammolari ko‘rib chiqiladigan mintaqalar chegaralarini aniqlash. «O‘shish» va «rivojlanish» mezonlarining o‘zaro nisbatlarini aniqlashga keladigan bo‘lsak, davlat tomonidan tartibga solishning umume’tirof etilgan asosiy maqsadi oddiy o‘shish emas, balki rivojlanish hisoblanadi. Bu haqda P. Samuelson shunday degan edi: «ishlab chiqarishning faqatgina oddiy miqdoriy o‘shishiga intilish kerak emas (hatto aholi jon boshiga ham). U bilan birga jamiyatning hamma ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi ichki rivojlanishiga erishish zarur». (Keyinchalik esa ko‘pincha olimlar shu narsani ta’kidlashdiki, nazoratsiz miqdoriy o‘shish butun insoniyatga xavf solishi mumkin. Chunki u ekologik, energetik, xomashyo va boshqa global muammolarni tug‘diradi.

Richardson modeli asosida neoklassik modeldagi kabi vazifa yotadi. U o‘shish sur‘atlari bilan kapital jamg‘arish sur‘atlari, mehnat taklifining ko‘payishi va texnika taraqqiyoti tezligi o‘rtasidagi aloqalarni aks ettiradi. Dj. Fridmanning fikriga ko‘ra, iqtisodiy o‘shish ko‘proq shaharlarda yuz beradi (biroq olimlar, urbanistlar faqatgina ustunliklarni emas, balki yirik shaharlarning kamchiliklarini ham aytib o‘tadilar).

Fridman «markaz-pereferiya» nazariyasining klassigi hisoblanadi. U mamlakatda o‘shish markazlari (ular «yadro»lar deb ataladi) shakllanishining to‘rt bosqichini ajratadi:

– atrofidagi hududlarga kam ta’sir ko‘rsatuvchi lokal yadrolarning mavjudligi;

– keng pereferiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi va o‘shish qutblarini shakllantiruvchi eng kuchli yadroning paydo bo‘lishi;

– o‘shish qutblarida potentrik tuzilma shakllanishiga olib keluvchi yana ko‘pgina yadrolarning rivojlanishi;

– yadrolarning baqquvat pereferiyaga ega urbanistik poliareal tuzilmaga aylanishi;

– chekka (pereferiya) hududlarning (rivojlanish markazi va ulardan tashqarida bo‘lgan) rivojlanishini tasvirlashda Dj. Fridman, T. Xegerstrand va boshqa qator olimlar taklif etgan «yangiliklar diffuziya»si sxemasidan foydalaniladi.

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalarining «pionerlari» S.Dennison va A. Lesh hisoblanadi. Ular rivojlanishni tartibga solishda o‘zaro tubdan farq qiluvchi ikkita konseptual yondashuvga asos solishgan. S.Dennisonni «faol qayta quruvchilarga» kiritish mumkin, A.Leshni esa, yuqorida qayd etib o‘tilganidek «adaptorlar»ga. S.Dennison urushdan oldingi Buyuk Britaniya uchun jiddiy muammo bo‘lgan depressiv hududlarni tartibga solishni ko‘rib chiqqan. U asosiy e‘tiborini sanoat investitsiyalari geografiyasiga bevosita usullar yordamida ta’sir etishga qaratgan. Bu usullar sanoatga yangi kapital qo‘yilmalarini joylashtirish ustidan markazlashgan nazoratni o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘lgan.

3.2. Davlat boshqaruv tizimida funksional tahlil va samarali makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”⁶gi Farmoniga muvofiq 2017-yilda boshlangan ma‘muriy islohotlarni haqli ravishda mamlakat mustaqilligi yillarida eng shijoatli va keng ko‘lamdagi amalga oshirilgan ish deb aytish mumkin. Uslubiy asos – bu butunlay yangi, samarali va sifatli ishlaydigan davlat boshqaruv tizimini yaratish, davlat boshqaruvi organlari (DBO) va mahalliy ijro hokimiyati (MIH)ning muvofiqlashtirilgan faoliyatini tashkil etish g‘oyasidir.

Davlat boshqaruvining samarali modeliga o‘tishni jadallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁷gi Farmonida vazirliklar va idoralarning kamida 10 ta funksiyasini davlat

⁶Указ Президента Республики Узбекистан от 8 сентября 2017 года № УП-5185 «Об утверждении концепции административной реформы в Республике Узбекистан», <https://lex.uz/docs/3331176>.

⁷Указ Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2020 года № УП-5997 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности органов и учреждений юстиции в реализации государственной правовой политики», <https://lex.uz/docs/4820075>.

boshqaruv tizimining funksional tahlili (FT) bilan nodavlat sektorga o'tkazish nazarda tutilgan. Amalga oshirilgan funksiyalar samaradorligi bo'yicha 2018–2019-yillarda shakllangan (qayta o'zgartirilgan) 8 ta vazirlik va idoralar faoliyatini o'rganish rejalashtirilgan. Adliya vazirligiga olib borilayotgan ma'muriy islohotlarning samaradorligi va natijadorligi hamda vazirliklar va idoralar tomonidan funksional tahlilning to'liq va sifatli bajarilishini nazorat qilish vakolati va funksiyalarni topshirildi.

Ma'muriy islohotlarda ko'zda tutilgan bunday keng qamrovli maqsadga muvofiq o'zgartirish, ortiqcha va bir-birini takrorlaydigan funksiyalarni yo'q qilish uchun mahalliy ijro hokimiyati funksiyalarini inventarizatsiya va tahlil qilish talabining yuzaga kelishi mantiqan to'g'ridir. Mahalliy ijro hokimiyati barcha funksiyalarining ro'yxatini aniqlash, ularni ortiqchalik va zarurat bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur. Rejalashtirilgan chora-tadbirlar ko'lami funksional tahlilni o'tkazish usulini yaratishni yanada dolzarb o'ringa ko'taradi. Ushbu texnikani ishlab chiqish va tahlilni amalga oshirishning o'zi ilmiy muassasalar, biznes va jamoat tashkilotlarining ko'plab mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro amaliyotni o'rganish bilan bog'liq.

Funksional tahlil ma'muriy islohotlarni amalga oshirish usuli sifatida xalqaro amaliyotda keng qo'llanila boshlandi.

Federal hukumatning funksiyalarini inventarizatsiya qilish to'g'risidagi qonun qabul qilingan Amerika Qo'shma Shtatlarida har yili davlatga tegishli bo'lmagan, xususiy kompaniyalar tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan funksiyalar belgilanadi. Xuddi shu qonun asosida manfaatdor shaxs ro'yxatda ko'rsatilgan funktsiyani bajarish uchun 30 kalendar kuni ichida so'rov yuborishi mumkin. Shu munosabat bilan Oq uy ma'muriyati har yili federal agentliklarning takliflari asosida ausorsing orqali raqobat muhitiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan funksiyalar ro'yxatini shakllantiradi.

Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiyada davlat funksiyalari ichki qoidalar, standartlar, nazorat va jamoaviy mulk javobgarligini hisobga olgan holda, tadbirkorlik va kasbiy faoliyat subyektlarini birlashtirgan o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilotlarga o'tkaziladi.

Bolgariya va Sloveniyada doimiy funksional tahlil tizimi ma'muriyat to'g'risidagi qonunga kiritilgan.

Qozog‘istonda Milliy iqtisodiyot vazirligi 2016-yilda davlat idoralarini funksional tahlil qilish uslubiyotini joriy qildi, bu shuningdek raqobat muhitiga o‘tkaziladigan davlat funksiyalari ro‘yxatini aniqlashga imkon beradi.

Rossiya, Ukraina, Latviya, Moldova, Qirg‘iziston funksional tahlilni amalga oshirishda muvaffaqiyatli tajribaga ega.

Funksional tahlil – funksiyalarni takomillashtirish yoki davlat boshqaruvi tizimini tashkil qilishdagi tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishning zarur bosqichidir⁸ (1-jadval).

. Funksional tahlil davrida quyidagilar aniqlandi: funksiyalar ro‘yxati, tarkibi va yozilishi; funksiya bajarilishining me‘yoriy-huquqiy asoslari va tartibga solinishi; funksiya natijasi va sifati hamda uning iste‘molchisi.

Funksional tahlil davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini quyidagi funksiyalar parametrlariga muvofiq belgilaydi: davlat idorasining ortiqcha va g‘ayrioddiy funksiyalari mavjudligi; takrorlanish, parallelizm va funksiyalarning aniq chegaralanmaganligi; funksiyalarni bajarish samaradorligi; boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimining shaffofligi; ma‘muriy protseduralarning murakkabligi; aholi va biznes uchun davlat xizmatlarining mavjudligi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati bilan bog‘liq biznes yuritishda to‘siqlar.

Funksional tahlil protsedurasini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

- axborot to‘plami;
- hujjatlarni tahlil qilish: Davlat organi to‘g‘risidagi nizom (davlat organining turi, davlat hokimiyati organlari tizimidagi o‘rni, iyerarxiya darajalari, tarkibiy bo‘linmalar soni va ularning bo‘ysunishi, davlat organining vazifalari va funksiyalari);
- hujjatlarni taqqoslash (nomuvofiqliklar tahlil qilinadi, tushuntirishlar kiritiladi);
- funksiyalarni tahlil qilishda sotsiologik usullardan foydalanish (shaxsiy va guruh suhbatlari, guruh ishlari).

⁸ Типовая методика экспресс-анализа функций органов исполнительной власти и местного самоуправления. –М.: ГУВШЭ, 2002 г.

Funksional tahlilning turlari va bosqichlari⁹

FT bosqichlari	Yo‘nalish	Vazifa
I bosqich – Gorizontal funksional tahlil	MIHning ushbu funksiyasi, uning sifati va samaradorli- gini baholamasdan, prinsi- pial ravishda bajarilishi kerakmi? MIHning ortiqcha va takrorlanuvchi funktsiyalarini aniqlash.	1-blok: Ijro etuvchi hokimiyat funktsiyalarini taqsimlash. 2-blok: Vazifalarni tahlil qilish. 3-blok: Funksiyalarning ortiqcha va takroriyiligini aniqlash.
II bosqich – Vertikal funksional tahlil	MIH funksiyalarining samaradorligi va sifatini oshirishni uning prinsipial jihatdan maqbulligi va qabul qilinishini baholamasdan qanday ta‘minlash mumkin? Tashkiliy o‘zgarishlar va MIHning ma‘muriy jarayonlarini tartibga solishga o‘tish.	– natijalarga asoslangan boshqaruv; – davlat xizmatlari standartlarini amalga oshirish; – Ma‘muriy reglamentni amalga oshirish; – mIHdagi tashkiliy o‘zgarishlar; – funksiyalarni optimallashtirish; – axborot ta‘minoti tizimini modernizatsiya qilish.

– ma‘muriy islohotni amalga oshirishda funksional tahlildan foydalanish quyidagilarga yordam beradi:

– vazifalarni (funktsiyalarni, vakolatlarni) konkretlashtirish, ularni amalga oshirish mexanizmlari va MIHning javobgarlik sohalari, muvofiqlashtirish va o‘zaro ta‘sir o‘tkazish jarayonlarini takomillashtirish;

– iqtisodiy sohalarga ma‘muriy ta‘sirni kamaytirish va bozorning boshqaruv mexanizmlarini kengaytirish;

– vertikal boshqarish tizimi va MIHning o‘zaro ta‘sir mexanizmlarini takomillashtirish;

– strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllarini, innovatsion g‘oyalarni davlat boshqaruvi tizimiga joriy etish, professional davlat

⁹Муаллиф ишланмаси.

xizmatining samarali tizimini shakllantirish, MIH tizimida korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni joriy etish.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi birinchi navbatda iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta‘minlash bilan bog‘liq iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim vazifalarini belgilab beradi. Iqtisodiy siyosatning vazifalari xususiy sektorning rolini oshirishga, muvozanat almashinuv kursini saqlashga, soliq yukini kamaytirishga, narxlarni erkinlashtirishga, mavjud narx nomutanosibligini bartaraf etishga va inflatsiyani jilovlashga, tashqi qiyinchiliklar va tahdidlarning oqibatlarini yumshatishga, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga va boshqalarga qaratilgan.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining strategik ustuvor yo‘nalishlarida qo‘yilgan muammolarni hal etish qo‘llanilayotgan makroiqtisodiy tahlil va bashorat qilish usullariga hamda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijalarini baholashga yangi talablarni qo‘yadi.

Strategiyani tanlashni asoslash uchun makroiqtisodiy modellashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosiga bog‘liqligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Makroiqtisodiy modellashtirish islohotlarning Yo‘l xaritasida belgilangan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin:

1) hukumat va Markaziy bankning inflatsiyani pasaytirish va narxlar barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shma harakatlari konsepsiyasini ishlab chiqish;

2) sifatni yaxshilash, makroiqtisodiy ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish tizimini takomillashtirish dasturini ishlab chiqish o‘z navbatida quyidagilarni nazarda tutadi:

– makroiqtisodiy ma‘lumotlarni yig‘ish va nashr etish jarayonini tezlashtirish;

– iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat statistika qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi, shuningdek, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi o‘rtasida tizimli axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish va makroiqtisodiy siyosat choralarni birgalikda ishlab chiqish;

-markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan statistika tizimlaridan foydalangan holda xalqaro standartlarga javob beradigan statistik ma'lumotlarni yig'ish va o'tkazish, qayta ishlash va nashr etishning zamonaviy tizimini shakllantirish.

3) O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, unda quyidagilar ko'zda tutilgan: makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash; iqtisodiy tarmoqlarning raqobatbardoshligini, investitsiya va eksport salohiyatini oshirish; tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilish uchun qulay sharoitlar yaratish; daromad darajasi yuqori bo'lgan dunyo mamlakatlari guruhiga qo'shilish, mehnat bozoridagi keskinlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlarini ko'paytirish va kam daromadli aholi qatlamini kamaytirish;

4) Fiskal siyosat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish;

5) Davlat xarajatlari samaradorligi va hisobdorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish.

Ushbu farmonda quyidagilar zarurligi ta'kidlangan:

– xalqaro miqyosda tasdiqlangan axborot tizimlari va makroiqtisodiy tahlilning kompyuter modellarini joriy etish;

– o'rta muddatli makroiqtisodiy tahlil (shu jumladan, soliq, soliq va qarzdorlik) va prognozlash uchun yangi vositalarni ishlab chiqish.

Iqtisodiy siyosat tadbirlarini sifatli baholashga imkon beradigan va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ishonchli vositalarni yaratishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish orqali barqaror rivojlanish bo'yicha asoslangan qarorlarni qabul qilish uchun ishonchli asos yaratish zarur. Ishonchli vositalarni yaratish makroiqtisodiy muhit va uning muvozanatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan rivojlanish omillari (ko'rsatkichlari) va siyosat vositalari o'rtasidagi murakkab aloqalarni o'rganish bilan bog'liq.

Xalqaro tajriba ko'rsatib turibdiki, bu borada xarajatlar ishlab chiqarish modeli, SAM (social accounting matrix model) modeli va umumiy muvozanat modeli CGE (computable general equilibrium model)¹⁰ asosida modellarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

¹⁰ Input-Output Tables, Social Accounting Matrices, and Multipliers. Ch. 10 in book «Quantitative Development Policy Analysis. The Jon's Hopkins University Press.1995.

Makroiqtisodiy xarakterdagi muammolarni samarali hal qilishga imkon beradigan ko'p o'zgaruvchan ekonometrik tahlil usullaridan keng foydalanishning asoslari.

Iqtisodiy siyosat vositalarining samaradorligini baholash, makroiqtisodiy jarayonlarni har tomonlama tahlil qilish, shuningdek, O'zbekistonda qabul qilingan qarorlarni asoslashda iqtisodiy rivojlanishning ko'p o'zgaruvchan ssenariylarini tayyorlash bo'yicha ishlar 1995-yildan beri "xarajat-natija" jadvali (HN) asosida kichik o'lchamli statik modellarni qurish bilan boshlanib bormoqda. SAM modeli va indikatorlarning vaqt qatorini ko'p o'zgaruvchan ekonometrik tahliliga asoslangan boshqa modellar dinamikani o'zgartiradi.

Biroq, O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishda ma'muriy usullarning ustunligi, makroiqtisodiy siyosatning bozorga asoslangan vositalariga bo'lgan talabning zaifligi va yetishmasligi bilan bog'liq muammolar cheklangan statistik ma'lumotlar bilan bir qatorda ushbu modellarning amaliy qo'llanilishini uzoq muddatga qoldirdi.

Matritsalaridan foydalangan holda makroiqtisodiy modellarni yaratish bo'yicha tadqiqotlarni qayta ko'rib chiqish, O'zbekistonda o'z model vositalarini yaratish bo'yicha ijobiy tajribalarni aniqlash uchun zarurdir.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida makroiqtisodiy tendensiyalar va iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlarning oqibatlarini tahlil qilishning miqdoriy modellari makroiqtisodiy tahlil va prognozlash muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy modellarni ishlab chiqish va qo'llashning ikkita asosiy yo'nalishi – ekonometrik va tarmoqlararo modellashtirish (input-output model, social accounting matrix model) kuzatiladi, shu asosda makroiqtisodiy taxminlar va prognozlarning katta qismi ishlab chiqilgan.

Xarajatlar-ishlab chiqarish modeli (input-output model) muvozanatli matritsa shaklida iqtisodiyotning tuzilishini batafsilroq tahlil qilishni ta'minlaydi. Sohalararo bog'lanishning zichligini hisobga olgan holda, model iqtisodiy faoliyatning keng doirasi sharoitida mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarilishi va xarajatlari, oraliq va yakuniy talab, daromad olish bilan bog'liq qator muammolarni hal qilishga imkon beradi.

O'z navbatida, "Xarajat-natija" (input-output) modeli SAM asosida yanada takomillashtirilgan modelni ishlab chiqish uchun asos

yaratadi, bu esa “Xarajat-natija” modeli hamda matritsa tarkibidagi xususiy, jamoat, tashqi va boshqa iqtisodiy agentlarni o‘ziga xos imkoniyatlarini kengaytirish xizmat qiladi.

Shunday qilib, Hindistonda iqtisodiyotni modellashtirish bo‘yicha tadqiqotlar statik modellardan (input-output), optimallashtirish rejasining dinamik modellaridan va ekonometrik modellardan (computable general equilibrium (CGE) model) modeligacha bo‘lgan har xil turdagi modellar bo‘yicha bir necha yo‘nalishda olib borildi.

Bashoratlarni ishlab chiqish uchun Malayziya-Amerika qo‘shma YeEM modeli qiziqish uyg‘otmoqda, unga “input-output” jadvali, ekonometrik blok va milliy hisoblar tizimi kiradi. Model makroiqtisodiy dinamikaga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan talab va taklif, davlat va xususiy sektor, real va bank sektorlari, savdo va to‘lov balansi, global sektor, valuta kurslari va boshqa omillarni birlashtiradi. Model asosida fiskal siyosatning turli xil variantlari (soliq stavkalari va davlat xarajatlari o‘zgarishi oqibatlarini baholash), pul-kredit siyosati, valuta siyosati va makroiqtisodiy siyosatning boshqa ko‘plab jihatlari sinovdan o‘tkazilmoqda.

Makroiqtisodiy tadqiqotlar va mamlakat iqtisodiy rivojlanish dinamikasi va tuzilmasi prognozlari uchun tarmoqlararo balansning (“input - output”) ahamiyati va rolini hisobga olgan holda Rossiya Milliy hisoblar tizimi (MHT) metodologiyasi bo‘yicha mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va tarqatish uchun kirish-chiqish balansini ishlab chiqish bo‘yicha maxsus dastur qabul qildi va amalga oshirdi.

Sohalararo modelni yaratish natijalaridan biri Rossiya iqtisodiyotining mutanosib tarmoqlararo modelini RIM (Russian Interindustry Model)¹¹ ishlab chiqish edi. Unda iqtisodiyotning turli tarmoqlari holati, ishlab chiqarish imkoniyatlari va rivojlanish dinamikasi tavsiflanadi. Uning tarmoq tuzilishi 18 ta sektorli tarmoqlararo balansga asoslangan. Ushbu modelga asoslangan bashoratli hisob-kitoblarning natijalari Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirishning o‘rta muddatli ssenariylarini ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Rossiyada moliyaviy oqimlar matritsasi asosida iqtisodiyotning holati tahlili o‘tkaziladi¹², mintaqaviy iqtisodiyotga tashqi ta’sirlarni baholash va

¹¹ Узяков М.Н. «Проблемы построения межотраслевой модели равновесия российской экономики», Проблемы прогнозирования № 2, 2000 г.

¹² Ведев А. Изменения в экономике России в первый год рыночных реформ (Анализ на основе матрицы финансовых потоков). Вопросы экономики, 6,1996.

mintaqaviy mahsulot hajmi va tuzilishini aniqlash uchun SAMdan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar o'tkaziladi¹³.

Leontievning "input - output" modeli¹⁴ asosida Gruziya o'zining modelini qurdi. Model iqtisodiyotning 16 asosiy tarmoqlarida qurilgan bo'lib, ma'lum vaqt ichida turli xil loyihalar bo'yicha iqtisodiyotning rivojlanishini oldindan ko'rish va iqtisodiyotdagi muvozanatlarning oldini olish choralarini ko'rish imkonini beradi.

70-yillarning oxiridan boshlab "xarajat-natija" jadvaliga asoslangan SAM (social accounting matrix model) standart modeli Hindistonda har xil siyosat turlarini ishlab chiqishda ishlab chiqilgan va ishlatilgan muvozanat modellari uchun asos sifatida faol foydalanilmoqda, bu sanoat tarmoqlari va iqtisodiyot tarmoqlari o'zaro ta'sirni modellashtirishga imkon beradi¹⁵.

Dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida ijtimoiy hisob matritsasi modellarini (social accounting matrix model) yaratish bo'yicha tajriba mavjud. Masalan, AQSH va Niderlandiyada SAM makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining yillik balanslari shaklida qo'llaniladi. Ekvador va Marokashda ushbu model qishloq xo'jaligining boshqa sohalarga ta'sirini hisoblash uchun ishlatiladi. Hindiston va Vetnamning turli xil siyosatning YaIM, inflatsiya, savdo defitsiti va hukumat defitsiti kabi iqtisodiyotdagi asosiy makro o'zgaruvchilarga ta'sirini baholash uchun SAMdan foydalanish tajribasi alohida e'tiborga loyiqdir¹⁶.

Ko'p mamlakatlarda amalga oshirilgan SAMga asoslangan modelni ishlab chiqish va ularning tajribasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar uning O'zbekistonga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Modelning moslashuvi SAM ko'rsatkichlarini mavjud axborot-statistik bazaning xususiyatlarini hisobga olgan holda

¹³ Татаринов А., Лега Д. Опыт построения субрегиональных счетов. Вопросы статистики, 12, 1996.

¹⁴ Материалы международной конференции «Анализ макроэкономической политики и моделирование в экономиках Центральной Азии» / Economy of Georgia Yesterday, Today and Tomorrow. Analysis and Forecast According to the Input-Output Model / Sego Sanadze, Institute for Research of Economic and Social Problems, Tbilisi, Georgia.

¹⁵ Широкий обзор применения модели SAM в Индии представлен в книге ECONOMIC AND SOCIAL COMMISSION FOR ASIA AND THE PACIFIC / Modelling and simulation of macroeconomic systems: use of quantitative models for analyzing macroeconomic reform policies with applications to China, India and Viet Nam.

¹⁶ Social Accounting Matrix Based Macro models For Policy Analysis In Development Countries. UN, New York, 1995.

Modelling And Simulation Of Macroeconomic Systems: Use Of Quantitative Models For Analyzing Macroeconomic Reform Policies With Applications To China, India And Viet Nam. UN, New York, 1997.

baholash, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash usullarini aniqlashdan iborat edi.

O'zbekistonda 1996-yildan boshlab "xarajat-natija" jadvali asosida jahon amaliyotida ma'lum bo'lgan standart SAM (social accounting matrix SAM) modelini moslashtirish bo'yicha tadqiqotlar boshlandi, bu iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni modellashtirishga imkon beradi¹⁷. Minimal konfiguratsiyasida (3-sektor modeli) u pul-kredit va soliq-budjet siyosati parametrlariga nisbatan ishlab chiqarish hajmlarini, xususiyy iste'molni, aholi va uy xo'jaliklari tarmoqlarining daromadlari va xarajatlarini aniqlashga imkon beradigan 60 ta tenglamaga ega.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligini sub-sektorlarga ajratish, 1996 va 1997-yillar uchun dastlabki matritsa ma'lumotlarini milliy hisob-kitoblar bloklari, davlat daromadlari va xarajatlari, tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalar sharoitida tayyorlash orqali milliy iqtisodiyotning 5 ta sektori modeli ishlab chiqildi¹⁸.

Ushbu ishlanmalar 1995–1998-yillardagi ma'lumotlar asosida yanada mukammal SAM tuzilishini¹⁹ barpo etishga, modelning endogen va ekzogen o'zgaruvchilar tizimini aniqlashga, dastlabki ma'lumotlarni hisoblashning yangi usullari va manbalarini aniqlashga va koeffitsiyent bazasini takomillashtirishga imkon berdi. Modelning chiziqli tenglamalari tizimini shakllantirish va ularni yechish natijalarini bazaviy qiymatlarga muvofiqligini sinovdan o'tkazish modelning ishlash ko'rsatkichlarini baholashga yordam berdi. Ayrim parametrlarni o'zgartirish uchun turli xil ssenariylarning ishlab chiqilishi, ularning asosiy makroindikatorlarga ta'sirining sezgirligini baholash uchun eksperimental hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon berdi.

Ilgari O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar 2014-yildagi ma'lumotlar asosida ajralmas SAM tuzilishini barpo etishga, endogen va ekzogen model o'zgaruvchilar tizimini aniqlashga, dastlabki ma'lumotlarni hisoblash usullarini takomillashtirish va koeffitsiyent bazasini takomillashtirishga, modelning chiziqli tenglamalari tizimini shakllantirishga va ularni yechish natijalarini dastlabki qiymatlarga mos kelishiga asos yaratdi.

¹⁷ Построение макроэкономической модели для анализа политики переходного периода. Ташкент, 1998.

¹⁸ Построение 5-ти секторной макроэкономической модели SAM для Узбекистана. Ташкент, 1999.

¹⁹ Макроэкономический анализ и прогнозирование на 8-ми секторной модели SAM. Ташкент, 1999.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy islohotlarning yangi sharoitida O‘zbekiston uchun iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, ularni qurish uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish bilan “xarajat-natija” matritsasi va SAM asosida tarmoqlararo modellarni yaratish bo‘yicha izlanishlarni davom ettirish juda dolzarbdir.

Tayanch so‘zlar: konsepsiya, strategiya, evolyutsiya, hududiy rivojlanish, omillar, tabiiy sharoit, iqtisodiy salohiyat, shahar, qishloq, tuman.

Nazorat savollari

1. Mintaqaning rivojlanish strategiyasiga qanday izoh berasiz?
2. Xalqaro raqobatning zamonaviy xususiyatlari nimadan iborat?
3. Mintaqaviy iqtisodiyotni jahon bozoridagi o‘rni.
4. Globallashtirish va mintaqaviy rivojlanish strategiyasining bog‘liqligi nimada?
5. Mintaqaning rivojlanish strategiyasida tashqi aloqalar nimadan iborat?
6. Tabiiy resurslarning mintaqa rivojlanish strategiyasidagi o‘rni nima bilan ifodalanadi?
7. Funktsional tahlil va mintaqa rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning bog‘liqligi nimada?

IV BOB. MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISH TAMOYILLARI

4.1. O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy bo‘linishining tarixi va hozirgi holati.

4.2. Mintaqani rivojlantirish strategiyasini shakllantirish tendensiyalari va uning hozirgi holati.

Keyingi bir asr davomida mamlakatimizning geografik xaritasi tez-tez o‘zgarib turdi. 1917-yilda hozirgi O‘zbekiston hududi Turkiston general gubernatorligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasida taqsimlangan edi. 1924-yilda yuz bergan O‘rta Osiyoning milliy-hududiy taqsimlanishi natijasida O‘zbekiston SSR tashkil topdi. 1924–1929-yillar davomida Tojikiston ASSR uning tarkibida bo‘ldi. 1930-yilga qadar respublika poytaxti Samarqand shahrida joylashgan. 1936-yilda uning tarkibiga ilgari RSFSR da bo‘lgan Qoraqalpog‘iston ASSR kiritildi. 1939-yilda ushbu avtonom respublikaning poytaxti To‘rtko‘l shahridan Nukusga ko‘chirildi.

Viloyat bo‘linishlari O‘zbekistonda 1938-yil yanvaridan boshlab vujudga keldi. Dastlab 5 viloyat tashkil etildi: Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm. 1941-yil martida ular safiga Andijon, Namangan, Surxondaryo, 1943-yil yanvarida Qashqadaryo viloyatlari qo‘shildi. 1945-yilda O‘zbekistonda 9 viloyat va 1 avtonom respublika mavjud bo‘lgan.

Hozirgi paytda mamlakatimiz ma‘muriy jihatdan 14 mintaqaga (Toshkent shahri, 12 viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi) bo‘lingan. O‘z navbatida ushbu mintaqalarda 120 shahar, 113 shaharcha, 159 qishloq tumanlari, 1464 qishloq fuqarolik kengashlari 11838 qishloq aholi punktlari va 7801 mahalla yig‘inlari mavjud.

Hozirgi paytda respublikamizda 120 ta shahar mavjud. Shu jumladan:

- 1 ta respublikaga bo‘ysunuvchi shahar;
- 30 ta viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar;
- 89 ta tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar.

Respublikaga bo‘ysunuvchi shaharlar qatoriga yirik iqtisodiy, madaniy va ma‘muriy markazlar kiradi. Bunday shaharlarda yashagan aholi soni 500 mingdan ortiq bo‘lishi shart. Toshkent – respublikaga

bo'ysunuvchi shaharlar toifasiga mansub bo'lgan mamlakatimizdagi yagona shahar hisoblanadi.

Viloyatga, respublikaga (QR) bo'ysunuvchi shaharlar jumlasiga muhim sanoat ahamiyatiga molik iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan hamda aholisi 30 mingdan kam bo'lmagan shaharlar kiradi. Ba'zi sabablarga ko'ra, ya'ni sanoat va madaniy-siyosiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini hisobga olgan holda, ayrim shaharlar aholisi 30 mingdan kam bo'lsa ham viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga kiritiladi. Bular jumlasiga Shirin (Sirdaryo viloyati), Xonobod (Andijon viloyati) shaharlarini kiritish mumkin.

Ushbu toifaga mansub shaharlarni tashkil etish bo'yicha ayrim muammolar mavjud. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 30-sentabrdagi 459-sonli qaroriga binoan mamlakat bo'yicha viloyatlarga bo'ysunuvchi 19 ta shahar qoldirilib, qolganlari tumanga bo'ysunuvchi shaharlar toifasiga o'tkazildi. Ular orasida aholisining soni 60 ming kishidan ham ortiq bo'lgan Shahrixon (59,1 ming), Chust (61,5 ming), Xo'jayli (70 ming), Denov (64 ming) kabi shaharlarning mavjudligi bu sohada yangicha yondoshuvlar zarurligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, 90 ming kishi istiqomat qiladigan, Markaziy Osiyoning madaniy markazlaridan biri hisoblangan Shahrisabz shahri boshqaruvning huquqiy va iqtisodiy richaglardan mahrumligi uning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tez o'zgarib borayotgan dunyoda hayot voqeligi turmushning barcha sohalarini isloh qilishni taqozo etmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar bundan mustasno emas. Buning uchun qator me'yoriy hujjatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun hududiy darajada davlat hokimiyati shakllanishi, joylarda ijro hokimiyatining negizlarini mustahkamlashning asosiga aylandi.

Hududiy hokimiyat organlariga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish, joylarda Oliy majlis qonunlari, boshqa qarorlarini, Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

organlari o'rtasidagi aloqani yo'lga qo'yish, viloyat, tuman va shaharni boshqarishga aholini jalb etish yuklandi.

Hududiy boshqaruv organlari faoliyatini kompleks tahlil etishda davlat boshqaruvida hamon eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qoliplari saqlanib qolinayotganligi e'tirof etildi. Eng avvalo, bu hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish istagida – hech kimga naf keltirmaydigan va keraksiz turli-tuman buyruqlar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar, me'yoriy hujjatlar chiqarishda kuzatildi. Hanuzgacha korxonalarining xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan kadrlar masalasini hal etish va uni to'g'ridan to'g'ri boshqarishdan voz kechilgani yo'q.

Davlatimiz rahbari tomonidan ishlarning ahvoriga haqiqiy baho berildi: «... hozirgi kunda barcha darajada mavjud davlat, tarmoq va hududiy boshqaruv tizimi olib borilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar yo'lida katta to'siq bo'lib turibdi». Ma'muriy islohotlarni izchil davom ettirish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-iyul majlisidagi ma'ruzasida ifodalab berilgan. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-yanvardagi 2-qarori qabul qilinishi hududiy boshqaruv organlarini isloh qilishning muhim bosqichi hisoblanadi.

4.2. Mintaqani rivojlantirish strategiyasini shakllantirish tendensiyalari va uning hozirgi holati

Mamlakatimiz mintaqalarini iqtisodiyotni isloh qilish sharoitlariga moslashtirish zarurati strategiyalarni shakllantirishga nisbatan qiziqishning faollashuviga olib keldi, chunki rivojlanish istiqbollarni aniqlamasdan turib bozor sharoitida taktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishning iloji yo'q.

Jadal rivojlanayotgan hududlar ishlab chiqarayotgan mahsuloti, tovarlari, bozorlar, tarmoqlar bo'yicha va raqobat shart-sharoitlari, ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari, diversifikatsiya salohiyati, ishlovchilar tarkibi va imkoniyatlari xususiyatlariga ko'ra farqlanadilar.

Har bir hudud tez o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida bozorda samarali rivojlanishga yordam beradigan strategiyani ishlab chiqishi lozim. Hozirgi vaqtda o'zgarishlar tezligi shunchalik yuqoriki, ishlanmalarning an'anaviy usullari takomillashtirilishni talab qilmoq-

da. Hududga mavjud va kelgusi o'zgarishlarga moslashish imkonini beruvchi yanada moslashuvchan strategiyani shakllantirish imkoniyatini taqdim etuvchi usullar zarur.

Hudud xo'jalik faoliyatini tahlil etuvchilar "strategiya" tushunchasiga maxsus ta'rif berish zarurati mavjud bo'lmagan, umumiy tushuncha sifatida qarab, uni turlicha talqin etadilar.

Umuman olganda mazkur tushuncha uzoq davrga mo'ljallangan chora yoki yondashuvlarni ifodalash uchun qo'llanilib, ular strategiyani shakllantirish bo'yicha ilmiy maktablarning konseptual yo'nalishlarida o'z aksini topdi (1-jadval). Ko'pincha strategiya deb hudud tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatga aytiladi. U qarorlar qabul qilish qoidalarini emas, balki ehtimoliy qarorlar to'plamini o'zida namoyon etadi. 1-jadvalda strategiyalarni shakllantirish ayrim ilmiy maktablarining konseptual nuqtai nazarlar o'z aksini topgan. Masalan, I. Ansoff istiqbolli qarorlar turlarini axborotga ega bo'lish darajasiga qarab farqlashni taklif qiladi: doimiy ish dasturlari noaniqlik yoki qisman tavakkalchilik sharoitida, hudud iqtisodiy siyosatining turli xillari tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida, strategiya esa axborotning to'liqsizligi sharoitida amalga oshiriladi.

Yuqorida bayon etilganlar asosida quyidagi ifodani taklif etish mumkin: hududning strategiyasi uning faoliyatining va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bo'yicha, uning ichki va tashqi xatti-harakatini belgilab beruvchi, cheklangan ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish yo'li bilan oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan o'zaro uyg'unlashgan qarorlar va harakatlar yig'indisini o'zida namoyon etadi.

Strategiyaning maqsadi hududga yuqori darajadagi rentabellikni va o'zgarib turuvchi sharoitlarga o'z vaqtida moslashish, kelgusida ham qiymatni yaratish qobiliyatini ta'minlovchi uzoq muddatli raqobat ustunliklariga erishishdan iborat.

Mamlakatimiz hududlarida qo'llaniladigan zamonaviy strategiyalarni tadqiq etish ularning quyidagi asosiy belgilari va farqlarini ajratish imkonini berdi:

– strategiyani shakllantirishga nisbatan resursli yondashuvning ustunlik qilishi, ya'ni barqaror raqobat ustunligiga erishish uchun ayrim muhim imkoniyatlardan foydalanishga urinib ko'rish;

Strategiyalarni shakllantirish ilmiy maktablarining konseptual yo‘nalishlari²⁰

№	Maktab	Asosiy yo‘nalishlar
1.	Tadbirkorlik maktabi. Shumpeter Y., 1950.	Tadbirkorlik strategiyasi rivojlanishning moslashuvchan yo‘nalishini tanlashni nazarda tutadi
2.	Bilish maktabi. March D., Saymon G., 1960.	Strategiyani shakllantirish tashqi muhit va uning o‘z-garishlari haqida axborot olish usullarini nazarda tutuvchi bilish jarayoni hisoblanadi
3.	Strategik rejalashtirish maktabi. Ansoff I., 1965.	Rivojlanish maqsadi va vazifalarini qo‘yish, korxonaning, ichki va tashqi muhitning salohiyatini baholashni tashkil etish, strategiyani tanlash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish
4.	Pozitsiyalash maktabi. Druker P., Porter M., 1980.	Strategiyani shakllantirish jarayoni tahliliy hisob-kitoblar asosida bir muayyan pozitsiyani tanlash bo‘-lib, u tashkiliy tuzilmaga faol ta’sir ko‘rsatadi
5.	Tashqi muhit va marketing maktabi. Lamben J.J., Doyl P., 1996.	Tashqi muhit korxonaning tashkiliy tuzilmasini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Bozor segmentlarini izlash
6.	Biznes-jarayonlar reinjiningi maktabi. Robson M., Ullax F., 1997.	Korxonada faoliyatida tub o‘zgarishlarni izlash va joriy etish
7.	Bozorlarni o‘stirish maktabi. Tompson A., Striklend A., 1998.	Bozordagi raqobat pozitsiyalarini aniqlash
8.	O‘zgartirish maktabi. Chandler A., Minsberg G., 2001.	Strategiyani tanlash korxonada tashkiliy tuzilmasining o‘zgarishi bilan belgilanadi
9.	BSS maktabi (muvozanatlashgan ko‘rsatkichlar tizimi). Kaplan R., Norton D., 2003.	Strategik maqsadlar, ularni aks ettiruvchi parametrlar va prognoz qilinayotgan natijalarga ega bo‘lish omillari o‘rtasidagi sabab-oqibatli bog‘lanishlarga asoslangan

²⁰Манба: Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. – СПб.: Питер, 1999. – 413 с., Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. М.: Олимп, 2003, с.254., Ламбен Ж.Ж. Стратегический маркетинг. Пер. с франц. СПб.: Наука, 1996.-с.389, Минцберг Г., Альстренд Б., Школа стратегии. Пер. сангл.- СПб.: Питер, 2000.-с.336., А. Chandler Strategy and Structure. Cambridge. MITPRESS, 1962,p.365, Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 635 с., Друкер П. Задачи менеджмента в XXI веке. Перевод с англ. М.: Вильямс. 2000.- с.272, Томпсон А.А., Стрикленд А.Дж. Стратегический менеджмент. / Под ред. Л.Г. Зайцева, М.И. Соколовой. – М: Банки и биржи, ЮНИТИ, 2007. – 576 с., Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982.,

– biznes-operatsiyalarni amalga oshirishning noaniq muhiti, shu tufayli strategiyaning murakkabligi ortishiga qarab uni amalga oshirish samaradorligi keskin kamayadi; nomoddiy aktivlarning past likvidliligi;

– top-menejment tomonidan javobgarlikning hududni boshqarish quyi darajalariga topshirilishining past darajasi.

Zamonaviy strategiyalar ularda muayyan hududning ishlaydigan sharoitlarni muntazam hisobga olishga, ular oldida turgan vazifalarning anglab yetilishiga asoslanadi, bu rivojlanishning eng xilma-xil loyihalari paydo bo'lishiga ko'maklashadi. Mazkur loyihalar, o'z navbatida, o'sish strategiyasining hududning barqarorligini ta'minlovchi variantini tanlash imkonini beradi.

B. Karloffning fikriga ko'ra, BKG matritsasining asosiy muammosi soddalashtirish darajasining yuqoriligida²¹. Bizningcha, kompaniyalarning bozor ulushi va tarmoq bozorining o'sishi-renta-bellik va istiqbollilikning yagona mezonlari emas, deyata'kidlagan holda mazkur modelni tanqid ostiga olgan M. Porterning fikriga qo'shilish mumkin. M. Porterning fikriga ko'ra, barqaror raqobat ustunliklarini yaratish barcha strategiyalarining uchta namunaviy varianti mavjud:

- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- mahsulotni tabaqalash;
- bozorning muayyan segmentida to'planish.

Har bir namunaviy strategiya faqatgina nisbiy muvaffaqiyatni va'da qiladi, chunki nafaqat ustunliklarga ega, balki tavakkalchiliklarni ham o'z ichiga oladi²². «Namunaviy» strategik rejalashtirishning asosiy muammosi uzoq vaqt mobaynida vaziyatning o'zgarmasligiga umid qilish. Vaziyat to'satdan o'zgargan hollarda «tahlildan harakatga» tamoyili bo'yicha tuzilgan rasmiy sxemalar foydasiz bo'lib chiqadi.

60–70-yillarda Stenford universiteti bazasidagi tadqiqot ishi doirasida A. Xemfri (Albert Humphrey) tomonidan SWOT-tahlil metodikasi ishlab chiqilgan edi. Bugungi kunda g'oya keng tarqaldi va u ko'plab boshqa mualliflarning ishlarida bayon etilmoqda²³. SWOT-

²¹Карлофф Б. Деловая стратегия: Пер. с англ. – М.: Экономика 2002. – 167-168 с.

²²Портер М. Конкуренция: Пер. с англ.: Учебное пособие. – М.: Вильямс, 2006. – 191 с.


²³Дженстер П., Хасси Д. Анализ сильных и слабых сторон компании. Определение стратегических возможностей. – М.: Вильямс, 2004. – 504 с.

tahlil (korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlarini, imkoniyatlarini va tavakkalchiliklarini ko‘rib chiqish) kompaniyaning hozirgi va kelgusi holatini ma’lum kuchli va kuchsiz tomonlarga, shuningdek, tashqi imkoniyatlar va tavakkalchiliklarga qarab modellashtiradi. U marketing auditining katta hajmdagi ma’lumotlaridan marketing axborotining eng asosiy qismlarini ajratadi. Bu esa kompaniyaga tashqi imkoniyatlar va tavakkalchiliklarni aniqlash va ularni o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlari bilan solishtirish imkonini beradi.

An’anaviy tarzda SWOT-tahlil 2x2 matritsasi ko‘rinishida berilardi, u hozirgi vaqtda takomillashtirilib, ko‘proq qismlarni, xususan, yaxshi va yomon ish sabablarining qisqacha bayonini ham o‘z ichiga oladi. SWOT-tahlil maqsadlar va strategiyalarni aniqlash uchun asos hisoblanib, u quyidagi bir necha darajalarda o‘tkazilishi kerak: tashkilot, bozorning har bir asosiy segmenti, har bir asosiy tovar/xizmat, shuningdek, raqobat kurashi. Axborotlar SWOT-tahlilga ularning ahamiyatiga va qo‘llanish ehtimoliga qarab kiritiladi. SPACE matritsasi hududning raqobat mavqeini tahlil qilishning muhim usuli. U ikkita ichki (moliyaviy barqarorlik va raqobat jihatdan ustunlik) va ikkita tashqi (tarmoqning barqarorligi va tashqi sharoitlarning barqarorligi) ko‘rsatkichlarni tahlil qilgan holda hududning tarmoqdagi strategik mavqeini aniqlaydi. Ushbu ko‘rsatkichlarning har biri mezonlar to‘plami bilan tavsiflanishi mumkin. Masalan, «raqobat jihatdan ustunlik» guruhiga bozorning ulushi, mahsulotning sifati, uning hayotiy davr kabi mezonlar kiradi. Ularning har birini metodika mualliflari olti balli shkala bo‘yicha baholashni va shu asosda ko‘rsatkichning o‘rtacha statistik bahosini chiqarishni taklif etishadi. Shundan keyin barcha olingan o‘rtacha qiymatlar bozor kuchlarini taqsimlash maxsus sxemasiga kiritiladi (1-rasm).

Shunday qilib, hududning strategik mavqe, umuman olganda, quyidagicha tasniflanadi: tajovuzkor (bozor o‘sib bormoqda, iqtisodiyot barqaror), raqobatli, konservativ (bozor qisqarmoqda, lekin iqtisodiy sharoitlar barqaror) yoki himoyalalanuvchi. SPACE matritsasi mustaqil ravishda yoki boshqa tahlil (masalan, SWOT-tahlil, tarmoq tahlili yoxud strategik muqobil variantlarni baholash) uchun asos sifatida qo‘llanilishi mumkin.

SPACE matritsasining poligoni



1-rasm. SPACE – tahlil matritsasi²⁴

GE/McKinsey matritsasi (xo‘jalik portfelini tahlil qilish uchun) strategiyalarga nisbatan aktivlar portfelining tarkibi asosida ko‘p omilli yondashuv BKG (BCG) matritsasi uchun javob hisoblanadi. Ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lgan tarmoqning jozibadorligi va korxonaning

²⁴Лагунова Е.В. Формирование стратегии развития предприятия: Монография. – Владивосток: Изд-во Дальневост. ун-та, 2007. – С. 34.

barqarorligi ushbu ikki o‘lchamli matritsaning mezonlari hisoblanadi. Tarmoqning jozibadorligi va korxonaning barqarorligini baholash uchun GE va McKinsey mezonlar ro‘yxatini tuzib chiqilgan (2-jadval).

2-jadval

GE va McKinseydan to‘qqizta strategiya²⁵

Bozorning jozibadorligi	G‘olib (1)	G‘olib (2)	Savol
	G‘olib (3)	Kichik biznes	Mag‘lub (1)
	Foydani yaratuvchi	Mag‘lub (2)	Mag‘lub (3)
	Bozordagi nisbiy ustunlik		

Tanlangan mezonlardan qat’i nazar ular bo‘yicha tarmoqning jozibadorligi darajasini va hudud ustunliklarining ahamiyatini aniqlash imkonini beruvchi baholash amalga oshirilishi kerak (3-jadval).

3-jadval

McKinsey modelida qo‘llaniladigan o‘zgaruvchanlar

Tashkilot kuchli tomonlarining tavsiflari (X o‘q)	Bozor jozibadorligining tavsiflari (Y o‘q)
<ul style="list-style-type: none"> – bozorning nisbiy ulushi; – bozor ulushining o‘shishi; – distribyutorlik tarmog‘ining qamrovi; – distribyusiya tarmog‘ining samaradorligi; – xodimlar malakasi; – mahsulot iste‘molchisining firmaga sodiqligi; – texnologik ustunliklar; – patentlar, nou-xau; – marketing ustunliklari; – moslashuvchanlik 	<ul style="list-style-type: none"> – bozorning o‘shish sur‘atlari; – mahsulot differentsiatsiyasi; – raqobatning o‘ziga xos xususiyatlar; – tarmoqdagi foyda normasi; – iste‘molchining qadr-qimmatini; – iste‘molchining savdo rusumiga sodiqligi

Tahlil natijalariga ko‘ra hududda strategiyalarning to‘rtta varianti mavjud: saqlab turish uchun investitsiyalar, rivojlantirish uchun investitsiyalar, tiklash uchun investitsiyalar va o‘zini chetga olish

²⁵Манба: ЧижевЛ.Н., Лагунова Е.В. Моделирование процесса стратегического анализа промышленного предприятия // Вестник ТГЭУ. – 2007. – №2. – С. 37-51.

uchun investitsiyalar. Korxonaning jozibadorligi va barqarorligi bilan tavsiflanuvchi tovarlar bozorlari foyda olish uchun eng istiqbolli hisoblanadi. Lekin, Shell/DPM modelining ko‘p parametrliligi strategik tahlil matritsasi sifatidagi yaqqol ustunliklariga qaramasdan, uning ommaviyligi sanoatning kimyoviy, neftni qayta ishlash, metallurgiya kabi bir qator kapital sig‘imi yuqori tarmoqlari doirasida cheklandi.

Azaldan, DPM (Direct Policy Matrix) modelini qo‘llashda Shell kompaniyasi ko‘proq naqd pulning oqilona oqimini ta‘minlash haqida qayg‘urdi. BCG modelidan o‘zlashtirilgan, firmaning umumiy strategiyasi pulning ortiqchaligi bilan uning taqchilligi o‘rtasidagi muvozanatning saqlab turilishini ta‘minlashi lozim, degan g‘oya Shell/DPM modelining asosiy g‘oyasi hisoblanadi. Shell/DPM modeli menejrlarni muayyan moliyaviy oqimlarni pul massasini bunyod etuvchi biznes-sohalardan kelgusida investitsiyalar qaytishining yuqori salohiyatiga ega bo‘lgan biznes-sohalarga qayta taqsimlashga yo‘naltiradi. Strategik rejalashtirishning barcha boshqa klassik modellari kabi DPM modeli ikki o‘lchamli jadvalni o‘zida namoyon etadi. Bu yerda X va Y o‘qlari tegishlicha korxonaning kuchli tomonlarini (raqobat pozitsiyasi) va tarmoqning jozibadorligini (mahsulot-bozor) aks ettiradi (2-rasm).

Biznesning istiqbollari	Ishlab chiqarish hajmini ikki marta oshirish yoki biznesni to‘xtatish	Raqobat ustunliklarini kuchaytirish strategiyasi	Biznes turining yetakchisi
	Biznesni ehtiyotkorlik bilan davom ettirish yoki ishlab chiqarishni qisman to‘xtatish	Biznesni ehtiyotkorlik bilan davom ettirish	O‘sish strategiyasi
	Biznesni to‘xtatish strategiyasi	Qisman to‘xtatish strategiyasi	Naqd pul generatori strategiyasi
Biznesning raqobatbardoshligi			

2-rasm. Shell/DPM modelining ko‘rinishi²⁶

²⁶Манба: Ефремов В.С. Классические модели стратегического анализа и планирования: модель Shell/DPM // Менеджмент в России и за рубежом. 2005. № 5. – С. 118-129.

Aniqrog‘i, X o‘qi kompaniya biznes-sektorining raqobatbardoshligini (yoki uning tegishli biznes-sohadagi mavjud imkoniyatlaridan ustunliklarni chiqarib olish qobiliyati). Y o‘qi shu tariqa tarmoq holati va istiqbollarning umumiy o‘lchovi hisoblanadi.

Shell/DPM modelini 9 ta katakchaga bo‘lish (3x3 matritsasi ko‘rinishida) tasodifan amalga oshirilmagan. 9 ta katakchanning har biri o‘ziga xos strategiyaga mos keladi. Shell/DPM modelining asosiy ustunliklaridan biri shundan iboratki, u sifatiiy va miqdoriy o‘zgaruvchanlarni yagona parametrik tizimga birlashtirish muammosini hal etadi.

BKG matritsasiidan farqli ravishda, u bozor ulushi bilan biznesning foyda keltirishi o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikka bevosita bog‘liq emas²⁷.

Mulohazalar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

– tahlil qilish uchun o‘zgaruvchanlarni tanlash haddan tashqari shartli;

– tahlil qilish uchun o‘zgaruvchanlarning nechta soni talab etilishini aniqlash mezonii mavjud emas;

– o‘zgaruvchanlardan qaysilari eng ahamiyatli ekanligini baholash qiyin;

– matritsa shkalalarini tuzishda o‘zgaruvchanlarga ulushlarni berish juda qiyinlashtirilgan;

– turli tarmoqlarga tegishli biznes-sohalarni taqqoslash qiyin, chunki o‘zgaruvchanlar tarmoqqa kuchli bog‘langan.

Strategik rejalashtirishning 80-yillarda inqirozga yuz tutishi nazariyadan vaqtinchalik voz kechishda o‘z ifodasini topdi. Ishlab chiqarish jarayonlarini tarkibiiy qayta qurish bo‘yicha amaliy tavsiyalar qo‘llanila boshlandi. Biroq, 90-yillarning o‘rtalarida hududlarni o‘sishi omillari va XXI asrda biznes istiqbollari to‘g‘risidagi munozaralar avj oldi.

Bu davrda M. Porterning “Beshta kuch” modeli paydo bo‘ldi²⁸. Bu korxonaga tahdid solishi ham, u uchun o‘sish imkoniyatini ochishi ham mumkin bo‘lgan bozor kuchlarini tahlil qilish modelidir. O‘zining

²⁷Ефремов В.С. Классические модели стратегического анализа и планирования: модель Shell/DPM // Менеджмент в России и за рубежом. 2005. № 5. С. 118-129.

²⁸Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 635 с.

soddaligi va mantiqiyliги tufayli u bugungi kunda ham keng qo‘llanilmoqda.

Ushbu model tarmoq raqobat kurashining dinamikasini va, o‘z navbatida, uning rentabelligini belgilab beruvchi beshta asosiy tarkibiy xususiyatni, xususan: xaridorlar, yetkazib beruvchilar, bozorning potensial yangi ishtirokchilari, boshqa tarmoq tovarlari bilan potensial almashtirish imkoniyatlarini va raqobatchilar o‘rtasidagi raqiblikni tavsiflaydi (1-rasm). Mazkur omillar birgalikda bozorning jozibadorligini belgilab beradi.

Ta‘kidlash lozimki, mazkur kuchlarning qanday uyg‘unlashishiga qarab raqobat kurashi o‘ta keskin bo‘lishi va, o‘z navbatida, past daromadlilikka olib kelishi yoki, aksincha, yanada yuqori daromadlilikni ta‘minlashi mumkin.

Hududlar o‘zining zaif va kuchli tomonlarini bozorning tarkibiy tuzilishiga moslashtirish, uning o‘zgarishini oldindan payqash, diversifikatsiyalash imkoniyatini aniqlash, raqobat qoidalarini o‘zgartirish va o‘ziga barqaror ustunlik qiluvchi mavqeni ta‘minlash uchun mazkur beshta kuchning nisbatini tartibga solishi mumkin.

Raqobatning beshta kuchi modelini tahlil qilish hududning bozordagi zaif va kuchli tomonlarini hamda ulardagi strategik o‘zgarishlar (prognozga muvofiq) biznesni rivojlantirish uchun eng yuqori natijalarni berishi mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlash imkonini beradi.

M. Porterning modeliga muvofiq:

- raqobatning beshta kuchidan eng yaxshi himoyani ta‘minlovchi bozordagi eng qulay vaziyatni aniqlash;
- tarmoq foydaliligining salohiyatini prognoz qilish;
- bozordagi eng qulay vaziyatni egallashga yo‘naltirilgan strategik tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Ushbu model mualliflarining xizmati, shubhasiz, ularning fikriga ko‘ra, strategik rejalashtirish jarayonining asosida yotishi lozim bo‘lgan muayyan tamoyillarni ifodalashga bo‘lgan urinishdan iborat bo‘ldi. Ular quyidagi beshta tamoyilni ajratishadi:

- maqsadni qo‘yishni strategik rejalashtirishdan ajratish;
- strategik rejalashtirish jarayonini ikki daraja: biznes-daraja va korporativ daraja o‘rtasida taqsimlash;
- ijtimoiy va siyosiy tahlilni strategik rejalashtirish jarayoniga kiritish;

- nomaqbul vaziyatlarni albatta rejalashtirish;
- budjetni rejalashtirish bosqichlarini va muayyan tadbirlarni ishlab chiqish rejasini strategik rejalashtirish jarayonidan chiqarib tashlash.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda, O‘zbekiston sharoitida hududlarini rivojlantirish strategiyasini tanlashda:

- hududni ochiq tizim sifatida ko‘rib chiqish hamda tegishlicha tashqi va ichki samaradorlik ko‘rsatkichlarini ajratish;
- umumiy va alohida ko‘rsatkichlardan foydalanish: natijalarga erishish ko‘rsatkichlari va tizimning holati ko‘rsatkichlari;
- iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini tashkilotning xatti-harakat ko‘rsatkichlari bilan to‘ldirish;
- ko‘rsatkichlar mezonlarini tanlashga nisbatan vaziyatdan kelib chiqib yondashishni qo‘llash zarur.

Shu bilan birga hudud o‘sishi strategiyasini shakllantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tahlil obyektlarini ta’riflashning murakkabligi, u so‘z orqali, tarkibiy-mantiqiy va matematik tillarda amalga oshirilishi mumkin;
- tahlil obyektlarini to‘liq ta’riflashning imkonsizligi, buning oqibatida sust tarkiblashgan va tarkiblashmagan vazifalar ustunlik qiladi;
- qarorlarni (strategiyalarni) amalga oshirishda natijalarga erishishning noaniqligi darajasining kattaligi;
- qisman boshqariladigan va boshqarilmaydigan o‘zgaruvchalarining mavjudligi;
- vazifalarni hal etish mezonlari oldindan belgilanmagan va ularning hal etilishiga qarab rahbariyat tomonidan aniqliklar kiritilishi;
- jarayonning ko‘p mehnat talab qilishi va uzoq davom etishi, bu katta miqdordagi xarajatlarni va yuqori malakali mutaxassislardan foydalanishni talab qiladi²⁹.

Shunday qilib, hududlarni rivojlantirishning strategik rejalashtirish nazariyachilari tomonidan taklif etilgan turli strategiyalarini tahlil qilgan holda, ularni mamlakatimiz korxonalarida qo‘llash mumkinligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birgalikda, quyidagilarga e’tibor berish talab etiladi:

²⁹Винокуров В.А. Организация стратегического управления на предприятии. – М.: Центр экономики и маркетинга, 2005. – 160 с.

– strategik boshqaruv texnologiyasini qo‘llashning eng keng tarqalgan xatolaridan biri – bu g‘arbiy nazariyachilar tomonidan taklif etilgan tavsiyalarning, mamlakatimiz korxonalarini faoliyat ko‘rsatishining o‘ziga xos jihatlari hisobga olmagan holda to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanishidir;

– ko‘plab maslahatchilar tomonidan strategik boshqarishning samarali vositasi sifatida qabul qilingan SWOT-tahlil strategik rejalashtirishning amaliyotda eng talab etilgan modeli hisoblanishidir;

– ayni paytda strategik rejalashtirish vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun taklif etilayotgan texnologik tavsiyalar nimani o‘zida namoyon etishini to‘liqroq anglab yetishga uringan holda, ularning mohiyatini chuqurroq o‘rganish lozim.

Tayanch so‘zlar: mineral homashyo, resurs, diversifikatsiya, hududiy joylashuv, strategik rejalashtirish, boshqaruv texnologiyasi, model, M Porter, raqobat, strategik tahlil, samaradorlik.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy bo‘linishi tarixiga qanday izoh berasiz?

2. O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy bo‘linishida shaharlarni o‘rni nimadan iborat?

3. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasida ichki va tashqi muxitni ahamiyati nimadan iborat?

4. SWOT-tahlil usuli mohiyati nimadan iborat?

5. Mintaqaning rivojlanish strategiyasida M. Porter modelini o‘rni nimadan iborat?

6. Mineral xomashyo resurslarning mintaqa rivojlanish strategiyasidagi o‘rni nima bilan ifodalanadi?

7. Mintaqa rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda strategik tahlil?

V BOB. MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISH INDIKATORLARI

5.1. Mintaqaviy boshqarishni nomarkazlashtirish sharoitida iqtisodiy strategiyani shakllantirish.

5.2. Mintaqaviy rivojlanish omillari va indikatorlari.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar jarayonida iqtisodiyotni markazdan boshqarish darajasidan hududiy va tarmoq darajasida boshqarishga bosqichma-bosqich o'tkazish, hududlarda tegishli dasturlarni amalga oshirish, hududiy organlar huquqlarini kengaytirish, ularning maqom va mas'uliyatini oshirish birinchi navbatdagi vazifalardan hisoblanadi. Tobora chuqurlashtirilayotgan islohotlar davomida masalaga shu nuqtai nazardan yondashilib, hududiy ko'p ukladli iqtisodiyotni boshqarishning shakllanishi va rivojlanishini baholash shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy darajalarda hududiy dasturlarni ishlab chiqish bosqichida ham, ularni amalga oshirishda ham bir qator kamchiliklar mavjud. Ular asosan aniq tadbirlarni ishlab chiqish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ilg'or shakllari va usullarini tatbiq qilishning uslubiy negizini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, hududlar va hududlar darajasida istiqbol uchun ishlab chiqilgan aniq maqsadli dasturlar, ularni amalga oshirish usullari va mexanizmlari to'la shakllanmagan. Bu, o'z navbatida, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishiga, aholi turmush darajasini oshirishga, ishlab chiqarish va xususan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, jahon miqyosida pandemiya koronavirusi davom etayotgan hozirgi sharoitda hududlarda xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini yanada rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili hamda eng ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar jadal davom ettirilmoqda. Biz birinchi marta kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy qarorimizni ochiq e'lon qildik. Bunga tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, investitsiya va biznes muhitini yaxshilash hamda zamonaviy infratuzilmani barpo etish, odamlarni yangi kasb-

hunarlariga o‘rgatish va aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali erishmoqdamiz”³⁰

Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida mamlakatimizda boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish siyosatini amalga oshirish asosida hududlar barqaror iqtisodiy o‘shini ta‘minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlarining roli va mas‘uliyati ortib bormoqda.

So‘nggi paytlarda mintaqalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish faollashdi, bu birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlar sifatida o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati uzoq vaqt davomida asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash jarayonlariga davlat ta‘siri siyosati bo‘lib kelganligi tasodif emas. Faol mintaqaviy siyosatni olib boradigan ushbu davlatlar rivojlanmagan hududlarni rivojlantirish, depressiya qilingan sanoat maydonlarini qayta qurish, aglomeratsiyalarni nomarkazlashtirish va sanoat ishlab chiqarish konsentratsiyasi ustidagi maydonlar, klasterlarni shakllantirish va boshqalar bilan ajralib turadi³¹.

To‘g‘ri tanlangan strategiya kuch va mablag‘larni iqtisodiy rivojlanish salohiyatini ro‘yobga chiqarishga va shu bilan bozor sharoitida hududlarning samarali rivojlanishini ta‘minlashga imkon beradi. Strategiyani ishlab chiqishda yangi iqtisodiy sharoitlarda hududlarning o‘rni, roli va vazifalari aniqlanadi, o‘zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida mintaqani rivojlantirishning strategik ustuvorliklari belgilanadi, strategiyani yangi institutsional sharoitda amalga oshirishning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlari asoslanadi. Albatta, muayyan mintaqaning rivojlanish strategiyasi mamlakatning rivojlanish strategiyasiga mos kelishi va u bilan yaxlit bo‘lishi kerak.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud: hududlarning iqtisodiy salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayapti, respublika dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda mintaqaviy o‘ziga xosli ketarlicha hisobga olinmayapti; mintaqaviy iqtisodiyotida agrar sektorning ulushi saqlanib qolayapti; ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli nomutanosibliklar mavjud; mahalliy budjetlarni shakllantirish uchun

³⁰Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи.

³¹BeggI. Innovative Directions for EUC cohesion Policyafter 2020. CESifo Forum. 2018. <https://www.cesifo-group.de/DocDL/CESifo-Forum-2018-1-Begg-EU-Cohesion-Policy-march.pdf>.

moliyaviy bazaning yetarli emasligi; resurslar va ulardan samarali foydalanish o'rtasidagi nomutanosibliklar; mintaqalararo iqtisodiy integratsiya yaxshi rivojlanmaganligi; mintaqaviy menejmentning sust darajasi (iqtisodiy qarorlarning yuqori markazlashtirilganligi), sohaviy yondashuv va idoraviy manfaatlarning ustunligi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining maqsadlariga erishish davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining (keyingi o'rinlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari deb yuritiladi) uyg'un faoliyatini tashkil etishni talab qiladi.

Shu bilan birga, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institutsional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari o'tkazilayotgan islohotlarni to'liq ro'yobgacha qarishga hamda qo'yilgan maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, xususan: ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish asoslari hududlarni rivojlantirish sur'atlarini pasaytiruvchi, joylarda to'planib qolgan muammolarning o'z vaqtida hal etilishini ta'minlamayapti; ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xususiyatga egaligi, ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi, vazifalarning takrorlanishi va davlat tomonidan ortiqcha tartibga solish holatlarining mavjudligi amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning amaldagi tizimi qabul qilinayotgan qarorlarning ijrosiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni ta'minlamayapti; ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mexanizmlari faqat holatlarni qayd etish va statistik ma'lumotlarni

joriy to‘plashdan iborat bo‘lib, bu ko‘pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi; davlat funksiyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib kelmoqda; boshqaruv jarayoniga ishlarni rejalashtirish va tashkil etishning zamonaviy innovatsion uslublarini, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda qabul qilinayotgan qarorlarning samarali amalga oshirilishini ta‘minlash va uning jarayonini tezkor kuzatib borish imkonini bermaydi, shuningdek, davlat boshqaruvida ortiqcha byurokratashtirish va yuqori sarfxarajatlarga sabab bo‘lmoqda.

Shu bois, hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirish hamda mahalliy hokimlik organlari faoliyati natijadorligini oshirish muhim yo‘nalish sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-sonli “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarida hamda 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5614-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida” PQ-4702-sonli Qarori va boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma‘lum bir tadqiqotlarni olib borish talab qilinadi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish dastaklaridan biri bu uni nomarkazlashtirish bo'lib, oldin markazda bo'lgan funksiyalar, vakolat va javobgarliklarni mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, shuningdek fuqarolik jamiyatlari institutlariga o'tkazish hisoblanadi. Turli shakllarda (ma'muriy, siyosiy, iqtisodiy va fiskal) amalga oshiriladigan nomarkazlashtirish davlat rivojlanishini aniqlovchi keng ko'lamli omillarga ta'sir etadi. Ammo nomarkazlashtirishni mamlakatning o'ziga xos jihatlari hisobga olmasdan, yetarlicha darajada o'ylanmagan va shoshilinch tarzda amalga oshirish makroiqtisodiy vaziyatni nojarqarorlashtirish xizmatlardan noteng foydalanishga va kambag'allikning kuchayishi kabi salbiy holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu bilan turli davlatlardagi nomarkazlashtirish darajasi va dasturlarning turlitumanligi, shuningdek mahalliy o'zini o'zi boshqarishni yaratishda tashkiliy va iqtisodiy qarorlarning o'ziga xosligi aniqlanadi. Nomarkazlashtirish ta'sirining bir xilda emasligi kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni minimallashtirishga yo'naltirilgan tegishli davlat chora-tadbirlarining zarurligini keltirib chiqaradi. Bu asosan faqat hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi farqlarni kamaytirish uchun muhim bo'lib, hududiy omillardan va har bir hududning raqobatdagi ustunligidan sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan strategiya asosida foydalangan holda erishish mumkin.

Jahon amaliyotidan hududlarni rivojlantirishning uch xil ehtimoliy varianti ma'lum bo'lib, ular shundan iborat: ilg'or hududlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash zarur, qolganlar esa bu hududlar hisobiga mavjud bo'lishi mumkin (AQSH); barcha hududlarda taxminan bir xil turmush sharoitlarini qo'llab-quvvatlash, ularda soliqqa tortish, bandlik va turmush darajasini tartibga solish lozim (Germaniya); eng kambag'al hududlarni qo'llab-quvvatlash lozim, ilg'orlar esa mustaqil rivojlana oladi (Skandinaviya mamlakatlari)³².

Bozor iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan davlatlarda korxonalar darajasida ham, mintaqalar miqyosida ham katta tajriba to'plangan. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy va tarixiy sharoitlar rivojlanish borasida boshqa mamlakatlardan farq qiladi. O'zbekistonda hozirgi sharoitlarda Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya va boshqa mamlakatlarning mintaqaviy siyosat borasidagi tajribalarini

³² Armstrong H, Taylor J. Regional Economics and Policy. 1993.Part II., European Regional Incentives.1997-1998 Edition. BowkerSaur,1997.

moslashtirish ma'lum bir darajada foyda keltirgan bo'lardi. Buyuk Britaniyada ijtimoiy-iqtisodiy keskinlik an'anaviy tarmoqlar – ko'mir qazib chiqarish, po'lat ishlab chiqarish va to'qimachilik markazlashgan sanoat aglomeratsiyalarida eng kuchli namoyon bo'lgan. Eng turg'unlik (depressiv) holatidagi mintaqa Markaziy Shotlandiya bo'lgan. Germaniyada ko'mir qazib chiqarish va metallurgiyaga ixtisoslashgan Rur eng turg'unlik holatidagi mintaqa bo'lgan. AQSHda bunday mintaqalar qatoriga ishchizlik darajasi yuqori va daromad darajasi past bo'lgan hududlar kiradi. Bunga klassik misol – Appalach mintaqasi. Italiyada qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan janubiy mintaqalar ajratib ko'rsatiladi. Har bir mamlakatda mintaqalarni inqirozli holatdan olib chiqish bo'yicha individual yondashuv qo'llanadi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda mintaqalar holatini yaxshilash uchun alohida olingan mamlakatlar miqyosida amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbirlar keltirilgan.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda mintaqalarni boshqarish bo'yicha asosiy chora-tadbirlar³³

№	Mamlakat	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
1	Buyuk Britaniya	<ul style="list-style-type: none"> – turg'unlik holatiagi mintaqalarda ishlab chiqarishni joylashtirish va uning o'sishini rag'batlantiradigan moliyaviy chora-tadbirlar (kapital qo'yimalarga kafolatlar, zayomlar, soliq imtiyozlari, bandlik uchun mintaqaviy mukofotlar va b.); – davlatning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani, birinchi navbatda, transport va turar joyni rivojlantirish bo'yicha bevosita investitsion faoliyati; – sanoat tadbirkorligiga ruxsat berishni ko'zda tutadigan sanoat qurilishi ustidan "negativ nazorat" choralari.
2	Germaniya	<ul style="list-style-type: none"> – soliq imtiyozlari va maxsus mukofotlar ko'rinishida mintaq infratuzilmasi va bandlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan ilg'or tarmoqlarda (elektronika, yuqori texnologiyali mashinasozlik, axborot tizimlari, xizmatlar sohasi va b.) faoliyat ko'rsatadigan yangi firmalarni qo'llab-quvvatlash; – an'anaviy tarmoqlarga (metallurgiya majmui) va sarflandigan davlat investitsiyalari va xususiy innovatsion kapital; – vujudga kelgan muammolarni o'z kuchlari bilan hal etish.

³³Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

		<p>olmaydigan mintaqalarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatiladi;</p> <ul style="list-style-type: none"> – barcha yerlarni qayta strukturalash va rivojlantirish uchun umumiy sxema ta‘minlanadi; – yerlar o‘rtasida raqobatni istisno qiladigan yordam ko‘rsatish tizimlari yaratiladi.
3	Amerika Qo‘shma Shtatlari	<ul style="list-style-type: none"> – iqtisodiyotda tugallangan ishlab chiqarish sikllarini rag‘batlantirish, eng chetki ishlab chiqarish va yetkazib qayta ishlashni tayyor mahsulotning maksimal darajasiga yetkazish. Boshqacha qilib aytganda, sovet olimlari tomonidan ishlab chiqilgan energo ishlab chiqarish sikllari konstruksiyasidan foydalanildi; – mintaqaning potensial bozori va joylashuvidan kelib chiqqan holda foyda olishga qodir bo‘lgan yangi tarmoqlarni mintaqaga jalb qilish; – rekreatsion resurslarni rivojlantirish; – qishloq xo‘jaligini, jumladan, shahar yaqinidagi qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish; – har bir alohida olingan mintaqada bandlik va daromadlili darajasini kengaytirish, uning sanoat salohiyatidan foydalanish.
4	Italiya	<ul style="list-style-type: none"> – tarkibli jihatdan zaif mintaqalarda negativ omillar ta‘sirini minimallashtirish hamda ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirok etish imkoniyatini ta‘minlash uchun sharoitlar yaratish; – qulay «biznes-muhit» yaratish va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui; – uzoq muddatli va raqobatbardosh ish joylari yaratish, mehnat bozorida vaziyatni barqarorlashtirish.
5	Fransiya	<ul style="list-style-type: none"> – har bir mintaqaga uchun moliyaviy ajratmalar zaruriy miqdori, ta‘sirni baholash va monitoring amalga oshirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar; – xodimlarni qayta o‘qitish, tadqiqotchilik ishlari o‘tkazish, mintaqalar farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan OTM va boshqa davlat strukturalarini moliyalashtirish; – grantlar va maslahatlar taqdim etish yo‘li bilan kichik korxonalar uchun biznes muhitni yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish va bandlikni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar.

Umuman olganda, turg'unlik holatidagi hududlarda o'tkaziladigan chora-tadbirlar ko'plab mamlakatlarda o'xshashib ketadi. Mintaqalarda bandlikni oshirish, biznes va ishlab chiqarishni rag'batlantirish asosiy ahamiyatga ega. Biroq ayrim mamlakatlar bir vaqtning o'zida barcha mintaqalarni sog'lomlashtirish bo'yicha kompleksli chora-tadbirlarni amalga oshiradi, boshqalar esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash uchun iqtisodiy jihatdan qoloq mintaqalarga ko'proq e'tibor qaratadi.

Mintaqaviy siyosat muvofiqlashtirilgan siyosiy yondashuv mavjudligini nazarda tutadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu muamrolarni hal qilishda Yevropa Komissiyasi qisman Mintaqaviy siyosat bo'yicha Direktorat faoliyati orqali, shuningdek, Bozor munosabatlari siyosati bo'yicha Direktoratning nazorat funksiyalari orqali faol ishtirok etadi (2-jadval).

Ma'lum bir mintaqa iqtisodiyotining samarali rivojlanishini ta'minlash uchun nafaqat mintaqaviy siyosat bilan shug'ullanadigan davlat organlari tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki bunday rivojlanishdan manfaatdor bo'lgan keng doiradagi shaxslar va tashkilotlar yordami ham talab etiladi. Mamlakatning davlat tuzumi mintaqaviy siyosat borasida vakolatlarni boshqalarga berish yoki nomarkazlashtirish darajasini belgilab beradi³⁴.

2-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mintaqaviy siyosat chora-tadbirlarini amalga oshirish³⁵

№	Mamlakat	Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish
1	Avstriya	Barcha siyosiy sohalarda loyihalarni muvofiqlashtirish masalalari bilan Federal kansler Ma'muriyati shug'ullanadi (uning tarkibiga mintaqaviy siyosat bo'yicha maxsus departament ham kiradi).
2	Belgiya	Yordam ko'rsatish haqida qarorlar yirik davlat-xususiy sherikliklar uchun mintaqaviy ma'muriyat tomonidan qabul qilinadi, qolgan qarorlar esa Mintaqaviy Iqtisodiyot vazirligi tomonidan qabul qilinadi.

³⁴Емельянов Е.В., Аксенов П.А. Региональная политика Европейских государств // Вопросы новой экономики. 2011. №3 (19). С.19- 23; Хомерики Н.Б. Отечественный и зарубежный опыт развития региональной политики // Вопросы экономики и права. 2011. № 9. С. 38-41.

³⁵ Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

3	Gretsiya	Mintaqaviy siyosat yuritish bo'yicha barcha majburiyatlar amalda Milliy iqtisodiyot vazirligiga yuklatilgan.
4	Irlandiya	Davlat idoralar tomonidan amalga oshiriladi (IDA-Ireland va EnterpriseIreland).
5	Luksemburg	Mintaqaviy siyosat bo'yicha qarorlar Iqtisodiyot vaziri va Moliya vaziri bilan birgalikda qabul qilinadi.
6	Portugaliya	Mintaqaviy siyosat yuritish uchun barcha javobgarliklar Mintaqaviy rivojlanish va rejalashtirish vazirligining Mintaqaviy rivojlanish bo'yicha Bosh direktoratiga yuklatilgan.
7	Finlandiya	Ichki ishlar vazirligi mintaqaviy siyosatni shakllantirish uchun javob beradi, mintaqaviy siyosat yuritish uchun javobgarlik, shuningdek, turli markaziy vazirliklarga ham yuklatilgan.
8	Shvetsiya	Sanoat, savdo va rivojlanish Vazirligi huzurida bo'linmalar tashkil etilgan bo'lib, ularning vakolatlari qatoriga sust rivojlangan hududlarga nisbatan mintaqaviy siyosat ishlab chiqish, siyosat yuritilishi va Yevropa Komissiyasi bilan aloqalarni amalga oshirish ustidan nazorat kiradi.

Hozirgi paytda YeIga a'zo bo'lgan mamlakatlarning ko'pchiligi mintaqaviy siyosatning asosiy vositasi sifatida belgilangan investitsiyalar summasiga teng bo'lgan dotatsiyalar, ish joylari yaratilishi bilan bog'liq subsidiyalar, kreditlar va h.k.ni o'z ichiga oladigan moliyaviy rag'batlantirishdan foydalanadi. Bunday usullar firmalarni muammoli hududlarga mablag'lar investitsiya qilish yoki ishlab chiqarishni joylashtirishga qiziqtirib qo'yishi ko'zda tutilgan. Ushbu vositalar deyarli barcha YeI mamlakatlarida keng qo'llanadi.

O'zbekistonda nomarkazlashtirish boshlangan ma'muriy islohotlarning yo'nalishlaridan biri sifatida davlat boshqaruv organlarining funksiyalarini qayta ko'rib chiqish va kamaytirish, davlat organlari va xo'jalik boshqaruv organlari orasidagi vakolatlarni chegaralash, boshqaruv apparati sonini qisqartirish doirasida amalga oshirilmoqda. Shu sababli davlat boshqaruv samaradorligini oshirish vazifalari davlat funksiyalarini yanada aniqlashtirishni, shuningdek har bir aniq funktsiya uchun aniq muassasa yoki uning funksional bo'linmasi, aniq masalani yechishga alohida davlat xizmatchisi javobgarlikni oladigan shunday tizimni yaratishni talab qiladi.

Nomarkazlashtirish ko'proq mahalliy hamjamiyatni jamaot dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishda, ma'muriy tizimlar

samaradorligini oshirish va kelgusi inson taraqqiyotining natijasi sifatida va bevosita jalb etuvchi dastak sifatida ko'rib chiqilmoqda. Rivojlanayotgan davlat sharoitida va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida nomarkazlashtirishning jamoat turmush sharoitiga ta'siri bir xilda emas. U butun bir jismoniy, demografik omillar (hududmaydoni, aholi soni va uning etnik tarkibi, urbanizatsiya darajasi va b.) va institutsional asoslarning mavjudligiga bog'liq.

Bugungi kunda aholiga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirish, davlat boshqaruvi funksiyalarini nomarkazlashtirish bilan jambarchas bog'liqligi tanolingan. Mahalliy boshqaruv organlari va mahalliy hamjamiyat aholining hayotiy muammolarini samarali yechishga ko'proq qodir, sababi ular markaziy organlarga nisbatan bu borada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

Mamlakatlar iqtisodiyotining xomashyo moslashgan tarmoqlariga bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi pasaydi, holbuki, xizmatlar sektorida katta o'sish kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlarni ham firmalarning jug'rofiy o'rnidagi afzalliklar va raqobat sohasidagi afzalliklari o'zgarganini ham, shuningdek, rivojlanib borayotgan globallashtirish va erkinlashish sharoitiga moslashayotganligini aks ettiradi. Mamlakatdagi hozirgi sharoitda keyinchalik innovatsion rivojlanishga o'tish yo'li bilan investitsion rivojlanishga urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

Hududiy organlar tomonidan raqobatbardoshlikni oshirish siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishda ko'pincha raqobatdagi ustunlik yaratilayotgan hudud uchun asosiy xususiyatlar va imkoniyatlarning qanchalik to'liq hisobga olinganligi muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Mahalliy darajada aholining tabiiy ko'payishini, migratsiya jarayonlarini, mehnat resurslarini bandlik sohalari bo'yicha taqsimlashni, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyatni boshqarishning, turli xizmatlar iste'molini, uy-joy qurish va aholini joylashtirishni, qurilish, sanoat bazasini rivojlantirishni, suv va elektr ta'minoti, turli kommunikatsiyalarni tartibga solishning ta'sirchan mexanizmini yaratish mumkin. Mintaqalarda barcha bo'g'inlar o'rtasida o'zaro aloqalar va bog'liqliklarning o'sishi, demografik va ijtimoiy rivojlanish, aholini joylashtirish va infratuzilma tizimini shakllantirish, atrof-muhitni tartibga solish zarurati boshqarishning ma'lum jihatlarini

markazlashtirishni taqozo etadi. Mamlakat darajasida hududiy boshqarishning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i kerak:

- hududlararo mehnat taqsimotini takomillashtirish orqali xalqaro mehnat taqsimotida samarali mavqeni egallash;

- mamlakatning muhim mintaqaviy nisbatlarini aniqlash, mamlakat ichida mahsulotlar va xizmatlar bilan o‘zini o‘zi maksimal ta‘minlash, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, aholini joylashtirishning respublika miqyosidagi oqilona tizimini shakllantirish, qulay demografik sharoit yaratish va mintaqalararo boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish, tarmoqlar ixtisoslashuvi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, mintaqalararo ahamiyatga ega bo‘lgan tabiatdan foydalanish muammolarini hal etish yo‘li bilan ularni majmual va mutanosib rivojlantirish va h.k; mintaqalarni boshqarish mexanizmlari va iqtisodiy usullarini ishlab chiqish. Undan keyingi viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) darajasidagi asosiy vazifalar jumlasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarishni mutanosib majmual rivojlanishini ta‘minlash, xo‘jalik yuritishni hududiy tashkil etishni takomillashtirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, aholini iste‘mol tovarlari bilan ta‘minlash, mavjud tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga erishish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va tumanlararo ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa masalalarni yechish orqali mintaqa taraqqiyotini ta‘minlash;

- barcha hududiy tizimlarni rivojlantirish uchun bir xil qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratilganligi;

- samarali qarorlar qabul qilish uchun sifat jihatdan yangi va ishonchli mintaqaviy statistik ma‘lumotlar bazasi mavjud bo‘lishi lozim.

Mintaqaviy va tuman darajasidagi hokimiyatning iqtisodiy boshqaruvi amaliyotiga axborot-tahlil tizimini joriy etish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kuzatish va prognozlash vositalarini va statistik, sotsiologik va boshqa (shu jumladan ommaviy axborot vositalari) ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish, taqdim etish va tarqatish texnologiyasini takomillashtirishga yordam beradi.

Mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatib borish va prognoz qilish bo‘yicha keng qamrovli va yagona ma‘lumotlar

bazasini shakllantirish uchun axborot-tahlil tizimini loyihalashtirish, keyinchalik natija va hisobotlarni respublikaning turli vazirlik va idoralari kesimida rasmiylashtirish (natijalarni jadvalli, matnli, grafik va kartografik shakllarda taqdim etadi).

Ushbu tizim yordamida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

a) tahliliy qism: mintaqalar, tarmoqlar va h.k. sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslama, dinamik, tarkibiy va boshqa turdagi tahlillarni o'tkazish; turli ma'lumotlarni (iqlimiy-geografik sharoitlar, demografiya, ekologiya va boshqalarni) o'z ichiga olgan viloyat va tumanlarning elektron pasportlarini shakllantirish; viloyat va tumanlarning joriy (choraklik, yarim yillik va yillik) vaqt davri uchun elektron shaklda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha tahliliy materiallarni shakllantirish; viloyat va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy holati tahlilini o'z ichiga olgan boshqa hisobot shakllarini shakllantirish;

b) empirik qism: viloyat va tumanlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning (turmush darajasi, investitsion muhit, hududiy maqsadli dasturlar va boshqalar) statistik monitoringini amalga oshirish; viloyat va tumanlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini baholash ko'rsatkichlari (indekslari) tizimini shakllantirish; viloyat tumanlari iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, hududiy va mahalliy ijro hokimiyati organlarida elektron hukumat (yagona davlat interaktiv xizmati portali) texnologiyalaridan foydalanish darajasi reytingini tayyorlash; mintaqaviy statistikaning xalqaro standartlari bilan uyg'unlashgan tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish yo'nalishlarini tadqiq etish va boshqalar (uni biron-bir tuman misolida sinab ko'rish mumkin)³⁶;

d) prognoz qismi: ko'p variantli prognoz hisob-kitoblari muayyan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni baholashga qarab amalga oshiriladi; viloyat va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilishning retrospektiv ma'lumotlarini va ssenariy shartlarini kiritish va saqlash amalga oshiriladi; hisob-kitoblarni turli shakllarda, jumladan, grafik usullar, jadvallar va shu kabilardan foydalangan holda taqdim etish mumkin;

³⁶Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 1 майдаги “Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида” ПҚ-4702-сонли Қарори.

e) ma'muriy qism: kirish huquqlarini farqlash tizimi. Uning vositalari foydalanuvchilarni aniqlashga imkon beradi va foydalanuvchi tomonidan bajarilgan ish majburiyatlariga qarab, mutaxassislarning saqlangan ma'lumotlar va tizim obyektlariga kirishlari farqlanadi; viloyatlar va ularning tumanlar hokimliklari rahbarlari va mutaxassislarining ekspert-tahliliy va boshqaruv faoliyatini kompleks instrumental, axborot va dasturiy-texnologik qo'llab-quvvatlashni (materiallar samaradorligi va sifatini oshiradi) ta'minlaydi.

Mintaqaviy rivojlanish mintaqa ichki ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining o'zgarishini bildiradi. Mintaqaviy prognozlash, odatda mintaqaviy dasturlash bilan uyg'unlashtiriladi, bu mintaqaviy farqlar va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kamaytirish va yumshatish maqsadida davlatning aralashuvi shakllaridan biridir. Gap bu yerda alohida tumanlarning maxsus rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish haqida ketadi (rejali iqtisodiyot belgilari bo'lgan mamlakatlarda ko'pincha milliy rejalar asosida: besh, yetti yillik va hokazolar). Real modellashtirish deganda mintaqaning mavjud yoki istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini optimallashtirish maqsadidagi ekonometrik (iqtisodiy-matematik) uslublar tushuniladi. Nihoyat, mintaqalashtirish (yoki rayonlashtirish) mintaqalar (tumanlar)ni taksonizatsiyalash jarayoni.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi hozirgi kunda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishga, iqtisodiyotni erkinlashtirishga, xususiy sektorni rivojlantirish ustuvorligiga, kichik tadbirkorlik va fermer xo'jaliklariga e'tiborni kuchaytirishga, bank moliya tizimini takomillashtirishga, yangi soliq tizimini yaratishga va boshqalarga qaratilgan.

Tahlillar shundan dalolat berayaptiki, 2019-yilda iqtisodiyotda bandlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon (9,5%), Qashqadaryo (9,0%), Samarqand (10,8), Farg'ona (11,0%) va Toshkent (10,3%) viloyatlariga to'g'ri keladi. Asosiy kapitalga kirgizilgan investitsiyalar bo'yicha Qashqadaryo (9,0%) va Toshkent (10,3%) viloyatlari eng yuqori ko'rsatkichga ega.

Bu strategiya, o'z navbatida, mintaqa doirasida ishlab chiqilgan-dagina ko'zda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish mumkin. Mintaqalarni majmualijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zaruriyatini quyidagilar taqozo etadi: aholining turmush

darajasini ko‘tarish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish; jahon tajribasi va amaliyoti mintaqalardagi xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llarini belgilash; yirik investitsion loyihalarni asoslash, amalga oshirish va ularni mintaqaga jalb etish; mintaqqa iqtisodiy tarkibini takomillashtirish va samarali shakllantirish masalalarini hal qilish; ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish va atrof-muhitni himoya qilish muammolarini yechish.

Shunday qilib mamlakat doirasida ishlab chiqilgan mintaqalarni majmualiy rivojlantirish yagona strategiyasi har bir hududning o‘ziga xos tabiiy-iqtisodiy salohiyatiga to‘g‘ri keluvchi strategiyasiga asoslangan bo‘lishi darkor. Strategiyaning maqsadi mintaqaning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish asosida uning barqaror iqtisodiy o‘sishi va aholi turmush darajasini yuksalishiga erishishdir. Markaz va mintaqalar o‘zaro aloqalarini takomillashtirishning ijobiy samarasiga faqat ularning birgalikda faoliyat olib borish asosida erishish mumkin. Demak, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mintaqqa xususiyatlariga mos siyosat va yondashuvlardan foydalanish, ayniqsa, majmualiy ijtimoiy-iqtisodiy strategik rivojlantirishni ta‘minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi mintaqani boshqarishning ustuvor funksiyasi bo‘lib, u prognozlash-tahlil qilish faoliyatidan iborat, buning natijasi esa mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalari, dasturlari va prognozlaridir. A.G.Granbergning fikricha, mintaqalarni rivojlantirish prognozlari mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayonining barcha qirralarini qamrab olishi kerak (7-jadval).

Ularni ishlab chiqishda turli xil hujjatlardan foydalaniladi, masalan, aholi farovonligini oshirish strategiyasi, ijtimoiy infratuzilmani, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va hokozolar. Ammo mintaqaviy prognozlash sohasidagi ahvolning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mintaqani strategik boshqarishni ilmiy jihatdan ta‘minlash muammolarini o‘rganishga yetarlicha e‘tibor qaratilmayapti.

Hududiy va mintaqaviy rivojlanish prognozlarini tizimi³⁷

Prognozlash davri	Iqtisodiyot darajasi va qismlari	Milliy iqtisodiyot	Milliy iqtisodiyotning hududiy qismi	Mintaqa
Uzoq muddatli		Strategiya	Kompleks prognoz rivojlanishning bosh sxemasi	Strategiya
O'rta muddatli		Dastur Prognoz	Kompleks prognoz Hududiy rivojlanish sxemasi	Prognoz
Qisqa muddatli		Prognoz	Mintaqaviy prognozlarning muvofiqlashtirilgan tizimi	Prognoz

Bu mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning kamligida ko'zga tashlanadi. T. Axmedov va B. G'aniyevning ta'kidlashicha: "mintaqaviy rivojlanishni tahlil qilish va prognozlashning metodologik bazasi yo'q. Strategik vazifalarning bajarilishi (vaziyat va tendensiyalarni tahlil qilish, mintaqaviy rivojlanish strategiyasi va prognozlarni ishlab chiqish, indikativ ko'rsatkichlar monitoringini o'tkazish va hokazolar) unifikatsiyalangan zarur uslubiy baza bilan mahkamlanmagan"¹.


Mintaqani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va vazifalarini qo'yishdagi boshlang'ich hujjat konsepsiyadir. Umumlashtirilgan holda unda mintaqa, uning alohida tarkibiy-funksional qismlarining va muammoli hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'lami, sur'atlari, nisbatlari va asosiy yo'nalishlari belgilanadi, shuningdek ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi umumiy asoslanadi, hududiy va tarmoqlararo nomutanosibliklarni bartaraf etish usullari beriladi, aholi turmush darajasini oshirish asoslab beriladi.

Konsepsiya asosida tarmoqli va hududiy dasturlar, maqsadli kompleks hujjatlar ishlab chiqiladi, ularda batafsil va aniq asoslangan jihatlar, shuningdek muammoli masalalarning muvofiqlashtirishi

³⁷Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М. Высшая школа экономики. 2001, - с.441

¹ Ганиев Б., Ахмедов Т. Актуальность региональной политики в Республике Узбекистан. Экономическое обозрение. №1, 2005, с.30.

konsepsiya darajasiga ko‘tariladi. Konsepsiya shakli to‘rtta blok va uchta teng darajali jihatlardan iborat (2-rasm).



1-rasm. Mintaqaviy prognozlash strategiyasi konsepsiyasi tuzilmasi¹

Strategiyani to‘g‘ri tanlash resurslarni iqtisodiy rivojlanish salohiyatini ro‘yobga chiqarishga va shu bilan bozor sharoitida mintaqalarning samarali rivojlanishini ta‘minlashga imkon beradi. Strategiyani ishlab chiqish jarayonida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish kontekstida hududlarning o‘rni, roli va funksiyalari belgilanadi, o‘zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida mintaqani rivojlantirishning strategik ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi, strategiyani yangi institutsional sharoitda amalga oshirishning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlari asoslanadi.


Hozirgi davrdagi dunyo muammolariga munosib javob beradigan mintaqaviy strategiyalarni ishlab chiqishga yondashuvning quyidagi xususiyatlari shakllantirilgan:

– sifat jihatidan yangi, global miqyosda rivojlanishning yagona vektoriga birlashtiradigan mintaqaviy strategiyani shakllantirish, unda

¹ Муаллифлар томонидан илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

innovatsion, motivatsion, iqtisodiy, tashkiliy, ma'muriy va boshqa tarkibiy qismlar mavjud;

– strategiya – bu qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat vakillari, yirik korxonalar, banklar, xo'jalik birlashmalari, xususiy sektor, universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari, mahalliy jamoalar va nodavlat tashkilotlar rahbariyatining sheriklik mahsulidir. Strategiyani shakllantirish jarayonining algoritmi 3-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Mintaqaviy strategiyani shakllantirish algoritmi³⁸

Mintaqaviy strategiyani shakllantirish uchun axborot-tahliliy bazani tayyorlash uchun bir qator tahlil usullarini bajarish kerak. Ularning quyidagi turlari mavjud: mintaqaviy statistika ma'lumotlarini "an'anaviy" tahlil qilish; mintaqa rivojlanishining tarixiy tomonini tahlil qilish; mintaqadagi strategik rejalashtirishning retrospektivasi; tashqi ekspertlar tomonidan mintaqa baholarini tahlil qilish; mintaqa iqtisodiyotining mavjud tuzilishini tahlil qilish va baholash; yalpi hududiy mahsulotlar tarkibini tahlil qilish; hududlarning klaster tahlili.

SWOT-tahlil mintaqaning iqtisodiy rivojlanishining boshlang'ich shartlarini tahlil qilish va uning raqobatbardoshlik salohiyatini baholash.

Mintaqaning strategiyasini shakllantirish uchun bu mamlakatdagi va dunyodagi o'zini to'g'risida, uning rivojlanishini belgilovchi faoliyat va harakatlar maqsadlari to'g'risida savolga javob berish, rivojlanishdagi asosiy qiymat va maqsadli ko'rsatmalarni saqlagan holda vaziyat o'zgarishiga javob bera olishdir.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasini «ijtimoiy kelishuv shartnomasi», hokimiyat, biznes va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tashkil etish vositasi sifatida qarash kerak. Shuning uchun mintaqa strategiyasida mintaqa rivojlanishining umumiy manfaatlariga

³⁸ Муаллифлар томонидан илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

muvoqilashtirilgan va birlashtirilgan mintaqa aholisining turli guruhlarini manfaatlarini hisobga olinishi kerak.

Ustuvor yoʻnalishlar (“oʻsish omillarini” qoʻllab-quvvatlash). Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi rivojlanish ssenariylarini ajratish mumkin:

– mintaqaning maʼmuriy chegaralar bilan cheklangan, iqtisodiyotning mavjud tuzilishini saqlab qolgan va yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qiladigan anʼanaviy ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi, aslida ilgari tanlangan yoʻnalish boʻyicha rivojlanishning davomi bor boʻlib, u hukmron tendensiyalar tomonidan belgilab qoʻyilgan;

– mavjud tendensiyalar va tendensiyalarning maʼlum bir oʻzgarishiga asoslangan iqtisodiy, tashkiliy, maʼmuriy va boshqa tarkibiy qismlarni, motivatsion, ijtimoiy (shu jumladan, migratsiya, qishloq aholisining tashabbuskorligini hisobga olish) rivojlanishining sifat jihatidan yangi vektoriga birlashtiradigan innovatsion strategiya.

Hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishning asosiy mexanizmlari: iqtisodiy rivojlanishga klasterli yondashuv; iqtisodiy oʻsishga hissa qoʻshadigan mintaqaviy hokimiyat (uning faoliyati samaradorligini baholash mezonlari aniqlangan) va xususiy sektor uchun motivatsiya manbai; samarali maʼmuriy resurs (mintaqalarda maʼmuriy islohot, istiqbolli rivojlanishga yoʻnaltirilgan va b.).

Mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi muammolarga qaratilishi kerak: strategiyani amalga oshirishda mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlarning vakolatlarini chegaralash (maqsadga yoʻnaltirilgan indikatorlar tizimini yaratish, BMT barqoror rivojlanish maqsadlari bilan muvoqilashtirish va b.); mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy jarayonlarni bilvosita boshqarish usullarini keng joriy etish, bu borada mahalliy boshqaruv organlarining vakolat va vazifalarini funksional jihatdan qayta koʻrib chiqish, bir-birini takrorlaydigan hamda bozor tamoyillariga mos kelmaydigan funksiyalarni cheklash; dasturiy chora va tadbirlarni belgilash hamda bu boradagi axborot almashuvida mahalliy organlar faoliyatini vazirlik va mahkamalarda amal qilayotgan funksional vazifalar bilan muvoqilashtirish (“yoʻl xaritasi” doirasida, maxsus zonalar, erkin iqtisodiy hududlar, maqsadli dasturlar va b.); mahalliy boshqaruvda katta hajmdagi axborot oqimini bir tizimga keltirish maqsadida ularni

raqamlashtirish va turlariga qarab tasniflash (axborot-tahlil portalini yaratish, baholash reytinglarini joriy qilish, misol uchun hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini hisoblash va baholash bo'yicha «BUSINESS INDICATOR» avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimini ishlab chiqish va b.³⁹); hududiy boshqaruv organlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish (davlat xizmatlari portali, axborot tizimlari, katta ma'lumotlar bilan ishlash va b.)

Iqtisodiy siyosat – bu mintaqaviy iqtisodiy mutanosibliklarni yumshatish zarurati, qator hollarda esa mintaqaviy iqtisodiy muvozanatga erishish bo'lib, rivojlangan mamlakatlar uchun ham, BMTning eng qoloq mamlakatlari ro'yxatiga kiritilgan davlatlar uchun ham xos. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish mexanizmi yetarlicha mukammal ishlab chiqilgan hamda davlatning moliyaviy yordami, mahalliy assignatsiyalarni, jumladan xususiy kapitalni jalb qilish (sarmoyadorlarga turli xil imtiyozlar va to'lovlar uchun uzaytirilgan muddatlar berish orqali), qonun qabul qilish tadbirlari, moliyaviy cheklovlar, jarima sanksiyalari va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Davlat hududiy siyosatining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasida katta farqlar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik; hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishda ularning tabiiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish salohiyati va obyektiv imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda differensial tarzda yondashish; bir muncha qoloq va noqulay sharoitlarga ega hududlarni umumdavlat va hududiy manfaatlardan kelib chiqqan holda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; aholining yashash sharoitidan qat'i nazar minimal ijtimoiy kafolatni ta'minlash; hududlarda xususiy sektorning rivojlanishiga ustuvorlik berilgani holda institutsional va tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish; atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va hududlarda faol ekologik siyosat olib borish; hududiy va hududlararo infratuzilma (transport, aloqa va boshqalar)ning rivojlanishi; nomarkazlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, ijtimoiy masalalarni yechishda o'zini o'zi boshqarish hamda mahalliy boshqaruv organlarining javobgarligi va rolini oshirish;

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 8 январь “Республика ҳудудларида тadbirkorликнинг ривожланганлик даражасига баҳо бериш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 8-сонли Қарори.

hududlarda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda mahalliy budjetlar va budjetdan tashqari fondlarning rolini oshirish.

Hudud iqtisodiyotini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi funksiyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim:

– raqobat muhitini shakllantirish yo'li bilan hududdagi har bir xo'jalik subyekti va mulkchilik shaklining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini amalga oshirish uchun teng iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

– o'zini o'zi tashkil qilishning bozor tizimi, xo'jalikni yuritish jarayonini boshqarish va mos holdagi davlatning iqtisodiy tartibga solish tizimini shakllantirish yordamida takror ishlab chiqarish jarayonini tartibga keltirish;

– zamonaviy innovatsion asosda hudud salohiyatining tarkibiy qismlari o'rtasidagi muvozanat va mutanosiblikni ta'minlash;

– takror ishlab chiqarish barcha subyektlarining malakasi va ijodiy salohiyatini ruyobga chiqarish, marketing xizmati, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, sifat jihatdan yangi texnologiyalarni yaratishda xo'jalik subyektlari uchun barqaror rag'batlantirishlarni qo'llab-quvvatlash;

har bir xo'jalik subyekti iqtisodiy ahloqining mosligi, shuningdek, bozor qonunlariga mos holda barcha iqtisodiy tizimlarning o'z-o'zini tartibga solishini ta'minlash.

Shunday qilib, fikrimizcha, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar zamonaviy bosqichining natijasi ko'p jihatdan hududlarning bozorga xos bo'lgan yangicha xo'jalik yuritish shakllari va boshqarish usullarini anglab olishi hamda ularga moslashishiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, respublika boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan iqtisodiy islohotlarda hududiy tafovutlar, bozor munosabatlarini rivojlantirish omillari va zaminlarini qay darajada hisobga olinganligi bilan ham tavsiflanadi.

5.2. Mintaqaviy rivojlanish omillari va indikatorlari

Mintaqalar barqaror rivojlanishining iqtisodiy jihati yalpi mintaqaviy mahsulotning (YaHM) o'sishi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaHM, bandlik, aholi daromadlari, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanganlik darajasi, investitsion jozibadorlik, eksport-import, tabiiy

boyliklardan oqilona foydalanish kabi qator ko'rsatkichlar asosida belgilanadi.

Mintaqalar iqtisodiy salohiyatini baholashda rossiyalik iqtisodchi olimlar V.I. Buvalseva i M.V. Sokolovskiy quyidagi ko'rsatkichlar guruhlarini keltiradi⁴⁰:

– iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi ko'rsatkichlari: yalpi mintaqaiy mahsulotning aholi jon boshiga qiymati, sanoat mahsuloti hajmi, asosiy ishlab chiqarish fondlari, asosiy fondlarning eskirganlik darajasi, asosiy kapitalga investitsiya, eksport va import hajmi, aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi qoldig'i, aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi, real sektorning moliyaviy natijalari, zarar ko'rgan korxonalarining ulushi va boshqalar;

– ijtimoiy soha rivojlanish ko'rsatkichlari: aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromadlar, yashash minimumi, aholi o'rtacha daromadlarining yashash minimumiga nisbati, aholining eng ko'p daromadli 10% qatlami daromadlarini, eng kam ta'minlangan 10% aholi daromadlariga nisbati, aholining ijtimoiy-ma'daniy obyektlar bilan va injenerlik infratuzilmasi bilan ta'minlanganligi, yashash minimumi darajasidagi daromadga ega aholi qatlamining umumiy aholi sonidagi ulushi, ishsizlik darajasi, kichik korxonalarda ish bilan badlik darajasi va boshqalar;

– iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi ko'rsatkichlari: yalpi mintaqaiy mahsulotning aholi jon boshiga qiymati, sanoat mahsuloti hajmi, asosiy ishlab chiqarish fondlari, asosiy fondlarning eskirganlik darajasi, asosiy kapitalga investitsiya, eksport va import hajmi, aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi qoldig'i, aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi, real sektorning moliyaviy natijalari, zarar ko'rgan korxonalarining ulushi va boshqalar;

– ijtimoiy soha rivojlanish ko'rsatkichlari: aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromadlar, yashash minimumi, aholi o'rtacha daromadlarining yashash minimumiga nisbati, aholining eng ko'p daromadli 10% qatlami daromadlarini, eng kam ta'minlangan 10% aholi daromadlariga nisbati, aholining ijtimoiy-madaniy obyektlar bilan va injenerlik infratuzilmasi bilan ta'minlanganligi, yashash minimumi darajasidagi daromadga ega aholi qatlamining umumiy

⁴⁰Черницкий С.В. Комплексная методика оценки экономического потенциала регионов. Историческая и социально-образовательная мысль. 2014. № 5 (27). –С. 211.

aholi sonidagi ulushi, ishsizlik darajasi, kichik korxonalarda ish bilan badlik darajasi va boshqalar;

4-jadval

Barqaror rivojlanish indikatori⁴¹

Ijtimoiy	Atrof-muhit	Iqtisodiy	Institutsional
Kapital	Atmosfera	Iqtisodiy tuzilma	Institutsional
Kambag'allik	Iqlim	Milliy daromad	qolip
Gender	o'zgarishlari	va milliy boylik	Xalqaro
tengsizligi	Ozon qatlamining	Iqtisodiy	kooperatsiya
Salomatlik	yemirilishi	samaradorlik	Barqaror
Ovqatlanish	Ozon qatlami	Savdo	rivojlanish
holati	Havo sifati	Moliyaviy ahvol	strategiyalarining
O'lim darajasi	Yer	Turizm	amalga joriy
Sanitariya	Qishloq xo'jaligi	Ishlab chiqarish	qilinishi
Ichimlik suvi	O'rmonlar	va iste'mol	Institutsional
Sog'liqni saqlash	Cho'llanish	tarkibi	quvvat
ta'minoti	Urbanizatsiya	Material iste'moli	Axborotga
Hayot tarzi va	Okean, dengiz va	Energiyadan	ochiqlik
kasalliklar	qirg'oqlar	foydalanish	Kommunikatsiya
Sog'lomlik	Qirg'oq	Chiqindilarning	va infratuzilma
Ta'lim	mintaqalari	yuzaga kelishi va	Fan va
Ta'lim darajasi	Baliqchilik	ularni boshqarish	texnologiya
Savodxonlik	Toza suv	Tashish	Favqulotda
Uy-joy	Suv sifati		vaziyatlarga
Hayot sharoitlari	Suv miqdori		tayyorgarlik
Xavfsizlik	Bio xilma-xillik		
Jinoyatchilik	Ekotizim		
Aholi	Tur		
Aholi tarkibining	Boshqalar		
o'zgarishi	Tabiatda kislota		
Boshqalar	darajasi		
Etnik jihatdan	Toksik ifloslanish		
ozchilik	Begona turlar		
Madaniy me'ros			
San'at va dam			
olish			


⁴¹ OECD Statistics Working Papers. Julie L. Hass, Frode Brunvoll, Henning Hoie. Overview of Sustainable Development Indicators used by National and International Agencies. –P. 17-19; United Nations. Indicators of Sustainable Development: Guidelines and Methodologies. October 2007. Third Edition. –P. 15-20
маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

– moliyaviy soha rivojlanish ko‘rsatkichlari: moliyaviy resurslarining umumiy balansi, moliyaviy ta‘minlanganlik, aholi jon boshiga budjet profitsiti va defitsiti, mintaqaiy qarz mablag‘larining aholi jon boshiga qiymati, moliyaviy-kredit tizimining tarkibi va boshqalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda mintaqalarni kompleks va mutanosib tarzda rivojlantirish, ulardagi mavjud iqtisodiy resurslar, xususan tabiiy xomashyo, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali va ratsional foydalanish, shuningdek ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish, bu orqali esa mintaqalardagi aholining turmush darajasi va sifatini muntazam oshirish masalalari ustuvor vazifalar qatoridan o‘rin olgan. Mamlakatimiz mintaqalar barqaror rivojlanishining iqtisodiy jihatlariga e‘tibor qaratar ekanmiz, mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidagi tafovutlar bir qator obyektiv sabablar – bozor islohotlarining dastlabki davridagi mintaqaiy rivojlanish darajasi, mintaqaning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy-geografik rivojlanishi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, innovatsion salohiyati va boshqa ko‘pgina omillar bilan izohlanadi. Respublikamizda mintaqalar iqtisodiyotini optimal tashkil qilishni hamda uni takomillashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar xom-ashyo ishlab chiqarishga qaratilganlikni bartaraf etish, ishlab chiqarish texnologik bazasini shakllantirish, shuningdek mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda 2001–2017-yillar aholi jon boshiga YaHM ning yillik o‘rtacha o‘shish darajasi bo‘yicha Toshkent shahrida (8,6%), Jizzax viloyatida (6,7%), Qoraqalpog‘iston Respublikasida (6,6%), Samarqand viloyatida (6,3%), Namangan viloyatida (5,8%) Andijon viloyatida (5,8%) nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi. Bu esa, asosan, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining jadal rivojlanishi natijasida ro‘y berdi (Rasm-3).

Bugungi kunda mamlakatimizda mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, u yerdagi aholining bandligini ta‘minlash, shuningdek, ularning daromadlarini oshirish borasidagi vazifalarni amalga oshirishda sanoat tarmoqlarining mavjud salohiyatidan oqilona foydalanish kun sayin ustuvor masalaga aylanmoqda.



3-Rasm. O‘zbekistonda mintaqalar bo‘yicha 2001–2018-yillarda aholi jon boshiga YaHMning yillik o‘rtacha o‘shish darajasi (%da)⁴²


Mamlakatimiz mintaqalarida sanoat tarmoqlarida diversifikatsiya darajasining yuqori emasligi, sanoatning ko‘plab tarmoqlarida xomashyo bazasining yetarli darajada o‘zlashtirilmayotganligi sababli iqtisodiy rivojlanishning ichki zaxira va imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti. O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000–2018- yillarda 1888,9 mlrd. so‘mdan 235340,7 mlrd. so‘mga (nominal o‘shish – 124,6 barobar) oshdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy ulushi Toshkent shahri, Toshkent, Andijon, Navoiy, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Xususan, 2018-yilda O‘zbekiston sanoati ishlab chiqarish hajmida Toshkent shahri – 18,4%, Toshkent viloyati – 16,0%, Andijon viloyati – 11,7%, Navoiy viloyati – 9,7%, Qashqadaryo viloyati - 6,2% va

⁴²Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари. URL: <https://stat.uz/uploads/docs/Sns-1991-2017-uz.pdf> (Мурожаат саанси: 15.05.2019)

Samarqand viloyati 5,7% ulushga ega bo‘lgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning eng kam ulushi Surxondaryo (1,4%) va Jizzax (1,5%) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan (4-rasm).

Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligida 20 mln gektardan ortiq, xususan, 3,2 mln gektar sug‘oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilmoqda.


Mamlakatimiz mintaqalari foydalanishdagi yer maydonlari, suv resurslari va tabiiy iqlimi xususiyatlaridan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda turli ko‘rsatkichlarga ega.



4-rasm O‘zbekistonda mintaqalar bo‘yicha sanoat mahsulotlari hajmi (amaldagi narxlarda mlrd. so‘m)⁴³

Xususan, 2018-yilda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining asosiy ulushi Samarqand (13,6%), Andijon (10,9%), Toshkent (10,6%), Qashqadaryo (9,3%) va Buxoro (8,9%) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan (5-rasm).

⁴³Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган. URL: <https://stat.uz/uz/ochiq-ma-lumotlar> (Мурожаат санаси: 24.05.2019)



5-rasm. O‘zbekistonda mintaqalar kesimida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi (amaldagi narxlarda mlrd. so‘m)⁴⁴

Mintaqalar iqtisodiy salohiyatini baholashda mehnat resurslari muhim ahamiyatga ega. Bunda 1000 ta aholiga to‘g‘ri keladigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonini ko‘rsatuvchi demografik yuklama koeffitsiyenti foydalaniladi. Mamlakatimizda mintaqalar bo‘yicha ushbu ko‘rsatkichning miqdori ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. Demografik yuklama koeffitsiyenti mamlakatimiz bo‘yicha 2013-yilda 620 ga teng bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018-yilga kelib 665 ni tashkil qilgan. Mintaqalar bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich holatiga nazar tashlasak, 2018-yilda Toshkent shahri va Samarqand viloyatida ushbu koeffitsiyent eng yuqori qiymatga ega, ya‘ni bu mintaqalarda 1000 ta aholiga to‘g‘ri keladigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 695 tani tashkil qilgan. Ushbu koeffitsiyentning eng past qiymatlari Buxoro (634), Navoiy (637) va Xorazm (647) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Mamlakatimizda iqtisodiy salohiyatidagi tafovutlar bir qator obyektiv

⁴⁴Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган. URL: <https://stat.uz/uz/ochiq-ma-lumotlar> (Мурожаат санаси: 24.05.2019)

sabablar – bozor islohotlarining dastlabki davridagi mintaqaiy rivojlanish darajasi, mintaqaning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy geografik rivojlanishi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, innovatsion salohiyati va boshqa ko‘pgina omillar bilan izohlanadi. Respublikamizda mintaqalar iqtisodiyotini optimal tashkil qilishni hamda uni takomillashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar xomashyo ishlab chiqarishga qaratilganlikni bartaraf etish, ishlab chiqarish-texnologik bazasini shakllantirish, shuningdek mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda (jadval 5).

5-jadval

Demografik yuklama koeffitsiyenti⁴⁵

(yil boshiga, 1000 ta aholiga to‘g‘ri keladigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni)

	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.
O‘zbekiston Respublikasi	620	621	629	640	652	665
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	629	629	636	641	645	651
Andijon	603	607	615	628	645	660
Buxoro	582	587	596	610	622	634
Jizzax	657	652	659	668	678	688
Qashqadaryo	651	647	653	660	668	679
Navoiy	578	582	595	607	623	637
Namangan	595	597	606	616	631	646
Samarqand	647	645	656	666	680	695
Surxondaryo	649	639	643	653	663	677
Sirdaryo	604	604	609	617	625	634
Toshkent	610	614	624	639	653	667
Farg‘ona	603	604	610	622	638	653
Xorazm	627	625	631	635	640	647
Toshkent sh.	618	632	646	660	677	695

Ma’lumki, yalpi jamg‘arilish asosiy fondlar va moddiy aylanma vositalari o‘rishini ifodalaydi. 1991–2017-yillarda yalpi jamg‘arilishning ulushi barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lib, YaIM ning o‘rtacha 25,4%ini tashkil qildi. Yalpi jamg‘arilishning asosiy ulushini asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi tashkil qilib, iqtisodiyotda investitsion faollikni ifodalaydi. 1991–2017-yillarda asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi ko‘rsatkichining YaIM dagi ulushi o‘rtacha 26,4%ni tashkil

⁴⁵Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари. URL: <https://stat.uz/uploads/docs/Sns-1991-2017-uz.pdf> (Мурожаат саанси: 15.05.2019)

etdi⁴⁶. Shuni ta’kidlash loziki, mamlakatimiz mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va iqtisodiy o’sish sur’atlaridagi tafovutlar iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha asosiy fondlarning qiymatiga ham bog’liq. Mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha asosiy fondlarning umumiy qiymati 1995-yilda 319, 816 mlrd. so’mni tashkil qilgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2017-yilda 298 608,774 mlrd. so’mga yetdi. Asosiy fondlarning yirik qiymatlari 2017 yilda Toshkent shahri (19,4%), Qashqadaryo (13%), Toshkent (12,3%) viloyatlariga va Qoraqalpog’iston Respublikasiga (9,7%) to’g’ri kelgan. Ushbu ko’rsatkichi bo’yicha eng past ko’rsatkichga Sirdaryo (2,3%), Xorazm (3,2%) va Jizzax (3,2%) viloyatlari ega bo’lgan (Jadval-6.)

6-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha asosiy fondlar (boshlang’ich (qayta tiklash) qiymati bo’yicha)⁴⁷

yil oxiriga, mln. so’m

	1995-y.	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2019-y.
O‘zbekiston Respublikasi	319 816,0	3 887 603,0	25 693 444,0	85 911 995,0	203 595 687,9	298 608 774,3
Qoraqalpog’iston Respublikasi	20 922,0	144 619,0	1 244 069,0	5 165 408,0	10 974 245,0	29 141 030,8
Andijon	19 173,0	333 470,0	2 050 028,9	4 842 017,0	10 218 030,2	14 469 667,6
Buxoro	15 058,0	271 319,0	1 406 570,9	4 439 850,8	11 674 232,6	18 668 926,8
Jizzax	12 647,0	128 878,0	654 750,0	2 828 731,0	5 919 298,2	9 661 603,0
Qashqadaryo	35 123,0	407 723,0	2 835 502,5	10 336 838,0	25 341 678,1	38 808 824,1
Navoiy	18 871,0	252 719,0	2 730 148,6	8 259 574,1	18 195 697,7	22 467 279,3
Namangan	14 894,0	286 622,0	1 222 421,0	3 752 864,4	8 068 477,0	10 385 701,8
Samarqand	20 311,0	391 386,0	1 736 704,0	5 279 812,0	12 154 346,1	18 200 033,9
Surxondaryo	13 476,0	140 184,0	914 557,3	2 798 955,0	6 756 500,7	10 227 028,6
Sirdaryo	11 545,0	95 387,0	660 965,2	2 089 450,0	4 868 658,1	6 949 737,3
Toshkent	44 035,0	316 092,0	2 652 393,3	8 674 827,0	26 648 092,5	36 834 191,6
Farg’ona	23 061,0	248 613,0	1 674 809,5	4 921 149,0	12 023 718,3	15 485 857,9
Xorazm	12 332,0	196 467,0	893 776,0	2 570 748,8	6 033 984,4	9 462 550,8
Toshkent sh.	58 368,0	674 124,0	5 016 747,8	19 951 769,9	44 718 729,0	57 846 340,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mintaqalarda investitsion faoliyat rivojlanishida asosiy kapital jamg’arilishining mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosiy

⁴⁶Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

⁴⁷Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

vazifa hisoblanib, ularni o‘zlashtirish orqali barqaror o‘shishga erishiladi. Mamlakatimizda 2001–2017-yillarda investitsiyalarning yalpi chiki mahsulotga nisbati 25,2 foizni tashkil etgan. Bu dunyoning rivojlangan hamda shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatlari ko‘rsatkichlariga mos keladi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti jalb qilingan jami investitsiyalar hajmi 2017-yilda 68423,9 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, uning 25,1 foizi, ya‘ni 17146,5 mlrd. so‘m qismini xorijiy investitsiyalar va kreditlar tashkil qilgan. Jami investitsiyalarning katta ulushi Toshkent shahri (13558,3 mlrd. so‘m – 19,8%), Buxoro viloyati (11370,3 mlrd. so‘m – 16,6%) hamda Qashqadaryo viloyatiga (10851,8 mlrd. so‘m – 15,9%) to‘g‘ri kelgan. Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning eng katta ulushi Buxoro viloyati (8250,4 mlrd. so‘m – 48,1%), Toshkent shahri (2451,7 mlrd. so‘m – 14,3%) hamda Qashqadaryo viloyatiga (2015,9 mlrd. so‘m – 11,8%) to‘g‘ri kelgan (Rasm-6).

Ma‘lumki, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholining ta‘lim darajasi muhim ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi. Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yetarlicha ta‘lim darajasiga ega bo‘lgan, yuqori bilim va malakalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida keltirilgan: avvalo chekka mintaqalarda joylashgan, o‘quvchilar soni kam bo‘lgan umumta‘lim maktablari o‘qituvchilariga qo‘shimcha yangi ixtisosliklar va malakalarni o‘zlashtirishga imkon beradigan ta‘lim infratuzilmasini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tavsiyasi asosida pedagog xodimlarga ehtiyoji katta bo‘lgan chekka davomida respublikaning har bir mintaqada bosqichma-bosqich STEAM (fan, texnologiya, injiniring, san‘at va matematika) yo‘nalishlariga ixtisoslashtirilgan “Prezident maktablarini” tashkil etish, ta‘lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida bir nafar o‘quvchiga xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda “mablag‘ o‘quvchi ortidan” tamoyili asosida (vaucher tizimi) bosqichma-bosqich moliyalashtirish tizimiga o‘tish, bunda har bir mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini inobatga olish


kabi masalalarning amalga oshirilishi mamlakatimiz mintaqalarida aholi ta'lim darajasining oshishiga katta hissa qo'shadi⁴⁸.

Mamlakatimizda 16 yosh va undan yuqori yoshdagi aholining oliy va oliydan keyingi ta'lim darajasiga egaligi 2013–2018-yillarda 12,7 foizdan 13,5 foizga ko'tarildi. Xususan, bu ko'rsatkich 2018-yilda Toshkent shahrida 31,8%, Buxoro viloyatida 14,3%, Samarqand viloyatida 13,5%, Qashqadaryo viloyatida 13,0%ni tashkil etgan.

tog'li va cho'l mintaqalardagi abituriyentlar uchun imtiyozli qabul kvotalarini belgilash mexanizmini joriy etish, 2019–2021-yillar eng past ko'rsatkichlar esam Xorazm viloyatida 8,7%, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida 9,7%ni tashkil qilgan (7-jadval).

Mamlakatimizda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish hamda mintaqalarni barqaror iqtisodiy rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

⁴⁸Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сонли Фармони. URL: <http://www.lex.uz/docs/4312785> (Мурожаат саанси: 15.05.2019)



6-rasm Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2019-yilda), mlrd. so'm⁴⁹

⁴⁹Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

Birinchidan, sanoatning tarmoq va mintaqalar bo'yicha diversifikatsiya darajasini oshirish, xom ashyo bazasini rivojlantirish va uni o'zlashtirish darajasini oshirish, sanoatda chuqur qayta ishlash ulushini oshirish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy, xuquqiy mexanizmlarni joriy qilish.

7-jadval

**2013–2018-yillarda O'zbekiston va uning mintaqalarida
16 yosh va undan yuqori yoshdagi aholining ta'lim darajasi**

Mintaqa (viloyat)	Boshlang'ich va boshlan- g'ichgacha		O'rta		O'rta maxsus va kasb-hunar		Oliy va oliydan keyingi	
	2013	2018	2013	2018	2013	2018	2013	2018
<i>Yillar</i>	2013	2018	2013	2018	2013	2018	2013	2018
O'zbekiston Respublikasi	0,1	0,1	48,3	35,3	38,9	51,1	12,7	13,5
Qoraqalpog'is- ton Respublikasi	0,0	0,0	40,2	32,6	47,4	56,5	12,4	10,9
Andijon	0,1	0,1	52,6	41,5	38,3	48,7	8,9	9,7
Buxoro	0,2	0,0	58,0	34,1	32,5	51,6	9,3	14,3
Jizzax	0,1	0,0	49,1	42,2	39,6	48,0	11,3	9,8
Qashqadaryo	0,0	0,0	40,0	33,4	42,6	53,6	17,4	13,0
Navoiy	0,0	0,0	39,4	38,4	44,7	48,8	15,9	12,8
Namangan	0,0	0,0	50,3	34,7	41,7	55,2	8,0	10,1
Samarqand	0,0	0,1	58,3	46,9	29,3	39,5	12,5	13,5
Surxondaryo	0,0	0,4	58,0	43,3	33,1	46,6	8,9	9,7
Sirdaryo	0,0	0,1	28,3	22,5	64,8	67,0	6,9	10,4
Toshkent	0,0	0,1	48,9	35,6	40,5	51,9	10,6	12,4
Farg'ona	0,0	0,1	50,3	33,5	40,1	55,2	9,6	11,2
Xorazm	0,0	0,0	57,1	26,9	33,3	64,4	9,6	8,7
Toshkent sh.	0,2	0,1	21,6	20,6	48,4	47,5	29,8	31,8

Ikkinchidan, mamlakatimiz mintaqalarida sanoatning yirik korxonalari tarkibida ishlab chiqarish integratsiyalarini tashkil qilish. Shuningdek, mintaqalarda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalanishda bo'lmagan ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish, shuningdek, har bir kichik sanoat zonalarida yuqori qo'shilgan qiymatlar zanjirini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan yangi loyihalarni amalga oshirish.

Uchinchidan, mintaqalarda aholi va tadbirkorlik subyektlariga foydalanishda bo‘lmagan yer uchastkalarini qishloq xo‘jaligida foydalanish, xusana meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlarni yetishtirish uchun tegishli davrda bu yer maydonlarini obodonlashtirish, ularni daromad olinuvchi manbalar holatiga keltirish maqsadida bepul asosda uzoq muddatga ijaraga berishni joriy qilish.

To‘rtinchidan, mintaqalar markazlarida foydalanishda bo‘lmagan bino va inshootlarni kichik biznes subyektlariga samarali yo‘l xaritalari asosida ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirish sharti bilan uzoq muddatga foydalanish uchun bepul asosda berish hamda ushbu bino va inshootlar doirasida molk-mulk solig‘idan ozod qilish.

Beshinchidan, qishloq xo‘jaligida serhosil meva-sabzavot ekinlarini ekish, naslli chorva mollarini yetishtirish, tayyor mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash jarayoniga zamonaviy innovatsion, resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratsin.

Tayanch so‘zlar: omillar, indikatorlar, salohiyat, mehnat resurslari, tartibga solish, xorij tajribasi, samara, integratsiya, yalpi hududiy mahsulot, qishloq xo‘jaligi, sanoat.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonning hududiy rivojlanishida xorij tajribasidan foydalanishga qanday izoh berasiz?
2. O‘zbekistonning mintaqaviy rivojlanishida hududiy yalpi mahsulotni o‘rni nimadan iborat?
3. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish omillari nimadan iborat?
4. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish indikatorlari nimadan iborat?
5. Mintaqaning rivojlanish strategiyasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rni nimadan iborat?
6. Mintaqaning rivojlanish strategiyasida sanoat tarmog‘ining o‘rni nimadan iborat?
7. Mintaqa rivojlanish strategiyasi amalga oshirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish tahlili nimalardan iborat?

VI BOB. MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

6.1. Mintaqaviy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishni xorij tajribasi.

6.2. Mamlakatimiz mintaqalarining iqtisodiy salohiyatini baholash.

Xorij tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bironta mamlakat mintaqaviy rivojlanish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan shug'ullanadigan boshchilik qiladigan davlat organiga ega emas. Ushbu funksiya bir nechta markaziy mahkamalar o'rtasida taqsimlanadi. Qoidaga ko'ra, u bir-ikkita yetakchi yoki muvofiqlashtiruvchi organlarga topshiriladi.

1-jadval

Mintaqaviy rivojlanish siyosatini muvofiqlashtiruvchi organlar⁵⁰

№	Mamlakat	Mahkamalar
1	Germaniya	Transport, qurilish va turar joy xo'jaligi vazirligiga biriktirib qo'yilgan
2	Italiya	Mintaqalar ishlari bo'yicha vazirlik, Ispaniyada – Rejalashtirish bo'yicha Bosh ma'muriy kengash tomonidan
3	Niderlandiya	Uy-joy xo'jaligi, muhitni jismoniy rejalashtirish va muhofaza qilish vazirligi tomonidan
4	Avstraliya	Jismoniy rejalashtirish vazifalari unga yuklatilgan shaharlar bo'yicha qo'mita tomonidan
5	AQSH	Mintaqaviy siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish bilan Savdo vazirligi tarkibiga kiradigan va uning faoliyati asosida qoloq va depressiv mintaqalarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish yotadigan Iqtisodiy rivojlanish ma'muriyati shug'ullanadi

Ko'plab mamlakatlarning oliy qonuniy chiqaruvchi organlari uchun mintaqaviy siyosat bo'yicha maxsus qo'mitalar (komissiyalar) mavjudligi xosdir, ikki palatali oliy qonuniy chiqaruvchi organlar faoliyat ko'rsatadigan mamlakatlarda esa yuqori palata ko'pincha

⁵⁰Муаллиф томонидан ўрганилган адабиёт манбалари асосида тузилган

Mintaqalar palatasini ifodalaydi. Bu masalan, shu bilan ham tasdiqlanadiki, AQSH Senatida har bir shtatdan ikkitadan saylangan vakil ishtirok etadi, Germaniya Bundestagida har federal yer aholi sonidan kelib chiqqan holda 3-5 ta saylangan vakillar bilan ifodalangani, fransuz parlamentida esa parlamentariylarning yarmi shaharlar merlari hisoblanadi.

Mintaqaviy rivojlanishni tartibga solish nafaqat davlat, uning ma'muriy va qonuniy chiqaruvchi organlari, balki turli xildagi konsalting, loyiha, ekspert tadqiqot tashkilotlarining ham faoliyat sohasi hisoblanadi.

Germaniyada faoliyat ko'rsatadigan mintaqaga oid tashkilot Qo'mitasini Germaniya kansleri rais sifatida boshqaradi, qo'mitaning a'zolari esa mintaqaviy rivojlanishning turli jihatlari uchun javob beradigan federal vazirlar hisoblanadi. Muvofiqlashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish federal va yerlar miqyosidagi vazirlarni birlashtiradigan hududga oid yo'naltirish bo'yicha vazirlar konferensiyasida amalga oshiriladi. Mintaqaga oid tashkilot bo'yicha maslahat qo'mitasi yetakchi vazirliklar bilan bevosita ishchi aloqaga egadir. Tahliliy hisobotlar tayyorlash, mintaqaviy rivojlanish bo'yicha takliflar va loyihalarni ekspertiza qilish jamaotchilik instituti maqomiga ega bo'lgan qurilish va mintaqaga oid rejalashtirish bo'yicha Agentlik tomonidan amalga oshiriladi (2-jadval).

Fransiyada muvofiqlashtirish funksiyalari Hududlarni obodonlashtirish va mintaqaviy rivojlanish bo'yicha Delegatsiya (DATAR) tomonidan amalga oshiriladi. Hududlarni obodonlashtirish va rivojlantirish bo'yicha Idoralararo qo'mita (SIADT) tomonidan DATAR takliflarini hisobga olgan holda qarorlar qabul qilinadi, Hududlarni obodonlashtirish bo'yicha Milliy qo'mita tomonidan esa milliy hukumat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va Yevropa ittifoqi bilan muvofiqlashtiriladigan mintaqasiyosatini amalga oshirish bilan bog'liq takliflar tayyorlanadi. Milliy qo'mita tomonidan, shuningdek, mintaqaviy rivojlanish rejalarni tayyorlash ham amalga oshiriladi. Yuqorida aytib o'tilgan institutlar tomonidan tanlab olingan loyihalar Hududlarni obodonlashtirish va rivojlantirish Fondi (FNADT)⁵¹ tomonidan moliyalashtiriladi.

⁵¹Антропов В. В. Шведский опыт социального обеспечения. Современная Европа. — № 4. — 2006. — С. 79.

Xorijiy mamlakatlarda davlatning hududiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga mas'ul bo'lgan tishkilotlar⁵²

№	Mamlakat nomi	Davlat organi	Hududlarni kompleks rivojlantirishdagi
1.	Latviya	Atrof-muhitni himoya qilish va mintaqaviy rivojlantirish vazirligi	Davlat darajasida hududiy siyosatni amalga oshirish va baholash, hududiy rivojlanishni rejalashtirish bo'yicha metodik tamoyillarni belgilash va ushbu jarayonni nazorat qilish, mamlakatni barqaror rivojlantirish maqsadlariga mos ravishda mahalliy davlat organlarini rivojlantirish va ular faoliyati bhyicha nazoratini olib borish
2.	Chexiya	Mintaqaviy rivojlantirish vazirligi	Hududiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, uy-joy siyosatini belgilash, uy-joy fondini rivojlantirish, turar va noturar joylarini ijaraga berish, hududiy rejalashtirish, qurilish qoidalarini belgilash, investitsiya siyosatini yuritish, turizimni rivojlantirish
3.	Germaniya	Iqtisodiyotni hududiy tashkil etish qo'mitasi	Iqtisodiyotni hududiy tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, hududiy rivojlanish bo'yicha tahliliy hisobotlar tayyorlash, hududiy loyihalarni ekspertiza dan o'tkazish, hududlarni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish
4.	Italiya	Mintaqalar ishlari bo'yicha vazirlik	Budjet loyihasi bo'yicha takliflar ishlab chiqish, qoloq hududlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish, "Davlat - hududlar" nomli konferensiya ishini tashkil etish va o'tkazish
5.	Rossiya Federatsiyasi	Hududiy rivojlanish vazirligi (2014-yilgacha)	Rossiya Federatsiyasi subyektlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, Rossiya Federatsiyasi subyektlari o'rtasidagi vakolat, vazifa va funksiyalarini taqsimlash va boshqarish, xalqoro aloqalarni rivojlantirish sohalarida davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish
6.	Qozog'iston Respublikasi	Hududiy rivojlanish vazirligi (2014-yilgacha)	Mintaqalarni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida tarmoqlararo va mintaqalararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish, tadbirkorlikni, shu jumlandan, ijtimoiy tadbirkorlik korporatsiyalari faoliyatini muvofiqlashtirish

⁵² Маълумотлар мамлакатлар органларининг расмий веб-сайтлари, таҳлилий материаллар ва илмий мақолалардан фойдаланиб, муаллиф томонидан тузилган

Italiyada mintaqa siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan Mintaqalar ishlari bo'yicha vazirlik, «Davlat – mintaqalar» Konferensiyasi shug'ullanadi. «Davlat – mintaqalar» Konferensiyasi bir oyda ikki marta to'planib turadi. Unda mamlakatning barcha mintaqalari vakillari, zarur hollarda esa u yoki bu vazirlik vakillari ham ishtirok etadi.

Konferensiya chaqirish huquqi Vazirlar kengashiga birlashtirib qo'yilgan. U bitta ovozga, shuningdek, hamma mintaqalar birga olinganda ular ham bitta ovozga ega (ya'ni 50%dan ovozlarga egadirlar). Konferensiya oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalar budjet loyihasiga muvofiqlashtirilgan takliflar tayyorlash, shuningdek, sust rivojlangan mintaqalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Ispaniyada mintaqaviy iqtisodiy siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish Rejalashtirish bo'yicha Bosh ma'muriy kengash, Muxtor (avtonom) jamoalar moliyaviy siyosati bo'yicha Kengash, Mahalliy ma'muriyat milliy komissiyaning alohida vazifalari hisoblanadi. ular bilan bir qator, mintaqaviy rivojlanishning ma'lum bir jihatlarini tartibga solish bilan markaziy hukumat va muxtor (avtonom) jamoalar qo'shma komissiyalari (assotsiatsiyalar, konferensiyalar) ham shug'ullanadi.

AQSHda mintaqaviy korporatsiyalar birinchi navbatda, infratuzilma obyektlarini barpo etgan va modernizatsiya qilgan holda mintaqalar rivojlanishini rag'batlantirish bilan funksional shug'ullanadigan kompleksli chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Xususan, mamlakatning Janubiy-Sharqiy qismida joylashgan Tennesi daryosi vodiysini rivojlantirish bo'yicha davlat korporatsiyasi dunyoda shuhrat qozongan AQSH mintaqaviy dasturlashiga misol bo'la oladi⁵³.

Niderlandiyada faoliyat ko'rsatadigan beshta davlat investitsiya kompaniyasining har biri o'z faoliyat sohasiga ega. Masalan, LIOF Janubiy Limburgni mintaqaviy rivojlantirishda ishtirok etgan kompaniyalardan biri hisoblanadi. Ustav kapitalining 91%i markaziy hukumatning ulushi hisoblanadi, Limburg provinsiyasi ustav kapitalining 8%iga ega, munitsipalitetlar ulushi 1%ga teng. Xuddi shunday funksiyalarni bajaradigan mintaqaviy investitsiya kompaniyalari

⁵³Бачило И.Л. Правовая основа решения региональной проблемы (Опыт освоения ресурсов долины Теннеси). Регион: экономика и социология. — М., 1992. — Вып. 1. — С. 54-64.

Belgiya, Shvetsiya va Yevropaning boshqa ko‘plab mamlakatlarida ham mavjud. Turli xil muvofiqlashtiruvchi tashkilot-assotsiatsiyalar tashkil qilinishi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniya hayotning turli masalalarini hal qilishda mintaqalar birdamligining o‘shidan dalolat beradi. Bunday tashkilotlar qatoriga, xususan, Germaniyada Mintaqalar (jamoalar) milliy assotsiatsiyasi, Italiyada Mintaqalar doimiy kengashi va Kommunal assotsiatsiyasi, Niderlandiyada Mahalliy hukumat organlari assotsiatsiyasi, Shvetsiyada Shaharlar kengashlari assotsiatsiyasi va Munitsipalitetlar assotsiatsiyasini kiritish mumkin. Bu assotsiatsiyalarning asosiy vazifasi xo‘jalik yuritish va boshqaruv tajribasini o‘rtoqlashish va ko‘pchilik mamlakatlarda assotsiatsiyalarni o‘zining ishbilarmonlik hamkorlari sifatida rasman tan oladigan markaziy hukumat bilan o‘zaro aloqalarda mintaqalarning umumiy manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi⁵⁴. Yevropa ittifoqi, AQSH va Xitoy mintaqaviy siyosat yuritish borasida muvaffaqiyatli tajriba namoyish etadi. YeI mintaqa siyosati bu – Yevropa integratsiyasining eng muhim elementidir.

AQSH mintaqaviy siyosatini mintaqalar rivojlanishidagi mustaqillikni rag‘batlantiradigan siyosatga klassik misol qilib keltirish mumkin.

Turg‘unlik holatidagi (depressiv) mintaqalarni rivojlantirish federal budjetdan ko‘rsatiladigan moliyaviy yordam yoki imtiyozli rejimga ega bo‘lgan tadbirkorlik hududlari yaratish bilan rag‘batlantiriladi.

Xitoy mintaqaviy siyosati uchun bosqichma-bosqichlik xosdir. Xitoy provinsiyalari avtoritar davlat hukumati negizida xalqaro mehnat taqsimotiga kiritilgan. Sanoat ishlab chiqarishi eng rivojlangan dengiz bo‘yidagi provinsiyalarda ochiq iqtisodiyot «karvonboshisi» sanalgan maxsus iqtisodiy hududlar tashkil etilgan.

Tarixiy jahon tajribasidan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, Xitoy mintaqaviy siyosati eng katta samaradorlik bilan tavsiflanadi. Xitoy sivilizatsiyasining boshqalardan farq qiladigan, barqarorligi ko‘p

⁵⁴Абалкин Л. И. Труды Вольного экономического общества. — Т. 1, М., 2000. — С. 486,


Алиев М.А. Становление и развитие инновационной экономики: опыт США и Японии. Региональные проблемы преобразования экономики. — 2015. — № 6 (56). — С. 52-55., Антропов Шведский опыт социального обеспечения. Современная Европа. — № 4. — 2006. — С. 79., Federal Trust and Other Earmarked Funds/ United States General Accounting Office. January 2001. P. 12.

jihatdan madaniy-tarixiy shakllarning mintaqaviy xilma-xilligi bilan bog‘liq.

Yirik konsolidatsiyalashgan budjetga ega bo‘lgan Yevropa ittifoqi bepul (imtiyozli) subsidiyalarni afzal ko‘radi, Sharqiy Yevropada esa turli imtiyozlar afzal ko‘riladi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarning davlat hukumati organlari bir vaqtning o‘zida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari muhim o‘rin tutishini cheksiz ravishda e‘lon qiladi va shu bilan bir paytda budjet siyosati yordamida mintaqalarning katta qismini markazga qaram bo‘lgan dotatsion mintaqalarga aylantiradi⁵⁵. Mintaqaviy rivojlanishni tartibga solish borasida xorij tajribasi u yoki bu darajada federal mintaqaviy siyosat doirasida ham, bevosita mintaqalarning o‘zida ham qo‘llanadi.

1-rasmda muammoli (depressiv) mintaqalarda hududiy iqtisodiy siyosat vositalari aks ettirilgan. Bunda rivojlanishni samarali tartibga solish yo‘li bilan mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bir tekisda emasligini pasaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shu nuqtai nazardan investitsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash vositalari muhim ahamiyat kasb etib, ularning orasida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:



1-rasm. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat vositalari (muammoli mintaqalarda)⁵⁶

⁵⁵Gudkov A. G. Areas of socio-economic development of regions. Testing. 2014. No. 8. P. 118., Sagidov Y. N. Braking factors of economic creativity: a vision of the region // Herald of the Dagestan Scientific Center, Russian Academy of Sciences. 2011. No. 43. P. 128-133.

⁵⁶Муаллифтомони данадабиётларни умумлаштириш асосида тузилган

– ASM, transport, sanoat sohasidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalar amalga oshirishga imkon beradigan mintaqalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri subsidiyalar;

– foiz stavkalarini subsidiyalash yordamida uning raqobatbardoshligini ta‘minlash hisobiga bank tomonidan moliyalashtirishni jalb qilish uchun boshlang‘ich kapitalga ega bo‘lgan loyiha aksiyadori sifatida ishtirok etishni rivojlantirishning ustuvor loyihalarini amalga oshirishni faollashtirish;

– boshqa rivojlanish institutlari bilan ittifoq tuzish uchun imkoniyatlar yaratish (kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha Davlat korporatsiyasi, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar fondi va boshqalar tashkil qilish), bu hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb qilishga imkon beradi.

Mintaqaviy muammolar dunyo mamlakatlarining ko‘pchiligi rivojlanishida, ayniqsa, jiddiy iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar bosqichlarida muhim rol o‘ynaydi. Bozor munosabatlari shakllanishining uzoq tarixi davomida ko‘plab xorijiy mamlakatlar mintaqaviy muammolarni hal qilishda samarali tajriba to‘plagan bo‘lib, bu tajriba O‘zbekistonda hozirgi sharoitlarda foydalanilishi mumkin. Albatta, hech qanday umumiy modellar va yondashuvlar mavjud bo‘lishi mumkin emas. Hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish jahon amaliyoti milliy iqtisodiyotlar xususiyatlari va rivojlanganlik darajasi, alohida mamlakatlarning davlat tuzumi, siyosiy an‘analar va xalqaro integratsiya shakllaridan kelib chiqqan holda sezilarli darajada differentsiatsiya qilingan.

O‘zbekiston uchun, eng avvalo, mintaqaviy siyosatning taomil va texnologiya masalalariga e‘tiborni kuchaytirish zarur. Mintaqaviy rivojlanishga ta‘sir etishning huquqiy, tashkiliy va boshqa mexanizmlari va taomillari eng qattiq qiziqish uyg‘otadi. Bu masalalarda xorij amaliyotida to‘plangan oddiy va murakkab usullar va pretsendentli qarorlar to‘plami mahalliy sharoitlarda ham sezilarli darajada muvaffaqiyat bilan qo‘llanishi mumkin.

Xorij tajribasidan foydalanish imkoniyati texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohasidagi mavjud o‘xshash muammolar bilan belgilab beriladi, chunki fan-texnika taraqqiyoti va

uning makonga oid diffuziyasi amalda bir xil ssenariy bo'yicha rivojlanmoqda. Natijada turli mamlakatlarda o'xshash mintaqaviy muammolar, chunonchi, iqtisodiy hududlar, markaz va chekka joylarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida differentsiatsiya vujudga kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, maqsadli dasturlar darhaqiqat ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, ham davlat miqyosida, ham mintaqaviy darajada hal qilish vositasiga aylanishga qodir hisoblanadi.

Bu borada namuna bo'la oladigan, Yaponiyada yaratilgan tizim bizningcha, mamlakatimiz sharoitlarida ham mintaqaviy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish borasida ijobiy samara berishi mumkin. uning negizida mintaqalarni rivojlantirish davlat rejalari yotadi. Bunday rejalarning vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish;
- turli iqtisodiy hududlar o'rtasidagi xo'jalik nomutanosibliklarini yumshatish;
- butun mamlakat hududida aholi uchun sharoitlarni bir xil qilish;
- ekologiyani asrash va yaxshilash.

Bu holatda iqtisodiy rayonlashtirish mamlakat mintaqasiyosatining negizi bo'lishi mumkin, u nafaqat shaharlar va subyektlar rivojlanishini rejalashtirish va iqtisodiy tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, balki butun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab bergan holda amaliy yukni ham tortadi. Iqtisodiy rayonlashtirish hukumat tomonidan tasdiqlanadigan mamlakat hududlarini kompleksli rivojlantirish uzoq muddatli rejalari va mintaqalarni rivojlantirish bo'yicha boshqa qonun hujjatlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Iqtisodiy rayonlar sxemasi doirasida hududlarning o'zini o'zi moliyalashtirishini ta'minlayigan va chora-tadbirlarni belgilab beradigan moliya va soliq tizimlari amal qiladi. Bunda ziyon ko'rayotgan mintaqalar donor-mintaqalar hisobiga dotatsiyalar oladi. Rejalashtirishda kredit, soliqlar va boshqa iqtisodiy dastaklar yordamida aholini joylashtirish va uning harakatlanishi vositasida aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishga katta e'tibor qaratish zarur⁵⁷.

Iqtisodiy rayonlashtirishning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, birinchi navbatda, infratuzilmani ixtisoslashtirishdagi rolini

⁵⁷Ш. Отобаев. “Худудларни ривожлантиришни давлат томонидан тартибга солишнинг жаҳон тажрибаси”. Т.: Прогнозлаштириш ва макроиқтисодий тадқиқотлар институти. Х-иқтисодчилар форуми. 2018, 347 б.

alohida ajratib ko'rsatamiz. Rejalarda har bir mintaqada ichida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va sanoatni ixtisoslashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Bu esa shunda namoyon bo'ladiki, nafaqat tayyorlov va umumtexnik ishlab chiqarishlarga (metall quyish, temirchilik, presslash, instrumental, kompyuter texnikasi, kichik mashinosozlik, elektronika, transport va h.k.) ega bo'lgan turli sanoat kompaniyalari timsolidagi tarmoq, balki butun hudud ehtiyojlari uchun mahsulot chiqaradigan ixtisoslashgan firmalar va korxonalar ham qo'llab-quvvatlanadi.

Shunday qilib, subyektlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirishda xorij tajribasidan quyidagilardan foydalanish mumkin:

- mintaqalar iqtisodiyotining real va ijtimoiy sektorlari korxonalari, tashkilotlari va muassasalarining foyda solig'i stavkalarini pasaytirish ko'p pog'onali amaliyotini qo'llash;

- subyektlarda budjet munosabatlarini tartibga soladigan me'yoriy-huquqiy bazada mos keluvchi o'zgarishlar kiritgan holda javobgarlik va boshqaruv funksiyalarini (demak, moliyaviy vositalarni ham) mahalliy hukumat organlari foydasiga qayta taqsimlash hisobiga mintaqalar budjet tizimining belgilab beruvchi rolini oshirish;

- fuqarolar mulk solig'i stavkalarini maksimal darajada pasaytirish, bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'linmalari faoliyatini kuchaytirishga hamda yaratilayotgan yangi ish joylari sonining o'sishiga, demak, aholining xarid imkoniyatlarini oshirish va mintaqada ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi lozim;

- soliqqa tortish stavkalari va soliqlar ro'yxatini aniqlash va belgilash jarayonlarida ishbilarmonlik faolligi sikllaridan foydalanish;

- mahalliy budjetlar daromadlaridan faqat maqsadli belgilangan yo'nalishlar bo'yicha foydalanish uchun daromadlar bazasini oshirish maqsadida mintaqaviy soliq stavkalarini qo'shimcha oshirish amaliyotini joriy qilish;

- mintaqaviy soliq stavkalarini oshirish amaliyotidan foydalanish (doimiy amal qiladigan stavkalardan yuqori);

- mintaqalar soliqqa tortiladigan bazasi diversifikatsiya darajasini oshirish, jumladan, mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish hisobiga, aksizlar tizimini rivojlantirish, imtiyozli kasblarga soliqlar

joriy qilish, lavozim huquqi, tadbirkorlik va fermerlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi hisobiga;

– mintaqaviy hukumatlarga soliq stavkalarini, jumladan, federal, mintaqaviy va mahalliy darajadagi soliqlarni tartibga solish huquqini taqdim etish;

– umummintaqaviy ijtimoiy va yordamchi infratuzilma obyektlari qurilishiga majburiy hududiy soliq stavkasi joriy qilish.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining tahlili (Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya, Turkiya va b.) bu mamlakatlar hukumatlari uni milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligi darajasini oshirishga asoslangan uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish uchun poydevor sifatida tan olganliklarini ko'rsatdi. Umuman, bu siyosatni samarali deb hisoblash mumkin, chunki faol hududiy siyosati olib borgan mamlakatlar davlat bozor munosabatlariga aralashmaslikni afzal ko'rgan mamlakatlarga nisbatan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini namoyon qildilar⁵⁸.

Mintaqaviy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektor tarmoqlarining samaradorligini oshirish zamonaviy va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni qo'llash bilan bog'liq. Mintaqaviy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy mexanizmlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Ichki bozorning davlat tomonidan faol himoyalaniishi va eksportga yo'naltirilgan siyosatning qo'llab-quvvatlanishi, boshqa tomondan tashqi savdoga erkin savdo tamoyillarining keng joriy qilinishini talab qiladi.

Hozirgi zamonda ochiq iqtisodiyotning yetakchilik mavqei jahondagi umumiy iqtisodiy tendensiyalar bilan bevosita bog'liq. Ular jumlasiga eksportga yo'naltirilgan va yuksak texnologik modellariga ega bo'lgan rivojlangan iqtisodiyotlar kiradi. Sanoati rivojlangan va daromadlar darajasi o'rtacha bo'lgan mamlakatlar ichidan faqat iqtisodiyotni eksportni rivojlantirishga yo'naltirgan mamlakatlarga uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga hamda globallashtirish va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvdan katta foyda olishga erishdi

⁵⁸Rodrick D. Trade and Industrial Policy Reform in Developing Countries: A Review of Recent Theory and Evidence // NBER working paper No. 4417 – August, 1993.

(Xitoy, Hindiston, Malayziya va b.)⁵⁹. 2008-yilda butun dunyo iqtisodiyotini qamrab olgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz yana bir bora ochiq iqtisodiyotning proteksionizmga asoslangan iqtisodiyotga nisbatan afzalligini isbotladi⁶⁰. Keskin raqobat sharoitida proteksionistik choralar hisobidan yashash, faqat shunday imtiyoz va preferensiyalarga tayanib qolgan korxonalar ochiq iqtisodiyot sharoitida xorijiy kompaniyalar bilan nafaqat tashqi, balki ichki bozorda ham raqobatlasha olmaydi.

Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida iqtisodiyotning uzoq muddat davomida barqaror rivojlanishi uchun eksportning hajmi va o'sish sur'atlarining o'zi emas, balki ularning sifat xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega⁶¹.

Axborot-boshqaruv tizimi axborotlarni ishlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan iqtisodiy-matematik usul va modellar, texnik, dasturiy va boshqa texnologik vositalar hamda mutaxassislar bo'yicha axborotlar majmuyidir.

Mintaqa darajasida axborot-boshqaruv tizimidan foydalanish natijalarini kuchaytirish imkoniyatlari AKTni biznes-amaliyotga joriy etish loyihalarini yanada sifatliroq rejalashtirish hisobidan yuzaga keladi. Davlat bunda ikki xil o'rin tutadi: korxonalarga "elektron hukumat" xizmatlarini taqdim etadi va ularning ishlashi uchun institutsional shart-sharoitlarni belgilab beradi.

Fikrimizcha, AKTning hududlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga ta'siri samarasi ko'proq quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniq namoyon bo'ladi:

– mahsulot va xizmatlar sifatini jahon darajasida ushlab turish;

⁵⁹Jackson, John J. 2000. 'The Role and Effectiveness of the WTO Dispute Settlement Mechanism'. In Susan M. Collins and Dani Rodrik, eds., *Brookings Trade Forum*. Washington, DC: Brookings Institution., Samuelson P., Nordhaus W. *Economic*. New York. Mc.Graw-Hill Book Co.1985. , Rodrik D. *Developing countries after the Uruguay round// International monetary and financial issues for the 1990s*. - N.Y., Geneva. 1996. Vol. 7. P.35.; Krugman P. In *International Trade and Trade Policy*. MITPress.NewYork. 1991., С Чепель и др. Методические подходы к разработке сценарных условий и макроэкономическому прогнозированию. ПРООН.Т.: 2010. 7 с.; Исаджанов А.А. Развитие внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан в условиях перехода к рыночным отношениям. /Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук.–Т.: УМЭД, 2001. С. 43.; Хакимов Ф.Х. Экономический механизм повышения экспортного потенциала промышленности Узбекистана. /Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Т.: ИЭ АН РУз, 2004. С. 25.

⁶⁰ Умаров Т.А. Глобализация жароёнида миллий иқтисодиёт ривожланишининг назарий жиҳатлари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: ТМИ, 2011. 9 б.

⁶¹Guerson, A. Parks, J. Torrado, M. (2007) *Export Structure and Growth: A Detailed Analysis for Argentina// World Bank Policy Research Working Paper Series*.

- xalqaro moliya bozorlariga chiqish;
- o‘zgarishlarga (texnologiyalar, iste‘mol afzalliklari, savdo shartlaridagi) jadal moslashuvchanlik;
- ichki bozorda mustahkam mavqega ega bo‘lish;
- mahsulot tannarxini tezkor va to‘liq hisobini olib borish.

P.Lindertning talab ustuvorligi hamda M.Porterning xalqaro raqobatbardoshlik nazariyalariga muvofiq, ichki bozordagi raqobatbardoshlik xalqaro raqobatbardoshlikning zarur sharti hisoblanadi. Bunda so‘z, birinchi navbatda, milliy kompaniyalarning hududiy bozorlarda (shu jumladan import) tovar va xizmatlar yetkazib beruvchilar bilan raqobatlasha olish qobiliyati ustida bormoqda. Ikkinchidan, kompaniyalarning milliy bozordagi ulushining kengayib borishi hisobidan eksport salohiyati ortib boradi.

Bozor sharoitlarida raqobatbardoshlikni samarali boshqarishni tashkil etish uchun hududiy boshqaruvning malaka va tajribasining o‘zi yetarli bo‘lmaydi, bunda yana katta ko‘lamdagi axborotlar va boshqaruv jarayonlarini kompyuterlashtirishning zamonaviy tahlil vositalaridan ham foydalanish talab etiladi. AKTdan foydalanish hududlarga bozor axborotlarining tarqalish xarajatlarini kamaytirish hisobidan faoliyatlariga doir geografik hamda boshqa cheklovlarni yengish imkoniyatini beradi⁶².

Raqobatbardoshlikni hududiy boshqarish tizimida turli darajadagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hajmi bo‘yicha ham, mazmuni bo‘yicha ham turli ma‘lumot va axborotlar talab etiladi. Axborot ta‘minotini loyihalashtirishda eng murakkab bosqich boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etadigan har bir foydalanuvchining axborot ehtiyojlarini aniqlab olish bosqichi hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun hududiy resurslardan foydalanish jarayonlarini detallashtirish; bozor segmentini, raqobatchilar doirasi va ularning imkoniyatlarini aniqlab olish; korxonalar va mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini baholash; raqobatbardoshlikni rejalashtirish, baholash va tahlil qilishda ishtirok etuvchi foydalanuvchilar doirasini, ularning huquq, majburiyat va mas‘uliyatlarini aniqlab olish; ya‘ni hujjatlar shaklini ishlab chiqish va ularni muayyan

⁶²Портер М. Международная конкуренция: Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В. Д. Щетинина. –М.: Междунар. отношения, 2005.859 с.; Линдерт П. Экономика мирохозяйственных связей. –М.: Прогресс, 1992. 514 с.

foydalanuvchiga taqdim etish muddatlarini belgilab olish kabi muayyan vazifalarni amalga oshirish uchun har bir foydalanuvchining axborotga bo'lgan ehtiyojini aniqlash; foydalanuvchining talabida ko'zda tutiladigan axborotlar majmuhini aniqlab olish talab etiladi. Foydalanuvchining raqobatbardoshlik holati to'g'risidagi axborotga ehtiyojini aniqlashda quyidagilarga: hududning ichki va tashqi marketing muhitini kompleks o'rganishga asoslaniladi.

AKT dan elektron tijorat maqsadlarida foydalanish hududlarning noqulay geografik o'rnini, uning muhim savdo kommunikatsiyalaridan uzilib qolganligi va milliy biznesning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan boshqa salbiy omillarni ham yengib o'tish uchun imkoniyat beradi. Elektron tijorat tovar va xizmatlar bozorida sodir bo'ladigan operatsiyalarning ochiqlik darajasini ko'tarishga, raqobat muhitini rivojlantirish va resurslarga bir xilda ega bo'lishni ta'minlashga, o'zbek ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarishga, tadbirkorlik faoliyatining yangi standartlarini tasdiqlashga yordam beradi.

Mintaqa iqtisodini boshqaruv tizimida marketing faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv tashkiliy tuzilishini qayta tashkil etishni ko'zda tutib, bu jarayonda mapalliy boshqaruv organlari o'rtasida boshqaruv vazifalari qayta taqsimlanadi va marketing bo'limiga strategik muhim bo'lgan vazifalar topshiriladi. Mintaqaviy iqtisodiyotda marketingning strategik rivojlanish vositasi sifatidagi roli ancha oshib boradi va qayta ishlash tarmoqlaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozordagi tahdidlarga javob bera olishi unga barqaror rivojlanish imkonini beradi.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarini tahlil qilish asosida hududlarda qayta ishlash tarmoqlarini marketing tizimini shakllantirishning metodologik jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– raqobatbardosh bozorlar qaror topishida institutsional o'zgarishlarning roli va tranzaksiya xarajatlari nazariyasi (T.Veblen, D.Nort, D.Kommons va boshqalar);

– tovar siyosatini baholash metodologiyasi va bozordagi raqobat pozitsiyasini aniqlash uslublari (F. Kotler, Ye. Dixtel, X. Xershgen va boshqalar);

– marketing tadqiqotlari usullari va marketing strategiyasini tatbiq etishning institutsional mexanizmlari (N. Malxotra, Dj. O’Shonessi va boshqalar);

– kichik tadbirkorlikning bozordagi faoliyati o‘ziga xosliklarini o‘rganish hamda firmalarning kuchli va kuchsiz tomonlarini tadqiq etish (Y. Shumpeter, P. Djanster, D. Xassi va boshqalar);

○ tovar raqobatchilikning omilli modeli, tovarning sifati, narxi va bozordagi ulushini belgilab beruvchi omillar asosida o‘rganish (P. Doyl, M. Porter va boshqalar);

– iste’molchining bozorda o‘zini tutish nazariyasi va bozordagi talabni e’tiborga olish konsepsiyalari (M. Stoun, N. Vudkok, L. I. Mechtinger va boshqalar);

– kompaniyalarning imidji, obro‘si va brendini shakllantirishdagi tadqiqotlar (Dj. Eytchison, Dj. Evans, B. Berman, D. Aaker va boshqalar);

– kompaniyalarning raqobatli ustunliklarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash vositalarini aniqlash, marketing strategiyalarini tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish (Dj. Igan, P. Dikson va boshqalar)⁶³.

Amaliyotda mavjud qayta ishlash korxonalarida marketing tizimini shakllantirishda quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

– boshqaruvda: past boshqaruv darajasi, bozor munosabatlariga oid maxsus bilimlar va tajribaning yetishmasligi, xodimlarni boshqarish darajasining yetarli emasligi va boshqalar;

– infratuzilmada: qayta ishlash korxonalarini rivojlanishi uchun yetarli bo‘lmagan infratuzilma (ayniqsa qishloq joylarida), muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish, axborot ta’minoti darajasi va h.k;

– institutlarda: qayta ishlash korxonalarini konsalting qo‘llab-quvvatlash darajasining yetarli emasligi, davlat-xususiy sheriklik tizimining rivojlanmaganligi, franchayzing, autsorsing, kooperatsiyadan foydalanish darajasining pastligi va hokazo;

⁶³Котлер, Ф. Маркетинг менеджмент. Экспресс-курс / Ф. Котлер; 2-е изд. - СПб. : Питер, 2006. - 464 с., Иган, Дж. Ўзаро муносабатлар маркетинги: Маркетинг стратегияларининг ўзаро муносабатлар асосида таҳлили / Дж. Иган; ингл. тарж. - М. : ЮНИТИ, 2008. - 375 с., Эйтчисон Дж. Яшиндек реклама. XXI асрда брендларнинг жаҳонда энг аъло чоп этилган рекламасини қандай яратиш керак -2-нашр. М.: Вильямс, 2007. -512 б.

– marketingdan foydalanishda: bozorlar holati va konyukturasi haqida to‘liq va haqqoniy ma’lumot yetarli emasligi, rivojlanishning bir mahsulot modeliga yo‘naltirish mumkin emasligi, eksport bozorlarini o‘rganish va ixtisoslashgan marketing xizmatini yaratish imkoniyatlari cheklanganligi va hokazo.

Jahon amaliyotidan hududlarni rivojlantirishning uch xil ehtimoliy varianti ma’lum bo‘lib, ular shundan iborat: ilg‘or va boy hududlarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash zarur, qolganlar esa boy hududlar hisobiga mavjud bo‘lishi mumkin (AQSH); barcha hududlarda taxminan bir xil turmush sharoitlarini qo‘llab-quvvatlash, ularda soliqqa tortish, bandlik va turmush darajasini tartibga solish lozim (Germaniya); eng kambag‘al hududlarni qo‘llab-quvvatlash lozim, boylar esa mustaqil rivojlana oladi (Skandinaviya mamlakatlari)⁶⁴.

Bozor iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan davlatlarda korxonalar darajasida ham, mintaqalar miqyosida ham katta tajriba to‘plangan. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy va tarixiy sharoitlar rivojlanish borasida boshqa mamlakatlardan farq qiladi. O‘zbekistonda hozirgi sharoitlarda Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya va boshqa mamlakatlarning mintaqaviy siyosat borasidagi tajribalarini moslashtirish ma’lum bir darajada foyda keltirgan bo‘lardir. Buyuk Britaniyada ijtimoiy-iqtisodiy keskinlik an’anaviy tarmoqlar – ko‘mir qazib chiqarish, po‘lat ishlab chiqarish va to‘qimachilik markazlashgan sanoat aglomeratsiyalarida eng kuchli namoyon bo‘lgan. Eng turg‘unlik (depressiv) holatidagi mintaqa Markaziy Shotlandiya bo‘lgan. Germaniyada ko‘mir qazib chiqarish va metallurgiyaga ixtisoslashgan Rur eng turg‘unlik holatidagi mintaqa bo‘lgan. AQSHda bunday mintaqalar qatoriga ishchilik darajasi yuqori va daromad darajasi past bo‘lgan hududlar kiradi. Bunga klassik misol – Appalach mintaqasi. Italiyada qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan janubiy mintaqalar ajratib ko‘rsatiladi. Har bir mamlakatda mintaqalarni inqirozli holatdan olib chiqish bo‘yicha individual yondashuv qo‘llanadi.

⁶⁴ Armstrong H, Taylor J. Regional Economics and Policy. 1993.Part II., European Regional Incentives.1997-1998 Edition. BowkerSaur,1997.

Quyida keltirilgan 14-jadvalda mintaqalar holatini yaxshilash uchun alohida olingan mamlakatlar miqyosida amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbirlar keltirilgan.

3-jadval.

Xorijiy mamlakatlarda mintaqalarni boshqarish bo'yicha asosiy chora-tadbirlar⁶⁵

№	Mamlakat	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
1	Buyuk Britaniya	<ul style="list-style-type: none"> – turg'unlik holatiagi mintaqalarda ishlab chiqarishni joylashtirish va uning o'sishini rag'batlantiradigan moliyaviy chora-tadbirlar (kapital qo'yilmalarga kafolatlar, zayomlar, soliq imtiyozlari, bandlik uchun mintaqaviy mukofotlar va b.); – davlatning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani, birinchi navbatda, transport va turar joyni rivojlantirish bo'yicha bevosita investitsion faoliyati; – sanoat tadbirkorligiga ruxsat berishni ko'zda tutadigan sanoat qurilishi ustidan negativ nazorat choralari.
2	Germaniya	<ul style="list-style-type: none"> – soliq imtiyozlari va maxsus mukofotlar ko'rinishida mintaqqa infratuzilmasi va bandlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan ilg'or tarmoqlarda (elektronika, yuqori texnologiyali mashinasozlik, axborot tizimlari, xizmatlar sohasi va b.) faoliyat ko'rsatadigan yangi firmalarni qo'llab-quvvatlash; – an'anaviy tarmoqlarga (metallurgiya majmuyi) va sarflanadigan davlat investitsiyalari va xususiy innovatsion kapital; – vujudga kelgan muammolarni o'z kuchlari bilan hal eta olmaydigan mintaqalarga qo'shimcha yordam ko'rsatiladi; – barcha yerlarni qayta strukturalash va rivojlantirish uchun umumiy sxema ta'minlanadi; – yerlar o'rtasida raqobatni istisno qiladigan yordam ko'rsatish tizimlari yaratiladi.
3	Amerika Qo'shma Shtatlari	<ul style="list-style-type: none"> – iqtisodiyotda tugallangan ishlab chiqarish sikllarini rag'batlantirish, eng chetki ishlab chiqarish va yetkazib qayta ishlashni tayyor mahsulotning maksimal darajasiga yetkazish. Boshqacha qilib aytganda, sovet olimlari tomonidan ishlab chiqilgan energo-ishlab chiqarish sikllari

⁶⁵Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

		<p>konstruksiyasidan foydalanildi;</p> <ul style="list-style-type: none"> – mintaqaning potensial bozori va joylashuvidan kelib chiqqan holda foyda olishga qodir bo'lgan yangi tarmoqlarni mintaqaga jalb qilish; – rekreatsion resurslarni rivojlantirish; – qishloq xo'jaligini, jumladan, shahar yaqinidagi qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish; – har bir alohida olingan mintaqada bandlik va daromadlili darajasini kengaytirish, uning sanoat salohiyatidan foydalanish.
4	Italiya	<ul style="list-style-type: none"> – tarkibli jihatdan zaif mintaqalarda negativ omillar ta'sirini minimallashtirish hamda ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish; – qulay «biznes-muhit» yaratish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyi; – uzoq muddatli va raqobatbardosh ish joylari yaratish, mehnat bozorida vaziyatni barqarorlashtirish.
5	Fransiya	<ul style="list-style-type: none"> – har bir mintaqaga uchun moliyaviy ajratmalar zaruriy miqdori, ta'sirni baholash va monitoring amalga oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlar; – xodimlarni qayta o'qitish, tadqiqotchilik ishlari o'tkazish, mintaqalar farovonligini oshirishga yo'naltirilgan OTM va boshqa davlat strukturalarini moliyalashtirish; – grantlar va maslahatlar taqdim etish yo'li bilan kichik korxonalar uchun biznes-muhitni yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish va bandlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar.

Umuman olganda, turg'unlik holatidagi hududlarda o'tkaziladigan chora-tadbirlar ko'plab mamlakatlarda o'xshashib ketadi. Mintaqalarda bandlikni oshirish, biznes va ishlab chiqarishni rag'batlantirish asosiy ahamiyatga ega. Biroq ayrim mamlakatlar bir vaqtning o'zida barcha mintaqalarni sog'lomlashtirish bo'yicha kompleksli chora-tadbirlarni amalga oshiradi, boshqalar esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash uchun iqtisodiy jihatdan qo'lg'usiz mintaqalarga ko'proq e'tibor qaratadi. Mintaqaviy siyosat muvofiqlashtirilgan siyosiy yondashuv mavjudligini nazarda tutadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu muammolarni hal qilishda Yevropa Komissiyasi – qisman Mintaqaviy

siyosat bo'yicha Direktorat faoliyati orqali, shuningdek, Bozor munosabatlari siyosati bo'yicha Direktoratning nazorat funksiyalari orqali faol ishtirok etadi (4-jadval).

4-jadval.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mintaqaviy siyosat chora-tadbirlarini amalga oshirish⁶⁶

№	Mamlakat	Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish
1	Avstriya	Barcha siyosiy sohalarda loyihalarni muvofiqlashtirish masalalari bilan Federal kansler Ma'muriyati shug'ullanadi (uning tarkibiga mintaqaviy siyosat bo'yicha maxsus departament ham kiradi).
2	Belgiya	Yordam ko'rsatish haqida qarorlar yirik davlat-xususiy sherikliklar uchun mintaqaviy ma'muriyat tomonidan qabul qilinadi, qolgan qarorlar esa Mintaqaviy Iqtisodiyot vazirligi tomonidan qabul qilinadi.
3	Gresiya	Mintaqaviy siyosat yuritish bo'yicha barcha majburiyatlar amalda Milliy iqtisodiyot vazirligiga yuklatilgan.
4	Irlandiya	Davlat idoralar tomonidan amalga oshiriladi (IDA-Ireland va EnterpriseIreland).
5	Luksemburg	Mintaqaviy siyosat bo'yicha qarorlar Iqtisodiyot vaziri va Moliya vaziri bilan birgalikda qabul qilinadi.
6	Portugaliya	Mintaqaviy siyosat yuritish uchun barcha javobgarliklar Mintaqaviy rivojlanish va rejalashtirish vazirligining Mintaqaviy rivojlanish bo'yicha Bosh direktoratiga yuklatilgan.
7	Finlandiya	Ichki ishlar vazirligi mintaqaviy siyosatni shakllantirish uchun javob beradi, mintaqaviy siyosat yuritish uchun javobgarlik, shuningdek, turli markaziy vazirliklarga ham yuklatilgan.
8	Shvetsiya	Sanoat, savdo va rivojlanish Vazirligi huzurida bo'linmalar tashkil etilgan bo'lib, ularning vakolatlari qatoriga sust rivojlangan hududlarga nisbatan mintaqaviy siyosat ishlab chiqish, siyosat yuritilishi va Yevropa Komissiyasi bilan aloqalarni amalga oshirish ustidan nazorat kiradi.

Ma'lum bir mintaqqa iqtisodiyotining samarali rivojlanishini ta'minlash uchun nafaqat mintaqaviy siyosat bilan shug'ullanadigan davlat organlari tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki bunday rivojlanishdan manfaatdor bo'lgan keng doiradagi shaxslar va

⁶⁶ Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

tashkilotlar yordami ham talab etiladi. Mamlakatning davlat tuzumi mintaqaviy siyosat borasida vakolatlarni boshqalarga berish yoki nomarkazlashtirish darajasini belgilab beradi⁶⁷.

Hozirgi paytda YeIga a'zo bo'lgan mamlakatlarning ko'pchiligi mintaqaviy siyosatning asosiy vositasi sifatida belgilangan investitsiyalar summasiga teng bo'lgan dotatsiyalar, ish joylari yaratilishi bilan bog'liq subsidiyalar, kreditlar va h.k.ni o'z ichiga oladigan moliyaviy rag'batlantirishdan foydalanadi.

Bunday usullar firmalarni muammoli hududlarga mablag'lar investitsiya qilish yoki ishlab chiqarishni joylashtirishga qiziqtirib qo'yishi ko'zda tutilgan. Ushbu vositalar deyarli barcha YeI mamlakatlarida keng qo'llanadi.

Infratuzilmaning «yumshoq» elementlari qatoriga axborot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, konsalting faoliyati, ilmiy tadqiqotlar va h.k. kriadi. Shimoliy Yevropa mamlakatlari mintaqaviy siyosatning amal qilish sohalarini kengaytirish bo'yicha choralar ko'radi hamda katta va boy tajribasi bilan ajralib turadi⁶⁸.

Shunday qilib, ko'plab mamlakatlarda mintaqaviy siyosat juda yaxshi o'rnak va tajriba bo'lib xizmat qilishi mumkin, u har bir holatda individual bo'ladi, chora-tadbirlar esa har bir alohida olingan mintaqalar imkoniyatlarini hisobga olishi talab etiladi. Ilgari hududiy dasturlar investorlarni mintaqalar va ularning infratuzilmalariga jalb qilishga qaratilardi, bu esa kutilgan natijaga olib kelmasdi, mintaqalar o'rtasidagi nomutanosibliklar saqlanibgina qolmasdan, afsuski, yanada chuqurlashardi. O'zbekistonda davlat mintaqaviy siyosati shunga o'xshash ssenariy bo'yicha rivojlangan. Dastlab infratuzilmalarda uchun investitsiyalarda ustuvorlik bo'lgan, aynan ular qoloq subyektlarni rivojlantirishga ko'maklashishi ko'zda tutilgan. Turg'unlik holatidagi mintaqalar haqida hujjatlar qabul qilish (misol uchun, Orol bo'yi hududi) va ularga nisbatan maxsus choralar ko'rishga harakat qilindi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi "Andijon viloyatining Bo'z tumanida sanoat, xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 694-sonli

⁶⁷Емельянов Е.В., Аксенов П.А. Региональная политика Европейских государств // Вопросы новой экономики. 2011. №3 (19). С.19- 23; Хомерики Н.Б. Отечественный и зарубежный опыт развития региональной политики // Вопросы экономики и права. 2011. № 9. С. 38-41.

⁶⁸Открытые системы [электронный ресурс] // <http://www.osp.ru/>

qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi “Andijon viloyatining Baliqchi tumanida sanoat, xizmatlar sohasi va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 693-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-iyundagi “Namangan viloyati Kosonsoy tumani aholisining bandligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 439-sonli Qarori va b.). Lekin shunga qaramay, aniq bo‘lmoqdaki, davlat ko‘p sonli mahalliy subyektlarning barchasiga mablag‘ kiritishni ta‘minlay olish ancha murakkab muammo.

Kompleksli davlat rivojlanish dasturi hududni samarali boshqarish vositasi bo‘lishi mumkin bo‘lib, unda mintaqaning dolzarb muammolari aniqlanishi, ularni hal qilish va kelgusida amalga oshirish usullari ochib berilishi lozim.

Taqdim etilgan dastur mintaqaviy hukumat organlari tomonidan ham, mahalliy tashkilotlar, qo‘shni hududlar va ilmiy hamjamiyat tomonidan ham ishlab chiqilishi zarur. Davlat dasturini ishlab chiqish uchun mintaqalarni ularning hududiy joylashuvi bo‘yicha va o‘xshash muammolar asosida birlashtirish mumkin. Vaqt bo‘yicha qat‘iy chegaralanganlik ushbu dasturning muhim xususiyatiga aylanishi lozim.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari samaradorligini oshirish uchun davlat dasturlarini tashqi sharoitlarga moslashtirish jarayonini yaxshilash lozim. Buning uchun AQSH, Kanada va Polsha kabi xorijiy mamlakatlar tajribasiga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Misol tariqasida 2007–2013-yillarda Polshaning turg‘unlik holatidagi mintaqalarini rivojlantirish dasturini keltirib o‘tish mumkin.

Ushbu dasturda mintaqalarning kelgusi rivojlanishini to‘xtatib turgan dolzarb muammolar nuqtai nazaridan alohida olingan mintaqalarni keng ko‘lamli baholash ko‘zda tutiladi; hududlar raqobatbardoshlik jihatlari, shuningdek, inqirozni bartaraf qilish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish to‘liq tahlil qilinadi. Polsha dasturi YeI va mahalliy hukumat organlari, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor shaxslar – mahalliy xususiy tashkilotlar ishtirokida ishlab chiqilgan. Barcha resurslar bittayu bitta dastuda muvofiqlashtirilgan, bunda dasturning ta‘sir ko‘rsatish davri davomida samaraga ega bo‘lishdan umid qilinadi⁴.

Polshani rivojlantirish siyosatini amalga oshirish va uning asoslarini belgilash, xususan, uning makonga oid siyosati bilan shugʻullanadigan asosiy hukumat muassasasi Infratuzilma va rivojlanish vazirligi hisoblanadi (2005-yildan 2013-yil noyabrgacha – Mintaqaviy rivojlanish vazirligi). Bu vazirlik quyidagi kabi yoʻnalishlarni shakllantirish va muvofiqlashtirish uchun javob beradi:

– rivojlantirish siyosati – mamlakatning barqaror va doimiy rivojlanishini, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy birlikni taʼminlash;

– mintaqaviy siyosat – Polsha mintaqalari raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, hududiy va makonga oid birdamlikni taʼminlash;

– hududiy siyosat – Polshaning uygʻunlikdagi har tomonlama rivojlanishi va hududiy tartibni qoʻllab-quvvatlash;

– birdamlik siyosati – asosiy eʼtiborni Yevropa Ittifoqi mintaqalari oʻrtasida tengsizlikni qiskartirishga qaratish.

2009-yilning sentabrida Polsha Infratuzilma va rivojlanish vazirligi mamlakatning mintaqaviy rivojlanishini belgilab beradigan «Mamlakatni mintaqaviy rivojlantirish Strategiyasi: 2010–2020» (Krajowa Strategia Rozwoju Regionalnego. 2010–2020)⁶⁹ nomli hujjat (bundan keyin – Polsha Milliy strategiyasi) tayyorladi. Taʼkidlash joizki, ushbu hujjatni tayyorlashda Polshaning barcha mintaqalari ishtirok etgan (16 voevodstvo, 379 poyvat (shundan 314 poyvat va 65 poyvat huquqidagi shahar) va 2478 gmin).

Polsha Milliy strategiyasida mintaqaviy siyosat yangi paradigmasiga oʻtish xususiyatlari bayon qilingan. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat: mablagʻlarni anʼanaviy qayta taqsimlashdan hududlar salohiyatidan foydalanishga oʻtish; siyosatni ichki va tarmoqlararo siyosatga boʻlishdan barcha ommaviy subyektlar uchun hududlarga nisbatan vazifalar qoʻyadigan umumiy siyosat foydasiga voz kechish; yuqoridan qoloq hududlar uchun taqsimlanadigan qisqa muddatli dotatsiyalardan barcha mintaqalarga yoʻnaltirilgan uzoq muddatli nomarkazlashgan rivojlanish siyosati modeli foydasiga voz kechish; mintaqaviy rivojlanishga muayyan hududlarga yoʻnaltirilgan sektorlararo (gorizontal) yondashuv; umumiy aralashuvdan tanlama, markazlashtirilgan investitsiyalar foydasiga voz kechish; koʻp darajali

69National Strategy of Regional Development 2010-2020: Regions, Cities, Rural Areas: The document adopted by the Council of Ministers on 13 July 2010 [Electronic resource] / European Spatial Planning Observation Network (ESPON). - Mode of access:<http://www.esponontheroad.eu/library>, national-regional-development-strategy-2010-2020-regions-cities-rural-areas-nsrd-f7da. - Date of access: 15.08.2015.

boshqaruv tizimida rivojlanishga ko‘maklashish maqsadida mintaqalar rolini oshirish; turli xildagi hududlarga differentsiatsiya qilingan yondashuv (funksional ma’noda).

Mezon mazmuni nuqtai nazaridan, shuningdek, belgilangan shart-sharoitlar va davlat dasturlarini moslashtirish omillarini hisobga olgan holda quyidagilar eng muhim tamoyillar hisoblanadi:

- tashqi ta’sir doimiyliigi, eng avvalo – rivojlanish strategiyasi, shuningdek, tarmoq strategiyalari doimiyliigi, bu nafaqat ushbu hujjatlarni ishlab chiqish sifati yuqori bo‘lishi, qaytuvchan aloqa va muhit o‘zgarishlarini hisobga olgan holda tuzatishlar kiritish imkoniyati mavjudligini, balki davlat dasturlarining ular bilan bog‘langanligi va muvofiqlashtirilganligini nazarda tutadi;

- o‘zgarishlar motivatsiya qilinganligi, bu boshqaruv strukturasi va davlat xizmatchilari vakolatlarida tashkiliy o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi;

- davlat dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash jarayonlari institutsional elementlarining o‘zaro aloqalari zamon va makonga oid xarakterini hisobga olish bosqichma-bosqichligi va to‘g‘riligi;

- davlat dasturlarini amalga oshirish va baholashda boshqaruv qarorlari maqsadli yo‘naltirilganligi;

- boshqaruv qarorlarining davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish shartlariga mosligi va samaradorligi.


Mintaqaviy boshqaruv sohasida davlat siyosati mintaqadagi kompleksli chora-tadbirlar, uslubiyat va texnologiyalar asosida, yanada rivojlantirish uchun ko‘rib chiqiladigan raqobatbardoshlik shartlarini asoslab berish, ekstensiv yo‘nalishdan intensiv yo‘nalishga o‘tish strategiyasini amalga oshirish asosida ishlab chiqilishi lozim. Muvaffaqiyatli qo‘llanayotgan xorij tajribasi va hududlarni xalqaro boshqarish usullariga asoslanadigan tizim shakllantirish zarur, bu esa mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini ta’minlash, tarkibiy tuzilishini takomillashtirish kabi o‘zaro bog‘langan vazifalarni hal etishda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘lamini kengaytirish muhim rol o‘ynaydi. Hozirda respublikada amalga oshirilayotgan yangi loyihalarni hududiy rivojlanish dasturlariga kiritish, o‘zini oqlamagan, istiqbolsiz


loyihalarni dasturdan chiqarish, loyiha parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish mexanizmlari takomillashtirib borilmoqda.⁷⁰

6.2. Mamlakatimiz mintaqalarining iqtisodiy salohiyatini baholash

Mamlakatimiz mintaqalarining iqtisodiy salohiyatini baholashda qator indikatorlarni kompleks tahlil qilamiz. Bunda yalpi mintaqaiy mahsulotning mutloq qiymati va uning aholi jon boshiga hisoblangan ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. YaIMning qiymati mintaqalar bo‘yicha o‘rtacha 14445,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Farg‘ona viloyatlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori qiymatga ega bo‘lgan. Boshqacha aytganda, YaIMni shakllantirishda 2017-yilda yalpi mintaqaiy mahsulotning ulushi bo‘yicha Toshkent shahri - 15,5 foiz, Toshkent va Samarqand viloyatlari mos ravishda 9,1 va 7,1 foiz ko‘rsatkich bilan yetakchilik qildi. Yalpi mintaqaiy mahsulotning eng kam ulushi Sirdaryo – 2,0 foiz, Jizzax – 2,3 foiz, Xorazm – 3,2 foiz viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 3,2 foizni tashkil etgan (2-rasm).



⁷⁰Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3437 "О внедрении нового порядка формирования и финансирования государственных программ развития Республики Узбекистан". 18 декабря 2017 г.



2-easm. O‘zbekistonda mintaqalar bo‘yicha 2017–2019-yillarda YaIM qiymati, amaldagi narxlarda mrd. so‘m⁷¹

Misol uchun, Namangan viloyatida yuzaga kelgan iqtisodiy rivojlanish darajasi aholi bandligi, mehnat bozorining faoliyat ko‘rsatishi, mehnat resurslarini taqsimlash va foydalanishdagi dolzarb muammolar mavjudligini asoslab beradi.

Tahlilning ko‘rsatishicha, ish o‘rinlari o‘sishi viloyatda ishga joylashtirishga ehtiyoj sezadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining tez o‘shidan ortda qolmoqda. Bu viloyat aholisini viloyat hududidan tashqarida ishga joylashish uchun imkoniyat izlashga majbur qiladigan eng muhim omillardan biri sanaladi. Masalan, 2014–2018-yy. viloyatda ish bilan band aholi sonining 937,3 ming kishidan 1051,5 ming kishigacha yoki 12,2% o‘shiga qaramay, mehnat resurslari umumiy soniga nisbatan bandlik darajasi nisbatan past – 67,2% bo‘lib qolavermoqda. Natijada, hozirgi paytda (2019-yil 6-oyi) xorijiy mamlakatlarda viloyatdan 230 ming kishi yoki o‘zbekistonlik mehnat muhojirlari umumiy sonining 9,6%i mehnat faoliyatini amalga oshirilmoqda.

⁷¹Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган. URL: <https://stat.uz/uz/ochiq-ma-lumotlar> (Мурожаат санаси: 22.05.2019)

Namangan viloyatidan tashqi mehnat muhojirlari soni borasida eng katta ko'rsatkich Namangan sh. – 36,1 ming kishi (15,7%), Kosonsoy – 24,6 ming kishi (10,7%), Pop – 22,2 ming kishi (9,7%), To'raqo'rg'on – 19,5 ming kishi (8,5%), Namangan – 18,1 ming kishi (7,9%), Yangiqo'rg'on – 17,7 ming kishi (7,7%), Norin – 17,6 ming kishi (7,7%), Uchqo'rg'on tumaniga to'g'ri keladi – 17,4 ming kishi (7,6%).

Ta'kidlash joizki, ohirgi yillarda, chet elga ishlashga borish shartlari va valuta siyosati erkinlashtirilishi sababli viloyat aholisining migratsion faolligi keskin ortdi. Faqat 2017-yildan 2019-yilning 1-yarim yilligigacha bo'lgan davrning o'zida viloyatdan ishlash maqsadida xorijiy mamlakatlarga chiqqanlar soni o'sishi jami 84,5%, jumladan, Namangan sh.– 3,2 baravar, Yangiqo'rg'on – 2,4 baravar, Norinda – 2,1 baravar, Mingbuloqda – 2,0 baravarni tashkil qildi.

Bu esa shundan dalolat beradiki, oxirgi yillarda viloyatning deyarli barcha tumanlarida mehnat resurslari harakatchanligi sezilarli o'sdi.

Hozirgi paytda mehnat resurslari harakatchanlik darajasi eng yuqoriligi Kosonsoyda qayd etilgan – chet elga ishlashga ketgan jami mehnat resurslarining 18,7%i, Norin – 16,1%, Uchqo'rg'on va Namangan – 15,9%, Popda – 15,5% qayd etilgan.

Namangan sh. (9,4%), Chortoq (11,0%) va Chust (9,8%) tumanlari uchun mehnat resurslari tashqi harakatchanligi nisbatan pastroqligi xos. Umuman olganda viloyat bo'yicha mehnat resurslari harakatchanligi 12,8%ni tashkil qiladi. Mamlakatlar bo'yicha viloyatdan chiquvchi mehnat muhojirlarining asosiy qismi Rossiya, Qozog'iston va Koreya Respublikasiga yo'l oladi.

Namangan viloyatida va butun respublika bo'yicha demografik jarayonlarda ro'y berayotgan tendensiyalarni hisobga olib, viloyatning mehnatga layoqatli aholisi soni hisob-kitoblarga ko'ra, 2025-yilga kelib, 1678,8 ming kishigacha, 2030-yilga kelib 1782,1 ming kishigacha yoki 2018-yil bilan taqqoslaganda 7,3% va 13,9%ga o'sadi.

Bashorat qilinayotgan mehnat resurslari soni bandligini ta'minlash uchun 2020–2025-yy. davrida har yili 17,3 mingta, 2025–2030-yy. davrida esa 20,7 mingta yangi ish o'rni yaratish zarur.

Bunda hozirgi paytda chet elda ishlashga majbur bo'lganlar bandlik darajasining ortishi hisobga olinmaydi. Bunday sharoitlarda

tartibga solinadigan tashqi mehnat migratsiyasi hisobiga viloyat eksport salohiyatini oshirish omili sifatida tez o‘sayotgan mehnat resurslarini ko‘rib chiqish dolzarb bo‘lib qolavermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, 2019-yilning 1-aprel holatiga chet elda ishlayotgan O‘zbekiston fuqarolari soni 2,4 mln. kishini tashkil qildi, shundan 229,5 ming kishi Namangan viloyatining aholisi hisoblanadi.

2019-yil 9-oyi davomida O‘zbekiston 3,8 mlrd. dollar miqdorida pul o‘tkazmalari qabul qilgan, shundan 2,4 mlrd. dollari shaxsiy transfertlarga to‘g‘ri keladi.

Ushbu baholardan kelib chiqib, valuta transfertlari hisobiga Namangan viloyatiga 2019-yilning 9-oyi davomida 230 mln. dollar o‘tkazildi. Bunda Namangan viloyatiga tovarlar va xizmatlar eksport hajmi 2018-y. jami O‘zbekiston eksport hajmining 1,8%ini yoki 251,8 mln. dollarni tashkil qildi.

Shunday ekan, xorijda ishlayotgan mehnat muhojirlaridan olinadigan valuta transfertlari hajmi tovarlar va xizmatlar eksportidan olingan yillik valuta tushumi hajmiga deyarli tengdir.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohot qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining mustaqilligini, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni va milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishni rivojlantirish (2030-yilgacha qishloq xo‘jaligi rivojlanish strategiyasi) asosida muvozanatli va qulay (iste‘molchilarning to‘lovga qobiliyatli imkoniyatlarini inobatga olinadigan) mahsulotlar bozorini shakllantirishni nazarda tutadi. Agrar islohotni chuqurlashtirishga qaratilgan eng muhim vazifalar quyidagilardir:

- mulkchilik va boshqaruv shakllarining xilma-xilligini shakllantirish (agroklaster, kooperatsiya va b.);

- o‘z-o‘zini boshqarish usullarini ishlab chiqish (shu jumladan paxta va g‘alla ishlab chiqarishda ishlab chiqaruvchilarni mustaqilligini ta‘minlash);

- ishlab chiqarilgan mahsulotlar va olingan daromadlar bo‘yicha har xil turdagi ishlab chiqaruvchilarning mulkiy huquqlarini shakllantirish;

- oziq-ovqat mahsulotlariga moslashuvchan talabni ta‘min etuvchi rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi va oziq-ovqat bozorlarini yaratish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish vositalarining qulay bozorini shakllantirish, qishloq xo‘jaligi korxonalarini resurslar bilan ta‘minlashni takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- sohalararo va mintaqalararo mahsulot almashinuvining ekvivalentligiga erishish;
- qishloq xo‘jaligining turli sohalariga kiritilayotgan investitsiyalarni kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi majmuasini rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida uning moddiy bazasini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta‘minlash hamda noqulay bozor sharoitlaridan himoya qilish maqsadida mehnat, turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning integratsiyasi va hamkorligi tamoyillarini amalga oshirish;
- ishlab chiqaruvchilarning iste‘mol talabiga moslashuvchanlik darajasini mustahkamlash;
- qishloq xo‘jaligining qulay davlat proteksionizmini ta‘minlash, iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi sohasini huquqiy va iqtisodiy tartibga solish;
- ishlab chiqarishni rag‘batlantirish hamda samarali va sifatli ishlarni rag‘batlantirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining samarali va barqaror faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ilmiy asoslarini mustahkamlash.

Shu bilan birga yuqorida qayd etilgan holatlar qishloq xo‘jaligi sohasida investitsiya faoliyatini jadallashtirishga ko‘maklashadi:

birinchidan, bozor sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga bo‘lgan e‘tibori sezilarli darajada o‘sishi kuzatilmoqda, chunki uning tayyor bo‘lish darajasi oshgan sari sotuvdan keladigan daromad ham oshadi. Bu salohiyatli investorlarni nafaqat qishloq xo‘jaligi sohasiga, balki qishloq joylarida qisqa vaqt ichida katta daromad keltira oladigan kichik sanoat biznesi (yengil va oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari sanoati, xalq hunarmandchiligini tiklash, dam olish markazlarini yaratish va boshqalar)ni rivojlantirishga ham sarmoya kiritishga undaydi;

ikkinchidan, ushbu tarmoqlarning salohiyatini oshirish katta mablag'larni talab qilmaydi va bir-ikki yil ichida daromad keltira boshlashi mumkin;

uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatining yuqorida qayd etilgan yo'nalishlari malakali kadrlarni uzoq muddatli tayyorlashni talab qilmaydi hamda mehnat va xomashyoning asosiy qismi to'plangan qishloq joylarda joylashishi mumkin;

to'rtinchidan, qishloq xo'jaligi sohasida respublika eksport salohiyatining asosiy qismi jamlangan bo'lib, u tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish sharoitida yangi tashkil etilayotgan korxonalarni zamonaviy, jumladan, import qilinadigan texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash masalalarini samarali hal etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, isloh qilingan iqtisodiy mexanizmga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

– iqtisodiy boshqaruv usullari asosida davlat, mintaqa va xususiy manfaatlarni (ularning hamjihatlik bilan yondashgan holda) birlashtirish va amalga oshirishni nazarda tutuvchi huquqiy tizim;

– innovatsion tizim texnologiya va ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirishning progressiv tendensiyalariga asoslangan bo'lib, u innovatsiyalarga ta'sirchanlik mexanizmini yaratishni nazarda tutadi;

– tovar ishlab chiqaruvchilari, mulkchilikning turli shakllari, turli xil xo'jalik yuritish shakllarining ishlab chiqarish raqobatbardoshligini ta'minlovchi mustaqil xo'jalik yuritish va kooperatsiyasi (shu jumladan klasterlar) asosida tashkil etilayotgan tashkiliy tizim;

– ishlab chiqaruvchilarning barcha toifalari uchun ijtimoiy kafolatlar mexanizmini yaratishga imkon beruvchi ijtimoiy tizim.

Namangan viloyati qishloq xo'jaligi bugungi kunda shunday rivojlanish darajasiga yetdiki, yakka tartibdagi chora-tadbirlarni joriy etish endi sezilarli samara bermayapti – ayni damda sanoatni innovatsion yo'lga o'tishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish talab etiladi.

Tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalar asosida dehqonchilikni yuritish tizimlarini sifat jihatidan o'zgartirish qishloq xo'jaligi fanining asosiy vazifasidir. Buning uchun:

- qishloq xo‘jaligini innovatsion yo‘lga o‘tish sharoitida mintaqaning turli tuproq-iqlim zonalari uchun dehqonchilik tizimlarini ilmiy asoslash;
- energiyaga to‘yingan traktorlardan foydalanish sharoitida tuproqqa ishlov berish tizimlarini ishlab chiqish;
- hosillarni ilmiy dasturlashni asoslash uchun tuproqlarni to‘liqroq va muntazam agrokimyoviy tadqiq qilish tufayli qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanishning samarali tizimini yaratish (shu jumladan “yashil iqtisodiyot” elementlaridan foydalanish);
- jahon bozori talablariga javob beradigan (inson va hayvonlar uchun zarar bo‘lmagan va atrof-muhitga salbiy ta‘sir qilmaydigan organik agro-ozuq-ovqat sektorining yangi zonalarini yaratish);
- biologik omillarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga ta‘sirini mustahkamlash, genetik injeneriya va biotexnologiya imkoniyatlaridan, o‘simliklarni himoya qilishning biologik usullari va hayvonlarning rivojlanishini ko‘maklashuvchi vositalardan foydalanish;
- traktorlarni, qishloq xo‘jalik mashinalarining dvigatellarini, ularning asosiy agregatlari, ommaviy qo‘llaniladigan uzal va detallarini iqtisodiy jihatdan birxillashtirish, yangilanish davrini qisqartirish;
- suvdan tejamli foydalanish, suvni tejoychi sug‘orish usullarini, ekologik muvozanatni saqlash va ekologik sifatni ta‘minlash choratadbirlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish resurslari, xomashyo va mahsulotlar bozorlaridan foydalana olish darajasini oshirish;
- qishloq tadbirkorligining institutsional salohiyatini mustahkamlash va yuzaga kelayotgan muammolarni birgalikda hal qilish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
- bank kreditlaridan foydalana olish darajasini oshirish, qishloq jamoalarining moliyaviy resurslarini jalb qilish va tadbirkorlarning o‘z resurslarini safarbar qilish (kooperatsiya mexanizmi orqali mahalliy tashabbuslarni rivojlantirish) orqali qishloq joylarining xususiy sektoriga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Tayanch soʻzlar: rivojlanish xususiyatlari, tartibga solishning xorij tajribasi, innovatsiya, tejamkor texnologiyalar, rivojlangan davlatlar, institutsional salohiyat.

Nazorat savollari

1. Oʻzbekistonning hududiy rivojlanish xususiyatlari nimadan iborat?
2. Oʻzbekistonda mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishda xorij tajribasini oʻrni nimadan iborat?
3. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion omillari nimadan iborat?
4. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishni institutsional salohiyati nimadan iborat?
5. Mintaqaning rivojlanish strategiyasini shakllantirishning rivojlangan davlatlar tajribasini oʻrni nimadan iborat?
6. Mintaqaning rivojlanishda strategiyasida sanoat tarmogʻini oʻrni nimadan iborat?
7. Mintaqa rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda iqtisodiy transformatsiyani amalga oshirayotgan davlatlarning oʻrni nimadan iborat?

VII BOB. HUDUDIY TAVOFUT VA NOTENGLIKLARNI BARTARAF ETISH

7.1. Mintaqaviy notengliklarning sabablari.

7.2. Hududiy strategik rivojlanish va boshqaruvni nomarkazlashtirish mexanizmlari hamda mahalliy boshqaruv organlarining o‘rni.


BMTning 2014-yilda taqdim etilgan “An Action Agenda for Sustainable Development” nomli hisobotida mamlakat va uning mintaqalari barqaror rivojlanishining to‘rt o‘lchovi ko‘rsatilgan⁷²: iqtisodiy rivojlanish (shu jumladan, haddan tashqari qashshoqlikni bartaraf etish), ijtimoiy barqarorlik, atrof-muhitni himoya qilish va saqlash hamda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash. Iqtisodiy o‘shish barqaror rivojlanishining asosiy jihati hisoblansa-da, bunda atrof-muhit muvozanatining ta‘minlanishi, ekologik muammolar keltirib chiqaruvchi omillarning bartaraf qilinishi, aholi daromadlari darajasini tengsizlik, tinchlik kabi ko‘plab omillar inobatga olinadi. Barqaror rivojlanish tahlilini ana shu ko‘p o‘lchovli komponentlar asosida amalga oshirish mumkin.

Ko‘pchilik YeHTT (Yevropa hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlarida barqaror rivojlanish konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Ushbu strategiyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida barqaror rivojlanish indikatsiyalarining doimiy monitoringi amalga oshiriladi. Turli davlatlarning barqaror rivojlanish indikatsiyalari ularning milliy barqaror rivojlanish strategiyalariga asosan tanlab olinadi. Mamlakatlar o‘rtasida barqaror rivojlanishni taqqoslashda indikatsiyalar o‘rtasida tafovut paydo bo‘ladi. Ushbu tafovutlarni bartaraf etish maqsadida BMTning barqaror rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (UNCSD), YeHTT va Yevrostat tomonidan barqaror rivojlanish indikatsiyalarini aniqlash mezonlari ishlab chiqilib, bunda barqaror rivojlanishning 47 ta ko‘rsatkichi belgilangan.

Mintaqalar barqaror rivojlanishining iqtisodiy jihati yalpi mintaqaviy mahsulotning (YaHM) o‘shishi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YaHM, bandlik, aholi daromadlari, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanganlik darajasi, investitsion jozibadorlik, eksport-import, tabiiy


⁷²UN. Report for the UN secretary-general “An action agenda for sustainable development”. 2014. – P. 1.

boyliklardan oqilona foydalanish kabi qator ko‘rsatkichlar asosida belgilanadi (rasm1).



1-rasm. Mintaqa moliya tarkibining chizmasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mintaqalarni kompleks va mutanosib tarzda rivojlantirish, ulardagi mavjud iqtisodiy resurslar, xususan tabiiy xomashyo, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali va ratsional foydalanish, shuningdek ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish, bu orqali esa mintaqalardagi aholining turmush darajasi va sifatini muntazam oshirish masalalari ustuvor vazifalar qatoridan o‘rin olgan. Mamlakatimiz mintaqalar barqaror rivojlanishining iqtisodiy jihatlariga e‘tibor qaratar ekanmiz, mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidagi tafovutlar bir qator obyektiv sabablar – bozor islohotlarining dastlabki davridagi mintaqaiy rivojlanish darajasi, mintaqaning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy-geografik rivojlanishi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, innovatsion salohiyati va boshqa ko‘pgina omillar bilan izohlanadi.



2-rasm. Davlat budjet tuzilmasi.

Respublikamizda mintaqalar iqtisodiyotini optimal tashkil qilishni hamda uni takomillashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar xomashyo ishlab chiqarishga qaratilganlikni bartaraf etish, ishlab chiqarish texnologik bazasini shakllantirish, shuningdek mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

7.2. Hududiy strategik rivojlanish va boshqaruvni nomarkazlashtirish mexanizmlari hamda mahalliy boshqaruv organlarining o‘rni


Nomarkazsizlashtirish tamoyilining mohiyati davlatimiz hukumati tomonidan qaror qabul qilinishi hududlarda bozorning agentlariga aylantirish maqsadi yotadi. Ushbu tamoyil mintaqaviy boshqaruvning monopoliyasini hamma narsaga cheklab qo‘yadi, mintaqadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini ta‘minlaydi, ko‘p tomonlama qarorlarni qabul qilish tizimini ta‘minlaydi va yuqori lavozimni boshqarish funksiyalarini delegatlarga beradi.

Hududiy ijtimoiy hamkorlik prinsipi markazlashgan buyruqbozlik vertikal bo‘ylab qattiq iyerarxik bo‘ysunishdan erkin bo‘lishini nazarda tutadi. Obyektlar va mintaqaviy boshqaruv subyektlarining qonuniy jihatdan teng huquqli hamkorlari sifatida o‘zaro munosabatlar jarayonida xatti-harakat qoidalarini belgilaydi.

Hududda subsidiar prinsip oldindan belgilangan maqsadlar uchun moliyaviy resurslarni davlat budjeti hisobidan ajratishdan iborat. Mintaqaviy boshqaruvda mintaqaning barcha aholisi uchun minimal davlat ijtimoiy standartlarini ta‘minlash, shuningdek, budjetning minimal darajadagi xavfsizligini ta‘minlash uchun moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash mexanizmlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Mobillik va moslashuvchanlik prinsipining mazmuni mintaqaviy boshqaruv tizimining tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga sezgir javob berishiga qobiliyatdir. Ushbu tamoyil boshqaruvning subyektlariga tezkor o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishga imkon beruvchi hududiy boshqaruvning funksional va tashkiliy tuzilmalarini doimiy ravishda o‘zgartirish orqali namoyon bo‘ladi.

Hududga markaziy rahbariyatdan chegaralangan vakolatlar berish prinsipi (funksiyalarni taqsimlash tamoyilidan farqli o‘laroq) mintaqaviy boshqaruv sohalari o‘rtasida emas, balki ularning ichida vazifalarni differensiallashtirishdan iborat. Ushbu tamoyilga binoan respublika, viloyat va shahar hokimiyatlarining subyektlari vazifalari qayta taqsimlanadi, shuningdek har bir funksiyani amalga oshirish uchun mavjud resurslar chegarasida qo‘llab-quvvatlanadi(11-rasm).



3-rasm. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish uchun omil va resurs salohiyati⁷³

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillarini tasniflash ikki guruh asosida amalga oshirilishi mumkin iqtisodiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy (1-adval).

1-jadval

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillarini tasniflash

No	Nomi	Mazmuni
1	Transport omili	Mineral xomashyo, yoqilg'i-energetika, tabiiy-iqlim sharoitlari va b.
2	Iqtisodiy-geografik omillar	Iqtisodiyotning tarkibiga, ishlab chiqarish xarajatlari, ixtisoslashuv darajasiga va boshqa omillarga ta'sir ko'rsatadi.
3	Ijtimoiy-iqtisodiy omillar	Rivojlanish strategiyasi, texnologiya, investitsiya, innovatsiya, demografiya (mehnat resurslari), ekologiya, infratuzilma va boshqalarga ta'sir ko'rsatadi.
4	Xom-ashyo omillari	Ishlab chiqarish jarayonlariga maxsus xomashyo resurslarini jalb qilish, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirishga ta'sir qiladi.

⁷³Муаллифлар томонидан илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.


5	Strategik omillar	Milliy iqtisodiyotni uzoq muddatli prognozlarini ishlab chiqish va hududlarni raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini aniqlashga yordam beradi.
6	Texnologik omillar	Yangi yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish va ilmiy ta’lim majmuasini rivojlantirish imkoniyatini beradi.
7	Investitsiya omillari	Jozibali investitsion iqlimni yaratish, investitsiya manbalarini kengaytirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.
8	Innovatsiya omillari	Hududiy innovatsiya tizimini rivojlantirish, ilmtalab korxonalarini joylashtirish innovatsiyalarni tijoratlashtirish institutlarini shakllantirishga yordam beradi.
9	Ekologik omillar	Ekologik vaziyat va ekologik xavfsizlik talablari asosida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.
10	Aglomeratsiya omillari	Katta va o‘rta shaharlarni rivojlantirish, urbanizatsiya masallari bilan bog‘liq holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash.

Mintaqaiy sanoat siyosati rivojlanish uchun strategik rejalashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, marketing usullari, mintaqadagi biznesning turli shakllari uchun yangi ishlab chiqarish va ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozlarni shakllantirish usullaridan foydalaniladi.

Bugungi kunda innovatsion rivojlanish omili ishlab chiqarishni joylashtirishda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lmoqda (4-rasm).

Bu fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, mehnat predmetlarini takomillashtirish, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va hududlarni innovatsion salohiyatidan samarali foydalanishni talab qiladi.

Mazkur muammolar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1989-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni (2015-yil 18-noyabr), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori,



4-rasm. O‘rta va yuqori texnologiyali mahsulotlar jahon eksporti⁷⁴

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5185-sonli Farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-3416-sonli Farmonida va boshqalarda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlay oladigan fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda aynan muhim ahamiyat kasb etadi, innovatsion salohiyat ham mamlakat, ham uning alohida mintaqalarining umumiy salohiyatida eng muhim unsuri hisoblanadi. Innovatsion salohiyatning rivojlanish darajasi butun iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, mamlakat, mintaqalar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tubdan yangi texnologiya va mahsulot (xizmat)larni yaratishga tayyor ekanligidan dalolat beradi.

Mintaqaning innovatsion salohiyatini baholash mintaqa innovatsion siyosatini asoslash va mintaqa iqtisodiy resurslardan samarali

⁷⁴по прогнозам ЮНКТАД

foydalanishni hisobga olgan holda mintaqalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaning innovatsion salohiyatni aniqlashga nisbatan taklif etilayotgan metodik yondashuv uni baholash bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlarni o'z ichiga olgan o'zaro bog'langan xususiy metodikalar to'plamini o'z ichiga oladi (Jadval-2).

Bular quyidagilar:

- tadqiqotning axborot bazasini loyihalashtirish va shakllantirish;
- mintaqalarning innovatsion salohiyatini chuqur sifatli tavsiflarini aks ettiruvchi yirik empirik indikatorlarni tuzish;
- tuzilgan empirik indikatorlar qiymati bo'yicha mintaqalarni ranjirovka qilish;
- mintaqalarni empirik indikatorlar yig'indisi bo'yicha tipologiyalashtirish;
- iqtisodiy subyektlarning innovatsion salohiyati bo'yicha reytingini tuzish.

Jahon amaliyotida innovatsion salohiyat darajasini baholash turli usullarda amalga oshiriladi:

2-jadval

Mintaqaning innovatsion salohiyatini baholash ko'rsatkichlari⁷⁵

№	Nomi	Mazmuni
1	Resursli ko'rsatkichlar	Innovatsion madaniyat, intellektual kapital holati, quvvati va zaxira (tadqiqotchilarning soni, ilmiy kadrlarni tayyorlash va h.k.) darajasini tavsiflovchi resursli indekslar. Mazkur guruhga kirgan mintaqaning intellektual kapitalini baholash indeksleri qiymati mintaqada mazkur ko'rsatkich qiymati bo'yicha sezilarli darajadagi tafovutni aks ettiradi.
2	Tarkibiy ko'rsatkichlar	Mintaqaning innovatsion tizim unsurlarining infratuzilma imkoniyatlarini va klasterli innovatsion salohiyatni tavsiflaydi. Ular mintaqaning ilimy-innovatsion tizimi (IIT)ning ichki tarkibini, mintaqada raqobatni rag'batlantiruvchi uning unsurlari, tashkiliy vositalar, moddiy-texnik va moliya resurslarini joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va holatini izohlaydi (tadqiqot va ishlanmalarini bajaruvchi tashkilotlar soni, o'quv muassasalari soni, tadqiqot va ishlanmalar uchun xarajatlar va h.k.). Ushbu indekslar innovatsion salohiyati rivojlanishi bo'yicha

⁷⁵Муаллифлар томонидан илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

		mintaqa muammolarining sabab-oqibatga oid jihatlarini ochib beradi.
3	Funksional ko'rsatkichlar	Mintaqalarning innovatsion soha rivojlanishining tayanch belgilarini aks ettiruvchi funksional indekslarini shakllantiradi. Ular mintaqa innovatsion tizimining investitsion salohiyat resurslaridan foydalanishga nisbatan faoliyat ko'rsatish unumdorligi, samaradorligini (tadqiqot va ishlanmalarining natijaviyligini) tavsiflaydi. Ular innovatsion sohaning turli unsurlari o'rtasidagi aloqalarni aks ettiradi va ushbu unsurlarining o'zaro aloqa qilish qobiliyatini tavsiflaydi, bu esa mintaqaning innovatsion salohiyati samaradorligini baholashga imkon beradi.
4	Dinamik ko'rsatkichlar	Mintaqa innovatsion tizimining muhim parametrlari o'zgarishi tendensiyalari va dinamikasining yo'nalganligini tavsiflovchi dinamik indeksleri.

– mamlakatning raqobatbardoshlik darajasini baholashning integral ko'rsatkichining tarkibiy qismi hisoblangan ilimy-texnika indeksi⁷⁶;

– Yevropa innovatsiya shkalasi (EIS)⁷⁷ bo'yicha indikatorlar orqali mamlakatning innovatsion faolligini baholash tizimi;

– iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotlari (IHRT)⁷⁸ uslubiyoti bo'yicha mamlakatning innovatsion faoliyatini baholash indikatorlari tizimi;

– bilimlarni baholash metodologiyasi (KAM – the Knowledge Assessment Methodology)⁷⁹;

– global innovatsion indeksi (GII)^{80, 81};

– davlatlarni innovatsion darajasiga ko'ra tartib bo'yicha joylashtirish⁸².

Mamlakat darajasida hududlar rivojlanishida notenglik quyidagilar bilan belgilanadi:

⁷⁶Отчет по глобальной конкурентоспособности 2009 г., обнародованный Всемирным экономическим форумом (WorldEconomicForum).–URL: <http://www.weforum.org/en/initiatives/gcp/Global%20Competitiveness%20Report/index.htm>

⁷⁷Europeaninnovationscoreboard 2008 [Электронныйресурс]. – URL: <http://www.proinno-europe.eu>.

⁷⁸OECD. Science, Technology and Scoreboard, 2003.

⁷⁹The World Bank Knowledge for Development Program [Электронныйресурс]. – URL: www.worldbank.org/kam.

⁸⁰Глобальный инновационный индекс: методология расчета [Электронный ресурс]. URL: <http://www.managementtoday.co.uk/news/610009>.

⁸¹Исследование парижской школы INSEAD и Интернет портала WorldBusiness: список государств, которые ранжировались по индексу инновационного развития [Электронный ресурс]. – URL: <http://rating.rbc.ru/article.shtml?2007/06/04/31506802>.

⁸² Отчет агентства EconomistIntelligenceUnit «Новая мировая классификация наиболее инновационное развитых стран» [Электронный ресурс]. – URL: <http://www.enter.ie.edu/cms/en/documento/6469/1>.

Mamlakatimiz mintaqalarida aholi jon boshiga yalpi mintaqaiy mahsulot hajmining ko‘tarilishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xususan, aholi turmush darajasi va sifatining oshishi, ishsizlik darajasining pasayishi, iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligining ko‘tarilishi, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarining yuzaga kelishi, ichki zaxira va imkoniyatlarni aniqlash hamda ulardan samarali foydalanishga, mintaqalarning respublika budjetiga bog‘liqligini kamaytirib ularning mahalliy budjetlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga imkon beradi (jadval 3).

3-javdal

Aholi jon boshiga yalpi ichki (mintaqaiy) mahsulot hajmi, joriy narxlarda ming. so‘m⁸³

	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.
O‘zbekiston Respublikasi	132,1	608,5	2 592,3	6 715,4	7 614,2	9 340,8	12 365,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	72,2	333,2	1 214,7	3 504,1	4 453,8	5 597,6	7 642,9
Andijon	110,1	475,2	1 666,0	4 672,3	5 322,1	6 429,7	8 923,9
Buxoro	145,3	669,1	2 692,1	6 563,8	7 532,5	8 888,1	11 222,4
Jizzax	84,7	481,9	1 796,9	5 002,2	5 702,5	6 967,3	8 830,3
Qashqadaryo	107,7	552,8	2 473,1	5 520,5	6 268,3	7 257,6	8 932,1
Navoiy	186,5	1 354,8	4 807,4	11 088,3	12 383,0	14 975,0	22 489,1
Namangan	88,5	342,6	1 363,8	3 976,4	4 636,4	5 419,0	6 654,7
Samarqand	98,1	400,7	1 946,8	4 950,8	6 034,0	6 937,2	8 295,8
Surxondaryo	94,6	379,3	1 486,5	4 427,1	4 737,8	5 506,7	6 712,5
Sirdaryo	131,8	578,9	2 149,6	6 050,2	7 175,0	7 945,8	9 966,6
Toshkent	148,9	740,0	2 754,6	7 582,9	8 083,9	9 787,6	13 333,4
Farg‘ona	139,6	496,2	1 622,3	4 517,5	4 891,4	5 521,9	6 895,7
Xorazm	107,1	412,4	1 656,3	4 894,5	5 543,3	6 397,8	8 325,6
Toshkent sh.	186,0	884,9	3 830,9	10 989,3	13 749,4	16 658,0	21 419,4

Ma’lumki, investitsiya mintaqalar barqaror rivojlanishida asosiy iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Mintaqalarda investitsiya muhitining yaxshilanishi ularning iqtisodiyoti tarmoqlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning faol kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Mamlakatimizda 2013–2018-yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 3,7 barobarga oshib, 2018-yilda 3769,6 ming

⁸³Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий маълумотлари асосида тайорланди.

so‘mni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Navoiy viloyati – 10920,2 ming so‘m (2013-2018 yillarda 5,8 barobarga o‘shish), Toshkent shahri – 10627,8 ming so‘m (2013–2018-yillarda 5,0 barobarga o‘shish), Qashqadaryo viloyati – 5193,4 ming so‘m (2013–2018-yillarda 4,1 barobarga o‘shish), Buxoro viloyati – 5105,4 ming so‘m (2013–2018-yillarda 3,0 barobarga o‘shish)da kuzatilgan.

Ushbu mintaqalarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining sezilarli darajada yuqoriligiga sabab Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida yirik tog‘-kon va yoqilg‘i-energetika komplekslariga kiritilgan investitsiyalar va Toshkent shahrining yirik sanoatlashgan markaz ekanligidir (4-jadval).

4-javdal

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar, joriy narxlarida ming. so‘m⁸⁴

	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.
O‘zbekiston Respublikasi	1008,2	1224,0	1431,7	1608,6	2227,8	3769,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1400,7	2280,6	3388,2	2094,0	1542,2	3641,1
Andijon	525,8	581,0	678,4	745,3	999,6	1550,3
Buxoro	1720,3	2023,4	2264,0	3237,6	6254,2	5105,4
Jizzax	928,1	969,6	1033,1	1125,1	1361,9	2693,9
Qashqadaryo	1281,0	1613,1	1969,9	2389,3	3583,4	5193,4
Navoiy	1896,4	1933,5	1965,1	3168,1	4185,4	10920,2
Namangan	485,6	714,7	863,8	1074,8	1340,3	2992,5
Samarqand	623,3	730,0	912,0	1001,6	1189,4	1878,3
Surxondaryo	600,1	646,8	773,0	879,1	1427,1	2848,3
Sirdaryo	1126,4	1288,1	1382,2	1660,3	2011,1	3280,2
Toshkent	1178,7	1466,6	1595,0	1507,5	2087,2	3898,4
Farg‘ona	634,3	672,0	731,6	747,8	822,4	1516,8
Xorazm	753,1	950,0	884,7	885,8	1215,1	1655,6
Toshkent sh.	2120,7	2527,2	2877,4	3848,1	5552,7	10627,8

Mintaqalar barqaror rivojlanishida jalb qilinayotgan xususiy va xorijiy investitsiyalar hajmi avvalo ushbu mablag‘lar bilan bog‘liq

⁸⁴Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий маълумотлари асосида тайорланди.

risklarga bog‘liq bo‘ladi. Investitsion mablag‘larning qaytishi, ya’ni o‘zini o‘zi qoplashi jarayonida qator risklar vujudga keladi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsion loyihalarda ularning samarali amalga oshirilishiga to‘siq bo‘luvchi: tarmoq bozori bilan bog‘liq risk, ruxsatnomalar bilan bog‘liq risk, ijtimoiy risk, qurilish bilan bog‘liq risk, infratuzilma riski, valuta va makroiqtisodiy risk kabi risklar mavjud (5-jadval). Ushbu risklarning kamaytirilishi mintaqalarga jalb qilinadigan xususiy va xorijiy investitsiyalar hajmining oshishiga olib keladi.

Mintaqalar barqaror rivojlanishida jalb qilinayotgan xususiy va xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq risklarni kamaytirish uchun tarmoqlarda uzoq muddatli va shaffof milliy strategiyalarni ishlab chiqish, mahalliy boshqarishni takomillashtirish, ushbu yo‘nalishdagi qonunchilik bazasini takomillashtirish va shaffofligini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish, narx bilan bog‘liq risklarni bartaraf etish maqsadida muvozanatlashgan hamda tartibga solingan tarmoq bozorlarini yaratish, tarmoqlarda ishlab chiqaruvchilar uyushmasini tashkil qilish, valuta risklarini kamaytirish uchun davlat tomonidan valuta devolvatsiyasi uchun qisman tovon to‘lashni joriy qilish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

5-jadval

Mintaqalar barqaror rivojlanishida jalb qilinayotgan xususiy va xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq risklar⁸⁵

№	Risk turi	Izoh
1.	Tarmoq bozori bilan bog‘liq risk	Tarmoq bozorida cheklovlar va noaniqliklarni keltirib chiqaruvchi risklar, shuningdek ushbu cheklovlarni olib tashlovchi me‘yoriy-huquqiy bazaning optimal emasligi va o‘zgarishi bilan bog‘liq risklar.
2.	Ruxsatnoma bilan bog‘liq risk	Iqtisodiyot tarmoqlarida ruxsatnomalar va litsenziyalar berish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshiruvchi shaffof hamda samarali davlat organining mavjud emasligi bilan bog‘liq risk.
3.	Ijtimoiy risk	Aholining yangi turdagi innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va tarmoqlar to‘g‘risida axborotga ega emasligi hamda ularga nisbatan qiziqishning pastligi

⁸⁵Муаллиф томонидан тузилган.

		bilan bog‘liq risk.
4.	Qurilish bilan bog‘liq risk	Texnika va texnologiyalarni qurish, o‘rnatish, ekspluatatsiya, sozlash, resurslarni baholash va boshqalar bilan bog‘liq risklar.
5.	Infratuzilma riski	Energiya, logistika, aloqa va boshqa tizimlardagi cheklovlar bilan bog‘liq risklar.
6.	Valuta va makroiqtisodiy risk	Mamlakatdagi umumiy makroiqtisodiy muhit va mintaqalardagi bozor rivojlanishi bilan bog‘liq risklar.

Yuqoridagi instrumentlar asosida mintaqalar barqaror rivojlanishida jalb qilinayotgan xususiy va xorijiy investitsiyalardan keng ko‘lamda foydalanish bo‘yicha yirik hajmda moliyaviy mablag‘larning qaytishi, ya’ni o‘zini o‘zi qoplashi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirish yoki bartaraf etish investorlarning qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarmoqlar bo‘yicha investitsion loyihalarning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Ma’lumki, sanoat ko‘pchilik mintaqalar iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi segmenti va mintaqaning texnologik quvvati manbasi hisoblanadi. Ushbu segment rivojlanishining sekinlashuvi yoki qisqarishi mintaqada iqtisodiyotdagi pasayishga olib keladi. Bugungi kunda mintaqalarning sanoat sektori tabiiy resurslar, energiya iste’moli va transport sohasidagi yangi cheklovlar tufayli talabning siljishi bilan bog‘liq muammolar asosida rivojlanmoqda. Ko‘pchilik rivojlangan davlatlar amaliyotidan ko‘rish mumkinki, mintaqada sanoati keng ko‘lamli bandlikning asosiy manbasi hisoblanmasa-da, u mehnat unumdorligi, innovatsiya va eksport o‘rishini ta’minlaydi.

Mintaqalar iqtisodiyotida sanoatning ahamiyati ko‘plab omillar, jumladan iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy resurslarning holati, qayta ishlovchi sanoat tovarlariga bo‘lgan talab, qayta ishlovchi sanoatni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan sanoat siyosati xarakteri, qayta ishlovchi sanoatdan xizmatlar ko‘rsatish sohasiga outsorsing darajasi kabi omillarga bog‘liq. Rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Fransiya va Buyuk Britaniyada mintaqalar yuqori rivojlangan xizmatlar ko‘rsatish sohasiga ega bo‘lib, sanoatning, ayniqsa qayta ishlovchi sanoatning YaHMdagi ulushi Xitoy va Janubiy Koreyaga nisbatan past ko‘rsatkichga ega. Qayta ishlovchi sanoat tomonidan

yaratiluvchi qo‘shilgan qiymat mintaqalarning tabiiy resurslari bilan ham bog‘liqdir. Avstraliya yirik tabiiy resurslarga ega mamlakat sifatida qayta ishlovchi sanoatning nisbatan katta bo‘lmagan segmentiga ega, mamlakat mintaqalarining qayta ishlovchi sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talabi asosan import hisobidan qoplanadi. Yaponiyada esa aksincha, tabiiy resurslarning tanqisligi mintaqalarda qayta ishlovchi sanoatning yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo‘ladi^{86,87}.

Yaqin kelajakda sanoat tarmog‘ida innovatsion faoliyatning rivojlanishi mamlakat mintaqalarida sanoat siyosati samarali ishla-shining muhim omili hamda barqaror rivojlanishning muhim iqtisodiy jihati bo‘lib qoladi.

6-javdal

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti, joriy narxlarda ming. so‘m⁸⁸

	2000	2005	2010	2015	2016	2017	2018
O‘zbekiston Respublikasi	76,6	421,5	1334,6	3118,3	3512,6	4594,7	7141,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	29,1	126,6	420,9	1343,5	2364,2	3701,4	5879,3
Andijon	70,7	499,1	1800,8	3379	2712,6	4442,4	9033,2
Buxoro	88,3	340,9	1016,1	2857,2	3044,6	3458,6	4569,0
Jizzax	20,8	183,9	457,9	1167,3	1553,1	1941,2	2675,6
Qashqadaryo	73	598,6	1857,1	2914,8	3150,7	3509,9	4568,0
Navoiy	267,8	2113,2	4683,4	10087,9	11395,1	13755,1	23629,7
Namangan	35	158,2	434,2	1109,7	1322,6	1724,8	2416,0
Samarqand	36,3	132,8	629,5	1717,3	2058,1	2507,4	3587,7
Surxondaryo	24,6	114,7	355,9	801,2	903	947,0	1272,4
Sirdaryo	96,1	439,7	1285,8	3598,6	4420,5	4702,3	6274,3
Toshkent	131,5	729,8	2092,1	5187,3	5998	7624,6	13099,2
Farg‘ona	92,7	361,3	1036	2063,3	2274,6	2708,0	3728,0
Xorazm	37,4	148,8	397,5	1511,1	1590,8	2272,9	3547,3
Toshkent sh.	136,5	583,4	3083,1	7970	9761,2	12460,5	17397,3

⁸⁶ United Nations Industrial Development Organization, 2015. Industrial Development Report 2016. The Role of Technology and Innovation in Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna. - P. 89.

⁸⁷ HIS Global Insight; McKinsey Global Institute (MGI). 2014.

⁸⁸ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий маълумотлари асосида тайорланди.

Demak, mintaqalarda sanoat raqobatbardoshligining oshishi uch muhim omilga: innovatsiya, texnologiya va infratuzilmaga bog‘liq bo‘lib qoladi. O‘z navbatida qayta ishlovchi sanoat innovatsiyalarning asosiy harakatlantiruvchisi hisoblanib, NIOKRga xarajatlarning asosiy qismi ushbu tarmoqqa to‘g‘ri kelishi zarur.

Mamlakatimizda mintaqalarning barqaror rivojlanishi ta‘minlashda iqtisodiy jihatdan quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

Birinchidan, mintaqalar sanoatida innovatsion faoliyatning rivojlanishi maqsadida qayta ishlovchi sanoat korxonalarini raqobatbardoshligi indekslarini ishlab chiqish, yuqori indeksga ega korxonalar faoliyatiga yanada kengroq soliq va bojxona imtiyozlarini berish lozim.

Ikkinchidan, soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali energiya samaradorligini oshirishni rag‘batlantiruvchi mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish. Bunday mintaqaviy dasturlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va uy xo‘jaliklarining energiya resurslaridan samarali foydalanishiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Yevroittifoqqa a‘zo ko‘pchilik mamlakatlarda energiya samaradorligini oshirishning mintaqaviy dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali mintaqalar iqtisodiyotida energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Italiyada 2007–2013-yillarda “Energiya samaradorligini ta‘minlash maqsadida kamaytirilgan soliq dasturi” liniyasi bo‘yicha soliqlarning 55%ga qisqarishi tufayli energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan yangi elektr asboblari va asosiy vositalarni o‘rnatishga har birining qiymati o‘rtacha 1,8 mln yevrodan ortiq bo‘lgan jami 23 mlrd. yevro mintaqaviy investitsiyalar kiritilgan⁸⁹. Buyuk Britaniyada 2002–2013-yillarda “energiya yetishmovchiligi”ga qarshi kurashish maqsadida qabul qilingan “Issiq front” mintaqaviy dasturi issiqlik izolatsiyasini ta‘minlash bo‘yicha choralarni subsidiyalagan. Ushbu dasturdan 2001–2011-yillar davomida Buyuk Britaniya mintaqalarida

⁸⁹ Energy Efficiency Market Report 2013 //International Energy Agency. URL:<http://www.iea.org/publications/freepublications/publication/energy-efficiency-market-report-2013.html> (Мурожаат санаси: 25.03.2017)

1,7 mln. uy xo‘jaliklari foydalangan, natijada esa solishtirma energiya iste‘moli 63GDj/m² dan 4163GDj/m² ga, ya’ni 35% ga qisqargan^{90,91}.

Uchinchidan, respublikaning turli mintaqalarida kichik sanoat zonalari asosida sanoat klasterlarini barpo etish, sanoat tarmoqlariga kiritiladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish.

To‘rtinchidan, mintaqalarni mutanosiblikda rivojlanitirishda yirik ko‘lamdagi loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan davlat korxonalarini joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda, ushbu yangi texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqishga yo‘naltirilgan zamonaviy davlat loyihalarini moliyalashtirish faqat markazlashgan tarzda budjetdan emas, balki xususiy hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga amalga oshiriladi.

Beshinchidan, iqtisodiyotning tarmoq tuzilmalari bilan birgalikda mintaqalarning sanoat salohiyatini jadal rivojlantirish, mineral-xomashyo resurslari hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sanoat asosida chuqur qayta ishlash bo‘yicha yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etishni rag‘batlantirish zarur. Bunda har bir mintaqada ularning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish hamda shuning asosida eksportga chiqarilayotgan tovar va xizmatlar hajmi, turlarini ko‘paytirish bo‘yicha mintaqaviy dasturiy chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Tayanch so‘zlar: tabaqalanish, barqaror rivojlanish, innovatsiya, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaXM, investitsiya, risklar, iqtisodiy qoloq mintaqalar.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonning hududiy rivojlanishida tabaqalanish sabablari nimadan iborat?

2. O‘zbekistonda mintaqaviy rivojlanishida barqarorlik tamoyili nimadan iborat?

⁹⁰ Capturing the Multiple Benefits of Energy Efficiency // International Energy Agency. – 2015. URL:<http://www.iea.org/publications/freepublications/publication/capturing-the-multiple-benefits-of-energy-efficiency.html> (Мурожаат санаси:04.04.2018)

⁹¹ Anisimova T.Yu. Energy-economic analysis of corporate activities in the system of energy management. World Applied Sciences Journal, 2013.- T.27, №13A.- C.570-575.

3. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda notenglikni baholash ko'rsatkichlari nimadan iborat?

4. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishni investitsiya salohiyati nimadan iborat?

5. Mintaqaning rivojlanish strategiyasini shakllantirishda qoloq hududlarni o'rni nimadan iborat?

6. Mintaqaning rivojlanishda strategiyasida innovatsion salohiyatni o'rni nimadan iborat?

7. Mintaqa rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda yirik investitsion loyihalarni o'rni nimadan iborat?

VIII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA UNING MINTAQAVIY RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

8.1. Mintaqalarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish.

8.2. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘rta va uzoq muddatli istiqbollari.

Milliy iqtisodiyotimizda olib borilayotgan islohat tadbirlari, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, ishlab chiqarish sohalarini tubdan tizimli o‘zgarishlari, ijtimoiy mehnat munosabatlarining tashkiliy va huquqiy asoslarini o‘zgarishi mehnat resurslarining shakllanish va rivojlanish jarayoniga bevosita ta‘sirini o‘tkazdi. Mehnat bozorida ish kuchiga bo‘lgan ehtiyojning beqarorligi milliy iqtisodiyotimizda mehnat bozorida nomutanosiblikni va shu sababdan ishsizlikni vujudga keltirdi. Ushbu muammolar muhim ijtimoiy nuqtai nazardan mehnat resurslarining malakaviy ko‘rsatkichlari holatiga, ayniqsa, milliy ta‘lim sohasiga o‘z salbiy ta‘sirini o‘tkazmoqda.

Globalashuv sharoitidagi mehnat bozorida mavjud demografik rivojlanish omillari va migratsiya jarayonlarining ta‘siri hamda xalqaro mehnat munosabatlarida raqobatning kuchayib borishi, milliy iqtisodiyotimizdagi tizimli o‘zgarishlar mehnat resurslarini boshqarishdagi davlat siyosatining ahamiyatini oshirib bormoqda.

Davlatimizning mavjud mehnat resurslarini maksimal darajada samarali ishlata bilish, shu asnoda har bir mehnatga layoqatli fuqaroning mehnat salohiyatini va uning unumdorligini oshirib borish tufayli baland sur‘atlar bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga erishish imkonini yaratadi.

Ushbu maqsadda O‘zbekistonda mutaxassislarining salohiyatini samaradorligini oshirib, moddiy va man‘aviy omillar yordamida unumli mehnatga jalb etish, ularning raqobatbardoshligini oshirib borish va shu asnoda mahalliy davlat idoralari hamda jamoatchilik tashabbuslarini birlashtirish uchun har bir istiqbolli hududda mehnat resurslarini rivojlantirish Konsepsiyalarini ishlab chiqish zarur. Ushbu Konseptual tadbirlarni amalga oshirishning asosiy maqsadi har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik xususiyatlaridan kelib

chiqib mavjud mehnat resurslarini raqobatbardoshligini kuchaytirish mexanizmining ilmiy-nazariy jihatlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu Konsepsiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishning o'ziga yarasha jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Ushbu yo'nalishda maqsad va vazifalarni strategik yondashuvlar asosida ishlab chiqib, ularni amalga oshirishning kompleks tadbirlarni hududda uzoq muddatli manzillarga belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar asosida erishish.

2. Har bir hududning innovatsion hamda ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanish yo'nalishlarini mavjud mehnat resurslarini istiqbolli rivojlantirish modellari asosida ishlab chiqish.

3. Hududlarning mehnat resurslari salohiyatini hozirgi zamon ilmiy-amaliy yondashuvlarni innovatsion tarzda shakllantirish va rivojlantirish, hududiy mehnat bozoridagi tendensiyalarni hisobga olgan holda raqobatbardosh kadr malakasini oshirib, ularning intellektual salohiyatini yanada rivojlantirib borish.

Har bir hududda raqobatbardosh xodim va ishchilarni shakllantirish avvalambor iqtisodiy sohalardagi mavjud kadrlar dinamikasini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Bu boradagi tadbirlarni amalga oshirishda birinchi navbatta innovatsion o'zgarishlar sharoitida mehnat resurslariga bo'lgan qo'shimcha talabni aniqlash zarur. Ushbu murakkab va muhim jarayon hududdagi axborot texnologiyalarning sohalararo bog'liq emasligi, mavjud statistik ma'lumotlarning haqqoniylik darajasining pastligi hamda ularning hisobot shakllari takomil emasligi tahliliy ishlarning sifati va muddatlariga salbiy ta'sir qilib kelmoqda.

Hozirgi iqtisodiy o'zgarishlar davrida davlat statistik hisobotlar bilan amalda hududlarda yirik korxonalarining 50-55% qamrab olingan. Milliy iqtisodiyotimizning hududlardagi qolgan 40-45%, ayniqsa, xususiy sektor korxonalaridagi kichik biznes muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan mehnat resurslari muntazam davlat statistik hisobi va tahliliy jarayon bilan hanuzgacha to'la qamrab olinmagan.

Shu munosabat bilan O'zbekistonning barcha hududlarida soha korxonalariga, shu jumladan nodavlat korxonalariga, mehnat resurslariga bo'lgan talab, ularning malakaviy tuzilmasi, o'sha qo'shimcha resurslarga bo'lgan talablar soniga muvofiq yangi munosib ish joylari monitoringini olib borish Konsepsiyasini ishlab chiqish zarur.

Ushbu monitoringni davlat statistikasi bilan qamrab olinmagan xususiy va biznes korxonalarida mehnat faoliyati olib borayotgan ishchi-xodimlarni anketalar yordamida aniqlab borish, mehnat resurslarining haqiqiy holatini tahlil etish istiqbolda mehnat resurlarini salohiyatini oshirib borish iqtisodiyotning innovatsion sharoitida muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Davlatimizdagi demografik o'zgarishlar borgan sayin iqtisodiy faol aholi o'rtasida keksalar ulushi oshib borayotganidan dalolat bermoqda. Hududlarda korxonalar va muassasa xodimlarini yoshiga va jinsiga qarab taqsimoti jarayonida ma'lum nomutonasibliklar vujudga kelmoqda. Bu o'z navbatida yaqin kelajakda pensiya yoshiga doir mehnat faoliyatini tugatgan yuqori malakali xodimlarning o'rnini to'ldirish jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsata boshlaydi.

Avlod almashuvi jarayonini oldindan nazorat qilib borilmaslik kirib kelayotgan yosh kadrlarning kasbi va mutaxassisligiga qarab to'g'ri taqsimot qilmaslik albatta hududdagi mehnat resurlarini samarali va maqsadli faoliyatini tashkil qilishni susaytirishi va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish jarajasini tushirib yuborishi mumkin. Shuning uchun hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni to'la monitoring qilib borish uchun hududdagi aholi sonida ro'y berayotgan demografik o'zgarishlarini, shu jumladan o'zgaruvchan demografik vaziyat, faollashib borayotgan tashqi va ichki migratsiya tendensiyalar to'g'risidagi axborotga to'la ega bo'lishlari zarur.

Innovatsion jarayonning yana bir xususiyati shundan iboratki, hududda mehnat faoliyatini ko'rsatayotgan yuqori malaka va salohiyatga ega bo'lgan raqobatbardosh yosh kadr va mutaxassislar har xil sabablarga ko'ra (uy-joy yetishmasligi, munosib mehnat sharoitlari yo'qligi, maosh miqdori kamligi, transport vositalari kamligi) qo'shni hududlarga yoki xorijiy davlatlarga chiqib ketish xavfi oshib boradi. Hudud rahbarlari ushbu sabablarning oldini olish tadbirlarini amalga oshirishmasa shu vaziyat tufayli hududda malakali, raqobatbardosh mutaxassislariga bo'lgan talab oshib boradi, bu o'z navbatida hududning qo'shimcha moliyaviy xarajatlar miqdorining oshib borishiga, ish kuchi taklifining kamayib borishiga, mahalliy mehnat bozoridagi vaziyatning keskinlashuviga olib keladi. Natijada hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayib ketadi va ijtimoiy vaziyat keskinlashuviga olib kelishi mumkin.

Hududlardagi yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassis-
larning mehnat faoliyatini to'g'ri taqsimlash, ularning mehnat
samadorligini oshirib borish jarayonida oliy va o'rta maxsus ta'lim
sohasi faoliyati nihoyatda muhim o'rin egallaydi.

Milliy iqtisodiyotimizdagi innovatsion o'zgarishlar, ishlab chiqa-
rish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida ilm-fan yutuqlarining
zamonaviy texnologiyalarni joriy etilishi, mehnat bozorimizda yuqori
malakali mutaxassislar tarkib-talablariga tubdan o'zgartirishlarni talab
qilmoqda.

Bir tomondan, mehnat bozorining erkin mexanizmi o'z-o'zidan
har xil kasb va mutaxassislikka bo'lgan talabni to'g'ri aniqlab, kerakli
lavozimlarga taalluqli vaqtda yetqazib bera olmayotganligining gu-
vohi bo'lsak, ikkinchi tomondan, ta'lim sohasidagi ayrim kamchiliklari
tufayli (o'quv davlat standartlarining ishlab chiqilmaganligi, mutaxas-
sislarga bo'lgan talab ma'muriy-buyruq asosida belgilanishi, yangi
innovatsion texnologiyalarga kerakli bo'lgan kasb va mutaxassis-
larning real iqtisodiyot sohalaridan buyurtma yo'qligi va h.k.)
hududlarda haqqoniy talab miqdorlarini va yuqori malakali kasb egala-
rining turlarini aniq bilmasligi tufayli hudud iqtisodiyoti raqobat-
bardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida jiddiy xato va kam-
chiliklar borligi salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shu sabab hududlarda
istiqomat qilayotgan yesh mehnat resurslari xorijiy davlatlarga ketib
qolishi, mahalliy ishsizlik darajasining kamaymayotgani yuqori
malakali mutaxassislarga bo'lgan talab tahlil qilinmaganligi mahalliy
mehnat bozorida mehnat resurslariga talab va taklif muvozanatining
buzilishi, ta'lim muassasalarida yoshlarga tanlash uchun yangi
innovatsion texnologiyalarga kasb oriyentatsiyasi olib borilmaganligi
hududda mehnat resurslarining holatiga va istiqboliga strategik
istiqbolli rejalar ishlab chiqilishi olib borilmayotganligidan dalolat
beradi.

Ochig'ini aytish lozim, O'zbekistondagi barcha ishlab chiqarish
va aholiga xizmat ko'rsatish korxonalari kadrlarga bo'lgan talabni va
prognoz raqamlarini bir yilga yoki ikki yilga mo'ljallangan tezkor
tarzda olib borishadi. Sababi ko'pchilik ish beruvchilar hanuzgacha
korxonasida faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning tahlil qilingan va har
tomonlama ilmiy asoslangan prognozlarini ishlab chiqishmagan. Bu

kamchilik nafaqat qichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida, balki yirik-yirik davlat korxonalarida ham amalda qo‘llanilmaydi.

Hozirgi iqtisodiy rivojlanish davrida davlat tomonidan ta‘lim tizimiga ko‘rsatiladigan ta‘siri asosan ta‘lim sohasidagi o‘quv muassasalarini kamayib borayotgan moliyalashtirish muammolari bilan chegaralanib qolmoqda. Milliy iqtisodiyotimizda chuqurlashib borayotgan bozor munosabatlarida oliy va o‘rta maxsus malakaga ega mutaxassislarga bo‘lgan talab va taklif muvozanatini nazorat qilib borish bilan birga, hududlar va sohalarga kerakli bo‘lgan kasb va mutaxassislar miqdorini va turlarini rejalashtiri jarayoni alohida va muayyan xususiyatlarga egadir. Shu asnda savol tug‘iladi: Yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabni kim, qaysi tashkilot hisoblab berishi zarur? Kim ularning miqdorini va turlarini, muddatini tasdiqlashi va kim ushbu kadrlarni tayyorlashi zarur? Ming afsuski, bozor munosabatlarining innovatsion sharoitida hududlarda qancha, qaysi kasblar bo‘yicha mutaxassis va qachon kerakligini hech kim bilmaydi. O‘zbekistonning hozirgi davr iqtisodiy rivojlanish sharoitida oliy ma‘lumotli mutaxassislar va o‘rta maxsus malakaga ega bo‘lganlar o‘rtasida qanaqa muvozanat to‘g‘ri kelishi kerak? (Bitta shifokorga qancha hamshira to‘g‘ri kelishi, bitta muhandisga qancha texnik kerak?)

Tibbiyot sohasida, oliy va o‘rta maxsus va umumta‘lim sohasida oliy ma‘lumotli mutaxassislar o‘rta maxsus bilimga ega bo‘lganlar o‘rtasidagi muvozanati kam bo‘lganligi uchun oliy ta‘lim egalari o‘zining ta‘lim darajasiga mos keladigan lavozim vazifalarini to‘la bajarmasdan kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonda mavjud 18 mln. 642 ming mehnat resurslarining salkam 12,8% oliy malakali mutaxassislarni tashkil qilayotgan bo‘lsa, o‘shalarning 90% har kunlik lavozim vazifalarining 15-25%% oliy malaka darajasiga munosib bo‘lmagan vazifalar bilan bandlar. (Tashkiliy-texnik va yozuv ishlari). Sababi ko‘pchilik o‘rta maxsus bilim yurtlarini bitiruvchilarning 55-60% o‘qishni bitirib turmush qurib, dekret ta‘tiliga siqib ketishadi. Shuning uchun barcha iqtisodiyot sohaslarida oliy malakali mutaxassislar o‘rta maxsus bilimga ega bo‘lganlarning ishini bajarishiga majbur bo‘lmoqda. (Masalan, tibbiyotda hamshiralarning yetishmovchiligi tufayli har bir shifokorga 5 taning o‘rniga o‘rta hisobda 1,6 hamshira

to'g'ri keladi), bu albatta, tibbiy yordam va xizmatlarning sifati va miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda innovatsion sharoitda har bir hududda o'ziga yarasha muayyan xususiyatlarga ega bo'lgan mehnatga layoqatli aholi qatlamlarida ta'lim xizmatlarining har xil turlariga ehtiyoj oshib boraveradi. Ushbu mehnat resurslari orasida qaysi kasb, qaysi mutaxassislikka talab oshib borilishining tahlili asosida hamda hududda joylashgan yoki yangi tashkil qilinajak ishlab chiqarish kuchlari turlariga muvofiq istiqbolli buyurtmalar tayyorlanishi zarur. Ushbu hududiy-ijtimoiy buyurtmalar asosida kerakli miqdordagi kasb-mutaxassislarni tayyorlash o'quv muassasalarini tanlash (hududdami yoki hududdan chetdami) bu hududiy rahbarlarning tashkiliy vazifasiga kirishi kerak.

Hozirgi innovatsion tendensiyalar ta'siridagi sharoitda hududlardagi mehnat resurslari salohiyatining raqobatbardoshlik darajasini oshirish borasida birmuncha muhim muammolar mavjud.

1. Sifat jihatidan O'zbekiston hududlaridagi mehnat resurslari orasidagi bilim darajasi katta tafovutga ega. Ayniqsa, shahar va qishloq sharoitlaridagi kasb egalari orasida farq nihoyatda baland. Bu degani hududlararo mehnat bozoridagi raqobat kurashi amal qilmaydi.

2. Barcha hududlarning ishlab chiqarish korxonalarida yuqori malakali kasb egalari bo'lgan talab katta. Lekin, shuning bilan birga O'zbekiston milliy iqtisodiyoti sohalari korxonalarida sal kam 2,5 mln. yaqin vakant lavozimlar mavjud. (Buning sabalari: nomukamal solih tizimi, maosh miqdori pastligi, vakant lavozimlar haqidagi aniq axborot ma'lumotlar kamligi, aholiga mehnatga ko'maklashuv hududiy Markazlarning faoliyati sustligi).

3. Hududlardagi korxonalarda malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarning nomigagina ishlab chiqilganligi, ularning miqdorini chuqur tahlil va ilmiy-amaliy asoslash qilinmaganligi. Xususiyl sektorda esa kadrlar borasidagi dasturlar umuman olib borilmaydi

Hozirgi O'zbekistonning innovatsion tendensiyalari sharoitida hududiy mehnat bozorlari faoliyati quyidagi omillar ta'sirida bo'lishligi kutilmoqda:

– yangi texnologiyalar asosida ishlaydigan malakali kasb mutaxassislarning yetishmovchiligi;

– hududiy mehnat bozorlarining sektoral qismlarida yuqori texnologik malakaviy talablarga yangi tashkil qilinadigan mehnat joylarining nomuvofiqligi ta'siri oshib boradi;

– hududlardagi korxonalarda mutaxassislarga bo'lgan talab bilan o'quv muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash miqdorlarining va sifat ko'rsatkichlari orasidagi tafovutning o'sib borishi;

– ayrim hududlar o'rtasida aholining mehnat bilan bandlik va ishsizlik darajalari sezilarli ravishda farq qila boshlaydi va bu tendensiyalarga qarshi choralar ko'rilmasa umumiy iqtisodiy rivojlanish sur'atlari o'rtasida sezilarli farq paydo bo'ladi;

– agarda milliy iqtisodiyotning agrosanoat kompleksi va sanoat komplekslariga ajratilayotgan investitsiyalar miqdori yetarli darajada ajratilmasa bu sohalaridagi yuqori texnologik munosib mehnat sharoitlari vujudga kelmasligi va shuning natijasida mehnat unumdorligi darajasi pasayib, o'zining ijtimoiy jozibadorligini yo'qotib, iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tushib keshishi mumkin;

– hududiy mehnat bozori faoliyati va ta'lim sohasida kasb-mutaxassislarni tayyorlash muvozanatini bozor mexanizmiga o'tmaganligi;

– davlat ta'lim tizimidagi muassasalarning professional kasb egalarini tayyorlash, real iqtisodiyot vakillarining hozirgi zamon yuqori texnologiyalar talablariga muvofiq ikki tomonlama shartnomaviy faoliyat olib borish o'ringa qo'yilmagan;

– hududiy mehnat bozorlarida yoshlarning yetarli kasb mahoratiga ega bo'lmaganligi, ko'p bolalik ayollar va nogironlar mavjudligi sust raqobat mexanizmining umuman yo'qligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotimizdagi barqaror innovatsion tendensiyalar ta'sirida hududlarda mavjud mehnat resurslarini ifodalovchi muayyan xususiyatlarini e'tiborga olsak quyidagi muhim strategik yo'nalishlarni shakllanishiga imkon beradi:

1. O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion tendensiyalar sharoitida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratish maqsadida mehnat resurslarining demografik va malakaviy tizimni vujudga keltirish, aholining mehnat salohiyatini oshirib borish uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni vujudga keltirish joiz.

2. Hududda mavjud mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va muntazam ravishda mehnat unumdorligini oshirib borish.

3. Hududiy korxonalarda mehnat faoliyati ko'rsatayotganlarning professional darajasini oshirish maqsadida mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatidan kelib chiqib, har xil kasb-mutaxassislik tizimini optimal tarzda takomillashtirib borish.

4. Mehnat bozorining infratuzilmasini va iqtisodiy funksional mexanizmini takomillashtirib borish.

5. Hududdagi ijtimoiy mehnat jarayonining intellektual salohiyatini muntazam oshirib borish va maqsadli ravishda mehnat resurslarining mehnat faoliyatini ijodiy tarzda shakllantirib borish.

Hududiy boshqaruv tizimida mehnat resurslaridan maqsadli foydalanish tadbirlari O'zbekistonda kadrlar davlat siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi milliy iqtisodiyotimizga innovatsion tendensiyalarning ta'siri sharoitida mehnat resurslaridan samaradorli foydalanish alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Ma'lumki, har bir hududdagi mehnat bozori avvalambor kadrlarga bo'lgan talab va takliflar ta'siri ostida o'z faoliyatini olib borishi kerak. Shu maqsadda innovatsion va yangi texnologiyalar talablariga javob bera oladigan, yangiliklardan cho'chimaydigan va innovativ jarayonlarga intiluvchan mutaxassislariga keng imkon va sharoitlarni tug'dirib berishimiz lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagilarni ta'kidlashni lozim topdik:

1. Milliy iqtisodiyotimizni hududiy miqiyosida tashkiliy-tizimli, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bir paytda iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari barqaror sur'atlarda amalga oshib kelmoqda.

2. Umumiqtisodiy islohat o'zgarishlari milliy iqtisodiyotimizning barcha sohalarini: fan, sanoat, agrosanoat, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish, ta'lim, sog'liqni saqlash o'z ichiga qamrab olgan.

3. Milliy iqtisodiyotimizning barcha sohaları tufayli barcha hududiy bo'linmalar ham iqtisodiy-ijtimoiy islohat tadbirlariga o'zlarining muayyan ma'muriy, geografik, demografik va mentalitet rivojlanish darajalaridan kelib chiqib, O'zbekiston iqtisodiy

salohiyatining oshib borishiga o'zining sezilarli hissasini qo'shib kelmoqda.

Iqtisodiy fanimizda va amaliyotimizda mehnat resurslarining shakllanishi tushunchasi ancha vaqtlardan buyon iqtisodiy adabiyotlarda va statistik amaliyotda qaror topgan bo'lib, o'ziga xos jarayon sifatida ishlatilib kelinadi. Bu tushunchaning nimadan iborat ekanligi haqida umumiy tarzda qabul qilingan, munozara talab qilmaydigan tasavvur yo'q. Ko'pgina iqtisodchi olimlar mehnat resurslarini shakllantirish deganida mehnat resurslarining doimiy ravishda yangilanib turishi tushuniladi, deb hisoblaydilar.

Mehnat resurslarining rivojlanishi ijtimoiy takror barpo bo'lish jarayonida amalga oshadi. Bu jamiyat mehnat resurslari tarkibining ijtimoiy hayotning takomillashib borishiga muvofiq ravishda miqdoriy va sifat o'zgarishlarida namoyon bo'ladi. Mehnat resurslarining rivojlanib borishi cheksiz jarayondir.

Mehnat resurslari qanday shakllanishini aniqlash uchun birinchidan, mehnat resurslarini uchta yirik yosh guruhlari bo'yicha – mehnatga layoqatli kishilar, mehnatga layoqatli kishilardan yoshroq va mehnatga layoqatli yoshdan kattaroq kishilarni, ikkinchidan, har bir guruh aholi soniga, uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni, uchinchidan, mehnat resurslari va aholining tabiiy va mexanik o'zgarishdagi umumiy va o'ziga xos tomonlarni ko'rib chiqish lozim.

Mehnat resurslarining shakllanishini prognozlashtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar asosida mehnat resurslari quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan holda shakllanadi:

– mehnat qilish yoshidagi mehnatga layoqatli aholi mehnat resurslarining asosini tashkil etadi, shu bilan birga, uning salmog'i ortib boradi;

– mehnat resurslari soni tabiiy o'sish hisobiga yildan yilga ko'payadi;

– o'smirlar va qariyalar soni va salmog'i ortishi hisobiga.

Shu o'rinda hududiy mehnat resurslarining miqdorini prognozlashtirish hozirgi bosqichda aholiga taalluqli jarayonlar bilan bevosita bog'liqligini e'tirof etgan holda, hududiy mehnat resurslari dinamikasining ma'lum darajada nisbiy «mustaqilligi»ga e'tiborni qaratamiz. U mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan demografik asosni yaxshiroq tushunishga yordam

beradi. Shu ma'noda «mehnat resurslari» ijtimoiy va demografik rivojlanishni tahlil qilish va asoslab berishning o'ziga xos metodologik vositasi bo'lib maydonga chiqadi.

Hududiy mehnat resurslari deb, o'zining aqliy va jismoniy mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mehnatga qobiliyatli kishilar to'plamiga aytiladi. Hududiy mehnat resurslari mamlakat aholisining o'z psixofiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan qismidan iboratdir. Bu ta'rifdan shu narsa kelib chiqadiki, hududiy mehnat resurslari o'ziga iqtisodiyotda mehnat bilan band bo'lgan kishilarni ham, mehnat bilan band bo'lmasa ham mehnat qilishlari mumkin bo'lgan kishilarni ham qamrab oladi. Boshqacha aytganda, hududiy mehnat resurslari haqiqiy (real) va potensial xodimlardir.

O'zbekistonda hududiy mehnat resurslarini miqdorini prognozlashtirish asosiy xususiyatlariga: bandlik va ishsizlikning yuqori darajada mahallilashtirilishi; mehnat bozorida g'arb mamlakatlariga nisbatan intellektual jihatdan ortda qolishi; ish haqining mehnat mahoratiga emas, hududdagi bandlikka bog'liq ravishda to'lanishi; aholi orasida ishchilarni keng tarqalishini kiritish mumkin.

Hududiy mehnat resurslarining davlat tomonidan boshqarish mexanizmlariga esa: umummilliy va hududlararo mehnat bozori strategiyasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi; individual korxonalarining bandlik bilan keragidan ortiq ta'minlanganligi; kichik biznesni rivojlantirish va yangi biznesni yaratish uchun ma'muriy to'siqlarni qo'yish orqali mehnat bozorini monopollashtirish tufayli aholi bandligi samaradorligi past darajaga keltirib qo'yiladi.

Hududlarda mehnat resurslarining prognozlashtirish uslublari va mexanizmlarini o'rganish orqali uning rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Hududiy mehnat resurslarining asosiy tarkibi (O'zbekistondagi subyektlar uchun) mehnat resurslari va ish o'rinlarini ta'minlovchi lokal mehnat resurslari hisoblanadi. Aynan shaharlar va lokal hududlar orqali ishlab chiqaruvchi tizim ish o'rinlari ta'minlanadi. Transport qatnovining qulay yo'lga qo'yilishi lokal mehnat bozorlarining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Hududiy mehnat resurslarining prognozlashtirish jarayonida quyidagilarni inobatga olish kerak:

birinchidan, uning o'zgaruvchanligi, shu sababli universal boshqaruvni ishlab chiqishni iloji yo'q, ishlab chiqilsa ham uzoq muddat amal qilmaydi;

ikkinchidan uning ishonchli amalga oshirilishi, faoliyatdagi mehnat resurslari kutilayotgan natijadan farq qilishi mumkin. Shu sababli prognozdan kutilayotgan natijalar turli variantlarda ishlab chiqilishi kerak bo'ladi;

uchinchidan uning shaffofligi (ochiqligi), aks holda mehnat resurslarini boshqarish jarayonida hududiy mehnat resurslari faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi murakkabliklar kelib chiqadi.

Hududiy mehnat resurslari prognozlashtirish uchun biz birinchidan, mehnat resurslarini uchta yirik yosh guruhlari bo'yicha mehnatga layoqatli kishilar, mehnatga layoqatli kishilardan yoshroq va mehnatga layoqatli yoshdan kattaroq kishilarni, ikkinchidan, har bir guruh aholi soniga, uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni, uchinchidan, hududiy mehnat resurslari va aholining tabiiy va mexanik o'zgarishdagi umumiy va o'ziga xos tomonlarni ko'rib chiqishimiz lozim.

Hududiy mehnat resurslari prognozlashtirish jarayonida ularni uch guruhga bo'lish mumkin: a) universal; b) umummilliy; d) o'ziga xos;

Hududiy mehnat resurslarining prognozlashtirishning asosiy xususiyatlar: mehnat resurslarining hududning mehnat migratsiyasi imkoniyatlari bilan bog'liqligi; mehnat resurslarining intensiv rivojlanishidagi sezilarli o'zgaruvchanlik; mehnat resurslarini yaratuvchi intellektuallikni g'arb davlatlaridan ortda qolishi.

Intellektual mehnat resurslarining o'ziga xosligi shundaki, ular uchun uzluksiz ta'lim, bilimlarning yig'ilib borishi, ish tajribasining ortib borishi, o'zlashtirilgan bilimlarni amalga joriy qilinishi aqliy mehnat vakillarining xususiyatlari hisoblanadi.

Hududiy mehnat resurslarini taqsimlash deganda hududlardagi mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlarida bandligi va band bo'lmaganligi tushuniladi. O'z navbatida band bo'lmaganlarga mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshdagi o'quvchilarga va shaxsiy yordamchi xo'jalik bilan shug'ullanuvchilarga, harbiy kuchlar safida xizmat qilayotganlarga, ishsizlarga, shuningdek, hech qayerda

ishlamaydiganlarga, o'qimaydiganlarga va ish qidirmaydiganlarga bo'linadi.

Hududiy mehnat resurslarini taqsimlash turlaridan biri mamlakat hududi bo'yicha taqsimlash bo'lib, u ham muayyan foydali axborotga ega. Respublika hududi iqtisodiy rivojlanish darajasi kishilarning farovonligi va demografik rivojlanishi bilan farq qiladi. Demografik jarayonlar hududiy mehnat resurslarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu esa uning rivojlanishida aks etadi.

Hududiy mehnat resurslarini shakllantirishning mintaqaviy xususiyatlari avvalo demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri bilan bog'liqdir. Demografik omillarga aholining takror barpo qilinishidagi jadallik kiradi. U hal qiluvchi darajada tug'ilish darajasi bilan bog'liq. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi, demak, hududiy mehnat resurslari shunchalik tez o'sadi. Aholining iqtisodiy o'sish omili sifatidagi holati mamlakat iqtisodiyoti bilan belgilanadi. Aholining asosiy ko'rsatkichlari: tug'ilish, o'lim, migratsiya, nikohlar va boshqalar tarixan va bevosita mamlakat iqtisodiyotining ahvoli bilan bog'liqdir. Binobarin, aholi ijtimoiy ishlab chiqarishning asosi va subyekti bo'lib hisoblandi. Ammo, ishlab chiqarish bilan hamma aholi emas, balki uning faol qismi bo'lgan – ishchi kuchi shug'ullanadi. Uning shakllanishining asosiy manbayi hududiy mehnat resurslari hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham, aholi rivojlanishi muammolarini o'rganishda hududiy mehnat resurslarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilishi zarur.

Hududiy mehnat resurslarining rivojlanishi ko'p jihatdan hudud aholisiga bog'liqdir. Aholi mehnat resurslari rivojlanishining tabiiy asosi hisoblanadi. Aholi va mehnat resurslari bir butun hisoblanishadi, lekin shu bilan birgalikda, ular o'zlarining kelib chiqishi, amal qilishi va rivojlanishida o'zaro bohliq bo'lgan ikki mustaqil subyektdir. Jamiyatning hududiy mehnat resurslari mamlakat aholisi hisobiga shakllanadilar. Aholi va hududiy mehnat resurslarini tashkil qiluvchi odamlar ko'p jihatdan unga ham, bunga ham taalluqli bo'ladilar.

Aholi va hududiy mehnat resurslarining umumiyliigi aholining jinsiy tarkibi bilan mehnat resurslarining shakllanishi bog'liqligida ham namoyon bo'ladi. Aholi tarkibida erkaklar ulushining kam bo'lishi hududiy mehnat resurslarining sonini qisqartirib yuboradi,

chunki erkaklarning yuridik va haqiqiy mehnat faoliyati davri ayollarnikiga nisbatan yuqori bo'ladi.

Aholi va hududiy mehnat resurslarining umumiyligi yana ularning o'rtasidagi chegaraning o'zgarib turishi bilan ham belgilanadi. Masalan, agar erkak kishi bugungi kunda 61 yoshida qarilik nafaqasida bo'lsa, u mehnat resurslari tarkibiga kirmaydi, lekin u ertaga ishga joylashadigan bo'lsa, shu vaqtning o'zidan u mehnat resurslari tarkibiga kiritiladi.

Hududiy mehnat resurslari va aholining yaxlitligi shu bilan belgilanadiki, ularning o'zgarib turishi butun insoniyatning oldingi rivojlanishi natijasidir. Aholi va hududiy mehnat resurslarining rivojlanishi umuman bir-biriga mos keladi, lekin shu bilan birgalikda, bu jarayonlarning kechishida muayyan farqlar ham mavjud bo'ladi.

Hududiy mehnat resurslarining rivojlanishini nafaqat aholi o'zgarib turishi belgilab beradi. Hududiy mehnat resurslari – bu faqat odamlarning miqdoriy yig'indisi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Bunday xulosaning haqiqatga yaqinligi shu bilan ma'qullanadiki, mehnat resurslari tarkibiga kirgan odamlar mavjud bo'lish va rivojlanish sharoitlari umumiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyatning mehnat resurslarini tashkil qilgan odamlar ishchi kuchi sifatiga ham egadirlar.

Aholi va mehnat resurslarining rivojlanishida muhim farqlar ham mavjuddir. Mehnat resurslarining rivojlanishi – bu faqat hayotni saqlab qolish va takror barpo qilish maqsadida mehnatning ishlab chiqarish kuchi rivojlanishidir; aholi rivojlanishi esa bu umuman insonlarning rivojlanishidir. Bundan tashqari mehnat resurslari aholining to'liq alohidalashgan qismi hisoblanadi. Uning asosida avvalambor shu yotadiki, agar jami aholi faqat moddiy va ma'naviy boyliklarning ist'emoichisi bo'lsa, mehnat resurslari ularni ishlab chiqaruvchilardir.

Aholi va hududiy mehnat resurslari o'rtasidagi farq, yana ular sonining o'zgarib turishi vaqt nuqtai nazaridan mos kelmasligidir. Chunki, yangi faoliyat turlarining yuzaga kelishi va iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinishi davlatning hududiy mehnat resurslarining shakllantirishdagi rovida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Milliy iqtisodiyotni boshqarish va hududiy mehnat resurslarini shakllantirishda davlatning rolini ortishi aholi bandligi tuzilmasining, inson kapitalining rivojlanishi va uning raqobatbardoshligini ortishiga ta'sir ko'r-

satadi. Davlat va tadbirkorlikning biznes hamkorligi ish unumdorligining ortishi, hududlarda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va ish bilan band aholining ish haqlarini oshishiga olib keladi. Bu omillarsiz hududiy mehnat resurslari va mehnat bozorini rivojlantirish mumkin emas.

Hududiy mehnat bozorlarida mehnat resurslarini shakllantirish, boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi haddan tashqari tengsizlikning oldini olishga e‘tibor qaratish lozim.

Milliy iqtisodiyotni barqarorligini saqlab qolish uchun hududiy mehnat resurslarini to‘g‘ri taqsimlash, ish o‘rinlari yaratishda hududiy me‘yorning buzilishini oldini olish uchun davlat tomonidan e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muhim ish hisoblanadi. Hududiy mehnat resurslarini to‘g‘ri shakllantirish muammolarini o‘z vaqtida hal qilib borish zarur.

Mehnat resurslarini hududiy prognozlashtirishning metodologik asoslarini o‘rganishda quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim:

- hududiy mehnat resurslarini mohiyatini anglab yetish va undan to‘g‘ri foydalana olishning nazariy metodologik asoslarini o‘rganish;
- O‘zbekistonda hududiy mehnat resurslarining shakllanishida o‘ziga xoslik va qonuniylikning aniqlab olish;
- O‘zbekiston hududlaridagi mehnat bozori subyektlarini mehnat bozorida tutgan o‘rni va holat keskinligini to‘g‘ri baholay olish;
- hududiy mehnat resurslarining shakllanishiga iqtisodiy va demografik omillarning ta‘sirini ko‘rib chiqish;
- hududiy mehnat resurslari faoliyatiga davlat aralashuvi darajasini aniqlab olish;
- mehnat resurslarini shakllantirish mexanizmlarini bozor va davlat imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olish;
- O‘zbekiston hududlarida ish bilan bandlikni oshirishni moliyalashtirish muvozanatini aniqlash;
- viloyat mehnat resurslarini shakllantirishda iqtisodiy va demografik omillar ta‘sirini e‘tiborga olish.

Hududiy mehnat resurslari mexanizmining nochor holatga kelib qolishiga: mehnat bozorining monopolizatsiyasi, ish bilan band aholining nochorligi; yashash sharoitining past darajasi; mehnat bozori

axborotlaridan foydalanishning yetarli darajada shakllantirilmaganligi sabab bo'lishi mumkin.

8.2. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'rta va uzoq muddatli istiqbollari

Iqtisodiyotimizdagi barqaror innovatsion tendensiyalar ta'sirida hududlarda mavjud mehnat resurslarini ifodalovchi muayyan xususiyatlarini e'tiborga olsak quyidagi muhim strategik yo'nalishlarni shakllanishiga imkon beradi:

1. O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion tendensiyalar sharoitida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratish maqsadida mehnat resurslarining demografik va malakaviy tizimni vujudga keltirish, aholining mehnat salohiyatini oshirib borish uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni vujudga keltirish joiz.

2. Hududda mavjud mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va muntazam ravishda mehnat unumdorligini oshirib borish.

3. Hududiy korxonalarda mehnat faoliyati ko'rsatayotganlarning professional darajasini oshirish maqsadida mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatidan kelib chiqib, har xil kasb-mutaxassislik tizimini optimal tarzda takomillashtirib borish.

4. Mehnat bozorining infratuzilmasini va iqtisodiy funksional mexanizmini takomillashtirib borish.

5. Hududdagi ijtimoiy mehnat jarayonining intellektual salohiyatini muntazam oshirib borish va maqsadli ravishda mehnat resurslarining mehnat faoliyatini ijodiy tarzda shakllantirib borish.

Mintaqaning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan integral ko'rsatkichdan foydalanish maqsadga muvofiq: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM; asosiy vositalarga investitsiyalar; iqtisodiyotda band bo'lganlar soni; chakana savdo aylanmasi hajmi; sanoat ishlab chiqarish hajmi; aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi; eksport hajmi; import hajmi.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholash uchun kiritilgan ko'rsatkichlar sinergetik ta'sir ko'rsatib, ma'lum

sohalarni avtonom amalga oshirish samarasidan oshirib yuborishi mumkin.

Xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari viloyatning aholi jon boshiga YaHMning o'sishiga iqtisodiyotda band bo'lganlar soni (0.99), chakana savdo aylanmasi hajmi (0.98) va asosiy vositalarga investitsiyalar (0.96) eng ko'p ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlarining qiymatlari asosiy fondlar va importga investitsiyalar hajmi, shuningdek, chakana savdo aylanmasi hajmi va aholi jon boshiga jami real o'sish bilan juda zaif va teskari munosabatlar o'rtasida kuchli to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Ko'p omilli regressiya modelini qurish natijasida quyidagiga erishildi:

$$\bar{y} = -1612,63 + 0,06x_1 + 4,02x_2 + 0,33x_3 + 0,44x_4 - 8,66x_5 + 7,74 \cdot 10^{-5} x_6 - 0,01x_7$$

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi quyidagi variantlarda amalga oshirilgan:

1-variant (inersion, asosiy) oxirgi davrda rivojlangan inersion tendensiyalarni, xususiy kompaniyalarning konservativ investitsiya siyosatini, infratuzilma sohasi kompaniyalarini rivojlantirish uchun cheklangan xarajatlarni saqlab qolishni nazarda tutadi.

2-variant (pessimistik) tashqi sharoit oldindan kutilganidek ijobiy rivojlanmaydi va bu YaHMning past o'sish sur'atlariga ta'sir qiladi, degan taxminga asoslanadi.

3-variant (modernizatsion, optimistik) ssenariy eng qulay hisoblanadi va iqtisodiy prognozga ko'ra barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar kutilganidan tezroq o'sishi sharti bilan amalga oshiriladi. Ushbu ssenariy viloyatni iqtisodiyot va sanoat Bosh boshqarmasi prognozining maqsadli versiyasiga mos keladi.

2030-yilga qadar intensiv investitsiya jalb etilishi lozim bo'lgan modernizatsiya ssenariysiga ko'ra, viloyatda iqtisodiyotning optimal hududiy va tarmoq tuzilmasi shakllanadi va viloyat O'zbekistonning iqtisodiy rivojlangan hududlariga teng bo'ladi, aholi jon boshiga YaHM hajmi qariyb 15 mln. so'mga yetadi.


Strategik rivojlanish konsepsiyasida SWOT tahlil ishlab chiqarish salohiyati, investitsion faoliyat, tashqi iqtisodiy faoliyat, ishlab chiqarish infratuzilmasi, agrosanoat majmuasi, ta'lim kompleksini rivojlantirish, turizm kompleksini rivojlantirish, demografiya va mehnat bozorining rivojlanishi yo'nalishlarida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish bo‘yicha viloyatning ustun jihatlari sifatida kichik biznes subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushining tobora ortib borayotganligi, yirik korxonalar, kichik korxonalar va mikrofirmalar,

1-jadval

Namangan viloyati rivojlanish ssenariylarining asosiy parametrlari⁹²

Yil	Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, ming so‘m		
	Iners.	Pessim.	Modern.
2018 (amalda)	6 654,70	6 654,70	6 654,70
2019	6331,37	6085,53	8582,20
2020	6683,43	6420,94	9094,40
2021	7035,50	6756,36	9606,60
2022	7387,56	7091,77	10118,79
2023	7739,63	7427,18	10630,99
2024	8091,69	7209,23	11661,4
2025	8443,75	7516,83	12199,5
2026	8795,82	7824,44	12737,7
2027	9147,88	8132,04	13275,9
2028	9499,95	8439,64	13814
2029	9852,01	8747,25	14352,2
2030	10204,1	9054,85	14890,4



1-rasm. Namangan viloyati aholi jon boshiga YaHM prognozi, ming so‘m⁹³

⁹²Mualliflar jamoasining hisob-kitoblari asosida amalga oshirilgan.

⁹³Manba: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси расмий сайти маълумотлар и <https://stat.uz/uz/>.

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni ko‘payotganligi, kichik korxonalar va mikrofirmalar tarkibida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni ortayotganligini keltirish mumkin.

Namangan viloyatning investitsion faoliyati bo‘yicha SWOT tahlilga ko‘ra asosiy muammolar sifatida investitsiyalar o‘sishi pastli, xorijdan jalb qilinayotgan investitsiyalar tarkibida xususiy korxonalar mablag‘lari juda kam ulushni tashkil etayotganligi, investitsiya muhitini yaratishdagi faolligining yetarli yemasligi, investitsiyalarning to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati, elektrotexnika, qayta ishlash tarmoqlariga kam kirayotganligi kabilar keltirilgan. Kuchsiz taraflari sifatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish darajasi yetarli emasligi, logistika va sayyohlar transferining past samaradorligi, xalqaro va ichki bozorlarda kommunikatsiya va reklamaning zaifligi, malakali, yuqori darajada xizmat ko‘rsatuvchi kadrlarning yetishmasligini kiritish mumkin.

Namangan viloyat qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi: oziq-ovqat va yem ekinlarini ko‘paytirish yo‘nalishida ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish (Kosonsoy va Pop tumanlarida paxta ekin maydonlarini qisqartirish); tog‘lar va tog‘oldi tumanlari salohiyatidan oqilona foydalanish hisobiga chorvachilikning barqaror rivojlanishini ta‘minlash; tuproq unumdorligini oshirish maqsadida irrigatsiya-melioratsiya ishlari hajmini kengaytirish; qayta ishlash sanoati (To‘raqo‘rg‘on)ning kengayishini hisobga olgan holda qishloq tumanlari ixtisoslashuvini chuqurlashtirish; sabzavot va mevalarni tayyorlash va saqlash bo‘yicha infratuzilma obyektlarini rivojlantirish, ularning eksportini sezilarli darajada kengaytirish; eksportga yo‘naltirilgan yuqori sifatli meva, uzum va sabzavotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan klasterlar va kooperativlarni yaratish; viloyatning tabiiy iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda yuqori sifatli va organik mevalar, uzum va sabzavotlar ishlab chiqarish bo‘yicha urug‘chilik tizimini rivojlantirish.

Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning SWOT tahlili

Mahalliy budjet salohiyati			
Kuchli tomonlari (Strength)	Imkoniyatlari (Opportunity)	Kuchsiz tomonlari (Weakness)	Tahdidlar (Threats)
<p>- aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ijtimoiy siyosatni amalga oshirish;</p> <p>- aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan budjet daromadlari xavfsizligi nuqtai nazaridan o‘shish tendensiyasi, bu aholining davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarga kirishini oshirish demakdir;</p> <p>- mahalliy budjetning tadbirkorlik faoliyatining o‘shishi, ya‘ni soliqsiz daromadlarning o‘shishi.</p>	<p>- korxonalar faoliyati ko‘lamini kengaytirish, iqtisodiy iqlimni yaxshilash va investorlarni tumanga jalb etish hamda davlat mulkidan foydalanish samardorligini oshirish;</p> <p>- qisqa va uzoq muddatli istiqbolda qat‘iyon belgilangan daromadlar bo‘yicha rezervlarni jalb qilish;</p> <p>- soliq yig‘ish ustidan qattiq nazorat va nodavlat to‘lovchilar bilan maqsadli ish olib borish.</p>	<p>- mahalliy budjetning respublika budjetiga bog‘liqligi, ya‘ni mahalliy budjetning umumiy daromadlarida tartibga soluvchi soliqlar va budjetlararo transfertlarning yuqori ulushi;</p> <p>- mahalliy budjetning umumiy xarajatlarida ijtimoiy xarajatlarning ulushini kamaytirish tendensiyasi;</p> <p>- budjet siyosatining ustuvor yo‘nalishlari beqarorligi;</p> <p>solih salohiyati indeksi va budjet mablag‘lari bilan ta‘minlanganligining past darajasi.</p>	<p>- jami daromadlarda qat‘iyon belgilangan daromadlari ulushining kamayishi;</p> <p>- xarajatlarning o‘shish sur‘atidan daromadning o‘shish sur‘atidan oshib ketishi;</p> <p>- jismoniy va yuridik shaxslarning to‘lov qobiliyatlari pasayishi.</p>
Ishlab chiqarish – iqtisodiy salohiyat			
Kuchli tomonlari (Strength)	Imkoniyatlari (Opportunity)	Kuchsiz tomonlari (Weakness)	Tahdidlar (Threats)
<p>Viloyatning kichik biznes subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi tobora ortib bormoqda va ayrim tumanlarda ularning miqdori 100%ni tashkil</p>	<p>Viloyatning ayrim tumanlarida sanoatning bir nechta turlari bo‘yicha pasayish tendensiyalari mavjudligi mazkur tumanlarga jiddiy e‘tibor qaratish zarurligidan dalolat</p>	<p>2018-yildan boshlab qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarining ishlab chiqarilishi Mingbuloq, Uychi tumanlarida ilk bora tashkil etilgan.</p>	<p>Sanoatning ayrim turlari bo‘yicha bir necha tumanlarda pasayish tendensiyalari kuzatilgan:</p> <p>- tog‘kon sanoati: Chortoq, Mingbuloqda pasayish kuzatilgan bo‘lsa, Uchqo‘rg‘on tumanida sanoatning</p>

<p>etgan. Sanoatning rivojlanishiga turli hajmdagi (yirik korxonalar, kichik korxonalar va mikrofirmalar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi) korxonalar soni ko'paygan. Tahlil davrida viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tarkibida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni bironta tumanda qisqarmagan, aksincha ko'paygan.</p>	<p>beradi. Ular jumlasidan, Chortoq, Mingbuloq, Pop, Norin va boshqalar. Viloyatning kimyo sanoati va farmatsevtika sanoatlari rivojlanish darajasi yildan yilga pasayib bormoqda.</p>		<p>bu turi mavjud emas;</p> <ul style="list-style-type: none"> - oziq-ovqat sanoati: To'raqo'rg'on, Chortoq, Kosonsoy, Chustda, Mingbuloq; - kiyim ishlab chiqarish: Norin, Pop, Yangiqo'rg'on; - teri va undan tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish: Uychi, Yangiqo'rg'on, Pop, Chortoq va Uchqo'rg'on; - yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari) Chortoq, Yangiqo'rg'on, Chust va Popda; - qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish: Namangan, To'raqo'rg'on, Yangiqo'rg'on va Norinda; - kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish: Namangan sh., Namangan, Chortoq va Chustda. <p>Mingbuloq, Norin, To'raqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish mavjud emas;</p> <ul style="list-style-type: none"> - farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish: Namangan sh., Norin, Pop va Uychida pasayish tendensiyalari kuzatilgan. <p>Mingbuloq, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Yangiqo'rg'on</p>
--	--	--	---

			tumanlarida farmasevtika sanoati tashkil etilmagan.
Investitsiya faoliyati			
Kuchli tomonlari (Strength)	Imkoniyatlari (Opportunity)	Kuchsiz tomonlari (Weakness)	Tahdidlar (Threats)
<p>- ishlab chiqarishni tashkil etish uchun investitsiyalarni jalb qilishda</p> <p>To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasining barpo etilishi natijasida yuqori energiya ta'minoti salohiyatining yaratilganligi;</p> <p>- viloyat aholi zichligi bo'yicha respublikada yuqori o'rinni egallaganligi hududning mehnat resurslariga boy ekanligi va mehnat sig'imli tarmoqlarga investitsiya jalb qilish imkoniyatini beradi;</p> <p>- viloyatning Janubi-G'arbiy tomondan Tojikiston Respublikasi va shimoldan esa Qirg'iziston davlati bilan chegaradosh bo'lganligi qo'shni mamlakatlar bilan kapital va investitsiyalar faol harakatini ta'minlashga</p>	<p>- viloyat iqtisodiyotining mehnat sig'imli (yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati) tarmoqlariga investitsiyalarni faol jalb qilish;</p> <p>- ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik erkinligini ta'minlash orqali mintaqadagi korxonalar va aholi bo'sh pul mablag'larini investitsiyalashga jalb etish;</p> <p>- kichik va o'rta biznesga imkoniyatlarni kengaytirish orqali to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;</p> <p>- viloyatda mavjud erkin iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish orqali investitsiyalarni faol o'zlashtirish;</p> <p>- mahalliy mineral xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga investitsiyalarni faol jalb</p>	<p>-viloyat (energiya ta'minotiga investitsiyalarni hisobga olmaganda) iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar o'sishi pastligicha qolmoqda;</p> <p>- so'nggi vaqtlarda mintaqaga jalb qilinayotgan investitsiyalar korxonalar va aholi mablag'lari hisobiga emas, jamg'arma (Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi) resurslari va kredit mablag'larga tayanib qolmoqda;</p> <p>- xorijdan jalb qilinayotgan investitsiyalar tarkibida xususiy korxonalar mablag'lari juda kam ulushni tashkil etib asosan davlat kafolati ostidagi kreditlarga bog'liq bo'lmoqda;</p> <p>- viloyatga jalb qilinayotgan investitsiyalar to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, elektrotexnika, qayta ishlash tarmoqlariga kam kirmoqda va asosan elektr ta'minoti, tashish va saqlash, tog'-kon sanoatida to'planmoqda;</p> <p>- viloyatda</p>	<p>-viloyatda o'zlashtirilayotgan investitsiyalarning katta qismi juda ozchilik hududlar (To'raqo'rg'on, Namangan sh., Uchqo'rg'on, Kosonsoy) hissasiga to'g'ri kelishi boshqa qishloq tumanlarining investitsiyalarga ehtiyojining qondirilmashligiga olib kelishi mumkin;</p> <p>- yalpi ichki mahsulot jon boshiga qiymati bo'yicha viloyatning respublikada oxirgi o'rinda turishi mintaqaviy iqtisodiy qo'lliq qolmoqligiga olib kelishi va investorlarni bozor sifatida qiziqitmasligi mumkin;</p> <p>-sanoat, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, eksport, savdo amaliyotlari asosan viloyatning markazi Namangan sh. to'planib qolishi va uzoq qishloq tumanlarining shahardan salmoqli ortda qolishi kuzatilmog'da.</p>

<p>imkon yaratadi; - mintaqaning qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan paxta xomashyosiga boyligi hududda oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlariga investitsiyalar kiritish bo'yicha ustunlik beradi.</p>	<p>qilish; - amortizatsiya siyosatini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, fond bozori rolini keskin oshirish va jamg'armalarni safarbar etish orqali investitsiya salohiyatini kengaytirish; - tadbirkorlarga qulay investitsiya muhitini yaratish xususiy xorijiy va ichki investitsiyalarni keng jalb qilish uchun iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni jadallashtirish.</p>	<p>to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining pastligi va uning sanoat va mintaqa bo'yicha taqsimlanishining nomutanosibliigi; - viloyatda investitsiya muhitini yaratishdagi faolligining yetarli yemasligi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining kamayishiga va natijada umuman mamlakatda investitsion faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin.</p>	
---	---	---	--

Ekspart-import salohiyati

Kuchli tomonlari (Strength)	Imkoniyatlari (Opportunity)	Kuchsiz tomonlari (Weakness)	Tahdidlar (Threats)
<p>Tashqi savdo aylanmasi. 2016–2018-yy. Namangan viloyatida tashqi savdo aylanmasining barqaror o'sishi kuzatiladi. Namangan sh., To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Namangan, Uychi va Yangiqo'rg'on tumanlarida viloyatning jami tashqi savdo aylanmasining 86%ni tashkil etadi. Ekspart.</p>	<p>Tashqi savdo aylanmasi. 2016–2018-yy. Namangan viloyatida tashqi savdo aylanmasining barqaror o'sishi kuzatilgan bo'lsa ham, lekin uning tarkibida importning doimiy ustvorligi mavjud.</p>	<p>Oziq-ovqat mahsulotlari: Viloyatning oziq-ovqat mahsulotlari eksportining importdan ustvorligi kuzatilsa ham, lekin, avvalgi yillarda importi bo'lmagan tumanlarda importning o'sishi, viloyatning mazkur tovarlarga bo'lgan talabning ortib borayotganligini bildiradi. Kimyo mahsulotlari va buyumlari: viloyat bo'yicha eksportga nisbatan (eksportning o'sish tendensiyaga qaramasdan) import</p>	<p>Ekspart. 1. Aksariyat xorijiy mamlakatlar bilan eksport munosbatlarining davomiyligi kuzatilmagan. 2. Ekspartning pasayish tendensiyalari Yangiqo'rg'on, Norinda, Uychida kuzatilgan. Import. Viloyatning import ko'rsatkichida muntazam o'sish tendensiyasi saqlanib kelgan va uning 79%i 4 ta hududga to'g'ri kelgan (Namangan sh., Namangan,</p>

<p>Ayrim tumanlarda mahsulotlarning eksportida tobora barqaror rivojlanish tendensiyalari kuzatilgan va eng muhimi, mazkur tumanlarda eksportning minimal ko'rsatkichdan tobora ortib borishi kuzatilgan (Kosonsoy, Pop, Uchqo'rg'on, Chortoq). Eksportning tovarlar tarkibida ustuvorlik oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, barqaror o'sish, xizmatlar sohasida, mashina va asbob uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari, qora va rangli metallarda ham kuzatilgan.</p> <p>Import. 2016-2018 yy. importning keskin pasayishi Uchqo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlarida bo'lsa, tovarlar tarkibida pasayish, qora metallar va rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar,</p>		<p>yuqori ko'rsatkichlarga ega va bu jarayon barcha shahar va tumanlarda kuzatilganligi viloyatda mazkur mahsulotlarga to'yinmagan talab yuqori darajadiligini bildiradi va bu tendensiya keyingi yillarda ham saqlanib qoladi.</p> <p>Xizmatlar: viloyat bo'yicha xizmatlarning 95% eksporti Namangan sh. xissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga eksportning tobora o'sib borishi Mingbuloq, To'raqo'rg'on, Chust tumanlarida kuzatilgan. Xizmatlarning eksport ko'rsatkichlarini yanada oshirish imkoniyatlaridan biri sifatida, xizmatlar bo'yicha ulushi yuqori bo'lmagan, Kosonsoy, Pop, To'raqo'rg'on, Chortoq va Chust tumanlarida eksport ko'rsatkichlarini oshirish imkoniyatlarini aniqlanish zarur. Shuningdek, eksport faoliyatida umuman ishtirok etmayotgan Namangan, Norin, Uchqo'rg'on tumanlarini eksportga jalb qilish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.</p> <p>Mashina va asbob-uskunalar: Eksportga nisbatan importning keskin o'sishi</p>	<p>To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on). Importning boshqa tumanlarga nisbatan keskin o'sishi Namangan sh., Namangan, Kosonsoy tumanlarida kuzatilgan. Viloyatning jami importining 74,2%i 3 ta tovarlar tarkibiga to'g'ri kelgan, bular, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va buyumlari, mashina va asbob uskunalar.</p> <p>Oziq-ovqat mahsulotlari: avvalgi yillarda importi bo'lmagan tumanlarda importning o'sishi mavjud.</p> <p>Kimyo mahsulotlari va buyumlari: viloyat bo'yicha kimyo mahsulotlarining eksportga nisbatan (eksportning o'sish tendensiyaga qarimasdan) import yuqori ko'rsatkichlarga ega (45,4%ga o'sgan) va bu jarayon barcha shahar va tumanlarda kuzatilgan.</p> <p>Xizmatlar: Xizmatlar importining asosiy ulushi Namangan sh. to'g'ri kelsada, yillar bo'yicha uning pasayib borish tendensiyasi kuzatiladi. viloyatning Namangan, Norin, Uchqo'rg'on tumanlarida xizmatlarning eksport</p>
--	--	---	---

xizmatlar sohasida kuzatilgan.		viloyatning barcha hududlarida kuzatiladi. Eksport ko'rsatkichi qisman bo'lgan, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on tumanlari hamda eksportda umuman ishtirok etmagan boshqa tumanlarning imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.	va import operatsiyalari umuman kuzatilmagan.
--------------------------------	--	---	---

Tayanch soʻzlar: mehnat resurslari, inson kapitali, hududiy mexnat bozori, hududiy bandlik, prognoz, tendensiya, oʻrta va uzoq muddatli prognoz, ssenariy yondashuv.

Nazorat savollari

1. Oʻzbekistonning hududiy rivojlanishida mexnat resurslaridan samarali foydalanishning ahamiyati.
2. Oʻzbekistonda mintaqaviy rivojlanishida barqarorlik tamoyilida inson kapitalining oʻrni nimadan iborat?
3. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda hududiy mehnat bozorini oʻrni nimadan iborat?
4. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda prognozlarni ahamiyati nimadan iborat?
5. Mintaqaning strategiyasini shakllantirishda rivojlanish tendensiyalarini oʻrni nimadan iborat?
6. Mintaqaning rivojlanish strategiyasida ssenariyli yondashuvni oʻrni nimadan iborat?
7. Mintaqa rivojlanish strategiyasini prognoz qilish usullari nimadan iborat?

IX BOB. MAHALLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT

9.1. Mahalliy va mintaqaviy iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmun mohiyati.

9.2. Mintaqaviy rivojlanishda iqtisodiy vositalardan foydalanish imkonoiyatlarini kengaytirish

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat – umumdavlat boshqaruvi tizimi-ning ma'lum sohalarda (viloyatlari) (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, madaniy, tarixiy, siyosiy) rivojlantirish maqsadida davlat manfaatlarini ko'zlab olib borilayotgan faoliyati mavjud resurslar va ichki ehtiyojlarni maqsadli va samarali foydalanish asosida faoliyat ko'rsatib keladi.

Mintaqaviy siyosat hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o'zo'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim. Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o'rganiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

– tabiiy iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;

– mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;

– mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va

kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;

– u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);

– mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;

– ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta'minlanishi;

– ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.


Mahalliy va mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo'yilmalar qayta taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo'nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo'nalish kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obyektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temiryo'llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi yo'nalish yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo'llash (ma'muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo'yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomeratsiya markazlariga nisbatan keng qo'llaniladi. O'zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va

qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.



1-rasm. Mintaqaviy siyosatning maqsadi.

Uchinchi yoʻnalish muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalb etishni ragʻbatlantirishlari. Mazkur yoʻnalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarni joylashtirishda davlat tomonidan muhim eʼtibor beriladigan asosiy yoʻnalish hisoblanadi.

Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan sohalari uchun quyidagi tavsiflanish imkonlaridan foydalanish mumkin:

– iqtisodiyot va uning tarixiy tuzilishi hududiy demografik, geografik va transport aloqalar murakkabligini hisobga olgan holda davlat boʻyicha iqtisodiy oʻrtacha darajasi koʻrsatkichlariga erishish;

– hududda xususiy biznes va kichik tadbirkorlik va bozor infratuzilmasini keng rivojlantirish uchun barcha qulay shart-iqtisodiy sharoitlar yaratish;

– tanlangan mintaqaviy loyihalarni qoʻllab-quvvatlash; obodonlashtirishning ustuvor yoʻnalishlariga investitsiyalarni koʻpaytirish; elektr energiyasini va boshqa energiya manbalarni tejoychi hozirgi zamon texnologiyalar, yer osti boyliklarni qazib chiqarish; qurilish materiallari, sayyohlik va dam olish majmuasi va boshqalar;

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval birinchi navbatda mamlakatdagi hududiy notenglikning sabablarini o'rganiladi. Bunda quydagilarga e'tibor berish lozim:



- Tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;
- Mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;
- Mintaqalarning chekka hududlarida joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi

2-rasm. Mintaqaviy siyosatning sabablari.

- sog'lom ekologik muhitni avaylab, asrab, saqlab borish;
- ishlab chiqarishni innovatsion texnologiyalar asosida kengaytirish. Atrof-muhitni ifloslantirmaydigan zamonaviy energiya tejoychi texnologiyalar va muqobil yoqilg'ini ishlab chiqarish texnologiyalari qo'llaniladigan mintaqaviy ishlab chiqaruvchilar, korxonalar yoki loyihalar tomonidan eng ko'p qulaylik yaratish tartibi qo'llanilishi kerak;
- mintaqada kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab borish;
- mintaqaning investitsion jozibadorligini shakllantirib, muntazam ravishda kengaytirib borish, cheklangan budjet moliyaviy resurslarni maqsadli ishlatish;
- demografik o'sish, mehnat resurslarining va innovatsion takliflarining hozirgi zamon axborot texnologiyalarga asoslangan mintaqaviy elektron bazalarni vujudga keltirish;
- yer zaxiralarini qaytadan monitor qilish va davlat tasarrufidan chiqqan mulkdan samarali va maqsadli foydalanish;
- eksportga yo'naltirilgan va importga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining tizimini optimallashtirish;

- maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) va erkin iqtisodiy hududlarini yaratish (transchegaraviy hamkorlik);
- iqtisodiy ixtisoslashgan klasterlarni yaratish va ularning faoliyatini takomillashtirib borish.

9.2. Mintaqaviy rivojlanishda iqtisodiy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish

Mintaqaviy rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishda yalpi hududiy mahsulotning taqsimlangan tarkibini aniqlash muhim o‘rin tutadi. Taklif etilayotgan hududlarning moddiy ishlab chiqarish hududlaridagi sof mahsulot qiymatini hisoblash metodologiyasi taqsimlovchi munosabatlar ta‘siridan va, birinchi navbatda, amaldagi sotish narxidan abstragirlash imkonini ta‘minlaydi.

Asosiy fundamental metodologik prinsip sifatida mehnat qiymati nazariyasi qoidasi olinib, unga ko‘ra, yangi qiymat faqat jonli mehnat orqali yaratiladi. Ushbu qoida asosida aniq hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, qo‘shimcha mahsulotning hosil bo‘lish qonuniyatlarini bilish muhim.

Keyingi metodologik prinsip alohida hududlarda ishlab chiqarishning iqtisodiy sharoitlari parametrlari iqtisodiyotning real sektori bo‘yicha umumiy bo‘lgan korxonalarda sof mahsulotni hisoblash uchun barcha hisoblarni asos sifatida qabul qilish. Umumiy me‘yorlar bilan bog‘liqlik moddiy ishlab chiqarishning barcha qismlarining kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish jarayoni bilan butun iqtisodiyot miqyosida bog‘liqlikdan kelib chiqadi.

Biroq, ma‘lum bo‘lishicha, turli hududiy korxonalarda ilmiy-texnika jarayoni notekis ravishda amalga oshirilib, texnika bilan jihozlanganlik va mehnat qurollarining teng bo‘lmagan darajasida aks etadi. Qiymat jonli mehnat orqali yaratilgan taqdirda ham ma‘lumki, uning qurollanganlik darajasi yuqori bo‘lsa, mehnatning ishlab chiqarish kuchi yanada rivojlangan bo‘lib, mehnatning teng sarfida yuqori miqdordagi samara kuzatiladi. Jonli mehnat tomonidan xomashyo va materiallarning katta hajmini qo‘llash mehnat hajmini ishlab chiqarish vositalari hajmiga nisbatan pasayishida namoyon bo‘ladi. Nihoyatda yuqori ishlab chiqarish kuchiga ega bo‘lgan mehnat ko‘paytirilgan mehnat sifatida namoyon bo‘lib, teng vaqt oralig‘ida

shu kabi o'rta jamoa mehnatiga qaraganda yuqoriroq kattalikdagi qiymatni yaratadi. Qiymatning yuqori kattaligi o'zgarmas zarur mahsulotda yaxshiroq iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarilgan ortiqcha qo'shimcha mahsulotning o'sishida aks etadi.

Bundan kelib chiqadiki, qo'shimcha mahsulot normasi turli hudud va korxonalarda tabaqalanadi. Nazarimizda, qo'shimcha mahsulot umumiy normasini tuzatish uchun metodologik asos sifatida ishlab chiqarishning organik tuzilishi xizmat qilib, miqdor jihatdan ishlab chiqarish fondlar (S) qiymatining zarur mahsulot qiymatiga nisbati bilan ifodalanadi. Qo'shimcha mahsulot normasi ishlab chiqarishning organik tuzilishi bilan to'g'ri proporsional bog'liqlikda turadi. Agar ishlab chiqarishning ma'lum sohasidagi organik tuzilma moddiy soha bo'yicha o'rta hisobda past darajada bo'lsa, bu, avvalambor, ushbu ishlab chiqarish sohasidagi qo'shimcha mahsulot normasi ham o'rta darajadan pastligi faktining boshqacha ifodalanishi xolos. Agar, teskari olib qaralganda, ishlab chiqarishning ma'lum sohasidagi organik tuzilma yuqoriroq darajaga ega bo'lsa, bu qo'shimcha mahsulot normasi o'rta darajadan oshishini bildiradi.

Hududlarni qo'shimcha mahsulotning tuzatilgan normasiga ega bo'lib va zarur mahsulotning qiymatini bila turib, qo'shimcha mahsulot qiymatini va, binobarin, hududning sof mahsulot hajmini aniqlash mumkin. Bunda, bizningcha, ba'zi iqtisodchilar tavsiya qilganidek ish haqini emas, balki aynan zarur mahsulotni olish kerak. Sababi, ish haqi, birinchidan, zarur mahsulot ko'rinishining bir shakli xolos, ikkinchidan, hudud kesimida taqsimlashning ma'lum munosabatlari ta'sirida u o'zining moddiy negizidan chetlashadi. Shuning uchun qo'shimcha mahsulotning ish haqiga nisbatan taqsimlanishi haqiqiy ish holatini buzib ko'rsatadi.

Shunday qilib, sof mahsulotni hisoblashda hisobning mehnat nazariyasining asosiy metodologik prinsiplarini qo'llash nafaqat qo'shimcha mahsulot va zarur mahsulot, balki ishlab chiqarish fondlari va zarur mahsulotlar o'rtasidagi, ya'ni qiymatning barcha elementlari o'rtasidagi o'zaro nisbat qonuniyatlarini tushunish orqali amalga oshiriladi.

So'ng, dastlabki metodologik shartlardan biri – bu barcha hudud va korxonalar uchun bir ishchiga zarur mahsulotning yagona, ya'ni

o'rtta ishchining hayotiy mablag'lar fondi qiymatiga teng bo'lgan o'lchovni qabul qilish.

Keltirilgan metodologik prinsiplar moddiy soha hududlaridagi sof mahsulotni hisoblashning bevosita metodikasi asosini tashkil qiladi.

Barcha hudud hisoblari negizida, ta'kidlanganidek, xalq xo'jaligi normalari yotadi. Shuning uchun, dastlab zarur va qo'shimcha mahsulotlarni, moddiy soha bo'yicha qo'shimcha mahsulot normasini va ishlab chiqarishning organik tuzilmasini aniqlab olish kerak.

Shunday holatga ham alohida e'tibor qaratish lozimki, zarur va qo'shimcha mahsulotlar namoyon bo'lishining taqsimlash shakllari kattaliklari yig'indisi faqat moddiy ishlab chiqarish (mamlakat bo'yicha)da qiymat asoslariga mos keladi. Alohida tarmoqlar, korxonalar va mintaqalar bo'yicha esa taqsimlash sohasi qonuniyatlarining harakati bois narx sof mahsulot tuzilmaviy elementlarining qiymati va namoyon bo'lish shaklidan og'ib, ular ham o'z o'rnida o'zining qiymat asoslaridan og'adi. Bunda iqtisodiyot miqyosida narxlar jamlanmasining yig'indisida ishlab chiqarishning turli tarmoqlaridan va mintaqalardan og'ish o'zaro tenglashadi.

Sof moddiy mahsulotni va uning tuzilishini hisoblash uchun ishlab chiqarish uslubining asosiy metodik qoidalari quyidagilardir:

1. Tarqatish sohasidagi SMM (sof moddiy mahsulot), ZM (zarur mahsulot) va QM (qo'shimcha mahsulot)lar namoyon bo'lish shakllarining yig'indisi ishlab chiqarish sohasidagi o'xshash xarajatlari asoslariga faqatgina umummilliy darajada mos keladi.

2. Yangi qiymat faqat jonli mehnat bilan yaratilishi haqidagi mehnat qiymati nazariyasi.

3. Alohida tarmoqlarda, korxonalar va alohida mintaqalarda sof mahsulotni hisoblashda iqtisodiyotning real sektori bo'yicha o'rtta miqdorni tashkil etadigan (kapitalning organik tuzilishi va ortiqcha mahsulot nisbati) ishlab chiqarishning iqtisodiy sharoitlari parametrlarini barcha hisoblar asosi sifatida qabul qilish.

4. Iqtisodiyot real sektorining barcha tarmoqlari va mintaqalarining xodimlari uchun zarur mahsulotning yagona o'lchovini – ishlab chiqarishning ma'lum rivojlanish darajasida hamda talabning ma'lum darajasida xodim va uning qaramog'idagi shaxslarning yashashi uchun zarur mablag'lar jamg'armasini qabul qilish.

5. Kapitalning tarmoq yoki mintaqaiy organik tuzilishiga qarab qo'shimcha mahsulotning o'rta normasini tuzatish yo'li bilan qo'shimcha mahsulotning hudud normasini belgilash.

Tarmoq yoki mintaqada kapitalning organik tuzilishi o'rta tuzilishidan qanchalik yuqori yoki past bo'lsa, shunchalik tarmoq yoki mintaqadagi qo'shimcha mahsulot normasi qo'shimcha mahsulotning o'rta normasidan yuqori yoki past bo'ladi.

Shu yo'l bilan hisoblangan ishlab chiqarish iqtisodiy sharoitlarining xalq xo'jaligi parametrlari, aytib o'tilganidek, moddiy soha tarmoqlarida va mintaqaiy kesimda zarur va qo'shimcha mahsulotlar hamda umuman olganda, sof mahsulot hisobining negizini tashkil etadi.

Dastlab, zarur mahsulot hajmi zarur mahsulotni tarmoq va mintaqadagi xodimlar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

So'ng, mazkur tarmoq va mintaqadagi ishlab chiqarishning organik tuzilishi aniqlanadi.

Hudud qo'shimcha mahsuloti normasini hisoblashga kelganda, u xalq xo'jaligi normasidan yuqoriga yoki pastga siljiydi, chunki hudud organik tuzilishi ishlab chiqarishning xalq xo'jaligi organik tuzilishidan farqlanadi.

Demak, hududdagi zarur mahsulot va qo'shimcha mahsulotning normasini bilganda, qo'shimcha mahsulot hajmini aniqlash mumkin.

Sof mahsulot va uning tuzilmaviy elementlari boshqa moddiy soha tarmoqlari va mintaqalari bo'yicha ham xuddi shu tarzda aniqlanadi.

Keltirilgan hisoblash metodikasi, unga berilgan ta'rifdan kelib chiqib, Davlat statistika qo'mitasining boshlang'ich obyektiv ma'lumotlariga tayanadi hamda realizatsiya narxlari va taqsimlash munosabatlarini maksimal darajadagi abstragirlashni ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib, olingan hisob natijalari mahsulot narxlarining o'zgarishi va narx shakllanishining turli metodikalarini qo'llashga bog'liq bo'lgan xo'jalik hisoblarini emas, balki moddiy soha tarmoqlari va mintaqalarning aynan obyektiv ishlab chiqarish faoliyatini ta'riflaydi (xarakterlaydi). Misol uchun, sanoat mahsulotlariga ulgurji narxlarni va qishloq xo'jalik mahsulotlariga xarid narxlarini shakllantirishdagi farqlar ma'lum.

Moddiy ishlab chiqarishning turli hududlarida sof mahsulot va uning tuzilmaviy elementlari qiymatining miqdoriy parametrlarini hisoblash ularning namoyon bo'lish shakllari – ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy iqtisodiy richaglari bo'lgan ish haqi va daromadni solishtirish va boshqarish imkonini beradi. Aynan ushbu solishtirish, ya'ni ish haqining zarur mahsulot bilan, daromadning qo'shimcha mahsulot bilan nisbatini aniqlash ilmiy asos, aniqlashning ilmiy usuli bo'lib, bunda, birinchidan, ishlab chiqarishning u yoki bu hududlarida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlarning darajasi, ikkinchidan, mahsulotlarni sotishda ekvivalentligini ta'minlash, uchinchidan, zarur holatda ekvivalentlikni u buzilgan joyda o'rnatishning aniq choralari aniqlanadi. Mazkur usul ushbu bosqichda tezkor rivojlanishi zarur bo'lgan sohalarga ustuvorlik yaratishning, shu bilan birga mazkur ustuvorliklar ta'minlanishining iqtisodiy va moliyaviy manbalarini aniqlash asosi bo'lib ham xizmat qiladi. Bu, bizningcha, iqtisodiy siyosatning bosh funksiyasi va mohiyatini tashkil etadi.

Ma'lumki, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi insonlarning irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan obyektiv haqiqatdir. Ijtimoiy umumiy mahsulot, sof mahsulot, zarur va qo'shimcha mahsulot iqtisodiyot elementlari bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida obyektiv shakllanuvchi kategoriyalardir.

Sof mahsulotning kerakli va qo'shimcha mahsulotga bo'linishi ilmiy abstraksiya sohasiga kiradi. Shuning uchun bu kabi bo'linishni deyarli amalga oshirib bo'lmaydi. Biroq bu, zarur va qo'shimcha mahsulot qiymatini miqdor jihatidan hisoblab bo'lmaydi degani emas.

Zarur va qo'shimcha mahsulotlarni taqsimlashda ularning real sharoitlarda namoyon bo'lish shakllari taqsimlash sohasining ma'lum qoidalarining ta'siri oqibatida o'z asoslariga mos kelmaydi. Biroq mamlakat miqyosida umuman olganda zarur va qo'shimcha mahsulotlar namoyon bo'lish shakllarining umumiy yig'indisi ishlab chiqarishdagi birlamchi asoslariga to'g'ri keladi.

Ammo bu qoidani iqtisodiyotning alohida hududlarida qo'llab bo'lmaydi, chunki alohida hududlarda zarur va qo'shimcha mahsulotlarning namoyon bo'lish shakllarining tarqalishida ularning moddiy negizidan keskin ravishda chetga chiqiladi. Bevosita hududlar kesimida zarur va qo'shimcha mahsulot qiymatini deyarli aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun ularning qiymati avvaliga umuman

iqtisodiyotda bo'yicha olganda, keyin esa, zarur va qo'shimcha mahsulotning shakllanish qonuniyatlariga asoslangan holda hududlar va korxonalar bo'yicha aniqlanadi.

Jahon taribasi shuni ishonchli tarzda namoyon qiladiki, bozor munosabatlari ularning sof ko'rinishida faqat mintaqaviy muammolarni yuzaga keltirish va ularni chuqurlashtirishga qodir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bozor rivojlanishidagi nomutanosibliklar tobora ko'proq hududiy nomutanosibliklar xarakteriga ega bo'lib bormoqda. Bozor vaziyatida bir qator hududlar uchun boshlang'ich sharoitlardagi obyektiv tafovutlar siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, etnik va boshqa mulohazalarga ko'ra zamonaviy davlatlar uchun maqbul kelmaydigan tengsizlik darajasiga olib kelishi mumkin. Binobarin, toki bozor bor ekan kompensatsiya qiluvchi xarakterga ega bo'lgan mintaqaviy siyosat ham bo'lishi lozim. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishida nomutanosibliklar mavjud bo'lib kelganligi va doimo mavjud bo'lishi tushunarli, albatta. Lekin qaysidir fursatda ular nazorat ostidan chiqadigan bo'lsa, bu shuni anglatadiki, mintaqaviy siyosat ishlan chiqqan va uning ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirish vositalarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Shu sababga ko'ra samarali mintaqaviy modellar izlab topish butun dunyoda davlat institutlarini rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Kompensatsiya qiladigan mintaqaviy siyosat yetakchi hududlarni rivojlanish uchun stimullardan mahrum qiladigan va shu bilan bir paytda qoloq hududlarda xotirjamlik borasida xom xayollar vujudga keltiradigan umumiy tenglashtirish siyosatiga aylanib qolmasligi lozim. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmi aholining katta qismini qamrab olgan bo'lib, uning bazaviy (asosiy) ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlamoqda. Siyosatning iqtisodiyotga yo'naltirilganligi jamiyat rivojlanishining ijtimoiy maqsadlari bilan belgilanadi. Shak-shubhasizki, iqtisodiyot sohasidagi har qanday qaror ijtimoiy oqibatlarga ega bo'lishi muqarrar, demak, iqtisodiy maqsadlar turmush sifati zamonaviy stanartlarini qo'llab-quvvatlash uchun moddiy imkoniyatlar yaratuvchi vosita yoki shart bo'lib xizmat qiladi. Bunga teskari bo'lgan bog'liqlik ham to'g'ri. Davlat mintaqaviy siyosatining asosiy mazmuni va maqsadlari nuqtai nazaridan ma'lum bir shartlilik asnosida uning uchta asosiy turi haqida gapirish mumkin bo'ladi: «paternalistik», «raqobatli» va

aralash mintaqaviy siyosat varianti. Bunda agar birinchi holatda mintaqaviy siyosat «yuqoridan-pastga» tamoyili bo'yicha tashkil qilinadigan bo'lsa, ikkinchi holatda davlatning birona muayyan hududni rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatishiga emas, balki har bir mintaqaning umumiy va barcha uchun bir xil raqobat sharoitlarida (mintaqada mavjud resurslarni ushlab qolish uchun ham, yangi resurslar jalb qilish uchun ham) mustaqil rivojlanish mexanizmlarini ishga tushirishga qaratgan holda «pastdan yuqoriga» tashkil qilinadi. «Markaz» faqat universal «o'yin qoidalari»ni belgilab beradi, mintaqalar hukumati esa qaror qabul qilishda mustaqil va ularning natijalari uchun javobgar bo'lgan «o'yinchilar»ga aylanadi. Biroq mintaqaviy rivojlanish sohasiga bozor subyektlarining faoliyat yuritish qonuniyatlari va tamoyillarini to'g'ridan to'g'ri ko'chirib o'tkazish, professor A.N.Shvesovning ta'kidlashicha, «...bema'ni bo'lib, joriy dunyo tarixi yoki o'tmishdagi birona real voqelikka asoslanmaydi», gap faqat «...mintaqalarning real rivojlanishida raqobatli munosabatlarning u yoki bu elementlari ishtiroki» haqida borishi mumkin. Yevropa Ittifoqida unga a'zo bo'lgan mamlakatlarga nisbatan qo'llanadigan yondashuv mintaqaviy siyosatning muayyan turi alomatlarini ustunlik qiladigan variantga misol bo'la oladi. YeI mintaqaviy siyosati butun jamiyatning eng rivojlanmagan mamlakatlarga ularning ortda qolishini bartaraf etishda yordam ko'rsatish, YeIga a'zo bo'lgan turli mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida o'ringa ega bo'lgan tengsizlikni yumshatish uchun ishlab chiqilgan. Bu ayniqsa, Yevropa Ittifoqiga yangi a'zolar – mintaqaviy nomutanosibliklar kuchli bo'lgan Sharqiy Yevropa mamlakatlari a'zo bo'lib kirishi sharoitlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi qoshida mintaqaviy dasturlarni moliyalashtirish uchun maxsus tashkil qilingan bir nechta fond faoliyat ko'rsatadi, chunonchi: Yevropa mintaqaviy rivojlanish fondi (ERDF), Yevropa ijtimoiy fondi (ESF), Yevropa qishloq xo'jalik fondi (EAGGF), Yevropa baliqchilik fondi (FIFG). Ushbu fondlar mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantiradigan har qanday investitsiyalarni: infratuzilmani yaxshilash, ta'lim dasturlari, kichik va o'rta biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash, turizmni moliyalashtiradi. Garchi dasturlarning ustuvor yo'nalishlari keng ma'noda YeI Komissiyasi bilan birgalikda belgilansada, amaliy loyihalar va chora-tadbirlarni tanlash a'zo mamlakatlar va mintaqalarning alohida

huquqlari hisoblanadi. Fondlarni moliyalashtirish YeI umumiy budjetidan qisman milliy hukumatlar ishtirokida amalga oshiriladi.

YeI mintaqaviy siyosatining asosiy siyosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi: ishonchli qonunchilik bazasi mavjudligi (investorlar va jamoatchilik rag'batlantirish chora-tadbirlari va qo'llab-quvvatlash hududlarini tanlash obyektiv ekanligiga ishonchi komil bo'lishi uchun); uzoq muddatli xarakter va strukturali vazifalarni hal qilishga yo'naltirilganlik; bozorga yo'naltirilganlik; qo'llab-quvvatlash hududlari soni cheklanganligi; mintaqaviy rivojlanish bo'yicha chora-tadbirlar eng yuqori samaradorligiga erishish va dasturlarning bir-birini takrorlashiga yo'l qo'ymaslik maqsadida turli darajadagi hukumatlar harakatlarining muvofiqlashtirilganligi.

Bundan tashqari, YeIga a'zo mamlakatlar mintaqalari umumyevropa qarorlari qabul qilish jarayonida ularning manfaatlarini ifodalaydigan o'zlarining tashkiliy strukturalariga ham egalar. Bu, masalan, Yevropa Kengashining mahalliy va mintaqaviy hukumatlar Kongressi, Yevropa mintaqalari Assambleyasi, YeI mintaqalar Qo'mitasi va h.k.dir. Umuman olganda, aytish mumkinki, YeI tomonidan shakllantirilgan va qo'llab-quvvatlanadigan mintaqaviy siyosat standartlari bugungi kunda eng ilg'or xalqaro amaliyot hisoblanadi. Ular mintaqalarning samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilibgina qolmasdan, mintaqalarning o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish huquqini ta'minlagan holda hukumatlararo qaror qabul qilishda ishtirok etish jarayonini ham rag'batlantiradi. Aralash mintaqaviy siyosat variantlari ko'rsatilgan turlarning har biri uchun xos bo'lgan belgilar uyg'unlashadigan proporsiyalar bilan farq qiladi.

Mintaqaviy rivojlanish va mintaqaviy siyosatni tartibga solish borasida xalqaro tajriba bilan uning eng muhim tarkibiy qismi bo'yicha yaqindan tanishib chiqish uchta asosiy modelni ajratib ko'rsatishga imkon beradi: «tenglashtirish siyosati», «o'sish nuqtalari siyosati» va «makonga oid siyosat». Tenglashtirish siyosati samarali mintaqalardan olinadigan daromadlarni asosan ijtimoiy xizmatlar taqdim etishga (ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar, jamoat tartibini saqlash, davlat boshqaruvi xizmatlari) yo'naltiriladigan samarasiz mintaqalarga qayta taqsimlashga asoslanadi. Shu sababli ushbu siyosat asosan ijtimoiy yo'naltirilgan mamlakatlarda amalga oshirilib, ular qatorida Skandinaviya mamlakatlari, Shvetsariya va

Avstraliyani alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tenglashtirish siyosati asosiy vositalar samarasizligiga, shuningdek, mintaqalarning mustaqil rivojlanishi uchun salbiy stimullarga olib keladi. Shu sababga ko'ra ko'plab mamlakatlar hozirgi kunda bu siyosatdan voz kecha boshlagan. O'sish qutblari siyosati (polusov rosta) ishlab chiqarish omillarini o'ziga tortadigan yetakchi tarmoqlar korxonalarini joylashtirish yo'li bilan alohida mintaqalarni nuqtali qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. U asosan maqsadli daslat dasturlari, budget rejimlari, maxsus iqtisodiy zonalar, shuningdek, klasterlar tashkil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu yerda eng qiyini o'sha o'sish qutblarini to'g'ri ajratishdir, chunki ularni belgilashda xatoga yo'l qo'yish mintaqa iqtisodiyoti holatining yanada yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, agar ajratilgan o'sish qutblari ularning atrofdigani hududlar iqtisodiyotiga integratsiyalanmasa, bu hududlar rivojlanishi ro'y bermaydi, o'sish qutblarida iqtisodiy faoliyatning haddan tashqari markazlashuvi ro'y beradi, bu esa ularning infratuzilmasiga qo'shimcha yuk bo'lib tushadi, ekologik holatni yomonlashtiradi va h.k. Shuni ham ta'kidlash joizki, o'sish qutblarini ajratish jarayonining o'ziga xosliklari mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'sish qutblari butun mamlakat uchun ajratiladi va turli o'sish qutblari turli vazifalarni bajaradi. O'sish qutblari siyosatidan foydalanish xalqaro tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday mintaqaviy rivojlanish konsepsiyasi ko'plab mamlakatlarda 70-80-yillarda industrial davrda, unifikatsiyalash va markazlashtirish davrida, iqtisodiyot yirik industrial shakllar, ommaviy ishlab chiqarish va miqyosda tejab qolish bilan tavsiflanadigan davrda juda ommaviy bo'lgan. Bu davrda ularni rivojlantirish iqtisodiy va texnologik o'sishni ta'minlaydigan tarmoq ustuvorliklarini aniq ajratish mumkin bo'lgan. Hozirgi paytda, postindustrial davrda, uzoq muddatli tarmoq ustuvorliklarini belgilash samarasizdir. Mintaqalarda ko'pincha markazlashtirilgan budgetdan moliyalashtirish (yoki jalb qilinadigan mablag', masalan, kredit resurslari hisobiga moliyalashtirish) asosida yirik sanoat obyektlari qurilishi mintaqaviy rivojlanish muammolarini hali qilishga olib kelmaydi. Ko'pincha yirik miqyosdagi loyihalar iqtisodiy nuqtai nazardan samarasiz, davlat esa yomon tadbirkor va tadbirkorlarning yomon

yordamchisi bo‘lib chiqardi. Shuningdek, o‘shish qutblari strategiyasiga xos bo‘lgan kamchiliklardan biri shundan iboratki, u qolgan mintaqalarning rivojlanishiga turtki berish kanallarini ko‘zda tutmasdan faqat alohida hududlarni rivojlantirishga asosan tashkil qilinadi. Shu sababli nuqtali rivojlantirish hali mintaqalar aholisining turmush darajasini samarali tenglashtirishga olib kelmagan, o‘shish qutblari turtkilari hamma joyda ham chetda joylashgan mintaqalarga to‘laqonli yetib bormagan. Misol uchun, alohida iqtisodiy hududlarni rag‘batlantiradigan Xitoy mintaqaviy siyosati ayrim mintaqalarning rivojlanishiga, qishloq joylardan shaharlarga migratsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keldi. Natijada mintaqalardagi nomutanosibliklar muammosi chuqurlashdi, o‘shish qutblaridagi ekologik vaziyat yomonlashdi, bu esa aholining turmush darajasi pasayib ketishi va ijtimoiy keskinlikning o‘shishi bilan tahdid soldi. Shu munosabat bilan Xitoy yo‘naltirilgan mintaqaviy rivojlanish strategiyasini mintaqalarni makonga oid rivojlantirish strategiyasiga almashtirib, qishloq okruglari va infratuzilmasini rivojlantirishni unga muvofiq amalga oshirmoqda. Makonga oid siyosati 90-yillardan boshlab, postindustrial rivojlanish va globallashtirish davrida rivojlana boshladi. Uning qoidalari tenglashtirish siyosati va o‘shish qutblari siyosatidan tubdan farq qiladi. Mintaqaviy siyosatda konseptual rivojlanish shundan iboratki, hududni rivojlantirish siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat butun bir yaxlitlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda hududlarga bo‘lgan avvalgi yondashuv o‘zgaradi. Agar ilgari u o‘zlashtirish va ekspluatatsiya obyektini sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning faol subyektiga aylangan. Deyarli butun dunyoda strategik rejalashtirish, strategik fikrlash harakatlarning makonga oid koordinatlarisiz o‘ringa ega bo‘lishi mumkin emasligi tushunib yetildi. «O‘shish qutblari» siyosatidan farqli ravishda, makonga oid siyosat bevosita va bilvosita davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan belgilangan hududlardagi tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga emas, balki tabiiy jarayonlarni aholining va tashkilotlarning tadbirkorlik va mehnat faolligini rag‘batlantirishga yo‘naltiriladi. Makonga oid siyosat mintaqalarni rivojlantirishga differentsiatsiya qilingan yondashuvni ko‘zda tutadi, bu esa barcha mintaqalarda qo‘llash uchun yagona va umumiy rivojlanish modelidan voz kechishni anglatadi. Alohida mintaqalarni rivojlantirish yo‘llarini

belgilash va vazifalar qo'yishda bir xillik tamoyilidan uzoqlashiladi, mintaqalarni istiqboldagi rivojlantirish usullari va yo'llarini belgilashda ularning roli kuchaytiriladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir alohida olingan mintaqani rivojlantirish strategiyasi yuqoridan pastga belgilab berilmaydi, balki mintaqa vakillarining o'zi tomonidan ishlab chiqiladi. So'ngra mintaqalarni rivojlantirish barcha strategiyalari yig'indisi asosida yagna umumdavlat strategiyasi ishlab chiqiladi. O'z navbatida, uning asosida barcha davlat dasturlari va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqiladi. Bunda muvaffaqiyatli mintaqalar konsepsiyalari boshqa mintaqalar uchun qo'llanmaydi va yangi sharoitlarga moslashtirilmaydi, balki yangicha rivojlanish imkoniyatlari, yangi hamkorlik variantlari nuqtai nazaridan mintaqadagi muayyan vaziyatdan (masalan, utrizm, qishloq xo'jaligi, atrof-muhitni himoya qilish, hunarmandchilik tarmoqlari va b.) kelib chiqqan holda ko'rib chiqiladi. Moliyalashtirish sxemalarida ham mintaqalar tomon yaqqol siljish ro'y beradi. To'plangan soliqlar tenglashtirish siyosati va o'sish qutblari siyosatidagi kabi, yuqoridan (markazlashtirilgan tarzda) taqsimlanmasdan, quyi darajada (mahalliy hukumatlarda) maksimal to'plana boshlaydi. Masalan, Yaponiyada «Texnopolis» dasturini amalga oshirish doirasida 60-70-yillarda dasturlarda o'ringa ega bo'lgan infratuzilmaga keng miqyosdagi davlat investitsiyalari o'z o'rmini markazlashtirilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilvosita usullariga (kredit va soliq imtiyozlariga) bo'shatib berdi va asosiy e'tibor mahalliy moliyalashtirish manbalariga qaratila boshladi. Makonga oid strategiya doirasida mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amalda o'sish qutblari strategiyasi mexanizmlari bilan bir xildir. Bu – maqsadli davlat dasturlari, maxsus budget rejimlari, maxsus iqtisodiy hududlar, shuningdek, klasterlar tashkil qilishdir. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, mintaqaviy muammolarni hal qilishning jahon tajribasi bir xil turda emasligini qayd etish lozim bo'lib, bu mintaqalar xilma-xilligining to'g'ridan to'g'ri oqibati hisoblanadi. Boz ustiga, aynan shu sohada mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlar juda katta. Shu sababli mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishning biron-bir ustunlik qiladigan modeli kuzatilmaydi. Ikkinchidan, jahon amaliyoti shundan dalolat beradiki, mintaqaviy siyosat amalga oshiriladigan usullar unitar davlatlar va federativ

davlatlarda farq qiladi. Uchinchidan, davlat hukumatinnig mintaqalar rivojlanishiga ta'sir darajasi masalasini tadqiq etishda shuni alohida e'tiborga olish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda davlatning roli haqida jar solinmaydi, biroq mehnat bozori, pul bozori, yer va boshqa ishlab chiqarish omillari bozorini markazlashtirilgan tartibda boshqariladigan va davlat tomonidan rejalashtiriladigan iqtisodiyot segmental-ridan farqlash juda qiyin. Masalan, amerika bozorlari boshqacha sxema bo'yicha bizning iqtisodiyotda o'ringa ega bo'lgan, lekin bundan ham qattiqroq sxema bo'yicha tashkil qilinadi. To'rtinchidan, jahon amaliyoti amalda mintaqalarning o'z rivojlanish siyosatini amalga oshirish huquqini tan olgan, chunki davlat mintaqaviy siyosati ham, ma'muriy-hududiy bo'linmashan (AQSHda shtatlar, Germaniyada – yerlar) siyosati ham mavjud. Beshinchidan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror davlat tizimlarida mintaqalarning funksiyalari kengroq bo'ladi va ularni amalga oshirish uchun mintaqaga nisbatan teng huquqli bo'lish maqsadida mintaqa yetarlicha iqtisodiy salohiyatga ega bo'lishi talab etiladi. Oltinchidan, geoiqtisodiy raqobat sharoitlarida mintaqaviy siyosat obyektiv hududiy nomutanosibliklarni kompensatsiya qiladigan siyosatgina bo'lmay qo'yadi. U tobora rivojlantiruvchi, ya'ni istiqbolli xo'jalik-iqtisodiy ukladlarni o'zlashtirish, yangi faoliyat turlarini ishga tushirish, zamonaviy infratuzilmalar shakllantirish, joylashtirish tizimi va xo'jalik yuritish hududiy strukturasi o'zgartirishga yo'naltirilgan siyosatga aylanadi. Oqibatda ta'kidlash mumkinki, mintaqaviy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish har bir mamlakatda mavjud, lekin mintaqaviy siyosat tamoyillari, usullari va shakllari jiddiy farq qiladi. Mintaqalarni rivojlantirish siyosatining turli modellarini ko'rib chiqishda shuni e'tiborga olish kerakki, mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mazmuni mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bosqichidan kelib chiqqan holda jiddiy farq qiladi. Sanoati rivojlangan iqtisodiyotda u eng turg'unlik holatidagi hududlarning muammolari dolzarbligini yumshatish bilan chegaralanib, milliy iqtisodiy strategiyada ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Biroq o'zgarayotgan iqtisodiyot sharoitlarida mintaqaviy iqtisodiy siyosat hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi paytda mintaqaning rivojlanishini boshqarish modelini tashkil qilish xususiyatlari va mintaqaviy rivojlanish xorijiy modellaridagi ta'sir etish usullari to'plamini qiyosiy tahlil qilish O'zbekiston uchun

ularni amaliyotda qo'llash nuqtai nazaridan qiziqarli va istiqbolli hisoblanadi.

Bundan oldingi bo'limdan, jumladan, turli mamlakatlarda mavjud bo'lgan ko'plab mintaqaviy muammolar o'xshashligi va shundan kelib chiqadigan mintaqaviy rivojlanishni tartibga solish jahon tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Darhaqiqat, davlatlar va davlatlararo ittifoqlarning ushbu sohasida ko'plab yutuqlar mavjud. Hatto alohida mamlakatlarning davlat siyosati ayrim yo'nalishlaridagi muvaffaqiyatsizliklar yoki ishonchlilik darajasi past bo'lgan natijalar ham qimmatli saboq bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ko'plab mamlakatlarda (har holda, qiyosiy tahlil uchun tanlab olingan mamlakatlarda) davlat mintaqaviy muammolarni hal qilishda faol rol o'ynaydi va buning uchun turli xil vositalarni qo'llaydi.

Tabiiyki, shunday savol tug'iladi: xorij tajribasidan nimalardan foydalanish va bu imkoniyatni qanday amalga oshirish mumkin? Jahon tarjibasi xilma-xil va serqirra ekanligi sababli bu savolga oddiy javob olishdan umid qilmasa ham bo'ladi. Biz shunga ishonch hosil qildikki, zamonaviy dunyoda mintaqaviy rivojlanish uning yordamida tartibga solinadigan bironta ustunlik qiladigan model mavjud emas. Boz ustiga, aynan shu sohada mamlakatlar o'rtasida tafovutlar juda kuchli (masalan, monetar siyosat bilan taqqoslaganda), bu esa mintaqaviy xilma-xillikning to'g'ridan to'g'ri oqibati hisoblanadi.

Mintaqaviy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha yetakchi mamlakatlarni aytib o'tish mumkin. Xususan, AQSH, Kanada va Avstraliya yirik mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish borasida qiziqarli tajribaga ega (jumladan, yangi mintaqalar xo'jaligini o'zlashtirish borasida); Germaniya kooperativ federalizm va integratsiyani rivojlantirish bobida jiddiy yutuqlarga erishgan (g'arb va sharq federal yerlarini birlashtirish); Niderlandiya makonga oid rejalashtirishda kuchli an'analarga ega; Fransiya – milliy iqtisodiyotni normakzlashtirishda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan; Ispaniya – davlat-hududiy tuzilmasini o'zgartirishda muvaffaqiyatlarga erishgan; Xitoy esa maxsus iqtisodiy hududlar tashkil qilishda va h.k.

O'ziga xos mintaqaviy xilma-xillikka ega bo'lgan bizning mamlakatimiz biron-bir muayyan mamlakat tajribasidan to'g'ridan to'g'ri nusxa olish bilan kifoyalana olmaydi, lekin ko'plab


mamlakatlarda muhim mintaqaviy muammolarni hal qilishga o'zi uchun qiziqarli yondashuvlarni uchratishi mumkin. Qanday bo'lsin, mamlakatimizning o'ziga xosligi, betakrorligi va boshqalardan ajralib turishi haqidagi fikrlar xorij tajribasini samarali tanlash yo'lida bartaraf qilib bo'lmaydigan to'siq sifatida qabul qilinmasligi kerak.

Mintaqaviy raqobatbardoshlikni rivojlantirish va tahlil qilish sohasida jahon tajribasidan samarali foydalanish har bir mintaqada oldida turgan qator muhim vazifalarni hal qilish, chunonchi, aholining turmush darajasini oshirish, mintaqadagi ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, mintaqada xo'jaligining raqobatbardoshlik darajasini oshirish va kuchaytirishga imkon beradi.

Oxirgi o'n yilliklarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ro'y bergan «mintaqaviy inqilob» iqtisodiy makonni ichki tashkil qilishni o'zgartirishga olib keldi. Mintaqalarga iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasida o'z siyosatini belgilash borasida ko'proq mustaqillik taqdim etildi. Ilg'or ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardan oddiygina nusxa ko'chiradigan emas, balki aynan o'ziga xos jihatlari hisobga olinadigan mintaqalar mamlakat raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Turli mamlakatlardagi mintaqalar innovatsion tadbirkorligini tartibga solish borasida muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish juda qimmatli axborot taqdim etadi. Innovatsion jarayon yetakchilari qatoriga AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqalar kiradi. hozirgi apytda XRR alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlash asosida yuqori va doimiy ishsizlik darajasiga ega bo'lgan va qayta ishlash sanoati korxonalarining yopilishi oqibatida barcha mintaqalarda mavjud bo'lgan muammoli hududlar (Assisted are,a) ajratiladi. Bunday hududlarni qo'llab-quvvatlash uchun selektiv moliyalashtirish mexanizmlari foydalaniladi, bunda quyidagi talablar bajarilishi lozim: korxonada yordam ko'rsatish hududida joylashgan, u mintaqaviy va milliy iqtisodiy tizimlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, yuqori malakali ish joylari tashkil qilingan, hududning raqobatbardoshligini oshiradi. Biroq ko'mir sanoati, po'lat ishlab chiqarish, sintetik tolalar ishlab chiqarish, transport vositalari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, baliq ovlash, chakana savdo va restoran biznesi kabi tarmoqlar uchun qator cheklovlar mavjud. Bundan tashqari, ish

o‘rinlari sonini oshirmasdan, mamlakatning bir qismidan boshqa qismiga ish o‘rinlarini ko‘chirishni ko‘zda tutadigan loyihalar davlat yordamini olishi mumkin emas. Fransiyada «mahalliy tashabbuslar platformalari» mavjud bo‘lib, ular mintaqa o‘ziga xosliklarini aniqlash hisobiga hududning barqaror rivojlanishini belgilab beradigan vositalarni tanlab oladi. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun moliyaviy yordam, ya’n kredit intervensiyasi asbob-uskunalar xarid qilish va ishlab chiqarishini kengaytirishga imtiyozli shartlarda kreditlar taqdim etishdan keng foydalaniladi. Soliq imtiyozlari taqdim etish yana bir muhim tartibga solish vositasi hisoblanadi. Aeronavtika, biotexnologiyalar, tibbiyot, nanotexnologiyalar, dasturiy ta’minot ishlab chiqish kabi tarmoqlarga alohida e’tibor qaratiladi. Ayni paytda jahon bo‘ylab EIZ larning turli shakllari faoliyat yuritadi (rasm-3).



3-rasm. EIZ larning umumiy tasniflanishi va rivojlanish bosqichlari⁹⁴

UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda maxsus iqtisodiy zonalar soni 4800 dan ziyod⁹⁵(jadval1).

⁹⁴Meng, G. Chin. Evolutionary model of free economic zones--different generations and structural features /Chinese geographical science. Volume 15, number 2, pp. 103-112, 2005Science press, Beijing, China.P.104.

⁹⁵ UNCTAD (2018). World Investment Report 2018. Investment and new industrial policies. New York and Geneva, 2018. P.154. http://unctad.org/en/PublicationsLibrary/wir2018_en.pdf

**Jahon va mintaqalar bo'yicha eksport sanoat hududlari va ularda
ish bilan band bo'lgan aholi soni ⁹⁶**


Geografik joylashuvi	Ish bilan band bo'lganlar soni	Hududlar soni
Osiyo	55,741,147	900+
Markaziy Amerika va Meksika	5,252,216	155
O'rta Sharq	1,043,597	50
Shimoliy Amerika	643,152	65
Janubi-Sharqiy Afrika	860,474	90+
AQSH	340,000	713
Janubiy Amerika	459,825	43
O'tish iqtisodiyotli davlatlar	1,400,379	400
Karib havzasi	546,513	250
Hind okeani havzasi	182,712	1
Yevropa	364,818	50
Tinch okeani havzasi	145,930	14
Jami (baho):	65,980,763	3500+

2016-yilda TSZ tomonidan amalga oshirilgan import hajmi 225,3 mlrd.doll.ni tashkil etib, AQSHning umumiy tovarlar importida 10,2% ga to'g'ri keldi (rasm 9.4).. Saqlash va taqsimot operatsiyalari maqsadida qilingan importning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari; parfumeriya va kosmetika vositalari; maishiy elektronika; iste'mol tovarlari; ichimliklar va spirtli ichimliklar hissasiga to'g'ri kelgan.

Xitoy iqtisodiyotini erkinlashtirish va xorijiy kapitalni jalb etish bilan bog'liq dastlabki qonunlar 1970-yillar oxirida qabul qilindi. Xususan, 1979-yilda "Qo'shma korxonalar to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, turli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini berdi.

⁹⁶Pong-Sul Ahn, Employment Relationship, Workers Rights and International Experiences on TU Movement and Campaigns, 2017.

http://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---asia/---ro-bangkok/documents/presentation/wcms_546534.pdf



4-rasm. 1990–2016-yillar davomida TSZ importining AQSH umumiy tovarlar importidagi ulushi⁹⁷

1980-yilda ilk EIZlar “Shenchjen”, “Chjuxay”, “Shantau” va “Syamen” lar tashkil etildi va 1988-yilda “Xaynan” beshinchi EIH deb e’lon qilindi (2-jadval).

2-jadval

Shenchjen maxsus iqtisodiy hududining 1980–2012-yillardagi iqtisodiy ko’rsatkichlari⁹⁸

Yillar	YaIM, mlrd. yuan	Aholi jon boshiga YaIM, yuan	Sanoatning yalpi daromadi, mlrd yuan	Tashqi savdo aylanmasi, mlrd AQSH doll.	Budjetga daromad, mlrd yuan
1980	0,27	835	0,106	0,018	0,030
1981	0,498	1417	0,267	0,028	0,088
1982	0,826	2023	0,388	0,025	0,092
1983	1,312	2512	0,760	0,786	0,156

⁹⁷ National Association of Foreign Trade Zones (NAFTZ) Annual Report 2017. <https://www.naftz.org/wp-content/uploads/2018/02/2017-Annual-Report.pdf>P.13.

⁹⁸ Чунь С. С. Особенности почти десятилетнего экономического роста в Китае //Фондовый рынок [Электронный ресурс]. http://media.miu.by/files/store/items/eiup/34/eiu_2_2013_13.pdf

1984	2,342	3504	1,721	1,073	0,294
1985	3,902	4809	2,467	1,306	0,629
1986	4,165	4548	3,402	1,85	0,742
1987	5,590	5349	5,583	2,56	0,857
1988	8,698	6477	10,127	3,44	1,465
1989	11,566	6710	14,775	3,75	2,287
1990	17,167	8724	22,022	15,70	2,170
1991	23,666	10 746	31,540	19,48	2,733
1992	31,732	12 707	43,470	23,58	4,296
1993	45,315	15 005	68,970	28,204	6,725
1994	63,467	16 954	110,141	34,983	7,440
1995	84,248	19 550	129,221	38,770	8,802
1996	104,844	22 498	153,060	39,053	13,118
1997	129,742	25 675	181,757	45,009	14,477
1998	153,475	27 701	215,738	45,274	16,449
1999	180,402	29 747	244,359	50,428	18,479
2000	218,745	32 800	307,153	63,940	22,192
2001	248,249	34 822	374,767	68,611	26,249
2002	296,952	40 396	468,236	82,732	26,593
2003	358,572	47 029	679,765	117,399	29,084
2004	428,214	54 236	858,883	147,282	32,147
2005	492,690	60 801	1017,454	182,860	41,238
2006	568,439	69 450	1227,848	237,411	50,088
2007	680,157	79 645	1436,478	287,533	65,806
2008	778,68	89 814	1586,011	299,970	80,036
2009	820,13	92 100	1548,408	270,050	88,100
2010	951,09	91 893	1821,175	346,749	110,682
2011	952,16	91 651	1828,012	384,657	117,378
2012	1031,25	98 712	1904,421	402,523	124,011

Muayyan zonaga va bu bilan bog‘liq vazifalarga qarab, rezidentlarga tegishli imtiyozlar beriladi.

1. **Soliq imtiyozlari.** Investitorlar ayrim soliqlarni to‘lashdan ozod etiladi. QQS, mol-mulk soliqlari bo‘yicha imtiyozlar berilishi mumkin. Sanoat ishlab chiqarish zonasida ro‘yxatga olingan va tegishli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar yer, mol-mulk va transport soliqlarini to‘lashdan qisman ozod etilish, foyda solig‘i bo‘yicha foizning kamaytirilish huquqiga ega. Texnik joriy etish zonalarida Yagona ijtimoiy soliq ikki martaga kamaytiriladi.

2. **Bojxona imtiyozlari.** Ishlab chiqarish maqsadlarda chet eldan xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar xarid qiluvchi tashkilotlar uchun bojxona yig‘imlarining ancha past tariflari qo‘llaniladi yoki boj bekor qilinadi. MIZ hududida ishlab chiqarilgan tovarlar eksport

bojlaridan qisman yoki to'liq ozod etiladi. Korxonalarining o'zida bojxona ro'yxatida o'tish va ruxsatnomalar olish tartib-qoidalari mutlaqo soddalashtirilishi mumkin.

3. Ma'muriy imtiyozlar. Tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonini soddalashtirish. Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar ro'yxatini imkon qadar qisqartirish. Mahalliy va yaqinda joylashgan chet el bozorlariga imtiyozli kirish. Xorijiy kompaniyalar va xususiy xorijiy investorlarga katta huquqlar va imkoniyatlar berish.

4. Moliyaviy imtiyozlar. Ijara haqini to'lash va yer uchastkalari yoki ishlab chiqarish binolarini xarid qilish uchun davlat tomonidan subsidiyalar, kreditlar, dotatsiyalar ko'rinishida moliyaviy yordam ko'rsatiladi.

Sanoat tarmoqlari EIZ (11 ta)	<ul style="list-style-type: none"> "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon", "Xazorasp", "Namangan", "Sirdaryo", "Nukus", "Chiroqchi"
Farmatsevtika sohasi EIZ (7 ta)	<ul style="list-style-type: none"> "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq - farm", "Parkent-farm", "Andijon-farm"
Qishloq xo'jaligi EIZ (2 ta)	<ul style="list-style-type: none"> "Baliq ishlab chiqaruvchi", "Buxoro agro"
Turistik soha EIZ (1 ta)	<ul style="list-style-type: none"> "Chorvoq" ETZ
Transport-logistik EIZ (1 ta)	<ul style="list-style-type: none"> "Termiz" EIZ
Sport jihozlarini ishlab chiqarish bo'yicha EIZ	<ul style="list-style-type: none"> "Sport" EIZ

5-rasm. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar ⁹⁹

Imtiyozlar kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, 3 yildan 10 yil muddatgacha beriladi. Jumladan:

⁹⁹Muallif tomonidan ўrgанилган адабиётлар асосида тузилган.

300 ming AQSH doll.dan 3 mln. AQSH doll.gacha hajmdagi investitsiyalar — 3 yil muddatga;

3 mln. AQSH doll.dan 5 mln. AQSH doll.gacha — 5 yil muddatga;

5 mln. AQSH doll.dan 10 mln. AQSH doll.gacha — 7 yil muddatga;

10 mln. va undan ko‘p AQSH doll. hajmidagi investitsiyalar so‘nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig‘i va yagona soliq to‘lovi stavkalari qo‘llangan holda 10 yil muddatga beriladi (3-jadval).

3-jadval

“Navoiy” EIZning 2015–2018-yillardagi ba’zi ko‘rsatkichlari¹⁰⁰

Ko‘rsatkich nomi	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y. (9 oyi)
Ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchilar soni	22	22	30	35
EIZ mintaqaga, ga	564,0	564,0	564,0	645,4
Umumiy investitsiya hajmi, mln. AQSH doll.	124,1	124,1	125,1	166,0
Xorjiy investitsiya hajmi (reinvestitsiya qilingan mablag‘lardan tashqari), mln. AQSH doll.	33,8	33,8	33,8	49,5
EIZ rezident korxonalarda ish bilan bandlar soni, kishi	913	913	923	1250
Eksport qiluvchi EIZ rezident korxonalar soni	6	5	12	7
Import qiluvchi EIZ rezident korxonalar soni	15	16	17	21
EIZ rezident korxonalarining eksport hajmi, mln. AQSH doll.	4,8	12,3	9,4	5,4
EIZ rezident korxonalarining import hajmi, mln. AQSH doll.	35,3	20,3	13,1	57,1

¹⁰⁰Центр стратегия развития. Доклад по проекту «Оценка эффективности свободных экономических зон (СЭЗ) в Узбекистане: законодательные, инвестиционные, экономические, социальные и экологические аспекты». –Ташкент, 2018.7-бет. <https://strategy.uz/files/news/87822/poseznoyabr2019g.pdf>,

Tayanch soʻzlar: tarkibiy tuzilma, demografiya, geografiya, kichik biznes va tadbirkorlik, ekologiya, infratuzilma, erkin iqtisodiy hudud, imtiyozlar.

Nazorat savollari

1. Oʻzbekistonning hududlarining iqtisodiy-tarkibiy tuzilmasi ahamiyati?
2. Oʻzbekistonda mintaqaviy rivojlanishida demografik omillarning oʻrni nimadan iborat?
3. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlikning oʻrni nimadan iborat?
4. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda infratuzilmaning ahamiyati nimadan iborat?
5. Mintaqaning strategiyasini shakllantirishda ekologik omillarning oʻrni nimadan iborat?
6. Mintaqaning rivojlanish strategiyasida erkin iqtisodiy hududning oʻrni nimadan iborat?
7. Mintaqa rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda erkin iqtisodiy hudud uchun belgilangan imtiyozlarni oʻrni nimadan iborat?

X BOB. MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISHNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

10.1. O'zbekistonda qabul qilingan davlat dasturlarining vazifalari va obyektlari.

10.2. O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy rivojlanishda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.

10.3. O'zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanishining soliqqa tortish va moliyaviy dastaklarini takomillashtirish

Mintaqaviy kompleksli maqsadli dastur bu – ma'lum bir hududga yo'naltirilgan, mazmuni, muddati va ijrochilari bo'yicha muvofiqlashtirilgan, resurslar manbalari bilan ta'minlangan, umumiy muammoni hal qilish va umumiy maqsadga erishishga qaratilgan, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ishlab chiqarish-texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, ekologik xarakterdagi chora-tadbirlar tizimidir.

Mikroiqtisodiy darajadagi dasturlar ham mintaqada dasturiy-maqsadli boshqaruv vositasi bo'lishi mumkin. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish lozim:

– hududiy, shahar va tuman dasturlari (misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentabrdagi "Namangan viloyatining Norin tumanida sanoat, xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 719-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-sentabrdagi "Andijon viloyatining Marhamat tumanida sanoat, xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 723-sonli Qarori va b.);

– qayta tarkiblashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangilash, sifatni oshirish, mahsulot raqobatbardoshligi va foydalilikni ko'tarish dasturlari (misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-yanvardagi "Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 26-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi

“Namangan viloyatida baliq yetishtirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori).

Dasturning maqsadlari, funksiyalari va unga yuklatiladigan vazifalardan kelib chiqib, quyidagi dastur turlarini ajratib ko‘rsatish zarur:

– ijtimoiy vazifalarni (ya’ni ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vazifalarini) hal qilishga yoki ijtimoiy muhitni yaxshilashga xizmat qiladigan iqtisodiy vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to‘g‘risida”gi Pq-2639-sonli Qarori);

– ularning maqsadi ilmiy xarakterdagi yirik muammolarni hal qilish, yangi konstruksiyalar, yangi materiallar turlari, iste‘mol tovarlari va xizmatlar yaratish sohasidagi fan-texnika yutuqlarini o‘zlashtirish hisoblangan ilmiy-texnik dasturlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalshi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi №PF-5308-sonli farmoni);

– ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini oshirishga imkon beradigan texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlab chiqarish-texnologik dasturlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3657-sonli Qarori);

– ularning maqsadi barcha darajalarda xo‘jalik yuritishni tashkil qilish va boshqarish usullarini takomillashtirishdan iborat bo‘lgan tashkiliy-xo‘jalik dasturlari (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 21-sentabrdagi “Andijon viloyatida meva-

sabzavotchilikni klaster usulida rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 752-sonli Qarori);

– keng ko'lamli loyihani amalga oshirish uchun investitsiyalar olish va foydalanishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan investitsiya datsurlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3225-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-martdagi «Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrocreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2844-sonli Qarori);

– o'z oldiga tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan tashqi iqtisodiy dasturlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-noyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3377 Qarori);

– alohida hududlar xo'jaliklarini kompleksli rivojlantirishga qaratilgan hududiy ishlab chiqarish dasturlari (hududiy-ishlab chiqarish komplekslari tashkil qilish va rivojlantirish, misol uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-iyundagi "Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida aholi bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 441-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi "Andijon viloyatining Bo'z tumanida sanoat, xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 694-sonli qarori va b.);

– atrof-muhitni muhofaza qilish va odamlar hayoti xavfsizligini ta'minlash muammolarini hal qiladigan ekologik dasturlar (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 29-avgustdagi 2015–2018-yillarda Orolbo'yi mintaqasini tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, Orol halokatining oqibatlarini

yengillashtirish borasidagi chora-tadbirlar kompleks dasturi to'g'risida"gi 255-sonli Qarori).

Dastur quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Muammoning mazmuni va dasturning muammoni hal qilish vositasi sifatida zarurligini asoslab berish. Ushbu bo'limda kompleksli dasturni amalga oshirish vositasida hal etish taklif qilingan muammoning mohiyati, manbalari va ildizlari bayon qilinadi. Dasturning amalga oshirilishidan manfaatdor bo'lgan shaxslar doirasi, shuningdek, uni bajarish natijasida qondirilishi lozim bo'lgan ehtiyoj turlari va ko'lamlari tasvirlanadi.

2. Dasturning maqsadi va vazifalari. Dasturning maqsadi sifat nuqtai nazaridan ham, ularga erishish ma'lum bir muddatlarga bog'lab qo'yilgan o'zgarmas maqsadli ko'rsatkichlar ko'rinishida ham shakllantiriladi.

3. Dasturni amalga oshirish bosqichlari. Ushbu bo'limda dasturni amalga oshirish davri belgilangan hajmdagi ishlarning bajarilishi va yakunlanishi, shuningdek, dasturning oraliq maqsadlariga erishilishi bilan tavsiflanadigan bir necha bosqichga bo'linadi. Bosqichlar miqdori va dasturni amalga oshirishning har bir bosqichidagi ishlar mazmuni hal etilayotgan muammoning xarakteriga va dastur davrining uzunligiga bog'liq bo'ladi. Bosqichlarni ajratish dasturni boshqarish va uning amalga oshirilishini nazorat qilishni yengillashtirishga xizmat qiladi.

4. Dastur tarkibiga kiradigan investitsion loyihalar. Respublika, mintaqaviy yoki tarmoq darajasidagi yirik kompleksli dasturlar tarkibiy qism sifatida ularni amalga oshirish dasturni amalga oshirishga xizmat qiladigan yoki dasturni hayotga tatbiq etishning tarkibiy qismi hisoblangan nisbatan mustaqil ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-texnologik, ijtimoiy va boshqa turdagi investitsiya dasturlarini o'z ichiga olishi mumkin. Bunday loyihalarga xos bo'lgan xususiyat shundaki, ular amalga oshirilish uchun dasturning resurslar manbalari hisobiga ta'minlanadigan investitsiyalar va yirik kapital qo'yilmalarini talab qiladi.

5. Dastur tarkibidagi kichik dasturlar mazmuni. Dastur chora-tadbirlari kichik dasturlar deb ataladigan alohida bloklarga birlashtiriladi. Kichik dasturlar ularning umumiylik belgisi bo'yicha umumiy bir kompleksga birlashtiriladigan dasturiy chora-tadbirlar va

ishlar yig'indisini ifodalaydi. Odatda dasturlar tarkibida quyidagi kichik dasturlar ajratib ko'rsatiladi:

– dasturni amalga oshirish ularga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlardan iborat tarmoq kichik dasturlari. Masalan geologiya-razvedka ishlari, texnologiyalar ishlab chiqarish va/yoki sotish, texnika va asbob-uskunalar xarid qilish yoki sotish kichik dasturlari;

– umumiy dasturiy muammoning bir qismi hisoblangan hududiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq yoki alohida hudud doirasida amalga oshiriladigan dasturiy chora-tadbirlarni birlashtiradigan hududiy kichik dasturlar;

– dasturning ijtimoiy vazifalarini hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni tavsiflaydigan ijtimoiy kichik dasturlar.

6. Dasturning resurslar ta'minoti. Butun dasturning taqdiri real sharoitga, resurslar ta'minoti samaradorligiga bog'liq. Resurslar ta'minoti dasturni amalga oshirishning dasturiy mahsulot ishlab chiqishdan tortib uni ishlab chiqarish va iste'mol qilish, dasturni amalga oshirishning ehtimoliy ko'ngilsiz oqibatlarini bartaraf qilish bilan yakun topadigan barcha bosqichlarida zarur bo'lgan barcha resurslarni (moddiy, mehnat, tabiiy, moliyaviy, axborot resurslarini) qamrab olishi lozim. Resurslar ta'minotini vaqt bo'yicha taqsimlash hamda dasturning barcha bo'limlari va uning tarkibiga kiradigan investitsion loyihalar chora-tadbirlari bilan muvofiqlashtirish zarur.

7. Dasturni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. Dasturni amalga oshirish butun sikli tashqi boshqaruv, o'zini o'zi boshqarish va dastur g'oyalari hayotga tatbiq etishning borishi ustidan nazorat qilish jarayonlarini tashkil qilishni taqozo etadi. Shu maqsadda dasturiy buyurtmani shakllantirish jarayonidayoq puxta o'ylab chiqilishi hamda dastur loyihasida dasturni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi dasturda ko'zda tutilgan tashkil qilish usuli va tashkiliy strukturalar turi, boshqaruv organlari, ularning funksiyalari va vakolatlari, shuningdek, dasturni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ijrochilar va qatnashchilarning iqtisodiy manfaatdorligini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rinishida taqdim etilishi lozim.

8. Dasturning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi. Dasturning ijtimoiy samarasi dastur turi, ko'lami va darajasiga muvofiq u

mamlakat, mintaqa, tarmoq, shahar, korxonalar va aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishga qanday xizmat qilishi va bu muammolarni qanday hal etishi bilan tavsiflanadi. Real ijtimoiy samara mavjudligi dasturning ijtimoiy unumdorligi alomatidir. Dasturning iqtisodiy samarasi uning mamlakat YaIM, yalpi mintaqaviy mahsulot, dastur harakatlari qamrab olgan kompaniya va tashkilotlar foydasiga qo‘shgan hissasida, shuningdek, mamlakat, mintaqa, tuman, shahar iqtisodiyoti ehtiyojlarini qondirishda namoyon bo‘ladi.

Maxsus mezonlar taklif etilayotgan dasturning nafaqat ushbu muammoni hal qilishga, balki mamlakat, mintaqa, tarmoq va xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiyotidagi boshqa muhim muammolarni hal etishga ham munosib hissa qo‘shayotganligidan dalolat beradi:

– ijtimoiy hissa mezoni dasturning ehtiyojlarni yaxshiroq va to‘laroq qondirish, aholi daromadlarini oshirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini kengaytirish, aholining turli qatlamlari ijtimoiy maqomlari darajalarini qisqartirish natijasida turmush sifatini yaxshilash va darajasini oshirishga ko‘rsatadigan ta’sirini tavsiflaydi;

– iqtisodiy hissa mezoni taklif etilayotgan mahsulotning ishlab chiqarishning o‘sishi, bandlikni oshirish, yangi ish joylari yaratish, narxlarni barqarorlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, mahsulot sifatining o‘sishi va boshqa iqtisodiy maqsadlarga erishishga qo‘shadigan hissasini tavsiflaydi;

– fan-texnika hissasi mezoni dastur fan va texnikaning rivojlanishi, fan-texnika salohiyatining o‘sishi, ishlab chiqarishning fan-texnika darajasi ortishi, tashqi iqtisodiy hissa mezoinga chiqishga qay darajada xizmat qilishini belgilab beradi;

– tashqi iqtisodiy hissa mezoni taklif etilayotgan dasturning mamlakat to‘lov balansini yaxshilash, eksportni rivojlantirish, mahalliy tovarlarning xorijiy bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy qaramlikni pasaytirishga ta’sirini aks ettiradi;

– ekologik hissa mezoni dasturning odamlar yashaydigan muhitni yaxshilashga qo‘shadigan hissasini, tabiatni asrash texnologiyalari qo‘llashni, inson va tabiat uchun zararli bo‘lgan ekologik oqibatlar va texnogen halokatlar oldini olishni tavsiflaydi.

“Texnologik yetakchilik milliy djasturi” HAN ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirishning birinchi maqsadli dasturi (1992-y.)¹⁰¹ bo‘lib, unda elektronika va elektrotexnika, atom energetikasi sohasiga oid loyihalar bilan birga, tarmoqlarning raqobat ustuvorliklarini kuchaytirish bo‘yicha istiqbolli hisoblangan biotexnologiyalar bo‘yicha ham alohida tadqiqot yo‘nalishlariga e‘tibor qaratildi.

Bu dasturda belgilangan maqsadlarga erishish jarayoni bir necha bosqichlarga bo‘lindi:

I bosqich (1994–1997-yillar) – biotexnologiyalarning istiqbolli turlarini rivojlantirish uchun ilmiy ishlab chiqarish negizini yaratish;

II bosqich (1998–2002-yillar) – biotexnologiyalarning muhim tuzilma yaratuvchi turlari va sanoat tarmoqlarining ilmiy tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirish;

III bosqich (2003–2007-yillar) – tijoratlashtiriluvchi ITTKI va biotexnologik mahsulotlar jahon bozorida Koreya Respublikasining ulushini oshirish.

Xitoyning “2006–2020-yillar uchun fan va texnologiyalarni o‘rta va uzoq muddatli rivojlantirish milliy dasturi” maqsadlari quyidagilardan iborat: yetib oluvchi rivojlanish va imitatsiyadan xususiy innovatsiyalarga o‘tish; alohida texnologik rivojlanishlardan tizimli innovatsiyalarga o‘tish; alohida ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini takomillashtirishdan umummilliy innovatsiya tizimini yaratishga o‘tish; ilmiy tadqiqotlarga e‘tibor qaratishdan ularning natijalaridan keng tarzda foydalanishga diqqatni ko‘proq jalb etish; xorijiy safarlar dasturlaridan ko‘ra faol xalqaro hamkorlik dasturlariga o‘tish.

10.2. O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy rivojlanishda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish

O‘zbekistonda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish va umuman davlatchilikning asosiy instituti sifatida yuzaga kelgan budjetlararo munosabatlar modeli jahon amaliyotida o‘xshashi yo‘qdir. Biroq O‘zbekistonda mahalliy budjetlarning zamonaviy tizimida bir qator hal

¹⁰¹Highly Advanced National Project – миллат номига мувофиқ равишда олинган бўлиб, таржима қилганда “хан” – “жанубий корейлар” деган маънони англатади ва миллатнинг технологик етакчилиги сари интилишларини ифодалайди. Таъкидлаш жоизки, дастур 10 йилга мўлжалланган бўлиб, самарасизлиги туфайли 1994 йилдаёқ тўхтатилган, унинг 3 йиллик фаолияти давомида унинг учун 230.309 ва 414 млн. мувофиқ равишда сарфланган. манба: Park Y. et al. Formulation and managing the HAN projects in Korea: lessons and policy implications for developing countries// Science and public policy. No. 2, 1992. p. 85.

etilmagan muammolar mavjud. Ulardan biri tarixiy, geografik va boshqa obyektiv sabablarga ko‘ra iqtisodiy makonning xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Bu xilma-xillik alohida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar bilan belgilanadi va davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarga ega bo‘lish nuqtai nazaridan ma‘muriy-hududiy bo‘linmalarining differentsiatsiya darajasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Muammolarning boshqa bir guruhi ma‘muriy birlik hududida barqaror daromad manbalarining yo‘qligi sababli budjet bilan ta‘minlanganlik va moliyaviy mustaqillikning darajasi past ekanligi bilan bog‘liq. Yana bir guruh muammolar shundan iboratki, O‘zbekistonda budjet tizimining hozirgi holati, bir tomondan, sarf vakolatlarini nomarkazlashtirish, ikkinchi tomondan, daromad manbalarini davlat darajasida bir vaqtda jamlash bilan tavsiflanadi. Nihoyat, mahalliy budjet mablag‘laridan irratsional foydalanish muhim muammo bo‘lib, xarajatlar samaradorligini baholashning aniq mezonlari yo‘qligi sababli budjet buzilishiga olib kelishi mumkin.

1-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2019-yilda mahalliy budjet daromadlarining davlat daromadlarida (transfertlarsiz) haqiqiy ulushining pasayishi tendensiyasi kuzatildi, bu esa hududlarda ajratilgan fiskal tenglashtirish mablag‘lari samaradorligining past ekanligidan dalolat beradi.

Andijon, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida budjetlararo munosabatlar tizimining samaradorligi pastligi haqida quyidagi omillar dalolat beradi:

– transfertlarni hisobga olmagan holda davlat daromadlarida mahalliy budjet daromadlarining amaldagi ulushi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan past;

– transfertlarni hisobga olmagan holda davlat daromadlarida mahalliy budjet daromadlarining amaldagi ulushi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan past, transfertlarni hisobga olgan holda davlat daromadlarida mahalliy budjet daromadlarining amaldagi ulushi esa mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori, bu mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda mablag‘lar cheklanganida davlat vakolatlarini mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organariga to‘g‘ri keladigan yuklama o‘sishini anglatadi.

2019-yil O‘zbekiston Respublikasida budjetlararo munosabatlar tizimi samaradorligini baholash natijalari¹⁰²

Hududlar	Transfertlarni hisobga olmaganda davlat daromadlarida mahalliy budjet daromadlarining ulushi	Ko‘rsatkich bahosi	Transfertlarni hisobga olgan holda davlat daromadlarida mahalliy budjet daromadlarining ulushi	Ko‘rsatkich bahosi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8,63	O‘rt. yuq.	6,91	O‘rt. past
Andijon viloyati	6,15	O‘rt. past	8,47	O‘rt. yuq.
Buxoro viloyati	7,29	O‘rt. yuq.	5,83	O‘rt. past
Jizzax viloyati	3,56	O‘rt. past	4,73	O‘rt. past
Qashqadaryo viloyati	11,24	O‘rt. yuq.	8,99	O‘rt. yuq.
Navoiy viloyati	4,81	O‘rt. past	3,85	O‘rt. past
Namangan viloyati	5,74	O‘rt. past	7,97	O‘rt. yuq.
Samarqand viloyati	7,31	O‘rt. yuq.	10,38	O‘rt. yuq.
Surxondaryo viloyati	5,33	O‘rt. past	7,39	O‘rt. yuq.
Sirdaryo viloyati	2,37	O‘rt. past	3,13	O‘rt. past
Toshkent viloyati	10,20	O‘rt. yuq.	8,16	O‘rt. yuq.
Farg‘ona viloyati	12,99	O‘rt. yuq.	10,39	O‘rt. yuq.
Xorazm viloyati	3,96	O‘rt. past	5,45	O‘rt. past
Toshkent shahri	10,41	O‘rt. yuq.	8,33	O‘rt. yuq.

Umuman olganda, mamlakatning transfert mexanizmi samaradorligi amaldagi budjet resurslarini qayta taqsimlash tizimi har bir ma‘muriy-hududiy birlik va umuman mintaqaning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan darajada namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, budjetlararo munosabatlarning rivojlanishi nafaqat budjet tizimining holatini yoki hududlarning budjet bilan ta‘minlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarda, balki fuqarolarning turmush darajasi va sifati jihatidan alohida hududiy subyektlarning iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish ko‘rsatkichlarida ham namoyon bo‘ladi.

¹⁰² Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
<https://www.mf.uz/ru/>.

Hududlarning moliyaviy mustaqilligi va budjetlararo transfertlarning samaradorligini baholash mezonlari¹⁰³


Ko'rsatkichlar	O'zbekiston hududlari
1. Mahalliy budjetning umumiy daromadlari	
Bir necha yil davomida hududning daromadlari biroz o'sadi (1-5%)	Sirdaryo viloyati
Bir necha yil davomida hududning daromadlari 5-20% o'sdi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri
Bir necha yil davomida hududning daromadlari 20% dan oshiq o'sdi	Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Toshkent va Farg'ona viloyatlari
2. Mahalliy budjetning o'z daromadlari	
O'z daromadlarining ulushi 30% dan kam	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlari
O'z daromadlarining ulushi 30% dan 65% gacha	Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari
O'z daromadlarining ulushi 65% dan yuqori	Toshkent sh.
3. Budjetlararo transfertlar	
Hududning budjetlararo transfertlar ulushi 35% dan kam emas	Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent sh.
Budjetlararo transfertlar ulushi 35% dan 70% gacha	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlari
Budjetlararo transfertlar ulushi 70% dan yuqori	-

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, deyarli barcha ma'muriy-hududiy birliklarda budjet mablag'laridan oqilona foydalanilmoqda, ammo ularning ko'pchiligida hududlarning markazdan o'rtacha yoki past moliyaviy mustaqilligi mavjud.

Mintaqa bo'yicha aholi jon boshiga YaHM, jon boshiga daromadlar va mahalliy budjetlar xarajatlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadlar va o'rtacha oylik nominal ish haqi asosida «Pattern» uslubi asosida qurilgan O'zbekiston ma'muriy-

¹⁰³Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
<https://www.mf.uz/ru/>.

hududiy birliklarining moliyaviy ta'minlanganlik darajasi reytingi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sezilarli farqlanishni ko'rsatadi:



1-rasm. 2019-yil moliyaviy ta'minlanganlik darajasi bo'yicha O'zbekiston ma'muriy-hududiy tuzilmalari reytingi¹⁰⁴

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston mintaqalarining moliyaviy ahvoli matritsasi tuzildi (3-jadval).

3-jadval

2019-yil O'zbekiston hududlarining moliyaviy ahvoli matritsasi¹⁰⁵

Moliyaviy ta'minlanganlik darajasi	Moliyaviy mustaqillik darajasi		
	Yuqori daraja	O'rtacha daraja	Past daraja
Yuqori daraja	Navoiy viloyati, Toshkent sh.		
O'rtacha daraja		Toshkent viloyati, Buxoro viloyati, Sirdaryo viloyati, Qashqadaryo viloyati, Jizzax viloyati, Qoraqalpog'iston Respublika	
Past daraja			Xorazm viloyati, Namangan viloyati, Surxondaryo viloyati, Andijon viloyati, Farg'ona viloyati, Samarqand viloyati

¹⁰⁴Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. <https://www.mf.uz/ru/>.

¹⁰⁵Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. <https://www.mf.uz/ru/>.

U «oltin kesim» usuliga asoslangan bo‘lib, moliyaviy guruhlar darajasiga ko‘ra mintaqalarni guruhlarga tasniflashga imkon berdi. Moliyaviy mustaqillik darajasini aniqlashda mahalliy budjetlarning ko‘rsatkichlari budjetning avtonomlik ko‘rsatkichlari, barqarorlik ko‘rsatkichlari va h.k. hisobga olindi.

O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, faqat ikkita mintaqqa – Navoiy viloyati va Toshkent shahri moliyaviy ta‘minlanganlikning yuqori darajasiga ega, qolganlari o‘rtacha va past darajadagi moliyaviy xavfsizlik darajasi, eng ko‘p va eng kam ta‘minlangan mintaqalar farq uch baravar.

4-jadval

2013–2019-yillarda rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekiston hududlarning differentsiatsiyasi¹⁰⁶

Iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar	Davr	Variatsiya intensivligi va qamrov ko‘rsatkichlari		
		Ossillatsiya koeffitsiyenti	Variatsiya koeffitsiyenti	Asimmetriya koeffitsiyenti
Aholi jon boshiga YaHM	2013-y.	1,41	0,41	1,5
	2019-y.	2,02	0,60	2,1
Aholi jon boshiga mahalliy budjet daromadlari	2013-y.	1,23	0,41	0,8
	2019-y.	0,96	0,32	0,4
Aholi jon boshiga mahalliy budjet xarajatlari	2013-y.	0,39	0,13	0,7
	2019-y.	0,61	0,16	0,0
Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar	2013-y.	1,46	0,49	0,7
	2019-y.	2,42	0,75	1,8
Mahalliy budjet daromadlari umumiy miqdorida budjetlararo transfertlar salmog‘i	2013-y.	2,77	0,93	0,1
	2019-y.	2,17	1,04	0,0
Ro‘yxatga olingan ishsizlik darajasi	2013-y.	0,41	0,15	-0,9
	2019-y.	0,19	0,05	-1,9

¹⁰⁶Шу ерда.

4-jadvaldagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy budjet daromadlarining umumiy hajmida budjetlararo transfertlar ulushiga ko'ra, yuqori qutblanish darajasi kuzatilmoqda, bundan tashqari, so'nggi yillarda o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda (2019-yilda - 104%). Asosiy kapitalga investitsiyalar va aholi jon boshiga YaHM bo'yicha farqning o'sishi kuzatilmoqda (49% dan 75% gacha).

Mahalliy budjetlarga ajratilgan budjetlararo transfertlar va aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi ko'rsatkichlarining o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti kritik qiymatdan (33%) oshganligi sababli, ushbu statistik yig'indilar sezilarli darajada turli xil va tarqoq bo'lib, bu tebranish koeffitsiyenti qiymatini tasdiqlaydi.

Aholi jon boshiga YaHM ko'rsatkichlari, shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalar eng assimetrik taqsimlangan. Ushbu fikr shu bilan ham tasdiqlanadiki, O'zbekiston mintaqalarining ko'pchiligi (14 tadan sakkiztasi) investitsiyalarning umumiy hajmida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning eng kam ulushiga ega bo'lgan guruhga (1 foizdan 5 foizgacha) to'g'ri keladi, to'rtta mintaqa past ulushga ega bo'lgan guruhga kiradi (5%dan 10% gacha) va asosiy kapitalga investitsiyalarning eng katta ulushi (15% dan 20% gacha) ga faqat ikkita ma'muriy-hududiy birlikka (Toshkent va Navoiy viloyati) tegishli.

Nisbiy holatlar indeksi asosida O'zbekiston Respublikasining barcha ma'muriy-hududiy birliklari orasida aholi jon boshiga YaHM bo'yicha alohida mintaqalarning holati tahlili shuni ko'rsatdiki, Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari eng yaxshi nisbiy holat bilan tavsiflanadi (5-jadval).

Nisbiy holatlar indeksining minimal qiymati Namangan viloyati uchun xarakterlidir. Agar dinamikadagi nisbiy holatlar indekslarining o'zgarishini hisobga olsak, 2013–2019-yillar uchun shuni ta'kidlash mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasining ahvoli nisbatan biroz yaxshilandi. Boshqa barcha ma'muriy-hududiy birliklar uchun holatning nisbatan yomonlashuvi kuzatilmoqda. Bu, o'z navbatida, ushbu hududlarda aholi jon boshiga YaHM darajasining respublikada aholi jon boshiga YaHM eng past bo'lgan hududiy tuzilmalaridan farqi o'sib borayotganligini anglatadi.

**2013–2019-yillarda aholi jon boshiga YaHM bo‘yicha
O‘zbekiston hududlarining nisbiy holat indeksi¹⁰⁷**

№	Hududlar	2013- y.	2014- y.	2015- y.	2016- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.
1.	Qorakalpog‘iston Respublikasi	0,00	0,00	0,00	0,00	0,01	0,04	0,04
2.	Andijon viloyati	0,12	0,10	0,08	0,03	0,09	0,14	0,08
3.	Buxoro viloyati	0,31	0,29	0,26	0,22	0,31	0,29	0,20
4.	Jizzax viloyati	0,08	0,07	0,06	0,02	0,14	0,14	0,10
5.	Qashqadaryo viloyati	0,27	0,22	0,20	0,13	0,16	0,14	0,10
6.	Navoiy viloyati	1,00	0,93	0,83	0,72	0,85	1,00	1,00
7.	Namangan viloyati	0,02	0,02	0,01	-0,01	0,00	0,00	0,00
8.	Samarqand viloyati	0,09	0,08	0,07	0,06	0,14	0,10	0,05
9.	Surxondaryo viloyati	0,08	0,07	0,05	0,00	0,01	0,00	0,01
10.	Sirdaryo viloyati	0,25	0,22	0,21	0,19	0,22	0,21	0,14
11.	Toshkent viloyati	0,48	0,45	0,41	0,31	0,39	0,42	0,31
12.	Farg‘ona viloyati	0,11	0,11	0,09	0,04	0,01	0,02	0,02
13.	Xorazm viloyati	0,09	0,09	0,09	0,04	0,09	0,11	0,07
14.	Toshkent sh.	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	0,93	0,73

Hududlar budjetlarining mustaqillik darajasini tahlil qilish uchun olingan daromadlarning ulushini (soliq va soliqqa oid bo‘lmagan) va mavjud daromadlarning O‘zbekiston hududlari umumiy daromadlarida taqsimlanishi baholandi (6-jadval). Aksariyat hududlar uchun daromad ulushi 0,7-1,8 trln. so‘mni tashkil etdi, modal oralig‘i bilan 1,8 trln. so‘mga teng, ammo o‘zgaruvchanlik darajasi 2,8 trln. so‘m. Mintaqalarning katta qismi uchun mavjud daromadlarning ulushi 2,2 dan 3,5 trln. so‘mgacha, shunga o‘xshash qamrovda 2,8 trln. so‘m.

¹⁰⁷ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
<https://www.mf.uz/ru/>.

2019 yil O‘zbekiston hududlarining olingan va tasarrufdagi daromadlar ulushi bo‘yicha taqsimlanishi¹⁰⁸

Cho‘ntak (olingan daromadlar ulushi oralig‘i), mlrd. so‘m.	Tez-tezlik	Integral %	Cho‘ntak (olingan daromadlar ulushi oralig‘i), mlrd. so‘m.	Tez-tezlik	Integral %
736,4	1	7,69%	1 217,4	1	7,69%
1 836,933	5	46,15%	2 157,6	3	30,77%
2 937,467	3	69,23%	3 097,8	3	53,85%
Yana	4	100,00%	Yana	6	100,00%

6-jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, davlat budjetidan mablag‘ o‘tkazilgandan keyin mintaqalar o‘rtasidagi assimetriya deyarli 2 baravar kamaydi. O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy birliklari fiskal tenglashtirish mablag‘larini olgandan keyin daromadlarga tarqalishi 17 foizga kamaydi (802 milliarddan 670 milliard so‘mgacha).

O‘zbekistonda aholi jon boshiga budjet daromadlari darajasining nomutanosiblik ko‘rsatkichlari¹⁰⁹

Ko‘rsatkichlar	Olingan daromadlar	Tasarrufdagi daromaddar
Asimmetriya qamrovi	5,48	3,37
Tarqoqlik indeksi	802,34	669,91
Standart og‘ish	985,39	824,75
Variatsiya koeffitsiyenti	44,38	32,63

Tasarrufdagi daromadlarning olingan daromadlar bo‘yicha xuddi shunday ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaganda standart og‘ishining kamayishi bepul o‘tkazmalarining qo‘shilishi va ushbu mablag‘lar past daromadli budjetlar ta‘minlanganligini o‘rtacha darajaga muvozanatlash uchun ajratilganligi bilan izohlanishi mumkin.

¹⁰⁸Шу ерда.

¹⁰⁹Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
<https://www.mf.uz/ru/>.

Mavjud daromadlarning variatsiya ko'rsatkichi olingan daromadlar uchun hisoblangan ko'rsatkichdan past bo'lib, mahalliy budjetlar tomonidan transfertlar olgandan keyin hududlarning rivojlanishi har xilligi pasayganligini ko'rsatadi.

Korrelatsiya va regressiya tahlili orqali amalga oshirilgan (soliq va soliqdan tashqari) olingan daromadlarga beg'araz yordam sifatida viloyat budjetlariga kelib tushgan mablag'larning bog'liqligini baholash statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgan salbiy munosabatlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda pul o'tkazmalari siyosati mintaqalarning jon boshiga o'rtacha daromadlarini tenglashtirishga yo'naltirilgan, ya'ni olingan daromadlar pastroq bo'lgan hududlarga bepul ajratmalar yuborilgan va amalga oshirilayotgan transfert siyosati samarali hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari u yoki bu mintaqaning budjetlararo munosabatlar tizimining samaradorlik darajasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklarini tasniflashga imkon berdi (8-jadval).

8-jadval

O'zbekiston ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha budjetlararo munosabatlar samaradorligini baholash natijalari¹¹⁰

Budjetlararo munosabatlar samaradorlik darajasi yuqori bo'lgan mintaqalar	Budjetlararo munosabatlar samaradorlik darajasi o'rtacha bo'lgan mintaqalar	Budjetlararo munosabatlar samaradorlik darajasi yuqori past mintaqalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Jizzax viloyati	Andijon viloyati
Buxoro viloyati	Qashqadaryo viloyati	Namangan viloyati
	Navoiy viloyati	Surxondaryo viloyati
	Sirdaryo viloyati	Samarqand viloyati
	Toshkent viloyati	Xorazm viloyati
	Farg'ona viloyati	
	Toshkent sh.	

¹¹⁰Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
<https://www.mf.uz/ru/>.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovut geografik, tarixiy, mehnat, ishlab chiqarish va h.k. shartlar va resurslardagi tafovutlardan kelib chiqib, uning salbiy ta'siri va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan choralar zarur. Ushbu chora-tadbirlar hududlar har xilligining chuqurlashuvini kamaytirish, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar bo'yicha ayrim hududlarning ortda qolishini yumshatish uchun mo'ljallangan bo'lib, bu milliy iqtisodiyot faoliyatining barqarorligini oshirishi mumkin.

Hududiy rivojlanishning tabaqalanishini yumshatish mexanizmining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu budjetlararo munosabatlar tizimidir va joylarda yuzaga keladigan muammolar qanchalik paydo bo'lishi va ularni o'z vaqtida hal qilinishi aynan unga bog'liq. Bu yo'nalishda mahalliy budjetning o'z daromad bazasini shakllantirish va har bir mintaqaning ichki imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga intilish katta ahamiyatga ega.

Transfert mexanizmining mohiyati va asosiy maqsadi ularning moliyaviy mustaqilligi, birinchi navbatda, o'zlarining daromad salohiyatini rivojlantirish hisobiga o'sishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish uchun sharoit yaratishdan iborat. Biroq, bugungi kunga qadar, O'zbekistonda yuzaga kelgan mintaqalarga bepul moliyaviy yordam mablag'larini taqsimlash mexanizmi teskari tendensiyaga ega, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ko'plab ko'rsatkichlari (aholi jon boshiga YaHM o'sish sur'ati, ishsizlik darajasi va h.k.) bo'yicha eng katta hajmda fiskal tenglashtirish mablag'larini oladigan mintaqalarning ortda qolishida o'z aksini topmoqda. Shu munosabat bilan, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, budjetlararo transfertlarni taqsimlash uslubiyatini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Budjet ko'rsatkichlarini rejalashtirish bosqichida ham, ijro etish va nazorat qilish bosqichida ham budjetlararo tartibga solish mexanizmini tahlil qilish uchun foydalanish mumkin sifat, miqdoriy va makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalangan holda budjet munosabatlari samaradorligini baholash indikativ ko'rsatkichlarining kompleksli tizimi ishlab chiqilgan (9-jadval).

Budjetlararo munosabatlar tizimining samaradorlik integral ko'rsatkichi I quyidagi formula bo'yicha samaradorlik baholari o'rtacha o'lchangan yig'indisi sifatida hisoblab chiqiladi:

$$I = R_1 \times w_1 + R_2 \times w_2 + R_3 \times w_3 \quad (2)$$

Bu yerda I – integral baho; R_1 – sifat mezonlari asosida samaradorlik bahosi; R_2 – miqdoriy mezonlar asosida samaradorlik bahosi; R_3 – makroiqtisodiy mezonlar asosida samaradorlik bahosi; w_1 ; w_2 ; w_3 – sifat, son va maroiqodiy mezonlar asosida samaradorlik baholari vazn koeffitsiyentlari.

9-jadval

Budjetlararo munosabatlar tizimining samaradorlik indikatorlari¹¹¹

№	Baholash mezonlari guruhlari	Baholash mezonlari
1.	Sifat ko'rsatkichlari	<p>Transfertlarni jalb qilish natijalarining miqdoriy ko'rsatkichini (ko'rsatkichlarini) aniqlagan holda budjetlararo transfertlardan foydalanishning aniq shakllangan maqsadi mavjudligi</p> <p>Transfertlarni jalb qilishning maqsadlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bashoratlari va dasturlarida, o'rta va uzoq muddatli davrda mintaqalarni rivojlantirish konsepsiyalari va strategiyalarida belgilangan ustuvorlik va maqsadlarga muvofiqligi</p> <p>Jalb qilingan beg'araz transferlarining ichki mintaqaviy mahsulot hajmiga va umuman hududning rivojlanish darajasiga ijobiy ta'siri</p>
2.	Miqdoriy ko'rsatkichlar	<p>Yangi tashkil etilgan korxonalar va yangi ish o'rinlari soni</p> <p>YaHMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi</p> <p>Mintaqa asosiy kapitaliga investitsiyalarda xususiy investitsiyalar va kreditlar ulushi</p> <p>Mahalliy budjet daromadlarida budjetlararo transfertlar ulushi</p> <p>Xarajatlarni budjet bilan ta'minlash darajasi</p>


¹¹¹Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

		(beg‘araz transferlarlar taqsimlanganidan so‘ng)
		Budjetning moliyaviy mustaqillik ko‘rsatkichlari
		Mahalliy budjetning ishbilarmonlik faolligi ko‘rsatkichi
3.	Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar	Aholi jon boshiga YaHM
		Aholi jon boshiga real tasarrufdagi daromadlar
		Hududning soliq salohiyati indeksi
		Hududning sanoat ishlab chiqarish indeksi
		Hududning investitsion salohiyati
		Hududning ilmiy salohiyati
		Hududda rasmiy qayd qilingan ishsizlik darajasi

Hisoblab chiqilgan miqdori asosida budjetlararo munosabatlar tizimi samaradorlik umumiy darajasini quyidagicha aniqlash taklif etiladi. Samaradorlik integral bahosi ko‘rsatkichi qiymati 0 dan 40%gacha doirada bo‘lganda samaradorlik darajasini eng past, 40 dan 60%gacha bo‘lganda past, 60 dan 80%gacha bo‘lganda o‘rtacha (qoniqarli), 80%dan ortiq bo‘lganda optimal deb hisoblanadi.


Mahalliy budjetning moliyaviy holatini har tomonlama tahlil qilish uchun bir qator ko‘rsatkichlardan foydalanish taklif etiladi, chunonchi: budjet avtonomiyasi koeffitsiyenti, likvidlik koeffitsiyenti, mulk koeffitsiyenti, budjet xarajatlarini o‘z daromadlari bilan qoplash darajasi va boshqalar.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasining mahalliy budjetlarida budjet avtonomiyasining o‘rtacha ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan (40% gacha). Likvidlik ko‘rsatkichi shuni ko‘rsatadiki, mahalliy budjetlarning davlat tomonidan moliyalashtirish rejalarida ko‘zda tutilgan to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq ta‘minlash imkoniyatlari o‘rtacha 80 foizni tashkil etadi. Mahalliy budjetlarning tartibga soladigan daromadlari shaxsiy daromad manbalari hajmidan 1,5-2 baravar yuqori (2-rasm).



2-rasm. 2013–2019-yillarda O‘zbekiston mahalliy budjetlari tartibga soladigan va o‘z daromadlari nisbati va likvidlik koeffitsiyentlari¹¹²

Mahalliy budjetlarning o‘z daromadlari ularning xarajatlariga nisbati sifatida hisoblab chiqilgan Xanter koeffitsiyenti O‘zbekiston mintaqalari budjet bilan ta‘minlanganligining sust vertikal muvozanati mavjudligini tasdiqladi, bu respublika hududida budjetlararo tartibga solish samaradorligini oshirish uchun asos hisoblanadi.




3-rasm. O‘zbekiston hududlari uchun Xanter koeffitsiyenti, 2019-y.¹¹³

¹¹²Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. <https://www.mf.uz/ru/>.

¹¹³Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. <https://www.mf.uz/ru/>.

Mahalliy budjet xarajatlarining daromadlari bo'yicha logaritmik moslashuvchanligining ko'rsatkichi amalda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining rejalashtirilgan yo'nalishlari va ularning amalda bajarilishini, ayrim budjet xarajatlarining ustuvorlik darajasini bir-biri bilan taqqoslash, shuningdek turli mintaqalardagi budjet bir xil xarajatlar moddalarining ustuvorlik darajasini taqqoslash imkonini beradi.


O'zbekiston budjeti xarajatlarining eng muhim guruhleri markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish, shuningdek davlat hokimiyati, boshqaruvi va o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari ekanligi aniqlandi. Budjet daromadlari 1 foizga o'sishi bilan ushbu xarajatlar o'rtacha 2 foizga o'sadi (4-rasm).



4-rasm. 2014–2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari bo‘yicha xarajatlar elastiklik darajasi¹¹⁴

Tadqiqot davomida bir qator budjet ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi va regressiya tahlili asosida O'zbekiston mahalliy budjetlarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari baholandi (5-rasm).

¹¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. <https://www.mf.uz/ru/>.



5-asm. O‘zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligi reytingi, 2019-yil ¹¹⁵

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi bir necha yil mobaynida O‘zbekiston ma‘muriy-hududiy tuzilishining 14 tarkibiy qismidan beshtasi – Andijon, Namangan, Surxondaryo, Samarqand va Xorazm viloyatlarida mahalliy budjet daromadlarining davlat daromadlaridagi (transfertlarsiz) haqiqiy ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu esa ushbu hududlarda fiskal tenglashtirish uchun ajratilgan mablag‘larning samaradorligi past ekanligidan dalolat beradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Buxoro viloyatida qarama-qarshi tendensiya kuzatilmoqda.

Shunday qilib, yuqori budjetdan quyi budjetga beg‘araz ajratmalardan oqilona foydalanish sharti bilan O‘zbekistonning aksariyat ma‘muriy-hududiy bo‘linmalarida hududlarning markazdan o‘rtacha yoki past moliyaviy mustaqilligi kuzatiladi. Bundan tashqari, O‘zbekistonning ko‘plab mintaqalarida moliyaviy ta‘minlanganlik darajasi past yoki o‘rta darajada. Biroq, fiskal tenglashtirish mablag‘larini olgandan keyin O‘zbekiston ma‘muriy-hududiy birliklarining budjet daromadlari bo‘yicha tarqoqlashuvi kamayadi. Bu O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan transfert siyosati va budjetlararo munosabatlarning mavjud tizimi muhimligi ahamiyati va samaradorligini ma‘lum darajada tasdiqlaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar davrida budjet tizimining tarkibiy qismi sifatida

¹¹⁵Шу ерда.

budjetlararo munosabatlarni isloh qilishning obyektiv zarurati mavjud. Ayni paytda islohotning muhim yoʻnalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- darajalararo moliya-budjet oqimlarini optimallashtirish;
- soliq tushumlari hisobiga budjet daromadlarini oshirishga yondashuv ilmiy asoslanganligini oshirish;
- budjet mablagʻlarini boshqarishning konseptual asoslarini ishlab chiqish.

Budjetlararo munosabatlarni tashkil etish va budjet tizimi darajalari oʻrtasida mablagʻlarning taqsimlanish mexanizmiga ularni quyidagilarni taʼminlashga maqsadli yoʻnaltirilganligini asos qilib olish taklif etiladi: jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning taktik va strategik vazifalarini hal etish; davlat barqarorligining maqbul darajasi va yaxlitlik; davlat moliyasidan oqilona va samarali foydalanish; bir tomondan, markaz va maʼmuriy-hududiy boʻlinmalarining, boshqa tomondan esa, davlat, tadbirkorlik va aholining iqtisodiy manfaatlarini maksimal darajada muvofiqlashtirish.

Har bir budjet tomonidan uning sarf vakolatlarini bajarish va tegishli darajalar masʼuliyatini oshirish uchun olinadigan mablagʻlar yetarliligini taʼminlash darajalararo budjet-moliya oqimlarini optimallashtirishni hal qilishi lozim boʻlgan asosiy muammo hisoblanadi. Bu yoʻnalishda mahalliy hukumat organlarining soliq salohiyatini oshirish va soliq toʻlovchilar – kichik korxonalar sonini koʻpaytirish, tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslardan daromad soligʻi toʻplash ustidan nazorat funksiyalarining samaradorligini oshirish yoʻli bilan oʻzining budjet daromadlari oʻsishidan manfaatdorligini kuchaytirish eng muhim masalalardir.

Turli darajadagi hokimiyat va boshqaruv oʻrtasidagi soliqlar (soliq vakolatlari) va daromad manbalarini ajratish quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- umumiy tamoyil va yondashuvlar asosida budjet tizimi darajalari oʻrtasida daromadlarni taqsimlash barqarorligi;
- har bir darajadagi budjetlarning oʻz daromadlari ularga berilgan sarf vakolatlarini samarali amalga oshirish, shu jumladan hududlar budjetini taʼminlashni tenglashtirish uchun asosiy resurs boʻlishi kerak;

– mahalliy hokimiyat organlarining soliq vakolatlari kapital, ishchi kuchi, tovar va xizmatlar harakatini cheklashi, shuningdek, soliq yukini boshqa hududlarga eksport qilishga yo‘l qo‘ymasligi kerak;

– soliq vakolatlari va daromad manbalarini ajratish asosan budjetni gorizontal emas, balki vertikal (budjet tizimi darajalari o‘rtasida) tenglashtirishga qaratilishi kerak;

– har bir darajaga qonun hujjatlariga muvofiq tegishli darajadagi mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanish lozim bo‘lgan tushum soliqlardan ajratmalarning minimal normativi kafolatlangan bo‘lishi lozim;

– tartibga soluvchi soliqlardan olinadigan daromadning bir qismi rasmiylashtirilgan uslubiyatlar asosida mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi mumkin (aholi soni, budjet bilan ta‘minlanganlik va h.k. bo‘yicha).

Quyidagilar budjetlararo munosabatlarni isloh qilishning muhim vazifalari hisoblanadi: soliqlarning iqtisodiy mazmunini, ularni hisoblash va yig‘ish mexanizmini hisobga olgan holda soliq yoki soliqdan ajratmalarni biriktirish tizimini takomillashtirish; turg‘unlik holatidagi hududlarga yordam berish tizimini takomillashtirish; budjet me‘yorlari va qoidalarini hukumatning muayyan darajasi manfaatlarini emas, umuman budjet tizimiga oldida turgan muammolarni hal qilish zarurati asosida ishlab chiqish. Muhim yo‘nalishlar qatoriga, shuningdek, soliq tushumlari hisobidan budjet daromadlarini oshirishga ilmiy asoslangan yondashuvni takomillashtirishni ham kiritish kerak.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida budjetlararo transferlar tizimini optimallashtirish yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

ishbilarmonlik faolligi darajasi, budjet ta‘minoti, mahalliy budjet barqarorligi va moliyaviy mustaqillik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni integral baholash asosida budjetlararo munosabatlar tizimini monitoring qilish aniq tizimini joriy qilish;

mintaqaning real budjet holatini baholash uchun miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimidan va mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini va ular sarflaydigan xarajatlarning ustuvorlik yo‘nalishlarini aniqlash uslubiyatidan foydalanish, bu natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (BOR) mexanizmining tarkibiy elementi hisoblanadi;

ajratiladigan transferlar va xarajatlar hajmini hisoblash aniq algoritmini shakllantirish, mintaqalararo differentsiatsiyani yumshatish,

budjet ta'minoti va kafolatlangan davlat xizmatlariga ulanishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirish, buning uchun jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar differentsiatsiyasiga ta'sir etadigan omillar hisobidan kelib chiqib, budjetlraro transferlar strukturasi va hajmini aniqlash maqsadga muvofiq;

– davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va bashorat qilish keng doiradagi ilmiy usullarini qo'llash;

– mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishda tijorat tamoyillarini kengaytirish yo'li bilan mahalliy budjetlar o'zining daromadlar bazasini, shuningdek, soliqqa tortilmaydigan daromadlar tarkibini oshirish, bu mahalliy budjetlar ishbilarmonlik faolligini oshirishga hamda mahalliy budjetlar tejab qolgan mablag'lardan manzilli foydalanish aniq mexanizmini ishlab chiqishga imkon beradi.

10.3. O'zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanishining soliqqa tortish va moliyaviy dastaklarini takomillashtirish

Ma'lumki, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa mexanizmlar bilan tartibga solinadi. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini bajaradi. Huquqiy bazalarni ta'minlash yuridik va jismoniy shaxslarga huquq berish va ularni majburiyatlarini belgilash va boshqa sohalarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mahalliy budjetlarni samarali boshqarish, huquqiy va iqtisodiy me'yorlarni belgilash va korxonalarining faoliyat ko'rsatishlari uchun tartib-qoidalarni ishlab chiqish tegishli davlat tashkilotlarining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi qabul qilingan «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida budjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan. «Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tizish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi»¹¹⁶.

¹¹⁶Ўзбекистон Республикасининг «Бюджет тизими тўғрисида»ги қонуни. //Халқ сўзи. 2000. 14 январ. 4-модда.

Budjet tizimi yagonaligi tamoyili haqida ketayotgan bo'lsa, huquqiy baza, budjet tasnifi, budjet hujjatlari shakli, budjet jarayoni tamoyillari, pul tizimi birligi, Davlat budjeti mablag'lari bilan hisob yuritish, hisobot tayyorlash va nazorat qilishda yagona tartib amal qiladi.

Amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, barcha daromadlar va xarajatlar davlat budjet tizimi darajalari o'rtasida taqsimlanadi. Budjet daromadlari va xarajatlarni taqsimlash deganda, har bir darajadagi budjetga kiritilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar turlari va hajmini belgilash tushuniladi.

Budjet tizimining barcha xarajatlari turli budjetlar o'rtasida taqsimlanib, bu u yoki bu xarajatni muayyan byujetga kiritilishini anglatadi. Bu birinchidan moliyalashtirilayotgan muassasaning respublika va mahalliy organlarga qarashli bo'lishi, ikkinchidan moliyalashtiriladigan tadbirning ahamiyatidir.

Respublika budjeti – davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. «Mahalliy budjet – Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi»¹¹⁷.

Respublikamizda budjet tizimida olib borilayotgan o'zgarishlarning markazida Davlat budjeti daromadlarini to'liq va o'z vaqtida tushirish, respublika va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan iqtisodiy-ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirishda va xarajatlarni moliyalashtirishda yangi shakl va usullardan samarali foydalanish, budjetdagi taqchillikni o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni oldini olish, ish haqi va nafaqalarni o'z vaqtida to'lashni ta'minlash, shuningdek, budjet mablag'laridan foydalanish jarayonida budjet intizomiga rioya etish masalalari turadi.

¹¹⁷Ўзбекистон Республикасининг «Бюджет тизими тўғрисида»ги қонуни. //Халқ сўзи. 2000. 14 январ. 3-модда.

Daromadlar manbalari belgilanishi va ular mahalliy budjetlarga tushishi qonun asosida mustahkamlab qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va budjetlarni shakllantirishdan manfatdorligini oshiradi. Bunda mahalliy budjetlarga mablag'lar kelib tushishining regulativ manbalari belgilangan bo'lib ularning jumlasiga belgilangan me'yorlar bo'yicha davlat soliqlaridan ajratiladigan mablag' ajratmalari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-noyabrda qabul qilingan "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi qongunida Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetiga, viloyatlar viloyat budjetlariga va Toshkent shahri shahar budjetiga quyidagi ulushlarda:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarining (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) Navoiy viloyatida 70 foiz, Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foiz;

- foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foiz;

- qo'shilgan qiymat solig'idan tushumlarning Qoraqalpog'iston Respublikasida 100 foizi o'tkazilishi belgilab qo'yilgan.

- 2020-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Soliq kodeksi (yangi tahrirda) amalga kiritilishi mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga erishishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Bular quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish;

– eksterritoriallik prinsipi asosida soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi, biznesni qonuniy, shaffof va qulay yuritish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, soliq to‘lovchilarning qoniqish darajasining oshishini ta‘minlash;

– uchinchidan, soliq ma‘muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, shuningdek, korrupsiyaviy omillarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha preventiv va oldini olish choralari qo‘llash.

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhitni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishni davom ettirish imkonini berdi.

Strategiyaning asosiy maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida tadbirkorlik subyektlari va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, soliq solish jarayonlarini avtomatlashtirgan holda, davlat soliq organlarida zamonaviy yo‘naltirilgan servis soliq xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilish hisoblanadi.

Strategiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– Davlat budjetiga soliq tushumlarining barqarorligini ta‘minlash;

– soliq organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish va soliq ma‘muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ko‘rsatilayotgan soliq xizmatlari sifatini yaxshilash;

– barcha toifadagi soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy ravishda bajarish asosida ularning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish;

– soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qisqartirish, barcha toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlarni ta‘minlaydigan transparent va barqaror soliq tizimini shakllantirish;

– soliq to‘lovchilar faoliyatiga aralashishni, shuningdek, davlat soliq xizmati organlarida «inson omili»ni hamda korrupsiya holatlarining salbiy ko‘rinishlarini kamaytirish imkonini beradigan tavakkaltahlil va masofaviy tahliliy ishlar tizimi asosida soliq nazorati tizimini shakllantirish.¹¹⁸

¹¹⁸Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 июлдаги “Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4389-сонли Қарори.

2019-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga 83,2 trln. so‘m miqdorida yoki 2018-yilga nisbatan boshida tasdiqlangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 29,1 trln. so‘m (o‘shish sur‘ati 154,0%ni tashkil qildi) qo‘shimcha daromad kelib tushdi (Jadval-10).

10-jadval

Soliq turlari bo‘yicha 2018–2019-yillarda davomida budjetga tushgan tushumlar (mlrd.sum.)¹¹⁹

№	Soliq turlari	2018	2019	Ulushi ,(%)		O‘shish sur‘ti
				2018	2019	
1	Budjet tushumlar, jami	54 203	83 266	100	100	154
	shu jumladan:					
2	Bevosita soliqlar	17 540	22 672	32,3	27,0	129
3	Bilvosita soliqlar	20 282	33 156	37,4	40,0	163
4	Resurs to‘lovlariva mol-mulksolig‘i	12 663	19 677	23,3	24,0	155
5	Davlat boji va jarimalar	1 517	1 913	2,7	2,0	126
6	Boshqa soliqlar va yig‘imlar	2 200	5 848	4,1	7,0	266

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2019-yilda Davlat budjeti daromadlari shakllanishida sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan, ya‘ni bevosita soliqlar ulushi 32,3%dan 27,0%gacha, resurs soliqlari ulushi 16,0%dan 17,2%gacha oshgan bo‘lsa, bilvosita soliqlar ulushi esa 23,3% bandiga kamayib, 24,0%ni tashkil qiladi.

Soliq islohotlarini amaliyotga joriy qilish hamda soliq ma‘mur-chiligini yaxshilash doirasida olib borilayotgan tadbirlar natijasida-yillik ko‘rsatkichlar barcha hududlar bo‘yicha bajarildi. Asosiy daromad manbalari bo‘yicha 2019-yilda quyidagicha miqdorlarda tushum bo‘ldi.

Soliq siyosati konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari doirasida davlat budjeti daromadlar bazasida hududlarni o‘rni 11-jadvalda keltirilgan.

Tahlillar natijalariga ko‘ra, hududlar kesimida asosiy 2018-2019 yillarda davomida budjetga tushgan tushumlarning 24,0%i Toshkent

¹¹⁹Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кумитаси маълумотлари асосида тузилган.

shahriga to‘g‘ri kelgan, Navoiy va Toshkent viloyatlarini ulushi 12,0 va 11,0%ni tashkil qilgan.

11-jadval


Hududlar bo‘yicha 2018–2019-yillarda davomida budjetga tushgan tushumlar (mlrd.sum.)¹²⁰

№	Hududlar	2018	2019	Ulushi (%)	O‘shish sur‘ti
	Respublika bo‘yicha	54 203	83 266	100	154
	shu jumladan:				
1	Qoraqalpog‘iston Res.	2 378	3 182	4,0	134
2	Andijon viloyati	1 761	3 241	4,0	184
3	Buxoro viloyati	2 768	4 267	5,0	154
4	Jizzax viloyati	958	1 492	2,0	156
5	Qashqadaryo viloyati	3 896	6 285	8,0	161
6	Navoiy viloyati	5 422	9 981	12,0	184
7	Namangan viloyati	1 364	2 257	3,0	165
8	Samarqand viloyati	2 013	3 162	4,0	157
9	Surxondaryo viloyati	1 384	2 184	3,0	158
10	Sirdaryo viloyati	813	1 334	2,0	164
11	Toshkent viloyati	5 998	9 441	11,0	157
12	Farg‘ona viloyati	2 779	3 965	5,0	143
13	Xorazm viloyati	1 193	1 972	2,0	165
14	Toshkent shahri	13 422	20 151	24,0	150
15	DSQ tushumlari	8 055	10 353	12,0	129

Joriy yilda foyda solig‘i bo‘yicha yangi qo‘shilgan soliq to‘lovchilar hisobiga qo‘shimcha tushumlar 2 trln. so‘m miqdorida kutilmoqda. Xususan, Jizzax viloyatida 27 mlrd. so‘m, Namangan viloyatida 62mlrd. so‘m, Samarqand viloyatida 92 mlrd. so‘m, Farg‘ona viloyatida 79 mlrd. so‘m yangi to‘lovchilar hisobiga tushadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha kutilayotgan tushumlar 16 410,5 mlrd. so‘m miqdorida bo‘ladi va belgilangan prognoz 430,5 mlrd.

¹²⁰Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кумитаси маълумотлари асосида тузилган.

soʻmga (2,7%) ortigʻi bilan bajarilishi kutilmoqda. Mazkur soliq turi boʻyicha tushumlarning muvaffaqiyatli ijrosiga quyidagi omillar taʼsir qildi: mulk soligʻi stavkasining 5%dan 2%gacha, yagona ijtimoiy toʻlov; stavkasining 25%dan 12%gacha kamaytirilishi va tovar aylanmasidan; 3,2% miqdorida toʻlanadigan ajratmalarning bekor qilinishi hisobiga soliq toʻlovchilar moliyaviy natijalarining yaxshilanishi; Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4086-sonli qarori bilan qator imtiyozlarning bekor qilinishi; soliq qarzining kamaytirilishi. Qoʻshilgan qiymat soligʻi boʻyicha kutilayotgan tushumlar 37,6 trln. soʻmni tashkil qiladi, bu yillik prognozga nisbatan 1,6 trln. soʻm (4,3%), 2018-yildagi tushumlarga nisbatan 9,7 trln. soʻm (34,7 foiz) koʻp. Qoʻshilgan qiymat soligʻi tushumlarining yuqori surʼatlardagi oʻsishi quyidagi omillar asosida yuz bermoqda: yillik aylanmasi 1 mlrd. soʻmdan oshadigan toʻlovchilarning qoʻshilishi; imtiyozlarning bekor qilinishi, jumladan qishloq xoʻjalik mahsulotlariga qoʻshilgan qiymat soligʻining joriy qilinishi; soliq qarzining kamaytirilishi; energiya resurslari tariflarining oʻzgartirilishi. Hududlar boʻyicha 2018–2019-yillar davomida budjetga tushumlar tarkibi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. Hududlar boʻyicha 2018–2019-yillar davomida budjetga tushumlar (mlrd.soʻmda)¹²¹

Respublikada pandemiya koronavirusi sharoitida milliy iqtisodiyotni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlat tomonidan biznesni

¹²¹Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кумитаси маълумотлари асосида тузилган.

qo‘llab-quvvatlashning quyidagi choralari o‘z ichiga oladi: birinchidan, 2020-yilning 1-iyunidan 1-sentabrigacha bo‘lgan davrda quyidagilar mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini to‘lashda nozodqilinadi: kichik-tadbirkorlik subyektlari; bozorlar va savdo komplekslari, kinoteatrlar, umumiy ovqatlanish korxonalari, jamoat transporti korxonalari, sport-sog‘lomlashtirish muassasalari, shuningdek, yo‘lovchi tashish, maishiy xizmatlar ko‘rsatish, binolarni, shu jumladan, banketlar o‘tkazish uchun ijaraga berish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar;

ikkinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlariga quyidagi summalar hisobdan chiqariladi: 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son va 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-son farmonlariga asosan foizsiz kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) berilgan, 2020-yil aprel va may oylari uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i summalari; 2020-yil 15-may holatiga yer solig‘i va mol-mulk solig‘i bo‘yicha 2020-yil 1-yanvardan boshlab hosil bo‘lgan penya va jarimalar summalari;

uchinchidan, mikrofirmalar va kichik korxonalar tovarlarni (iste‘mol tovarlaridan tashqari) olib kirishda undiriladigan bojxona bojiva aksiz solig‘ini to‘lash muddatini 2020-yil 1-iyulgacha kechiktirishni qo‘llashga haqli. Keyinchalik kechiktirilgan summa 120 kun mobaynida teng ulushlarda to‘lanadi. Bojxona organlariga murojaat qilgan kungacha bir yildan kam bo‘lmagan davrda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan subyektlar ushbu opsiyadan foydalanishi mumkin;

to‘rtinchidan, 2020-yilning 1-mayidan 1-iyuligacha bo‘lgan davrda mikrofirmalar va kichik korxonalariga ijtimoiy soliq stavkasi 12%dan 1%gacha kamaytiriladi. Ko‘rsatilgan tartib quyidagilarga tatbiq etilmaydi: aksiz osti tovarlar ishlab chiqaruvchilarga; davlat korxonalariga; ustav jamg‘armasida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50% va undan yuqori bo‘lgan yuridik shaxslarga;

beshinchidan, mikro firma va kichik korxonalarda 2020-yil 15-may holatiga soliqlar, penyalar va soliq qonunchiligini buzganlik uchun hisoblangan jarimalar bo‘yicha mavjud bo‘lgan qarzdorlikni undirish 2020-yil 1-sentabrigacha to‘xtatiladi. Soliq organlari 15 may holatiga inkasso topshiriqnomalarini chaqirib olishi darkor, soliq to‘lovchilar esa shu sana holatiga soliq majburiyatlarini bajarish

bo'yicha ijro etilmagan to'lov topshiriqnomalarini qaytari bolishga haqli;

oltinchidan, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi o'zi to'g'risidagi nizomtalablarini inobatga olgan holda quyidagi foiz xarajatlarini qoplashga kompensatsiya berishni boshlaydi: tadbirkorlik subyektlariga MB asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmagan miqdordagi foiz stavkasi bilan milliy valutada beriladigan investitsiyaviy kreditlar bo'yicha, kredit shartnomasi amal qilishining birinchi yili davomida; 2020-yil 1-oktabrga qadar tadbirkorlik subyektlariga aylanma mablag'larini to'ldirish uchun milliy valutada 500 mln so'mgacha beriladigan kreditlar bo'yicha kredit shartnomasi amal qilish muddati davomida 10 foizlik punkt miqdorida¹²².

Hududlarni rivojlantirish muammolari va mahalliy budjetlarning daromad qismini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot ishlarida solikli daromadlarni prognozlashtirish va ularni baholash bilan bog'liq masalalar dolzarb ahamiyat kasb etgan. Soliq potensialini baholashga oid masalalar bo'yicha nashr etilgan ilmiy ishlarda soliq potensialini baholash metodologiyasini ishlab chiqish va mavjud usullarni takomillashtirish bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar o'tkazilgan. Soliq potensialini hisoblashni optimallashtirish uchun soliq va statistika axborotlar bazasini takomillashtirish, soliq organlari hisobotlarini avtomatlashtirish, turli idoralar tomonidan nashr etilayotgan hisobot, ma'lumotlarni sinxronizatsiyalash va tartibga solinishi hamda hududlar soliq pasportini tuzish va tezkor nashr etish yo'nalishlarida ishlar olib borish tavsiya etiladi¹²³.

2020-yildan boshlab, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari O'zbekiston Respublikasi qonuni shaklida tasdiqlandi. Qonunning ustunligi shundaki, Oliy Majlis palatalari vazirlik va idoralar bo'yicha taqsimlangan ajratmalarni tasdiqlashdi, ularga budjetdan aniq belgilangan holda ajratilgan mablag'larni sarflash huquqini beradi. Bu esa vazirliklarning tegishli tarmoqni

¹²²ПФ-5996-сон 18.05.2020 й “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли ва тadbirkorlik субъектларини қўллаб-қувватлаш бўйича навбатдаги чора-таdbирлар тўғрисида” гиЎзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/4815474>.

¹²³Абдуллаев З.А. ХудудларсолиқпотенциалинибаҳолашмасалалариМолиява банк иши (электрон илмийжурнал)ЎзбекистонРеспубликаси Банк ваМолияАкадемияси 1/2019,103 б.

rivojlantirish bo'yicha vakolatlarini kengaytiradi hamda ularning Parlament oldidagi mablag'larni samarali ishlatilishi ustidan javobgarligini oshiradi.

Budjet mablag'larini taqsimlovchilarini budjetlariga kiritiladigan o'zgarishlar Oliy Majlis tomonidan ko'rib chiqiladi, shu bilan bir qatorda budjet intizomi mustahkamlanadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilari o'rtasida budjetga 10%cha o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun tasdiqlangan Parlament ajratmalariga 10% va undan ortiq miqdorda tuzatishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi, ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar va boshqa xarajatlarning indeksatsiya mablag'larini qayta taqsimlash bundan mustasno.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining umumiy xarajatlarini 3%dan yuqori miqdorlarda kamaytirish yoki ko'paytirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan Vazirlar Mahkamasi taklifiga binoan amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

2020-yildan o'rta muddatli budjetlashtirish tizimini takomillash-tirish bo'yicha oldingi yillardagi ishlar davom ettiriladi.

Xususan:

a) fiskal siyosatni strategik yondashuv asosida ishlab chiqish orqali yillik budjetlashtirish tizimi kuchaytiriladi. Bunda, budjetni shakllantirishda, ya'ni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni va budjet daromadlarini sifatli prognoz qilishda "pastdan yuqoriga" qoidasiga amalqilinadi;

b) budjetning chegaraviy miqdorlari tizimini joriy etish orqali budjet jarayoni boshida vazirlik va idoralarga kelgusi yilgi budjet-larinishakllantirish uchun belgilab beriladigan budjetning chegara-lang limitlari belgilanadi;

d) parlament tomonidan budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratmalarni taqsimlash tizimini joriy qilinishi sababli vazirliklar va boshqa muassasalarning budjet jarayonidagi sonini guruhlash taklif etiladi.

Buning uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli idoralar bilan kelishilgan holda vazirlik va idoralarni tarmoq bo'yicha bo'ysunuvi va ish faoliyatidan kelib chiqib, birinchi va ikkinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar kesimida guruhlash hisobida Budjet taqsimlovchilari sonini maqbullashtirish taklif etiladi. Masalan, ilgari budjetdan 300 taga yaqin budjet taqsimlovchilari bo'lgan bo'lsa, (jahon tajribasini inobatga olib) ularning sonini 56 tagacha guruhlash amalga oshiriladi;

e) xalqaro tajribalarni o'rgangan holda budjet kalendariga o'zgartirish kiritish taklif etilmoqda. Bunga asosan budjet jarayoni may oyida Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan taqdim etilgan kelgusi uch yillik uchun makro iqtisodiy ko'rsatkichlar dastlabki prognoziga asosan Davlat budjeti daromadlar prognozi ishlab chiqilib, davlat qarzi strategiyasiga asosan budjetning chegaralangan imkoniyatlari (Budget Envelope) hisoblab chiqiladi.

Mamlakatning yaqin istiqboldagi taraqqiyoti jarayonida budjetlararo mutanosiblikni ta'minlashda soliqlar tizimini takomillashtirishda quyidagicha yondashish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan: hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va samarali boshqaruviga erishish hamda daromadlarni oshirishda mahalliy budjetlar daromadlarini tenglashtirishga e'tibor qaratish. Bunda moliyaviy tenglashtirishning ijobiy ta'siri samaradorligini va teskari ta'siri darajasini baholash lozim; soliqlar tizimini umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va ulushli soliqlar tarzida tasniflashni yo'lga qo'yish; salmoqli tushumga ega umumdavlat (QQS, aksiz, foyda va daromad) soliqlarini budjet tizimi budjetlari o'rtasida taqsimlash amaliyotini joriy etish zarur; budjet transfertlar tizimi hududlarning budjet bilan ta'minlanganligi, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qilish kabi qator mezonlarga asoslanishi, shaffofligi ta'minlanishi zarur; budjet tizimi budjetlari daromadlarini tartibga solish amaliyotini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish, ilg'or xorij tajribasini izchil qo'llash kerak; aholining tovar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlovchi uzoq muddatli ijtimoiy normativlarni ishlab chiqish zarur; mahalliy budjetlarning xarajat qismi hudud rivojlanishining rejalashtirilgan ko'rsatkichlari va 1

kishiga hisoblangan xarajatlarning ijtimoiy va moliyaviy normativlari bazasi asosida aniqlanishi kerak¹²⁴.

2020-yilda respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida xarajat vakolatlari bo'yicha quyidagi budjet siyosati amalga oshiriladi:

– umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruh bo'yicha xarajatlari O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag'lari hisobidan, to'rtinchi guruh bo'yicha xarajatlar tuman va shaharlarning tegishli budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

– ba'zi xarajatlar bo'yicha vakolatlarni yuqori budjetlardan quyi budjetlarga o'tkazish. Jumladan, umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish xarajatlari;

– Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari hamda Qarshi magistral kanalining ekspluatatsiya boshqarmasi va issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko'rsatilgan issiqlik ta'minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari;

– ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarni obodonlashtirish va Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tashkiliy tizimiga kiruvchi issiqlik quvvati tashkilotlarining qozonxonalarini va issiqlik quvvati tizimlarini kapital ta'miri O'zbekiston Respublikasining respublika budjetida amalga oshiriladi;

– bundan tashqari, tajriba tariqasida Toshkent shahridagi umumta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), kapital ta'mirlash va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar Toshkent shahri shahar budjeti hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda. joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tashabbusi bilan o'tkaziladigan tadbirlar Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlari, shahar

¹²⁴Исламкулов А.Х. “Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашда солиқлар тизимини такомиллаштириш” мавзусидаги 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит ихтисослиги бўйича иктисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертация автореферати. ДБА. 2020, 71 б.

va tumanlar budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan moliyalashtiriladi.

Shunday qilib, koronavirus pandemiyasi davrida O‘zbekiston Respublikasi budjet-soliq siyosatining barqaror iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini ta‘minlash yo‘llarini o‘rganish va uning optimal hajmi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Tayanch so‘zlar: dastur, turlar, joriy dastur, favquloddagi dastur, maqsadli dastur, moliyalashtirish rejasi, maxalliy budjet, budjetlararo munosabatlar, budjet daromadlari, soliq, soliq turlari, monitoring, budjet-soliq siyosati.

Nazorat savollari

1. Maqsadli dastur deganda nima tushuniladi?
2. Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. Mahalliy budjetning rivojlanish darajasiga baho bering.
4. Budjet daromadlari deganda nimani tushunasiz?
5. Dastur tushunchasini ta‘rifini qanday baholaysiz?
6. Soliq tizimini takomillashtirishni asosiy yo‘nalishlari qatoriga nimalar kiradi?
7. Soliq turlariga nimalar kiradi?
8. Budjet-soliq siyosatini hududiy rivojlanishga ta‘sirini qanday baholaysiz?
9. O‘zbekistonda soliq-budjet mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari...
10. Moliyalashtirish rejasi deganda nima tushuniladi?

XI BOB. MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISHDA HUDUDIY RAQOBATDOSHLIK USTUNLIKLARIDAN FOYDALANISH

11.1. Mintaqaviy boshqarishni nomarkazlashtirish sharoitida mintaqalar raqobatdoshligini oshirish yo‘llari.

11.2. Mintaqalar iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirishda ixtisoslashuv darajasining ahamiyati.

M.Porter raqobatchilikning turli shakllariga batafsil ta’rif beradi. Bunda u rivojlanayotgan iqtisodiyotning uch bosqichini ketma-ket ajratib berdi va ularga raqobatchilikning turli shakllari ta’sir etishini hamda rivojlanishning tegishli maqsadlarga ajratilishini asosladi:

1. Factor - driven Economy - ishlab chiqarish omillari bilan harakatlanuvchi iqtisodiyot. Iqtisodiy tizimning bu bosqichi uchun raqobatbardoshlik asosan ishlab chiqarishning kam chiqimliliigi bilan ta’minlanadi, bu tabiiy va insoniy resurslarning yetarililigi va arzonligi bilan asoslanadi.

2. Investment - driven Economy – investitsiyalar bilan harakatlanuvchi iqtisodiyot. Bu bosqich uchun ishlab chiqarish va investitsiyalarning texnik darajasiga bog‘liq raqobatbardoshlik xosdir.

3. Innovation - driven Economy - innovatsiyalar bilan harakatlanuvchi iqtisodiyot. Bu iqtisodiyotda maqsadli ustuvorlik resurslardan qimmatli iste’molchilikka tomon o‘zgaradi. Bu yerda iste’molchi uchun qimmatli narsani yaratish asosiy bo‘lib qoladi.

Mamlakatimizda mintaqalarning raqobat ustunliklaridan foydalanishni ta’minlashda iqtisodiy jihatdan quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, mintaqalar sanoatida innovatsion faoliyatning rivojlanishi maqsadida qayta ishlovchi sanoat korxonalarini raqobatbardoshligi indekslarini ishlab chiqish, yuqori indeksga ega korxonalar faoliyatiga yanada kengroq soliq va bojxona imtiyozlarini berish lozim.

Ikkinchidan, soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali energiya samaradorligini oshirishni rag‘batlantiruvchi mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish. Bunday mintaqaviy dasturlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va uy xo‘jaliklarining

energiya resurslaridan samarali foydalanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yevroittifoqqa a'zo ko'pchilik mamlakatlarda energiya samaradorligini oshirishning mintaqaiy dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali mintaqalar iqtisodiyotida energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Italiyada 2007–2013-yillarda “Energiya samaradorligini ta'minlash maqsadida kamaytirilgan soliq dasturi” liniyasi bo'yicha soliqlarning 55%ga qisqarishi tufayli energiya samaradorligi yuqori bo'lgan yangi elektr asboblari va asosiy vositalarni o'rnatishga har birining qiymati o'rtacha 1,8 mln yevrodan ortiq bo'lgan jami 23 mlrd. yevro mintaqaiy investitsiyalar kiritilgan¹²⁵. Buyuk Britaniyada 2002–2013-yillarda “energiya yetishmovchiligi” ga qarshi kurashish maqsadida qabul qilingan “Issiq front” mintaqaiy dasturi issiqlik izolatsiyasini ta'minlash bo'yicha choralarni subsidiyalagan. Ushbu dasturdan 2001–2011-yillar davomida Buyuk Britaniya mintaqalarida 1,7 mln. uy xo'jaliklari foydalangan, natijada esa solishtirma energiya iste'moli 63GDj/m² dan 4163GDj/m² ga, ya'ni 35%ga qisqargan^{126,127}.

Uchinchidan, respublikaning turli mintaqalarida kichik sanoat zonalari asosida sanoat klasterlarini barpo etish, sanoat tarmoqlariga kiritiladigan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish.

To'rtinchidan, mintaqalarni mutanosiblikda rivojlanitirishda yirik ko'lamdagi loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat korxonalarini joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda, ushbu yangi texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqishga yo'naltirilgan zamonaviy davlat loyihalarini moliyalashtirish faqat markazlashgan tarzda budjetdan emas, balki xususiy hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga amalga oshiriladi.

Beshinchidan, iqtisodiyotning tarmoq tuzilmalari bilan birgalikda mintaqalarning sanoat salohiyatini jadal rivojlantirish, mineral xomashyo resurslari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat

¹²⁵ Energy Efficiency Market Report 2013 //International Energy Agency.

URL: <http://www.iea.org/publications/freepublications/publication/energy-efficiency-market-report-2013.html>
(Мурожаат санаси: 25.03.2017)

¹²⁶ Capturing the Multiple Benefits of Energy Efficiency // International Energy Agency. – 2015.
URL:<http://www.iea.org/publications/freepublications/publication/capturing-the-multiple-benefits-of-energy-efficiency.html> (Мурожаат санаси:04.04.2018)

¹²⁷ Anisimova T.Yu. Energy-economic analysis of corporate activities in the system of energy management. World Applied Sciences Journal, 2013.- T.27, №13A.- C.570-575.

asosida chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etishni rag'batlantirish zarur. Bunda har bir mintaqada ularning o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish hamda shuning asosida eksportga chiqarilayotgan tovar va xizmatlar hajmi, turlarini ko'paytirish bo'yicha mintaqaiy dasturiy chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar jarayonida iqtisodiyotni markazdan boshqarish darajasidan hududiy va tarmoq darajasida boshqarishga bosqichma-bosqich o'tkazish, hududlarda tegishli dasturlarni amalga oshirish, hududiy organlar huquqlarini kengaytirish, ularning maqom va mas'uliyatini oshirish birinchi navbatdagi vazifalardan hisoblanadi. Tobora chuqurlashtirilayotgan islohotlar davomida masalaga shu nuqtai nazardan yondashilib, hududiy ko'p ukladli iqtisodiyotni boshqarishning shakllanishi va rivojlanishini baholash shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy darajalarda hududiy dasturlarni ishlab chiqish bosqichida ham, ularni amalga oshirishda ham bir qator kamchiliklar mavjud. Ular asosan aniq tadbirlarni ishlab chiqish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ilg'or shakllari va usullarini tatbiq qilishning uslubiy negizini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, hududlar va hududlar darajasida istiqbol uchun ishlab chiqilgan aniq maqsadli dasturlar, ularni amalga oshirish usullari va mexanizmlari to'la shakllanmagan. Bu, o'z navbatida, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishiga, aholi turmush darajasini oshirishga, ishlab chiqarish va xususan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, jahon miqyosida pandemiya koronavirusi davom etayotgan hozirgi sharoitda hududlarda xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini yanada rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili hamda eng ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida mamlakatimizda boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish siyosatini amalga oshirish asosida hududlar barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlarining roli va mas'uliyati ortib bormoqda.

So'nggi paytlarda mintaqalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish faollashdi, bu birinchi navbatda ijtimoiy-

iqtisodiy va ekologik tizimlar sifatida o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati uzoq vaqt davomida asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash jarayonlariga davlat ta’siri siyosati bo‘lib kelganligi tasodif emas. Faol mintaqaviy siyosatni olib boradigan ushbu davlatlar rivojlanmagan hududlarni rivojlantirish, depressiya qilingan sanoat maydonlarini qayta qurish, aglomeratsiyalarni nomarkazlashtirish va sanoat ishlab chiqarish konsentratsiyasi ustidagi maydonlar, klasterlarni shakllantirish va boshqalar bilan ajralib turadi¹²⁸.

To‘g‘ri tanlangan strategiya kuch va mablag‘larni iqtisodiy rivojlanish salohiyatini ro‘yobga chiqarishga va shu bilan bozor sharoitida hududlarning samarali rivojlanishini ta’minlashga imkon beradi. Strategiyani ishlab chiqishda yangi iqtisodiy sharoitlarda hududlarning o‘rni, roli va vazifalari aniqlanadi, o‘zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida mintaqani rivojlantirishning strategik ustuvorliklari belgilanadi, strategiyani yangi institutsional sharoitda amalga oshirishning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlari asoslanadi. Albatta, muayyan mintaqaning rivojlanish strategiyasi mamlakatning rivojlanish strategiyasiga mos kelishi va u bilan yaxlit bo‘lishi kerak.

Tan olish kerak, respublikada yuz bergan ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, umuman hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda jiddiy o‘zgarishlar yuz bermadi.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va ustuvorliklarini shakllantirishda hokimliklarning respublika organlariga bog‘liqligi mavjud. Yuqoridan pastga tushadigan hujjatlar hokimliklar uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi, ularni har qanday usulda bajarish kerak. Hokimliklar mintaqani rivojlantirish uchun strategik muammolarni mustaqil ravishda chuqur va kompleks ravishda ishlab chiqmaydilar. Shuning natijasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud: hududlarning iqtisodiy salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayapti, respublika dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda mintaqaviy o‘ziga xosli ketarlicha hisobga olinmayapti; mintaqaviy iqtisodiyotida agrar sektorning ulushi saqlanib qolayapti; ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli nomutanosibliklar mavjud; mahalliy budjetlarni

¹²⁸Begg I. Innovative Directions for EU Cohesion Policy after 2020. CESifo Forum. 2018. <https://www.cesifo-group.de/DocDL/CESifo-Forum-2018-1-Begg-EU-Cohesion-Policy-march.pdf>.

shakllantirish uchun moliyaviy bazaning yetarli emasligi; resurslar va ulardan sakmarali foydalanish o'rtasidagi nomutanosibliklar; mintaqalararo iqtisodiy integratsiya yaxshi rivojlanmaganligi; mintaqaviy menejmentning sust darajasi (iqtisodiy qarorlarning yuqori markazlash-tirilganligi), sohaviy yondashuv va idoraviy manfaatlarning ustunligi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining maqsadlariga erishish davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining (keyingi o'rinlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari deb yuritiladi) uyg'un faoliyatini tashkil etishni talab qiladi.

Shu bilan birga, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institutsional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari o'tkazilayotgan islohotlarni to'liq ro'yobgacha qarishga hamda qo'yilgan maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, xususan: ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish asoslari hududlarni rivojlantirish sur'atlarini pasaytiruvchi, joylarda to'planib qolgan muammolarning o'z vaqtida hal etilishini ta'minlamayapti; ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xususiyatga egaligi, ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi, vazifalarning takrorlanishi va davlat tomonidan ortiqcha tartibga solish holatlarining mavjudligi amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning amaldagi tizimi qabul qilinayotgan qarorlarning ijrosiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni ta'minlamayapti; ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mexanizmlari faqat holatlarni qayd etish va statistik ma'lumotlarni joriy to'plashdan iborat bo'lib, bu ko'pchilik hollarda joylardagi

ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi; davlat funksiyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib kelmoqda; boshqaruv jarayoniga ishlarni rejalashtirish va tashkil etishning zamonaviy innovatsion uslublarini, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda qabul qilinayotgan qarorlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash va uning jarayonini tezkor kuzatib borish imkonini bermaydi, shuningdek, davlat boshqaruvida ortiqcha byurokratlashtirish va yuqori sarfxarajatlarga sabab bo'lmoqda.

Shu bois, hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirish hamda mahalliy hokimlik organlari faoliyati natija dorligini oshirish muhim yo'nalish sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-sonli "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida hamda 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5614-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida" PQ-4702-sonli Qarori va boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum bir tadqiqotlarni olib borish talab qilinadi.

Baholash natijalari ularning ko'lami va amaliyotda qo'llanilganlik darajasi islohot yillarida turlicha bo'lganini, islohotlarning

yangi bosqichida davlatning hududiy rivojlanishni ta'minlashdagi bilvosita ishtirokining kengayganligini ko'rsatmoqda (Jadval-1).

1-jadval.

O'zbekistonda hududlarni mutanosib rivojlantirish dastaklaridan foydalanish holati¹²⁹

№	Davlat tomonidan tartibga solish dastaklari	Islohot yillari		Yaqinva'rti istiqbolda
		1991-2015	2016-2019	
I. Iqtisodiy-moliyaviy mexanizm				
1	Budjet-soliq siyosatini amalga oshirish	+++	++	+
2	Investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish	++	+++	+++
3	Ekologik vaziyat murakkab, rivojlanish darajasi past hududlarni qo'llab-quvvatlash	+	++	+++
II. Tashkilik-huquqiy mexanizm				
4	Hududiy dasturlarni qabul qilish	+	+++	++
5	Hududiy rivojlanish konsepsiya va strategiyalarini qabul qilish	-	+	++
6	Maxsus zonalar tashkil qilish	+	+++	+++
7	Klasterlar tashkil etish	-	++	+++
8	Hududiy boshqaruv tizimida institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish	+	+++	+++
III. Mahalliy davlat boshqaruvi organlarining roli				
9	Mahalliy hokimliklar faoliyati natijadorligini oshirish	+	++	+++
10	Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar jalb qilishda vakolatlarni kengaytirish	+	++	+++
11	Hududiy rivojlanish dasturlarini mahalliy hokimliklar tomonidan tasdiqlash	-	+	+++

Izoh: foydalanilganlik darajasi:
 “-“ – foydalanilmagan; “+” – past darajada;
 “++” – o'rtadarajada; “+++” – yuqoridarajada.

Buning natijasida o'z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar aniqlandi va ularning yechimi hududlar mutanosib rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishda o'z aksinitopdi: turli darajadagi mahalliy davlat

¹²⁹Отабоев Ш.Х. Худудлар мутаносиб ривожланишини давлат томонидан тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш. иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Т.: Прогнозлаштириш ва макроиқтисодий тадқиқотлар институти.2020, 48 б.

boshqaruvi organlarida (viloyat, tuman va shahar hokimliklari), vazirlik va idoralarning hududiy bo‘linmalarida (viloyat boshqarmalari, tuman, shahar bo‘limlari) vakolat, vazifa va funksiyalar aniq taqsimlanmagan;

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish dastaklaridan biri bu uni nomarkazlashtirish bo‘lib, oldin markazda bo‘lgan funksiyalar, vakolat va javobgarliklarni mahalliy hokimiyat va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, shuningdek fuqarolik jamiyatlari institutlariga o‘tkazish hisoblanadi. Turli shakllarda (ma‘muriy, siyosiy, iqtisodiy va fiskal) amalga oshiriladigan nomarkazlashtirish davlat rivojlanishini aniqlovchi keng ko‘lamli omillarga ta‘sir etadi. Ammo nomarkazlashtirishni mamlakatning o‘ziga xos jihatlarni hisobga olmasdan, yetarlicha darajada o‘ylanmagan va shoshilinch tarzda amalga oshirish makroiqtisodiy vaziyatni nobarqarorlashtirish xizmatlardan noteng foydalanishga va kambag‘allikning kuchayishi kabi salbiy holatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu bilan turli davlatlardagi nomarkazlashtirish darajasi va dasturlarning turli-tumanligi, shuningdek mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni yaratishda tashkiliy va iqtisodiy qarorlarning o‘ziga xosligi aniqlanadi. Nomarkazlashtirish ta‘sirining bir xilda emasligi kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni minimallashtirishga yo‘naltirilgan tegishli davlat chora-tadbirlarining zarurligini keltirib chiqaradi. Bu asosan faqat hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi farqlarni kamaytirish uchun muhim bo‘lib, hududiy omillardan va har bir hududning raqobatdagi ustunligidan sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan strategiya asosida foydalangan holda erishish mumkin.

O‘zbekistonda nomarkazlashtirish boshlangan ma‘muriy islohotlarning yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat boshqaruv organlarining funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish va kamaytirish, davlat organlari va xo‘jalik boshqaruv organlari orasidagi vakolatlarni chegaralash, boshqaruv apparati sonini qisqartirish doirasida amalga oshirilmoqda. Shu sababli davlat boshqaruv samaradorligini oshirish vazifalari davlat funksiyalarini yanada aniqlashtirishni, shuningdek har bir aniq funksiya uchun aniq muassasa yoki uning funksional bo‘linmasi, aniq masalani yechishga alohida davlat xizmatchisi javobgarlikni oladigan shunday tizimni yaratishni talab qiladi.

Nomarkazlashtirish ko‘proq mahalliy hamjamiyatni jamaot dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishda, ma‘muriy tizimlar samaradorligini oshirish va kelgusi inson taraqqiyotining natijasi sifatida va bevosita jalb etuvchi dastak sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Rivojlanayotgan davlat sharoitida va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida nomarkazlashtirishning jamoat turmush sharoitiga ta‘siri bir xilda emas. U butun bir jismoniy, demografik omillar (hudud maydoni, aholi soni va uning etnik tarkibi, urbanizatsiya darajasi va b.) va institutsional asoslarning mavjudligiga bog‘liq.

Bugungi kunda aholiga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirish, davlat boshqaruvi funksiyalarini nomarkazlashtirish bilan jambarchas bog‘liqligi tan olingan. Mahalliy boshqaruv organlari va mahalliy hamjamiyat aholining hayotiy muammolarini samarali yechishga ko‘proq qodir, sababi ular markaziy organlarga nisbatan bu borada ko‘proq ma‘lumotlarga ega bo‘lishadi.

Mamlakatlar iqtisodiyotining xomashyo moslashgan tarmoqlariga bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi pasaydi, holbuki, xizmatlar sektorida katta o‘shish kuzatilmoqda. Bu o‘zgarishlarni ham firmalarning jug‘rofiy o‘rnidagi afzalliklar va raqobat sohasidagi afzalliklari o‘zgarganini ham, shuningdek, rivojlanib borayotgan globallashtirish va erkinlashish sharoitiga moslashayotganligini aks ettiradi. Mamlakatdagi hozirgi sharoitda keyinchalik innovatsion rivojlanishga o‘tish yo‘li bilan investitsion rivojlanishga urg‘u berish maqsadga muvofiqdir.

Hududiy organlar tomonidan raqobatbardoshlikni oshirish siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishda ko‘pincha raqobatdagi ustunlik yaratilayotgan hudud uchun asosiy xususiyatlar va imkoniyatlarning qanchalik to‘liq hisobga olinganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib qoladi.

Mahalliy darajada aholining tabiiy ko‘payishini, migratsiya jarayonlarini, mehnat resurslarini bandlik sohalari bo‘yicha taqsimlashni, sog‘liqni saqlash, xalq ta‘limi, madaniyatni boshqarishning, turli xizmatlar iste‘molini, uy-joy qurish va aholini joylashtirishni, qurilish, sanoat bazasini rivojlantirishni, suv va elektr ta‘minoti, turli kommunikatsiyalarni tartibga solishning ta‘sirchan mexanizmini yaratish mumkin. Mintaqalarda barcha bo‘g‘inlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar va bog‘liqliklarning o‘sishi, demografik va ijtimoiy

rivojlanish, aholini joylashtirish va infratuzilma tizimini shakllantirish, atrof-muhitni tartibga solish zarurati boshqarishning ma'lum jihatlarini markazlashtirishni taqozo etadi. Mamlakat darajasida hududiy boshqarishning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lmog'i kerak:

- hududlararo mehnat taqsimotini takomillashtirish orqali xalqaro mehnat taqsimotida samarali mavqeni egallash;

- mamlakatning muhim mintaqaviy nisbatlarini aniqlash, mamlakat ichida mahsulotlar va xizmatlar bilan o'zini o'zi maksimal ta'minlash, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, aholini joylashtirishning respublika miqyosidagi oqilona tizimini shakllantirish, qulay demografik sharoit yaratish va mintaqalararo boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish, tarmoqlar ixtisoslashuvi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, mintaqalararo ahamiyatga ega bo'lgan tabiatdan foydalanish muammolarini hal etish yo'li bilan ularni majmuali va mutanosib rivojlantirish va h.k.;

- mintaqalarni boshqarish mexanizmlari va iqtisodiy usullarini ishlab chiqish. Undan keyingi viloyat (Qoraqalpog'iston Respublikasi) darajasidagi asosiy vazifalar jumlasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarishni mutanosib majmuali rivojlanishini ta'minlash, xo'jalik yuritishni hududiy tashkil etishni takomillashtirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, aholini iste'mol tovarlari bilan ta'minlash, mavjud tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga erishish, tabiatni muxofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va tumanlararo ahamiyatga ega bo'lgan boshqa masalalarni yechish orqali mintaqa taraqqiyotini ta'minlash;

- barcha hududiy tizimlarni rivojlantirish uchun bir xil qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratilganligi;

- samarali qarorlar qabul qilish uchun sifat jihatdan yangi va ishonchli mintaqaviy statistik ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lishi lozim.

Mintaqaviy va tuman darajasidagi hokimiyatning iqtisodiy boshqaruvi amaliyotiga axborot-tahlil tizimini joriy etish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kuzatish va prognozlash vositalarini va statistik, sotsiologik va boshqa (shu jumladan ommaviy axborot

vositalari) ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish, taqdim etish va tarqatish texnologiyasini takomillashtirishga yordam beradi.

Mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatib borish va prognoz qilish bo'yicha keng qamrovli va yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun axborot-tahlil tizimini loyihalashtirish, keyinchalik natija va hisobotlarni respublikaning turli vazirlik va idoralari kesimida rasmiylashtirish (natijalarni jadvalli, matnli, grafik va kartografik shakllarda taqdim etadi).

Ushbu tizim yordamida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

a) tahliliy qism: mintaqalar, tarmoqlar va h.k. sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslama, dinamik, tarkibiy va boshqa turdagi tahlillarni o'tkazish; turli ma'lumotlarni (iqlimiy-geografik sharoitlar, demografiya, ekologiya va boshqalarni) o'z ichiga olgan viloyat va tumanlarning elektron pasportlarini shakllantirish; viloyat va tumanlarning joriy (choraklik, yarim yillik va yillik) vaqt davri uchun elektron shaklda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha tahliliy materiallarni shakllantirish; viloyat va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy holati tahlilini o'z ichiga olgan boshqa hisobot shakllarini shakllantirish.

b) empirik qism: viloyat va tumanlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning (turmush darajasi, investitsion muhit, hududiy maqsadli dasturlar va boshqalar) statistik monitoringini amalga oshirish; viloyat va tumanlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini baholash ko'rsatkichlari (indekslari) tizimini shakllantirish; viloyat tumanlari iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, hududiy va mahalliy ijro hokimiyati organlarida elektron hukumat (yagona davlat interaktiv xizmati portali) texnologiyalaridan foydalanish darajasi reytingini tayyorlash; mintaqaviy statistikaning xalqaro standartlari bilan uyg'unlashgan tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish yo'nalishlarini tadqiq etish va boshqalar (uni biron bir tuman misolida sinab ko'rish mumkin)¹³⁰.

d) prognoz qismi: ko'p variantli prognoz hisob-kitoblari muayyan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni baholashga qarab amalga oshiriladi; viloyat va tumanlarning ijtimoiy-

¹³⁰Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 1 майдаги “Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизimini жорий этиш тўғрисида” ПҚ-4702-сонли Қарори.

iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilishning retrospektiv ma'lumotlarini va ssenariy shartlarini kiritish va saqlash amalga oshiriladi; hisob-kitoblarni turli shakllarda, jumladan, grafik usullar, jadvallar va shu kabilardan foydalangan holda taqdim etish mumkin.

e) ma'muriy qism: kirish huquqlarini farqlash tizimi. Uning vositalari foydalanuvchilarni aniqlashga imkon beradi va foydalanuvchi tomonidan bajarilgan ish majburiyatlariga qarab, mutaxassislarning saqlangan ma'lumotlar va tizim obyektlariga kirishlari farqlanadi; viloyatlar va ularning tumanlar hokimliklari rahbarlari va mutaxassislarining ekspert-tahliliy va boshqaruv faoliyatini kompleks instrumental, axborot va dasturiy-texnologik qo'llab-quvvatlashni (materiallar samaradorligi va sifatini oshiradi) ta'minlaydi.

Mintaqaviy iqtisodiyot muayyan mintaqalar doirasida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishini belgilab beruvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar va hodisalarning yig'indisini tadqiq qiladi.

Mintaqaviy rivojlanish mintaqalar ichki ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining o'zgarishini bildiradi. Mintaqaviy prognozlash, odatda mintaqaviy dasturlash bilan uyg'unlashtiriladi, bu mintaqaviy farqlar va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kamaytirish va yumshatish maqsadida davlatning aralashuvi shakllaridan biridir. Gap bu yerda alohida tumanlarning maxsus rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish haqida ketadi (rejali iqtisodiyot belgilari bo'lgan mamlakatlarda ko'pincha milliy rejalar asosida: besh, yetti yillik va hokazolar). Real modellashtirish deganda mintaqaning mavjud yoki istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini optimallashtirish maqsadidagi ekonometrik (iqtisodiy-matematik) uslublar tushuniladi. Nihoyat, mintaqalashtirish (yoki rayonlashtirish) mintaqalar (tumanlar)ni taksonizatsiyalash jarayoni.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi hozirgi kunda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishga, iqtisodiyotni erkinlashtirishga, xususiy sektorni rivojlantirish ustuvorligiga, kichik tadbirkorlik va fermer xo'jaliklariga e'tiborni kuchaytirishga, bank-moliya tizimini takomillashtirishga, yangi soliq tizimini yaratishga va boshqalarga qaratilgan.

Tahlillar shundan dalolat berayaptiki, 2019-yilda iqtisodiyotda bandlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon (9,5%), Qashqadaryo

(9,0%), Samarqand (10,8), Farg‘ona (11,0%) va Toshkent (10,3%) viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Asosiy kapitalga kirgizilgan investitsiyalar bo‘yicha Qashqadaryo (9,0%) va Toshkent (10,3%) viloyatlari eng yuqori ko‘rsatkichga ega.

Bu strategiya, o‘z navbatida, mintaqa doirasida ishlab chiqilgan-dagina ko‘zda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish mumkin. Mintaqalarni majmuali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zaruriyatini quyidagilar taqozo etadi: aholining turmush darajasini ko‘tarish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish; jahon tajribasi va amaliyoti mintaqalardagi xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llarini belgilash; yirik investitsion loyihalarni asoslash, amalga oshirish va ularni mintaqaga jalb etish; mintaqa iqtisodiy tarkibini takomillashtirish va samarali shakllantirish masalalarini hal qilish; ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish va atrof-muhitni himoya qilish muammolarini yechish.

Shunday qilib mamlakat doirasida ishlab chiqilgan mintaqalarni majmuali rivojlantirish yagona strategiyasi har bir hududning o‘ziga xos tabiiy-iqtisodiy salohiyatiga to‘g‘ri keluvchi strategiyasiga asoslangan bo‘lishi darkor. Strategiyaning maqsadi mintaqaning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish asosida uning barqaror iqtisodiy o‘sishi va aholi turmush darajasini yuksalishiga erishishdir. Markaz va mintaqalar o‘zaro aloqalarini takomillashtirishning ijobiy samarasiga faqat ularning birgalikda faoliyat olib borish asosida erishish mumkin. Demak, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mintaqa xususiyatlariga mos siyosat va yondashuvlardan foydalanish, ayniqsa, majmuali ijtimoiy-iqtisodiy strategik rivojlantirishni ta‘minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi mintaqani boshqarishning ustuvor funksiyasi bo‘lib, u prognozlash – tahlil qilish faoliyatidan iborat, buning natijasi esa mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalari, dasturlari va prognozlaridir. A.G.Granbergning fikricha, mintaqalarni rivojlantirish prognozlari mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayonining barcha qirralarini qamrab olishi kerak (2-jadval).

Hududiy va mintaqaviy rivojlanish prognozlari tizimi¹³¹

Prognoz-lash davri	Iqtisodiyot darajasi va qismlari	Milliy iqtisodiyot	Milliy iqtisodiyotning hududiy qismi	Mintaqa
Uzoq muddatli		Strategiya	Kompleks prognoz rivojlanishning bosh sxemasi	Strategiya
O'rta muddatli		Dastur Prognoz	Kompleks prognoz Hududiy rivojlanish sxemasi	Prognoz
Qisqa muddatli		Prognoz	Mintaqaviy prognozlarning muvofiqlashtirilgan tizimi	Prognoz

Ularni ishlab chiqishda turli xil hujjatlardan foydalaniladi, masalan, aholi farovonligini oshirish strategiyasi, ijtimoiy infratuzilmani, fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va hokazolar. Ammo mintaqaviy prognozlash sohasidagi ahvolning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqani strategik boshqarishni ilmiy jihatdan ta'minlash muammolarini o'rganishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Bu mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning kamligida ko'zga tashlanadi. T.Axmedov va B. G'aniyevning ta'kidlashicha: "mintaqaviy rivojlanishni tahlil qilish va prognozlashning metodologik bazasi yo'q. Strategik vazifalarning bajarilishi (vaziyat va tendensiyalarni tahlil qilish, mintaqaviy rivojlanish strategiyasi va prognozlarni ishlab chiqish, indikativ ko'rsatkichlar monitoringini o'tkazish va hokazolar) unifikatsiyalangan zarur uslubiy baza bilan mahkamlanmagan"¹.

Mintaqani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va vazifalarini qo'yishdagi boshlang'ich hujjat konsepsiyadir. Umumlashtirilgan holda unda mintaqa, uning alohida tarkibiy-funksional qismlarining va muammoli hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'lami, sur'atlari, nisbatlari va asosiy yo'nalishlari belgilanadi, shuningdek ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi umumiy asoslanadi, hududiy va tarmoqlararo nomutanosibliklarni bartaraf etish usullari beriladi, aholi turmush darajasini oshirish asoslab beriladi.

¹³¹ Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М. Высшая школа экономики. 2001, - с.441

¹ Ганиев Б., Ахмедов Т. Актуальность региональной политики в Республике Узбекистан. Экономическое обозрение. №1, 2005, с.30.

Konsepsiya asosida tarmoqli va hududiy dasturlar, maqsadli kompleks hujjatlar ishlab chiqiladi, ularda batafsil va aniq asoslangan jihatlar, shuningdek muammoli masalalarning muvofiqlashtirishi konsepsiya darajasiga ko'tariladi. Konsepsiya shakli to'rtta blok va uchta teng darajali jihatlardan iborat.

Strategiyani to'g'ri tanlash resurslarni iqtisodiy rivojlanish salohiyatini ro'yobga chiqarishga va shu bilan bozor sharoitida mintaqalarning samarali rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi. Strategiyani ishlab chiqish jarayonida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish kontekstida hududlarning o'rni, roli va funksiyalari belgilanadi, o'zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida mintaqani rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlari belgilanadi, strategiyani yangi institutsional sharoitda amalga oshirishning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlari asoslanadi.

Hozirgi davrdagi dunyo muammolariga munosib javob beradigan mintaqaviy strategiyalarni ishlab chiqishga yondashuvning quyidagi xususiyatlari shakllantirilgan:

- sifat jihatidan yangi, global miqyosda rivojlanishning yagona vektoriga birlashtiradigan mintaqaviy strategiyani shakllantirish, unda innovatsion, motivatsion, iqtisodiy, tashkiliy, ma'muriy va boshqa tarkibiy qismlar mavjud;

- strategiya – bu qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat vakillari, yirik korxonalar, banklar, xo'jalik birlashmalari, xususiy sektor, universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari, mahalliy jamoalar va nodavlat tashkilotlar rahbariyatining sheriklik mahsulidir. Strategiyani shakllantirish jarayonining algoritmi.

Mintaqaviy strategiyani shakllantirish uchun axborot-tahliliy bazani tayyorlash uchun bir qator tahlil iyishlarni bajarish kerak. Ularning quyidagi turlari mavjud: mintaqaviy statistika ma'lumotlarini "an'anaviy" tahlil qilish; mintaqa rivojlanishining tarixiy tomonini tahlil qilish; mintaqadagi strategik rejalashtirishning retrospektivasi; tashqi ekspertlar tomonidan mintaqa baholarini tahlil qilish; mintaqa iqtisodiyotining mavjud tuzilishini tahlil qilish va baholash; yalpi hududiy mahsulotlar tarkibini tahlil qilish; hududlarning klaster tahlili.

SWOT-tahlil mintaqaning iqtisodiy rivojlanishining boshlang'ich shartlarini tahlil qilish va uning raqobatbardoshlik salohiyatini baholash.

Mintaqaning strategiyasini shakllantirish uchun bu mamlakatdagi va dunyodagi o‘rni to‘g‘risida, uning rivojlanishini belgilovchi faoliyat va harakatlar maqsadlari to‘g‘risida savolga javob berish, rivojlanishdagi asosiy qiymat va maqsadli ko‘rsatmalarni saqlagan holda vaziyat o‘zgarishiga javob bera olishdir.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasini «ijtimoiy kelishuv shartnomasi», hokimiyat, biznes va jamoatchilik o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tashkil etish vositasi sifatida qarash kerak. Shuning uchun mintaqa strategiyasida mintaqa rivojlanishining umumiy manfaatlariga muvofiqlashtirilgan va birlashtirilgan mintaqa aholisining turli guruhlarini manfaatlarini hisobga olinishi kerak.

Ustuvor yo‘nalishlar (“o‘shish omillarini” qo‘llab-quvvatlash). Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi rivojlanish ssenariylarini ajratish mumkin:

– mintaqaning ma‘muriy chegaralar bilan cheklangan, iqtisodiyotning mavjud tuzilishini saqlab qolgan va yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qiladigan bir’anaviy ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi, v aslida ilgari tanlangan yo‘nalish bo‘lib bo‘yicha rivojlanishning davomi bor bo‘lib, u hukmron tendensiyalar tomonidan belgilab qo‘yilgan;

– mavjud tendensiyalar va tendensiyalarning ma‘lum bir o‘zgarishiga asoslangan iqtisodiy, tashkiliy, ma‘muriy va boshqa tarkibiy qismlarni, motivatsion, ijtimoiy (shu jumladan, migratsiya, qishloq aholisining tashabbuskorligini hisobga olish) rivojlanishining sifat jihatidan yangi vektoriga birlashtiradigan innovatsion strategiya.

Hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishning asosiy mexanizmlari: iqtisodiy rivojlanishga klasterli yondashuv; iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shadigan mintaqaviy hokimiyat (uning faoliyati samaradorligini baholash mezonlari aniqlangan) va xususiy sektor uchun motivatsiya manbai; samarali ma‘muriy resurs (mintaqalarda ma‘muriy islohot, istiqbolli rivojlanishga yo‘naltirilgan va b.).

Mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi muammolarga qaratilishi kerak: strategiyani amalga oshirishda mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlarning vakolatlarini chegaralash (maqsadga yo‘naltirilgan indikatorlar tizimini yaratish, BMT barqoror rivojlanish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish va b.); mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy jarayonlarni bilvosita

boshqarish usullarini keng joriy etish, bu borada mahalliy boshqaruv organlarining vakolat va vazifalarini funksional jihatdan qayta ko‘rib chiqish, bir-birini takrorlaydigan hamda bozor tamoyillariga mos kelmaydigan funksiyalarni cheklash; dasturiy chora va tadbirlarni belgilash hamda bu boradagi axborot almashuvida mahalliy organlar faoliyatini vazirlik va mahkamalarda amal qilayotgan funksional vazifalar bilan muvofiqlashtirish (“yo‘l xaritasi” doirasida, maxsus zonalar, erkin iqtisodiy hududlar, maqsadli dasturlar va b.); mahalliy boshqaruvda katta hajmdagi axborot oqimini bir tizimga keltirish maqsadida ularni raqamlashtirish va turlariga qarab tasniflash (axborot-tahlil portalini yaratish, baholash reytinglarini joriy qilish, misol uchun hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini hisoblash va baholash bo‘yicha «BUSINESS INDICATOR» avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimini ishlab chiqish va b.¹³²); hududiy boshqaruv organlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish (davlat xizmatlari portali, axborot tizimlari, katta ma’lumotlar bilan ishlash va b.)

Iqtisodiy siyosat – bu mintaqaviy iqtisodiy mutanosibliklarni yumshatish zarurati, qator hollarda esa mintaqaviy iqtisodiy muvozanatga erishish bo‘lib, rivojlangan mamlakatlar uchun ham, BMT ning eng qoloq mamlakatlari ro‘yxatiga kiritilgan davlatlar uchun ham xos. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish mexanizmi yetarlicha mukammal ishlab chiqilgan hamda davlatning moliyaviy yordami, mahalliy assignatsiyalarni, jumladan xususiy kapitalni jalb qilish (sarmoyadorlarga turli xil imtiyozlar va to‘lovlar uchun uzaytirilgan muddatlar berish orqali), qonun qabul qilish tadbirlari, moliyaviy cheklovlar, jarima sanksiyalari va hokazolarni o‘z ichiga oladi.

Davlat hududiy siyosatining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasida katta farqlar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik; hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishda ularning tabiiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish salohiyati va obyektiv imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda differensial tarzda yondashish; birmuncha qoloq va noqulay sharoitlarga ega hududlarni umumdavlat va hududiy manfaatlardan

¹³²Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 8 январь “Республика хуудларида тadbirkorlikning ривожланганлик даражасига баҳо бериш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 8-сонли қарори.

kelib chiqqan holda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; aholining yashash sharoitidan qat’i nazar minimal ijtimoiy kafolatni ta’minlash; hududlarda xususiy sektorning rivojlanishiga ustuvorlik berilgani holda institutsional va tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish; atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va hududlarda faol ekologik siyosat olib borish; hududiy va hududlararo infratuzilma (transport, aloqa va boshqalar)ning rivojlanishi; nomarkazlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, ijtimoiy masalalarni yechishda o‘zini o‘zi boshqarish hamda mahalliy boshqaruv organlarining javobgarligi va rolini oshirish; hududlarda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda mahalliy budjetlar va budjetdan tashqari fondlarning rolini oshirish.

Hudud iqtisodiyotini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi funksiyalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim:

– raqobat muhitini shakllantirish yo‘li bilan hududdagi har bir xo‘jalik subyekti va mulkchilik shaklining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini amalga oshirish uchun teng iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

– o‘zini o‘zi tashkil qilishning bozor tizimi, xo‘jalikni yuritish jarayonini boshqarish va mos holdagi davlatning iqtisodiy tartibga solish tizimini shakllantirish yordamida takror ishlab chiqarish jarayonini tartibga keltirish;

– zamonaviy innovatsion asosda hudud salohiyatining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi muvozanat va mutanosiblikni ta’minlash;

– takror ishlab chiqarish barcha subyektlarining malakasi va ijodiy salohiyatini ruyobga chiqarish, marketing xizmati, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, sifat jihatdan yangi texnologiyalarni yaratishda xo‘jalik subyektlari uchun barqaror rag‘batlantirishlarni qo‘llab-quvvatlash;

– har bir xo‘jalik subyekti iqtisodiy ahloqining mosligi, shuningdek, bozor qonunlariga mos holda barcha iqtisodiy tizimlarning o‘z-o‘zini tartibga solishini ta’minlash.

Shunday qilib, fikrimizcha, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar zamonaviy bosqichining natijasi ko‘p jihatdan hududlarning bozorga xos bo‘lgan yangicha xo‘jalik yuritish shakllari va boshqarish usullarini anglab olishi hamda ularga moslashishiga bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, respublika boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan iqtisodiy islohotlarda hududiy

tafovutlar, bozor munosabatlarini rivojlantirish omillari va zaminlarini qay darajada hisobga olinganligi bilan ham tavsiflanadi.

2. Mintaqa darajasida raqobatdoshlikni oshirish jarayonini boshqarish tizimi. Mintaqalarni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalari. Mintaqalar raqobat ustunligi va uni aniqlash yo'llari. Mintaqalar raqobat ustunligining hudud ijtimoiy-iqtisodiy

Raqobat ustunliklaridan foydalangan xolda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari mavjud: energiya resurslari taqchilligi va energiya tejaydigan siyosatni amalga oshirish zaruriyati tufayli energiya omili eng muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun kimyo sanoati va rangli metallurgiyaning yuqori energiyali ishlab chiqarishlarida yoqilg'i iste'moli ishlab chiqarish xarajatlarida sezilarli ulushga ega;

suv omili qishloq xo'jaligi tarmoqlari, kimyo, selluloza-qog'oz, to'qimachilik sanoati, qora metallurgiya, elektr energetikasi korxonalarini joylashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi;

mehnat omili mashinasozlik, yengil sanoat, shuningdek, eng ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarni joylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

yer omili cheklanganligini hisobga olgan holda, uni shahar kommunikatsiyalari va muhandislik inshootlari uchun maydonlar ajratishda alohida ahamiyatga ega hamda intensiv qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning eng muhim resurslari qatoriga kiradi;

xomashyo omili materiallar hajmini, ya'ni xomashyo va asosiy materiallarni tayyor mahsulot birligiga sarflashni belgilaydi. Eng yuqori moddiy iste'mol ko'rsatkichlari bo'lgan tarmoqlar qora va rangli metallurgiya, sement, shakar va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi;

transport omili sanoat ishlab chiqarish xarajatlarida transport xarajatlarining ulushini pasayishi bilan bog'liq.

**Xorijiy mamlakatlar o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda
davlat-xususiy sheriklik ta’rifi¹³³**

Mamlakat/ tashkilot	Davlat-xususiy sheriklik ta’rifi
Jahon banki	DXSh – qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilish maqsadida va, yanada muhimi, budjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ommaviy va xususiy tomonlar o‘rtasida infratuzilma xizmatlari ko‘rsatish va ishlab chiqarish borasida tuziladigan bitim ¹³⁴
AQSH	DXSh – davlat va xususiy kompaniya o‘rtasida shartnoma shaklidagi kelishuv bo‘lib, xususiy kompaniyaga davlat mulkida kelishilgan shaklda ishtirok etish va an’anaviy ravishda ommaviy hukumat javobgarlik sohasida yotadigan funksiyalarni ijro etishga imkon beradi ¹³⁵
YeI mamlakat- lari	Umuman aytganda, DXSh deganda xizmatlar ko‘rsatish yoki infratuzilmani moliyalashtirish, qurilish, modernizatsiya qilish, boshqarish va ekspluatatsiya qilishni ta’minlash maqsadiga xizmat qiladigan biznes va hukumat o‘rtasidagi kooperatsiya shakllari tushuniladi ¹³⁶
Buyuk Britaniya	DXSh – mamlakat raqobatbardoshligini oshirish va zamonaviy yuqori sifatli kommunal xizmat ko‘rsatishni ta’minlash bo‘yicha hukumat strategiyasining asosiy elementi. Davlat-xususiy sheriklik o‘rtoqchilik shakllari va biznes-strukturalar keng doirasiga ega: xususiy moliyaviy tashabbuslardan qo‘shma korxonalar va konsessiyalar, autsorsing, davlatga tegishli bo‘lgan, tijorat faoliyatini amalga oshiradigan korxonalarda aksiyalar qismini sotib yuborishgacha ¹³⁷
Irlandiya	DXSh – aholiga ularni taqdim etish uchun javobgarlik davlat sektoriga yuklatiladigan ijtimoiy xarakterdagi xizmatlar ko‘rsatish yoki muayyan loyihani amalga oshirish maqsadida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik ¹³⁸

¹³³Ilmий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

¹³⁴Внешэкономбанк и проекты государственно-частного партнерства в России: Новые задачи и возможности в условиях экономического спада / Концептуальные предложения. – июль. – 2009. – М. – сайт Внешэкономбанка

¹³⁵Варнавский В. Г. Определение государственно-частного партнерства в экономической теории и практике // Институты и механизмы государственно-частного партнёрства. – С. 20-21.

¹³⁶Там же

¹³⁷Айрапетян М. С. Зарубежный опыт использования государственно-частного партнерства // Государственно-частное партнерство в России : [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.ppp-russia.ru/analitica/item-1.html>.

¹³⁸ Там же

Mintaqaning innovatsion salohiyatni aniqlashga nisbatan taklif etilayotgan metodik yondashuv uni baholash bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlarni o'z ichiga olgan o'zaro bog'langan xususiy metodikalar to'plamini o'z ichiga oladi (4-jadval).

Bular quyidagilar:

- tadqiqotning axborot bazasini loyihalashtirish va shakllantirish;
- mintaqalarning innovatsion salohiyatini chuqur sifatli tavsiflarini aks ettiruvchi yirik empirik indikatorlarni tuzish;
- tuzilgan empirik indikatorlar qiymati bo'yicha mintaqalarni ranjirovka qilish;
- mintaqalarni empirik indikatorlar yig'indisi bo'yicha tipologiyalashtirish.

4-jadval

Mintaqaning innovatsion salohiyatini baholash ko'rsatkichlari¹³⁹

№	Nomi	Mazmuni
1	Resursli ko'rsatkichlar	Innovatsion madaniyat, intellektual kapital holati, quvvati va zaxira (tadqiqotchilarning soni, ilmiy kadrlarni tayyorlash va h.k.) darajasini tavsiflovchi resursli indekslar. Mazkur guruhga kirgan mintaqaning intellektual kapitalini baholash indeksleri qiymati mintaqada mazkur ko'rsatkich qiymati bo'yicha sezilarli darajadagi tafovutni aks ettiradi.
2	Tarkibiy ko'rsatkichlar	Mintaqaning innovatsion tizim unsurlarining infratuzilma imkoniyatlarini va klasterli innovatsion salohiyatni tavsiflaydi. Ular mintaqaning ilimy-innovatsion tizimi (IIT)ning ichki tarkibini, mintaqada raqobatni rag'batlantiruvchi uning unsurlari, tashkiliy vositalar, moddiy-texnik va moliya resurslarini joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va holatini izohlaydi (tadqiqot va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soni, o'quv muassasalari soni, tadqiqot va ishlanmalar uchun xarajatlar va h.k.). Ushbu indekslar innovatsion salohiyati rivojlanishi bo'yicha mintaq muammolarining sabab-oqibatga oid jihatlarini ochib beradi.
3	Funksional ko'rsatkichlar	Mintaqalarning innovatsion soha rivojlanishining tayanch belgilarini aks ettiruvchi funksional indeks-

¹³⁹Муаллифлар томонидан илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

		larini shakllantiradi. Ular mintaqa innovatsion tizimining investitsion salohiyat resurslaridan foydalanishga nisbatan faoliyat ko'rsatish unumdorligi, samaradorligini (tadqiqot va ishlanmalarning natijaviyligini) tavsiflaydi. Ular innovatsion sohaning turli unsurlari o'rtasidagi aloqalarni aks ettiradi va ushbu unsurlarining o'zaro aloqa qilish qobiliyatini tavsiflaydi, bu esa mintaqaning innovatsion salohiyati samaradorligini baholashga imkon beradi.
4	Dinamik ko'rsatkichlar	Mintaqa innovatsion tizimining muhim parametrlari o'zgarishi tendensiyalari va dinamikasining yo'nalganligini tavsiflovchi dinamik indeksleri.

Raqobatbardoshlikni tahlil qilishning metodik yondashuvlari mintaqaviy iqtisodiy tizimlarni joylashtirish va rivojlantirishni tahlil qilish uchun vositalar to'plami sifatida tushuniladi, ularning eng muhimi quyidagilar:

indeks usuli har qanday vaqt uchun tahlil qilingan indikatorning haqiqiy darajasini yoki taqqoslashni ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlarga asoslangan – turli mintaqalar uchun tahlil qilingan indikatorning haqiqiy darajasi bir-biri bilan yoki ushbu indikatorning o'rtacha respublika qiymati bilan nisbati;

– koeffitsiyent usuli qiymatlari turli davrlarda, turli faoliyat turlari bo'yicha, shuningdek qabul qilingan normativ qiymatlar bilan taqqoslanishi mumkin bo'lgan muayyan nisbiy ko'rsatkichlar (koeffitsiyentlar) hisoblash bilan bog'liq;

– integral baholash usuli ishlab chiqarish va mahsulotdan foydalanishning tarmoqlararo balansida taqdim etilgan milliy hisoblar tizimining o'zgartirilgan ko'rsatkichlaridan foydalanish taklif etiladi;

– ishlab chiqarish, yalpi qo'shimcha qiymat, eksport, ishlab chiqarish tarmoqlari, va umuman iqtisodiyotni yakuniy natijalarini tahlil qilish uchun foydalanish mumkin.¹⁴⁰

Boshqa olimlar esa yanada samarali ko'rsatkichlardan foydalanishni taklif qilishadi:

– bir ish bilan band bo'lgan tovarlar va bozor xizmatlari ishlab chiqarish (mehnat unumdorligi);

¹⁴⁰Howison S. D., Kelly F. P., Wilmott P. Mathematical Models in Finance. Chapman and Hall, London – New York, 2004. - 192 p

- asosiy vositalarni qaytimi;
- yalpi foydaga nisbatan asosiy vositalarning rentabelligi;
- investitsiyalar (tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish birligiga) samaradorligi;
- asosiy vositalarni yangilash darajasi, ish bilan band bo‘lgan va bir kishi uchun fond qaytimi;
- o‘rtacha ish haqi;
- aholi sonida bandlarning ulushi.¹⁴¹

Shu bilan birga, mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning salohiyati va raqobatbardosh ustunliklarini integral baholashni amalga oshirish uchun yagona uslubiy yondashuv mavjud emas. Shuning uchun bunday ko‘rsatkichlarning yagona tizimini taklif qilish juda muhim, bu ularning hisob-kitoblarning to‘g‘riligini va natijaning ishonchliligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mavjud davlat statistika hisobotlari doirasida iqtisodiy tadqiqotlar, ayniqsa, mintaqaviy tadqiqotlarning barcha axborot ehtiyojlarini qondirish deyarli mumkin emas.

11.2. Mintaqalar iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirishda ixtisoslashuv darajasining ahamiyati

Jahon bozorlaridagi beqarorlik bilan bog‘liq salbiy jarayonlarni kuchaytirish sharoitida barqaror rivojlanishga o‘tish respublika, mintaq va xalqaro miqyosda mamlakat ichidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning yangi darajasini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bois bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning raqobatbardoshligi va barqarorligi masalalari milliy xo‘jalik nazariyasi va amaliyotida ustuvor o‘rin tutadi.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muvaffaqiyatli strategiyasi, birinchi navbatda, real sharoitlarni obyektiv baholash va iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini tushunish uchun yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga bog‘liq. Bozor sharoitida turli darajadagi iqtisodiy tizimlar faoliyatining majburiy omili sifatida raqobatbardoshlikni tan olishga asoslangan tizimli uslubiy yondashuv milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning yaxlit tizimini yara-

¹⁴¹ Wheaton W., Shishido H. Urban Concentration, Agglomeration Economies, and the Level of Economic Development // Economic Development and Cultural Change. 1981. – Vol. 30. – P. 17- 30.

tishga imkon beradi. O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro bog‘liqligi ortib borayotgan sharoitda yuzaga keladi. O‘zgaruvchan dunyo tartibi sharoitida bunday tendensiyalar milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardosh ustunliklaridan foydalanish muammolarini ilgari suradi.

Eng muvaffaqiyatli iqtisodiy tizimlar faoliyati bo‘yicha jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, yuqori raqobatbardoshlik va barqaror iqtisodiy o‘sishni, birinchi navbatda, yangi texnologiyalarning tarqalishini rag‘batlantiradigan omillar ta‘minlaydi. Bizning nazarimizda, zamonaviy raqobat ustunliklari ishlab chiqarish, boshqarish, tovarlarni sotishni tashkil etish texnologiyalarining afzalliklari hisobiga deyarli to‘liq ta‘minlanayotganligini hisobga olib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nazariyasi va zamonaviy raqamli iqtisodiyotni rivojlanish tushunchalaridan kompleks foydalanishda hududlarning raqobatbardoshligini muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin.

Jahon bozorida raqobatning kuchayishi (globallashuv oqibatlarini hisobga olgan holda) iqtisodiy fanlarga bozorlarining globallashuvi sharoitida raqobatning zamonaviy shakllari, turlari va usullarini rivojlanishi mintaqalar o‘rtasidagi tafovutlarning shakllanishiga olib keldi.¹⁴²

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonunlari va tamoyillariga vositachilik qilishga ta‘sir qiluvchi aniq sabablar va shart-sharoitlarni anglatadi.

Joylashtirish eng qiyin bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlarida bir vaqtning o‘zida turli omillar mavjud:

– energiya resurslari taqchilligi va energiya tejaydigan siyosatni amalga oshirish zaruriyati tufayli energiya omili eng muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun kimyo sanoati va rangli metallurgiyaning yuqori energiyali ishlab chiqarishlarida yoqilg‘i iste‘moli ishlab chiqarish xarajatlarida sezilarli ulushga ega;

– suv omili qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, kimyo, selluloza-qog‘oz, to‘qimachilik sanoati, qora metallurgiya, elektr energetikasi korxonalarini joylashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi;

¹⁴²МахмудоваР.,СадыковА. идр. Подходы к оценке территориальной дифференциации социально-экономического развития Узбекистана.–Т.: ПРООН,2010,с.11.

– mehnat omili mashinasozlik, yengil sanoat, shuningdek, eng ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarni joylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

– yer omili cheklanganligini hisobga olgan holda, uni shahar kommunikatsiyalari va muhandislik inshootlari uchun maydonlar ajratishda alohida ahamiyatga ega hamda intensiv qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning eng muhim resurslari qatoriga kiradi;

– xomashyo omili materiallar hajmini, ya‘ni xomashyo va asosiy materiallarni tayyor mahsulot birligiga sarflashni belgilaydi. Eng yuqori moddiy iste‘mol ko‘rsatkichlari bo‘lgan tarmoqlar qora va rangli metallurgiya, sement, shakar va boshqa sohalarni o‘z ichiga oladi;

– transport omili sanoat ishlab chiqarish xarajatlarida transport xarajatlarining ulushini pasayishi bilan bog‘liq.

Qishloq xo‘jaligida tuproq-iqlim sharoiti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishni joylashtirishdagi o‘zgarishlar, odatda, yirik qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan zonalar shakllanadi.

Shu bilan birga, mehnat resurslari mavjudligi, qo‘shni mintaqada iste‘mol talablarning zichligi, transport sharoitlari va tez buziladigan mahsulotlarni yetkazib berishning chegara masofalarini hisobga olgan holda, har birida yerdan foydalanish va tuproq unumdorligini maksimal darajada oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va joylashuvini yaxshilash vazifasi paydo bo‘ladi. Mahsulotlarni iste‘molchiga ishlab chiqarish va tashish uchun berilgan xarajatlarning minimal miqdorini aniqlashda qiyosiy iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarida turli omillar aks ettiriladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishni nazariy asoslashda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonunlari va tamoyillaridan tashqari, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini aniq joylashtirishga, turli darajadagi iqtisodiy tumanlar, viloyatlar, erkin iqtisodiy zonalar, klasterlar va boshqa mintaqaviy komplekslarni shakllantirishga ta‘sir qiluvchi ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni belgilovchi turli omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

I.A Yakubovning fikriga ko‘ra, “...tarkibiy siyosat, birinchi navbatda, ijtimoiy muammolarni (oqilona ish bilan ta‘minlash, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, iste‘mol bozorini) hal etishga, mintaqalarda iqtisodiyotning bir tomonlama xom ashyo yo‘nalishini

bartaraf etishga, mahalliy resurslar negizida mahalliyashtirishni chuqurlashtirishga qaratilgan”.¹⁴³

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari xo‘jalik obyektini, obyektlar guruhini, tarmoqni yoki respublika iqtisodiyotining muayyan mintaqaiy tuzilmasini joylashtirishni eng oqilona tanlash uchun shart-sharoitlar majmui hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta’sir qiluvchi omillarning barcha xilma-xilligi tegishli guruhlarga qo‘shilishi mumkin:

– iqtisodiy omillar, tabiiy omillar, jumladan, ayrim tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirish uchun alohida tabiiy sharoitlar va resurslarni iqtisodiy baholashni o‘z ichiga oladi;

– aholi punktlari tizimini tushunadigan demografik omillar, mamlakatning ayrim mintaqalarini mehnat resurslari bilan ta’minlash.

YuNIDO xalqaro sanoat hamkorlik markazi tomonidan taklif etilgan ishlab chiqarish omillarini tasniflashning xalqaro tajribasi va ularning o‘zaro hamkorligi.¹⁴⁴

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillarini tasniflash ikki guruh asosida amalga oshirilishi mumkin iqtisodiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy.

Mintaqaiy sanoat siyosati rivojlanish uchun strategik rejalashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, marketing usullari, mintaqadagi biznesning turli shakllari uchun yangi ishlab chiqarish va ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozlarni shakllantirish usullaridan foydalaniladi (5-jadval).

Bugungi kunda innovatsion rivojlanish omili ishlab chiqarishni joylashtirishda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Bu fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, mehnat predmetlarini takomillashtirish, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va hududlarni innovatsion salohiyatidan samarali foydalanishni talab qiladi.

¹⁴³ Якубов И.А. Формирование эффективной структуры экономики регионов Республики Узбекистан в условиях углублений рыночных реформ. Автореф. дисс. к.э.н. -Т.: 2005. 23 с.

¹⁴⁴UNIDO United Nations Industrial Development Organization - Организация Объединенных Наций по промышленному развитию

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillarini tasniflash

№	Nomi	Mazmuni
1	Transport omili	Mineral xomashyo, yoqilg'i-energetika, tabiiy-iqlim sharoitlari va b.
2	Iqtisodiy-geografik omillar	Iqtisodiyotning tarkibiga, ishlab chiqarish xarajatlari, ixtisoslashuv darajasiga va boshqa omillarga ta'sir ko'rsatadi.
3	Ijimoiy-iqtisodiy omillar	Rivojlanish strategiyasi, texnologiya, investitsiya, innovatsiya, demografiya (mehnat resurslari), ekologiya, infratuzilma va boshqalarga ta'sir ko'rsatadi.
4	Xomashyo omillari	Ishlab chiqarish jarayonlariga maxsus xomashyo resurslarini jalb qilish, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirishga ta'sir qiladi.
5	Strategik omillar	Milliy iqtisodiyotni o'zoq muddatli prognozlarini ishlab chiqish va hududlarni raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini aniqlashga yordam beradi.
6	Texnologik omillar	Yangi yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish va ilmiy ta'lim majmuasini rivojlantirish imkoniyatini beradi.
7	Investitsiya omillari	Jozibali investitsion iqlimni yaratish, investitsiya manbalarini kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.
8	Innovatsiya omillari	Hududiy innovatsiya tizimini rivojlantirish, ilmtalab korxonalarini joylashtirish innovatsiyalarni tijoratlash-tirish institutlarini shakllantirishga yordam beradi.
9	Ekologik omillar	Ekologik vaziyat va ekologik xafsizlik talablari asosida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.
10	Aglomeratsiya omillari	Katta va o'rta shaharlarni rivojlantirish, urbanizatsiya masalalari bilan bog'liq holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash.

Mazkur muammolar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni (2015-yil 18-noyabr), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-3151-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-sonli farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3416-sonli Farmonida va boshqalarda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlay oladigan fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda aynan muhim ahamiyat kasb etadi, innovatsion salohiyat ham mamlakat, ham uning alohida mintaqalari-ning umumiy salohiyatida eng muhim unsuri hisoblanadi. Innovatsion salohiyatning rivojlanish darajasi butun iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, mamlakat, mintaqalar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tubdan yangi texnologiya va mahsulot (xizmat)larni yaratishga tayyor ekanligidan dalolat beradi.

Mintaqadagi ishlab chiqarish samaradorligiga va shunga mos ravishda ishlab chiqarish kuchlarining joylashishiga ta'sir qiluvchi omillar mintaqaning raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini o'z ichiga oladi. Raqobatbardoshlikni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar sifatida sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, investitsiyalar oqimi, ilmiy-texnologik taraqqiyot, mintaqaviy iqtisodiyot tuzilmasining texnologik taraqqiyot darajasiga muvofiqligi, mintaqqa iqtisodiyotining boshqaruvchanlik darajasi, mintaqqa mahsulotlariga ichki va tashqi talab kiradi.

Raqobatbardoshlik turli darajalarda shakllanadi: mintaqaga kiradigan investitsiya va resurslar darajasi, mintaqaning boshqaruv darajasi, eksport salohiyati, mintaqaviy jarayonlarni boshqarish darajasi va b.

6-jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hududlar reytingi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona va Andijon viloyatlarida kuzatilmoqda, shu bilan birgalikda sanoat mahsulotlarini aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha Navoiy va Toshkent viloyatlari yuqori o'rinlarni egallamoqdalar.

Mintaqalarning to'g'ridan to'g'ri tashqi bozorga chiqishi uchun: eksportga taklif qilinadigan tovarlarga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida bozorlarni kompleks o'rganish: raqobatning keskinligini

baholash; narx o'zgarishining darajasi va tendensiyalari va boshqalarga e'tibor berilishi kerak. Mintaqani xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishdan iqtisodiy foyda olish uchun zarur eksport salohiyatiga ega bo'lishi va ularni tashqi bozorda bevosita yoki bilvosita amalga oshirishi kerak. Bunday mahsulotlar eksportining o'sishi valuta tushumini ko'paytirish, import imkoniyatlarini cheklash va investitsiya mablag'lari hajmini kengaytirish imkonini beradi. Janubiy Koreyaning misoli, mamlakat o'zining qiyosiy ustunliklaridan foydalanishga va xalqaro mehnat taqsimotida "o'z o'rnini" topishga muvaffaq bo'ldi.¹⁴⁵

Hududlarni raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda quyidagi tahlil usullaridan foydalaniladi:

6-jadval

**Ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajasi bo'yicha mintaqalar reytingi
(2018-y.)¹⁴⁶**

Kursatkich	Respublika Qoraqalpog'istan	Andijon	Buxoro	Jizax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent viloyati	Farg'ona	Xorazm
Aholi soni	5	11	6	3	12	2	9	14	7	1	10	13	4
Aholi jon boshiga XYaM	2	11	10	5	7	12	2	6	4	9	13	8	3
Yalpi ichki mahsulotning (hududiy) mahsulotning hajmi	11	4	7	12	3	6	8	2	9	13	1	5	10
Aholi jon boshiga eksport hajmi	3	11	9	8	5	12	1	2	6	10	13	7	4
Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kirgizilgan investitsiyalar	5	12	3	9	2	1	7	10	8	6	4	13	11
Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	5	3	6	11	7	1	12	9	13	4	2	8	10
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi	9	5	3	10	13	1	12	4	11	8	2	6	7
OO'Yu tomonidan chiqarilgan mutaxassislar soni	11	9	10	4	6	5	7	13	2	1	8	12	3
Ballar soni	51	66	60	62	55	40	58	60	60	52	53	72	52
Hududlar reytingi	9	2	4	3	6	10	5	4	4	8	7	1	8

¹⁴⁵ Мелибаева Г.А., Чон Дэ Ван, Муминов Н.Г. Внешнеэкономические связи Республики Корея.Т.:ТашГИВ,2011,с.164.

¹⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра ҳисоб-китоблари.

1. Vaziyatli tahlili. Mintaqaviy strategiyani shakllantirish uchun axborot-tahliliy bazani tayyorlash uchun bir qator tahliliy ishlarni olib borish zarur. Quyidagi turlari mavjud:

- “an’anaviy” mintaqaviy statistika tahlili;
- mintaqa taraqqiyotining tarixiy aspektini tahlil qilish;
- mintaqada strategik rejalashtirishning retrospektivasi;
- mintaqaning tashqi ekspertlar tomonidan baholanish tahlili;
- viloyat iqtisodiyotining hozirgi tarkibini tahlil qilish va baholash;
- yalpi mintaqaviy mahsulot tarkibi tahlili;
- SWOT mintaqani iqtisodiy rivojlantirishning boshlang‘ich shart-sharoitlarini tahlil qilish va uning raqobat salohiyatini baholash.

2. Strategiyani ishlab chiqishning maqsad va tamoyillari. Mintaqa strategiyasini shakllantirish uchun mamlakat va dunyodagi o‘z o‘rni, uning rivojlanishini belgilovchi faoliyat va harakatlar maqsadlari haqidagi savolga javob berish, rivojlanishning asosiy qadriyat-lari va maqsadlarini saqlab qolgan holda vaziyatdagi o‘zgarishlarga javob bera olishdir.

Mintaqaning rivojlanish strategiyasi, hukumat, biznes va jamoatchilik o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tashkil etish vositasi sifatida qaralishi lozim. Shuning uchun mintaqa strategiyasi mintaqa aholisi-ning turli guruhlari manfaatlarini hisobga olishi kerak, ular mintaqaviy rivojlanishning umumiy manfaatlariga muvofiqlashtiriladi va integratsiyalashadi.

3. Ustuvor yo‘nalishlar (“o‘shish nuqtalarini” qo‘llab-quvvatlash). Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning zamonaviy bosqichi xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi rivojlanish ssenariylarini aniqlash mumkin:

– mintaqaning ma‘muriy chegaralari bilan cheklangan an’anaviy ijtimoiy-iqtisodiy strategiya, iqtisodiyotning mavjud tuzilmasini saqlab qolish va yetakchi tarmoqlarni yangilash, asosida, ilgari tanlangan yo‘nalishdagi rivojlanishning davomi bo‘lib, mavjud tendensiyalar saqlab qolish;

– innovatsion strategiya, motivatsiyani rivojlantirish asosida sifat jihatidan yangi rivojlanish yo‘nalishlarini tanlash, ijtimoiy (migratsiya, shu jumladan, qishloq joylarda tashabbuskor aholi va b.), iqtisodiy, tashkiliy, ma‘muriy va boshqa tizimlarda ma‘lum bir o‘zgarishlarga asoslangan yangi tendensiyalarni shakllantirish. Innovatsion rivoj-

lanish strategiyasini ishlab chiqishning asosiy mexanizmlari sifatida: iqtisodiy rivojlanishgini klaster mehanizmi, mintaqaviy resurs imkoniyatlaridan samarali foydalanish va xususiy sektorni iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasini oshirish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish (mintaqalarda ma'muriy islohotlarni rivojlantirishga qaratilgan).

D. Sepikning fikricha, quyidagi omillar mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligi o'sishining harakatlantiruvchi kuchlari qatoriga kiradi:

- klasterlar;
- inson kapitali;
- mavjud biznes va tarmoqlar;
- mintaqaviy innovatsiya tizimi;
- boshqaruv va institutsional salohiyat;
- sanoat tuzilmasi va korxonalar turi;
- infratuzilma;
- mintaqalar tipologiyasi va korxonalar integratsiyasi darajasi;
- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- geografik joylashuvi;
- investitsion jozibadorlik.¹⁴⁷

Mintaqaning raqobatbardoshligi mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish dasturlarini amalga oshirish va ishlab chiqarishni mintaqaviy tashkil etish uchun uning iqtisodiy jozibadorligini oshirish bilan erishish mumkin. Investitsion jozibadorlik mintaqaning ijobiy investitsion muhitiga asoslangan bo'lib, uning bahosi ichki mintaqaviy mahsulotning dinamikasini (ushbu baholashning asosiy ko'rsatkichi ishlab chiqarish rentabelligi) yoki iqtisodiy, bozor muhitining yetukligi, moliyaviy, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, tashkiliy-huquqiy masalalarni hal qilish institutlarini rivojlanishi bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni nazariy asoslashda joylashtirish qonunlari va tamoyillari bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni belgilovchi va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini aniq joylashtirishga, turli darajadagi iqtisodiy tumanlarning mintaqaviy komplekslarini shakllantirishga ta'sir qiluvchi turli omillar ham muhim rol o'ynaydi.

Hududiy munosabatlarni va ularning o'zgarishini baholash usullari va vositalarini ta'minlovchi aniq metodologik yondashuv zarur.

¹⁴⁷Д.Сэпик. Конкурентоспособность регионов: некоторые аспекты. –М.:РЕЦЭП.2005. с.92.

Mahalliy amaliyotda qo‘llanilayotgan mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish holati va dinamikasini tahlil qilish uchun metodik vositalar mukammal emas. Buning natijasi milliy iqtisodiyotning zamonaviy makonda, ayniqsa, mamlakat ichkarisida ham, dunyoda ham zamonaviy o‘zgarishlar asosida rivojlanish holati va tendensiyalari haqida aniq tasavvurga ega emas edi.

Milliy iqtisodiyotning strtaegik rivojlanishini tahlil qilishning metodik yondashuvlari mintaqaviy iqtisodiy tizimlarni joylashtirish va rivojlantirishni tahlil qilish uchun vositalar to‘plami sifatida tushuniladi, ularning eng muhimi quyidagilar:

- indeks usulihar qanday vaqt uchun tahlil qilingan indikatorning haqiqiy darajasini yoki taqqoslashni ifodalovchi nisbiy ko‘rsatkichlarga asoslangan – turli mintaqalar uchun tahlil qilingan indikatorning haqiqiy darajasi bir-biri bilan yoki ushbu indikatorning o‘rtacha respublika qiymati bilan nisbati;

- koeffitsiyent usuli qiymatlari turli davrlarda, turli faoliyat turlari bo‘yicha, shuningdek qabul qilingan normativ qiymatlar bilan taqqoslanishi mumkin bo‘lgan muayyan nisbiy ko‘rsatkichlar (koeffitsiyentlar) hisoblash bilan bog‘liq;

- integral baholash usuli ishlab chiqarish va mahsulotdan foydalanishning tarmoqlararo balansida taqdim etilgan milliy hisoblar tizimining o‘zgartirilgan ko‘rsatkichlaridan foydalanish taklif etiladi:

- ishlab chiqarish, yalpi qo‘shimcha qiymat, eksport, ishlab chiqarish tarmoqlari, va umuman iqtisodiyotni yakuniy natijalarini tahlil qilish uchun foydalanish mumkin.¹⁴⁸

Boshqa olimlar esa yanada samarali ko‘rsatkichlardan foydalanishni taklif qilishadi:

- bir ish bilan band bo‘lgan tovarlar va bozor xizmatlari ishlab chiqarish (mehnat unumdorligi);

- asosiy vositalarning qaytimi;

- yalpi foydaga nisbatan asosiy vositalarning rentabelligi;

- investitsiyalar (tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish birligiga) samaradorligi;

- asosiy vositalarni yangilash darajasi, ish bilan band bo‘lgan va bir kishi uchun fond qaytimi;

¹⁴⁸Howison S. D., Kelly F. P., Wilmott P. *Mathematical Models in Finance*. Chapman and Hall, London – New York, 2004. - 192 p

- o‘rtacha ish haqi;
- aholi sonida bandlarning ulushi.¹⁴⁹

Shu bilan birga, mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning salohiyati va raqobatbardosh ustunliklarini integral baholashni amalga oshirish uchun yagona uslubiy yondashuv mavjud emas. Shuning uchun bunday ko‘rsatkichlarning yagona tizimini taklif qilish juda muhim, bu ularning hisob-kitoblarning to‘g‘riligini va natijaning ishonchliligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mavjud davlat statistika hisobotlari doirasida iqtisodiy tadqiqotlar, ayniqsa, mintaqaviy tadqiqotlarning barcha axborot ehtiyojlarini qondirish deyarli mumkin emas.

Ekspertlarning fikriga ko‘ra, mintaqalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ixtisoslashuvi va mintaqalarda ayrim faoliyat turlarining konsentratsiyasi yagona jarayonning ikki tomonini tashkil etadi.¹⁵⁰

Shunday qilib, har bir mintaqa mamlakatning iqtisodiy mintaqa doirasida o‘z ixtisoslashuviga ega bo‘lib, u nafaqat o‘z ehtiyojlarini qondiradigan, balki mamlakatning boshqa mintaqalarining ehtiyojlarini qondiradigan va hatto boshqa mamlakatlarga mahsulot eksport qiladigan ayrim hollarda ishlab chiqarishning o‘ziga xos turlarini jamlaydi.¹⁵¹ Mintaqaning ixtisoslashuvi tarmoqlari orasida mavjud bo‘lgan yoki yangi ishlab chiqarishlarni shakllantirish orqali iqtisodiyotning tarkibini yanada takomillashtirish nuqtai nazaridan farqlanadi.

Umuman olganda, mintaqaning iqtisodiy ixtisoslashuvini baholashda quyidagi uslubiy yondashuvlarni ajratish mumkin:

- muayyan mintaqa yoki mintaqadagi (masalan, YaHM tuzilishi bo‘yicha) sanoat ishlab chiqarishining konsentratsiyasi yoki kamligi darajasini aks ettiradigan geografik konsentratsiyani aniqlash usullari. Konsentratsiya ko‘rsatkichlari mamlakat, mintaqa, turar joy Herfendal-Xirshman indeksi bo‘yicha aniqlanishi mumkin;

- faoliyat turlarini mintaqa yoki mintaqaga (masalan, ish bilan ta’minlash mexnizmi) nisbatan konsentratsiyasini hisobga olgan holda

¹⁴⁹ Wheaton W., Shishido H. Urban Concentration, Agglomeration Economies, and the Level of Economic Development // Economic Development and Cultural Change. 1981. – Vol. 30. – P. 17-30.

¹⁵⁰ Aiginger K., Rossi-Hansberg E. Specialization and Concentration: a Note on Theory and Evidence // Empirica. – 2006. – Vol. 33. – P. 255-266.

¹⁵¹ Васильев А.Н. О некоторых показателях специализации региона //Вестник ТГУЭУ. – № 3. – 2007. – С. 78-84.

mintaqada ishlab chiqarishning ayrim turlari hukmron bo'lgan yoki sanoat ishlab chiqarishi teng ravishda diversifikatsiya qilingan vaziyatni aniqlash usullari.

Ixtisoslashuvni aniqlash ko'rsatkichlari muammoning mintaqaiy jihatlariga bog'liq va faoliyat turlarini butun mamlakat uchun indikatorlariga nisbatan taqsimlashni ifodalaydi (Krugman farqlar indeksi, ballar indeksi va boshqalar). Mintaqaning ixtisoslashuvini baholashning xorijiy yondashuvlarini tahlil qilish va takomillashtirish, shuningdek, indeks va koeffitsiyent usullardan foydalangan holda, mintaqaning sanoat ixtisoslashuvi va ishlab chiqarish konsentratsiyasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi 11.7-jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini aniqlash, uning differentsiatsiyasi va raqobatbardosh afzalliklari, mintaqalarning tarmoq ixtisoslashuvi va ishlab chiqarishni konsentratsiyasini aniqlashga qaratilgan mintaqaning iqtisodiy profilini baholash usullarini tasniflashning yondashuvi taqdim etiladi. Tavsiya etilgan yondashuv mamlakatning barcha mintaqalarida vaziyatni sifatli tahlil qilish, shuningdek, davlat va mintaqaviy darajada iqtisodiy siyosatning yetarli choralari ishlab chiqish uchun eng samarali usullarni tanlash imkonini beradi.

Mintaqaning profilini iqtisodiy baholashning metodik vositalarini ishlab chiqish jarayonida biz inkluziv rivojlanish va "samarali ixtisoslik" tamoyillarining asosiy qoidalariga rioya qildik, bu esa mintaqaning noyob raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan kompleks, obyektiv va rasmiylashtirilgan indikatorli tizimlarni yaratishga imkon berdi va "o'sish nuqtalari"ni aniqlashga imkon yaratdi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni nazariy asoslashda joylashtirish qonunlari va tamoyillari bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni belgilovchi va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini aniq joylashtirishga, turli darajadagi iqtisodiy tumanlarning mintaqaiy komplekslarini shakllantirishga ta'sir qiluvchi turli omillar ham muhim rol o'ynaydi.

Mintaqa sanoat ixtisoslashuvi va sanoat ishlab chiqarishining konsentratsiyasini tahlil qilish uchun uslubiy vositalar¹⁵²

№	Indikator	Formula	Shartli belgilari
1	Xerfendal Xirshman indeksi	$R_{HHI} = (K_{BPI})^2$	RHHI – hududiy konsentratsiya indeksi KVRP – hududiy yalpi mahsulot koeffitsiyenti
2	Xerfendal-Xirshmanning (HHI) agregatsiya qilingan indeksi	$HHI = \sum_{j=1}^m (K_{BPI})^2$	HHI – agregatsiya qilingan konsentratsiya indeksi M - hududlar miqdori j=1- indeksning eng yuqori ko'rsatkichi
Hududlarda tarmoq ixtisoslashuvi			
3	Krugmanning modifikatsiyalashgan koeffitsiyenti (KDI)	$KDI = O_p / O_c$	OR-tarmoqning hududda ishlab chiqargan mahsulot hajmi OS-tarmoqning mamlakatda ishlab chiqargan mahsulot hajmi

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoatni va tashqi savdo tuzilmasini yanada diversifikatsiya qilish, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida ijobiy o'zgarishlarga erishilgan. Yaxshi ma'lumki, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida tashqi savdo balansini baholashda ochiq va yopiq iqtisodiyot deb nomlanuvchi usullardan foydalanilmoqda. Ushbu uslub milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga qay darajada bog'liqligini ko'rsatuvchi indikator hisoblanib, yopiq iqtisodiyot bilan bog'liq tashqi iqtisodiy faoliyatda, eksportning YaIMdagi ulushi 10%dan kam bo'ladi, aksincha, ochiq iqtisodiyotda esa eksportning YaIMdagi ulushi 35%dan ortiq bo'ladi¹⁵³.

Mazkur baholash tizimga tayangan xolda belgilash mumkinki, YaIM ko'rsatkichi 2008-yilga nisbatan 2018-yilda 20 mlrd. AQSH doll. eksport ko'rsatkichi 1,020 mlrd. AQSH doll. o'sgan, umumiy polda eksport kvotasining ko'rsatkichlari dinamikasiga ko'ra, milliy

¹⁵² Белов А. В. К вопросу о пространственном размещении факторов производства в современной России. //Пространственная Экономика. 2012. – С.9 -28., Васильев А.Н. О некоторых показателях специализации региона //Вестник ТГЭУ. – № 3. – 2007. – С. 78-84., Борисов В. Н. Микроэкономика: В 5-х т. / Общ. ред. Чеплянского Ю. В. — СПб.: Экономическая школа, 2015. — Т. 7, с. 1168—1169.

¹⁵³ Самородова Е.М., Маслова О.Л. Эволюция социально-экономических систем: от автаркии к открытой экономике - Вестник Орел ГИЭТ, 2011, №1 (15) - С. 81.

iqtisodiyotimizda kombinatsiyalashgan ochiq va yopiq iqtisodiyot bilan bog‘liq tashqi savdo siyosati olib borilganligi kuzatiladi.

9-jadval

**O‘zbekistonda eksporti va savdo balansining o‘zgarish dinamikasi
(mlrd. AQSH dollarida)¹⁵⁴**

	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
YaIM	29,7	33,8	39,5	46,2	52,1	57,7	63,1	66,9	67,4	49,7	49,7
Eksport	8,6	5,8	6,7	6,9	6,5	8,6	7,2	6,4	7,6	8,7	9,6
Tashqi savdo balansining saldosi	-0,5	-2,3	-1,5	-2,8	-4,4	-4,3	-6,4	-4,2	-2,1	-3,3	-7,5

Tayanch so‘zlar: raqobat, hududiy raqobatdoshlik, raqobat ustunliklari, mintaqaviy boshqarish, nomarkazlashtirish, eksport, savdo balansi, iqtisodiy siyosat, tashqi iqtisodiy aloqalar, ixtisoslashuv, saloxiyat, reyting, konsentratsiya.

Nazorat savollari

1. Hududiy raqobatdoshlik deganda nima tushuniladi?
2. Mintaqaviy boshqarish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. Tashqi savdo balansiga baho bering.
4. Raqobat ustunliklari deganda nimani tushunasiz?
5. Ixtisoslashuv tushunchasi ta’rifini qanday baholaysiz?
6. Tashqi iqtisodiy aloqalar tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari qatoriga nimalar kiradi?
7. Hududiy eksport tarkibiga nimalar kiradi?
8. Iqtisodiy siyosatni hududiy rivojlanishga ta’sirini qanday baholaysiz?
9. O‘zbekistonda “hududiy o‘sish nuqtalarini” shakllantirish istiqbollari...
10. Nomarkazlashtirish deganda nima tushuniladi?


¹⁵⁴ **Манбаа:** <https://unctadstat.unctad.org> ва Жаҳон савдо марказининг расмий сайти URL: <https://trademap.org>.

XII BOB. MINTAQAVIY STRATEGIK RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA KLASTER MEXANIZMINING AHAMIYATI

12.1. Mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishida klaster mexanizmining ahamiyati.

12.2. Agroklasterni rivojlantirish hududlarining eksport salohiyatiga ta'siri.

Postindustrial jamiyat qaror topayotgan sharoitda iqtisodiyotning globallasuvi va axborotlashuvi xo'jalik tuzilmalarida jiddiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Industrial iqtisodiyotda ijtimoiy mehnat taqsimoti, mahsulot va texnologik ixtisoslashuvni yanada chuqurlashtirish iqtisodiy o'sishning bosh omili hisoblanadi. Hozirgi sharoitda firmalararo va tarmoqlararo ilmiy ishlab chiqarish kooperatsiyasi, baynalmillatlashish va integratsiya birinchi darajali ahamiyat kasb etib bormoqda. Tayyor mahsulotlar bilan tashqi savdo yakuniy mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xalqaro kooperatsiyalashish bilan yanada to'ldiriladi va almashinadi. 1-rasmda klasterning milliy iqtisodiyotning turli jihatlarini bilan o'zaro bog'liqligi keltiriladi.



1-rasm. Klasterlarning mamlakatning umumiy iqtisodiy siyosatiga ta'siri¹⁵⁵

¹⁵⁵Манба: Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

Tarmoqlararo iqtisodiyot tizimining tashkiliy-iqtisodiy shakllarini yaratishga klasterli yondashuv nazariyasi va amaliyoti mazkur muammoni hal etishda universal usul mavjud emasligini ko'rsatdi.

M. Porter klasterli rivojlanish nazariyasining asoschisi hisoblanadi, u mazkur masalani turli mamlakatlarning 100 dan ziyod tarmoqlaridagi raqobat vaziyatlarini tadqiq etish orqali o'rgangan. M. Porter xalqaro miqyoslarda nisbatan raqobatbardosh, bir tarmoqqa tegishli firmalar, odatda, turli rivojlangan davlatlar bo'yicha betartib ravishda sohib yuborilmagan bo'lib, balki aynan bir mamlakat va hattoki, mamlakatning muayyan bir hududida to'planish xususiyatiga ega ekaniga ahamiyat bergan. Bu tasodif emas. Jahon bozorida raqobat bardoshlikka erisha olgan bir yoki bir nechta firma atrofida: ta'minotchilar, iste'molchilar va raqobatchilarga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. O'z navbatida, atrofdagilarning muvaffaqiyati ham ushbu korxonaning raqobatbardoshligining yanada o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada esa, raqobatbardoshlikni o'stirishda bir-biriga yordam beruvchi, bir-biri bilan uzviy bog'liq tarmoqlar, firmalar uyushmasi – "klaster" shakllanadi. Davlatning umumiy iqtisodiyotida klasterlar ichki bozorning o'sishi va eksportga yo'naltirish uchun tayanch nuqtasi vazifasini bajaradi. Birinchisining ketidan iqtisodiyotda ko'p holatlarda yangi klasterlar shakllana boshlaydi va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligi kuchayib boradi.

M. Porter mamlakat raqobatbardoshligini alohida firmalarning emas, balki turli tarmoqlarga oid firmalar birlashmasi – klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi prizmasi orqali ko'rish maqsadga muvofiq, xususan, mana shu klasterlarning ichki resurslardan samarali tarzda foydala olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi¹⁵⁶. U klasterlarning raqobatbardoshlikka ta'sirini mufassal uch izoh orqali tushuntiradi:

– maxsus jamg'armalarga va mutaxassis xodimlarga ega bo'lish yo'lining ochiqligi, axborotlarga, institutlarga va ijtimoiy boyliklarga ega bo'lish imkoniyatlari kengaytirilishi va to'ldiruvchi xo'jalik faoliyatining rag'batlantirilishi orqali raqobatbardoshlikni ko'tarish;

– texnologik bilimlar va innovatsiyalarni jadal tarqatish yo'li bilan firmaning innovatsiyalarga asoslangan salohiyatini ko'tarish. Har

¹⁵⁶ Портер М. Международная конкуренция: /Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В.Д. Щетинина. – М.: Междунар. отношения, 2005. – 859 с.

bir klaster doirasidagi raqobat bosimi kompaniyalarning innovatsiyalarga oid faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini oshiradi;

– firma xodimlarining alohida ajralib chiqqan holda, o‘z shaxsiy korxonalarini tashkil etishi orqali yangi korxonalarining yuqori sur‘atlarda yaratilishini rag‘batlantirish.

Raqobatbardoshlikni qaror toptirish bo‘yicha iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga klasterli yondashuv boshqa qator nazariyalarda ham qo‘llaniladi. Ye. Lumer milliy darajadagi savdoni tahlil qilish davomida eksport darajasi yuqori bo‘lgan klasterlarni o‘rgangan¹⁵⁷. Fransuz olimlari I. Tolenado va D. Sole texnologik sohalarning guruhlariga ta‘rif berishda “filerlar” tushunchasidan foydalanганlar¹⁵⁸. Filerlarning shakllanishini bir sohaning texnologik darajasi bo‘yicha boshqasiga bog‘liqligi orqali tushuntirish mumkin. Shunday qilib, filerlar deganda, klasterning nisbatan tor talqini tushuniladi, chunki klasterni yuzaga keltiruvchi mezonlardan biri – iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarning potensial ustunliklaridan foydalanish maqsadida, ular o‘rtasidagi texnologik aloqalarni yo‘lga qo‘yish zaruratidir.

Klasterli yondashuvdan, shuningdek, shved nazariyotchilari ham foydalanganlar. Ularning klaster nazariyasi, asosan, milliy iqtisodiyot tuzilmasini o‘rganish davomida, yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, ko‘p millatli, yirik shved korporatsiyalari o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish davomida qaror topgan. Bu yerda klasterlar Ye. Daxmenning “taraqqiyot bloklari to‘g‘risida”gi tezisiga asoslanadi¹⁵⁹. Ye. Daxmenning fikricha, raqobat muvaffaqiyatini kuchaytirishning negizi bir tarmoq rivojlanishi davomida boshqa tarmoqda ham o‘lishni ta‘minlab bera olish qobiliyati o‘rtasida o‘zaro bog‘lanishning mavjudligi hisoblanadi. Rivojlanish bosqichma-bosqich yoki boshqa tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir tarmoq doirasidagi “vertikal harakatlar” bo‘yicha yuz berishi lozim, sababi, bu raqobat ustunliklariga ega bo‘lish uchun imkon yaratadi.

¹⁵⁷ Leamer E.E. Sources of International Comparative Advantage: Theory and Evidence / Cambridge, MIT Press, 1984.

¹⁵⁸ Tolenado J.A. Propriétés des Filières Industrielles. - Revue d'Economie Industrielle. - V. 6. - 1978. - № 4. - P. 149-158; Soulie D. Filières de Production et Intégration Verticale. - Annales des Mines, Janvier 1989. - P. 21-28.

¹⁵⁹ Dahmen E. Entrepreneurial Activity and the Development of Swedish Industry, 1919-1939. - Stockholm, 1950; Mattsson L. G. Management of Strategic Change in a "Markets-as-Networks" Perspective. In the Management of Strategic Change/ Ed. by Andrew M. Pettigrew. - Oxford, N. Y., 1987.

Klasterlar asosida raqobatbardoshlikni rivojlantirishning eng zamonaviy nazariyasi V. Feldman tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyaning afzal tomoni shundaki, u turli mamlakatlardagi diversifikatsiyalangan shakldagi korxonalarni keng ko‘lamda empirik tadqiq qilishga asoslanadi¹⁶⁰. Mazkur nazariyaning mohiyati quyidagicha. Diversifikatsiya ko‘pincha “xarajatlar-ishlab chiqarish” qolipida yoki o‘zaro yetkazib berish munosabatlari bilan bog‘langan tarmoqlar o‘rtasidagi shartnomalarga muvofiq rivojlanadi. Bu klasterlarni yuzaga keltiradigan mexanizmlarga mos keladi. Shunday qilib, nisbatan yashovchan klasterlar diversifikatsiya asosida shakllanar ekan.

Raqobatning ilmiy asoslarini umumlashtirib, shunday xulosa chiqarish mumkin, ya’ni raqobatbardoshlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri – klasterli yondashuv hisoblanar ekan. Ilmiy adabiyotlarda “klaster” tushunchasining umumiy e’tirofqa ega yagona bir ta’rifi mavjud emasligi ta’kidlanadi. Klasterga berilgan ta’riflarni ko‘rib chiqish natijasida, D.S. Nosirxodjayevevaning tadqiqotlari orqali quyidagi xulosalar qilindi:

– turli mualliflar tomonidan “klaster” tushunchasiga berilgan izohlardan kelib chiqqan holda, nisbatan konseptual umumiylikka ega bo‘lish sababi M. Porterning konsepsiyasi mahalliy tadqiqotchilar tayanadigan asosiy nazariy baza hisoblanishida¹⁶¹;

– klasterga mahalliy tadqiqotchilar odatda klaster ishtirokchilarining hududiy mahalliylashuvida namoyon bo‘ladigan mintaqaviy jihatlaridan yoki klaster korxonalari asosiy qismining bir hudud doirasida to‘planishidan kelib chiqqan holda qaraydilar¹⁶²;

– mualliflar mazkur tushunchaga ta’rif berishda turli yondashuvlardan foydalanadilar va bunda hal etilayotgan muammolar doirasidan kelib chiqqan holda, ularning ilmiy dunyoqarashlariga nisbatan to‘liqroq javob beradigan jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratadilar¹⁶³.

¹⁶⁰ Feldman V. P., Audretsch D.B. Innovation in Cities: Science based Diversity, Specialization and Localized Competition-European Economic Review. - 1999. - № 43. - P. 409-429.

¹⁶¹ Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993. – С. 37.

¹⁶² Кадыров А.М., Севлякянц С.Г. Формирование кластера ИКТ в Узбекистане. // Рінок, деньги, кредит. №8. – С. 29.; Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития. // Теория и практика. – Т.: ИЭ АН РУз, 2005. – 54 с., Бекмурадов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т.: ТГЭУ, 2006.

¹⁶³ Насырходжаева Д.С. Формирование стратегии развития промышленных предприятий на отраслевых рынках. Диссертационная работа на соискание учёной степени доктора экономических наук. – Т.: ИЭ АН РУз, 2011, с.26.

Iqtisodiy adabiyotlarda “klaster” tushunchasiga juda ko‘p ta’riflar keltiriladi va ular iqtisodiy rivojlanishning klaster nazariyasining asosi hisoblanadi (1-jadval).

A.A. Migranyanning fikricha, klaster “iqtisodiy faoliyatning nisbatan samarali va bir-biri bilan bog‘liq turlarining majmuni, ya’ni muvaffaqiyat bilan raqobat qiluvchi o‘zaro bog‘liq guruhlar to‘plami bo‘lib, tarmoq, milliy va jahon bozorlarida raqobatchilik vaziyatini ta’minlab beradi”¹⁶⁴. T.V. sixan klasterlarning keng tarzdagi 3 xil ta’rifini keltiradi, ularning har biri klaster faoliyatining eng muhim xususiyatlarini ochib beradi:

– odatda u yoki bu ilmiy muassasalar (ilmiy tekshirish institutlari, ilmiy markazlar, universitetlar va b.) tasarrufida bo‘lgan bir-biriga bog‘liq sohalar o‘rtasidagi iqtisodiy faollikning hududiy jihatdan cheklangan shakllari;

1-jadval

G‘arb iqtisodiyot ilmidagi “klaster” tushunchasiga berilgan ta’riflar¹⁶⁵

Muallif	Yil	Ta’rif mazmuni
M. Porter (M. Porter)	1990	Sanoat klasteri – xaridor-yetkazib beruvchi yoki yetkazib beruvchi-xaridor yoki umumiy texnologiyalar orqali bog‘langan bir qator tarmoqlar, xarid yoki taqsimot umumiy kanallari yoki umumiy mehnat birlashmalari
X. Shmits (H. Schmitz)	1992	Klaster – bir tarmoqqa tegishli yoki bir-biriga uzviy yaqinlikda faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar guruhi
G. Suenn (G.M.P. Swann) M. Prevezer (M. Prevezer)	1996	Klasterlar – yagona bir geografik hududda joylashgan, bir tarmoq doirasidagi firmalar guruhi
M. Enrayt (M. Enright)	1996	Mintaqaviy klasterlar – sanoat klasterlari bo‘lib, ularda ishtirokchi firmalar bir-biri bilan juda yaqinlikda bo‘ladi
S. Rozenfeld (S. Rozenfeld)	1997	Klaster – geografik jihatdan yaqinligi va o‘zaro bog‘liqligi sababli sinergetik samara keltirishga qodir firmalarning to‘plami, bunda ularning bandlik miqyoslari aniq yoki sezilarli bo‘lmasligi mumkin
E. Fezer	1998	Iqtisodiy klasterlar tarmoqlar va institutlarni nafaqat

¹⁶⁴ Мигранян А.А. Теоретические аспекты формирования конкурентоспособных кластеров в странах с переходной экономикой. // Вестник Киргизко-Российского Славянского ун-та, 2002. № 3.

¹⁶⁵Манба: Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган

(E. Feser)		bog‘lab turuvchisi va qo‘llab-quvvatlovchisi hisoblanadi, balki ularning o‘zaro hamkorlik qilishlari asosida nisbatan raqobatbardosh bo‘lgan o‘zaro bog‘liq va qo‘llab-quvvatlovchi institutlardir
V. Elsner (W. Elsner)	1998	Klaster – funksional jihatdan ham vertikal, ham gorizontal bog‘liq firmalarning guruhi. Funksional yondashuv klasterini tashkil etgan firmalar va institutlar o‘rtasida qaror topgan o‘zaro munosabatlar sifatini hamda bozor orqali belgilanadigan o‘zaro bog‘liqliklarni ifoda etadi
M. Shtayner (M. Steiner), S. Xartmann (C. Hartmann)	1998	Klaster – mehnat bozori va/yoki xarajat-ishlab chiqarish, va/ yoki texnologik aloqalar bilan bog‘langan ijtimoiy, xususiy yoki yarim ijtimoiy tadqiqot institutlari va taraqqiyot institutlarining o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi (ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasidagi) firmalari to‘plami
T. Roelandt (T. Roelandt) P.den Xertag (P.den Hertag)	1999	Klasterlar bir-biri bilan ishlab chiqarishning qo‘shilgan qiymat zanjiri bilan o‘zaro kuchli darajada bog‘langan firmalarning ishlab chiqaruvchilari tarmog‘i sifatida ta‘riflanishi ham mumkin
Dj. Simmi (J. Simmie), Dj. Sennet (J. Sennet)	1999	Innovatsiyalar klasteri – odatiy yetkazib berish zanjiri orqali yuqori hamkorlik darajasiga ega va bir xildagi bozor sharoitlarida faoliyat yuritadigan o‘zaro bog‘liq industrial va/yoki servis kompaniyalarning katta miqdori
Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish bo‘yicha tashkilot (Organiza-tionfor Economic Coopera- tion and Development)	2001 2002	Mintaqaviy klasterlar o‘zaro bog‘liq firmalarning geografik jihatdan muayyan chegaraga ega to‘plami hisoblanadi va ulardan industrial rayonlar, ixtisoslashgan sanoat aglomeratsiyalari va mahalliy ishlab chiqarish tizimlari kabi nisbatan qadimgi monand konsepsiyalar uchun tayanch so‘z sifatida ham foydalanish mumkin
T. Andersson (T. Andersson)	2004	Klaster muayyan bir geografik hudud ichida alohida funksional maydon atrofida kooperatsiyalashish va o‘zaro uzviy aloqalar va jamoaviy raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadida ishchi alyanslarni o‘rnatish asosida to‘plangan firmalar va boshqa faoliyat ko‘rsatuvchi shaxslarning birlashuvi.

– vertikal ishlab chiqarish zanjirlari; muayyan darajada tor alohida sohalar, ularda ishlab chiqarishning aralash bosqichlari klaster yadrosini shakllantiradi (masalan, “ta‘minotchi-ishlab chiqaruvchi-sotuvchi-mijoz” zanjiri). Bosh firmalar atrofida qaror topadigan tarmoqlar ham aynan mana shu toifaga kiritiladi;

– yuqori darajali agregatsiya bilan shakllangan sanoat tarmoqlari (masalan, “kimyoviy klaster”) yoki yanada yuqori darajadagi agregatsiyaga ega tarmoqlar majmui (masalan, “agrosanoat klasteri”)¹⁶⁶.

М. Афанасев ва Л. Мясникова klaster tuzilmasida eng muhimi innovatsiyalarning qiymat yaratiladigan butun zanjir bo‘ylab tarqalishi va tashqi muhit bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish uchun zarur yagona logistik darcha deb hisoblaydilar¹⁶⁷. Chet ellik mualliflar tomonidan berilgan ta’riflardagi kabi mahalliy iqtisodchilar ham klasterlarning quyidagi muhim tavsiflarini ajratadilar: hududiy chegaraga egalik (geografik to‘planish), o‘zaro munosabatlarning muayyan uslublari (yoki vertikal, yoki gorizontal, yoki ham vertikal, ham gorizontal bo‘yicha). Modomiki, klaster ishtirokchilari hududiy jihatdan muayyan chegaraga ega bo‘lar ekan yoki klaster korxonalarining asosiy qismi bir hudud chegarasida to‘planar ekan, demak, mahalliy tadqiqotchilar klasterga aynan mintaqaviy nuqtai nazardan qaraydilar¹⁶⁸. Sh. Otojonovning fikricha, “Innovatsiyaviy klasterni tashkil etish sanoat korxonalarining ilmiy va oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro aloqalari va munosabatlari negizida, davlat tuzilmalari ko‘magida, mintaqani rivojlantirish bo‘yicha innovatsion siyosatni amalga oshirish manfaatlari yo‘lida amalga oshiriladi”¹⁶⁹.

Iqtisodiyotning klasterlashuvi xo‘jalik yuritishni tashkiliy shakllarining tadrijiy rivojlanishini ko‘rsatish bilan cheklanib qolmay, balki davlat-xususiy hamkorlik negizida jamiyat (ijtimoiy) institutlarining tarkibiy isloh qilinishini, yirik va kichik tadbirkorlik o‘rtasidagi hamkorlikni, davlat aralashuvining mahalliylashuvini ham anglatadi. Integratsiya tushunchasi klaster konsepsiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tarmoq, texnologik va kooperativ mehnat taqsimoti emas, balki tarmoqlararo va mintaqalararo integratsiya hozirgi zamon sharoitida iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini belgilab beradi. Klasterni yaratish maqsadi uning tizim sifatida

¹⁶⁶ Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития // Теория и практика управления, 2003. №5.

¹⁶⁷ Афанасьев М., Мясникова Л. Мировая конкуренция и кластеризация экономики. // Вопросы экономики, 2005. №4. -С.75–86.

¹⁶⁸ Кадиров А.М., Севлякянц С.Г. Формирование кластера ИКТ в Узбекистане. // Рінок, деньги, кредит. – Т., 2005. №8. С. 29.; Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития. // Теория и практика. – Т.: ИЭ АН РУз, 2005. – 54 с.; Бекмуратов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т.: ТГЭУ, 2006.


¹⁶⁹ Отожонов Ш. Инновацион кластерлар ташкил этиш – худудларнинг инновацион салохиятини бошқариш самарадорлигини оширишнинг муҳим омили. Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития. Материалі V Форумa экономистов. –Т.: IFMR,2013. 468 б.

shakllantiruvchi elementi hisoblanadi. U klaster ishtirokchilarining shaxsiy maqsadlaridan farq qiladi, negaki, maqsad ishtirokchilar ega bo'ladigan foydani maksimal darajaga yetkazishdan emas, balki mintaqani barqaror rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlar, tashkiliy va ijtimoiy imkoniyatlarni yaratib berish, klaster ishtirokchilar manfaatlarini muvofiqlashtirishdan iboratdir¹⁷⁰.

Turli agentlarning nafaqat raqobati, qo'shib ketishi va yutib yuborilishiga, balki ularning manfaatlari va hamkorligiga asoslangan ijtimoiy institut sifatidagi klaster konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiyot fanida raqobat – individual paradigmaga qarshi chiqadi. Ijtimoiy institut sifatidagi klaster globallashuv sharoitida o'sib borayotgan ijtimoiy jarayonlar noaniqligini kompensatsiya qilaydi, yangi motivatsiyaga ega iqtisodiy subyektlarni shakllantiruvchi o'ziga xos axborot makonini yaratadi, ko'p qirrali iqtisodiy makonni rivojlantiradi. Firmalar iqtisodiyotidan klasterlar iqtisodiyotiga o'tish hamkorlikdagi mehnatning yangi shakliga o'tishni anglatadi, bunda faoliyatni muvofiqlashtirish gorizontali bo'yicha axborotlarning erkin almashinuvi, bilim, malaka va ko'nikmalar bilan o'rtoqlashish, nomoddiy aktivlardan hamkorlikda foydalanish asosida amalga oshiriladi. Transaksiyalar klasterda egalik huquqini topshirish bo'yicha bozor kelishuvlari orqali olib borilmasligi, balki hamkorlikda foydalanish yoki taqsimlash nisbatlarini birgalikda muho-kama qilish negizida alohida detallashtirilgan vakolatlarni top-shirgan holda yuritilishi mumkin. M. Porter tomonidan asoslab berilgan klasterli yondashuvda har bir tarmoq boshqalaridan alohida ko'rilmaydi, balki o'zaro bog'liq sohalar majmuining bir qismi sifatida tizimli ravishda o'rganilishi lozim (2-rasm)¹⁷¹.

¹⁷⁰ Мингалева Ж., Ткачева С. Кластеры и формирование структуры региона. // МЭМО. 2000. №5. С.97–102.

¹⁷¹ Портер М. Конкуренция –М.: Вильямс, 2002. с.261.



2-Rasm. Klasterlarni takomillashtirishga hukumatning ta'siri¹⁷²

Tayanch tarmoqning qaror topishi boshqa tarmoqlar – ta'minotchi va iste'molchilar, shuningdek, xizmat ko'rsatish bo'g'inlari rivojlanishiga turtki bo'ladi, iqtisodiy faollik klasterini shakllanti-radi.

Klasterlarning muhim tarkibiy qismlari: ushbu klasterning asosiy tovar va xizmatlarini ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar; yirik kompaniyalar uchun yetkazib beruvchi hisoblangan kichik yuqori texnologik firmalar; texnologik parklar, universitetlar, markaziy va mahalliy hukumat idoralari, ijtimoiy tashkilotlar (savdo-sanoat palatalari, tarmoq uyushmalari va alyanslar)dan iborat. Klasterli yondashuv asosida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim tavsiflari quyidagilardan iborat:

– tashkilotlarning mulkchilik, tashkiliy-huquqiy maqomi, tarmoq va geografik o'rniga ko'ra yuqori qo'shilgan qiymatga ega yakuniy

¹⁷²Манба: Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993. – С. 37

mahsulot ishlab chiqaruvchi yaxlit tizimga mansubligi bo'yicha birlashuvi;

– klasterning barcha qatnashchilari o'z yuridik va xo'jalik mustaqilligini saqlab qoladilar, bu esa iyerarxik boshqaruv organlarini yaratishni talab etmaydi, ma'muriy va tashkiliy xarajatlarni kamaytiradi;

– klaster qatnashchilari o'rtasida nafaqat bozor, raqobat muno-sabatlari, balki umumiy strategik rejalar, kelishuvlar va alyanslar asosida yagona maqsadga erishish bo'yicha o'zaro ishonchga asoslanadigan, brendlar va boshqa nomoddiy aktivlardan, transfert narxlar, transaksiya xarajatlarini qisqartirish sxemalaridan birgalikda foydalanish bo'yicha hamkorlik munosabatlari ham o'rnatiladi;

– alohida korxonalar faoliyatini tartibga solishdan farqli ravishda, klasterni davlat tomonidan boshqarish strategik boshqaruvni, mintaqalararo aloqalarni rivojlantiradi, davlat-xususiy investitsiya-innovatsiya hamkorligi negizida mintaqaviy innovatsiyalarga asoslangan va infratuzilmaviy tizimni yaratishga imkon beradi.

Iqtisodiyotni klasterli tuzilmaga aylantirish quyidagi uch muhim yo'nalishda raqobatbardoshlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- firma va tarmoqlar unumdorligi oshadi;
- innovatsiyalar va ishlab chiqarishning o'sishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi;
- innovatsiyalar va klasterning yanada kengaytirilishini qo'llab-quvvatlovchi yangi biznes shakllanishini rag'batlantiradi va yengillashtiradi.

D. Xart tomonidan ajratilgan klasterlar tasnifi mintaqaviy (mahalliy) ishlab chiqarish tarmog'i modeliga asoslanadi¹⁷³. Mintaqaviy ishlab chiqarish tarmog'i modeli ichida nazariy jihatdan klasterlarning uchta kichik guruhini ajratish mumkin bo'lib, ilmiy adabiyotlarda ular tez-tez uchraydi:

- A turi – o'zaro bog'liq klasterlar;
- B turi – yangi sanoat zonalari;
- S turi – innovatsiya muhiti.

¹⁷³Xart Д.А. Инновационные кластеры: основные идеи. //Институт региональных инновационных систем (ИСИП): [сайт]. URL: <http://www.innosys.spb.ru/?id=886> (дата обращения 15.04.2010).

O‘zaro bog‘liq klasterlar (A turi) - klasterlarning eng tarixiy turi. O‘zaro bog‘liq klasterlar xarajatlarni kamaytirish maqsadida hududiy jihatdan avvaldan bir-biri bilan yaqin joylashgan kompaniyalar guruhi iborat. Tadbirkorlar o‘z firmalarini transport uchun va xodimlarning ish haqlari uchun xarajatlar juda kam bo‘ladigan mintaqalarda tashkil etadilar. A. Marshall transport xarajatlarini ishlab chiqariladigan mahsulotlar og‘irligi va masofalar natijasi hisoblanadi, deb hisoblagan¹⁷⁴.

Klasterlarning navbatdagi turi (V turi) – yangi sanoat zonalari. Yangi sanoat zonalarining, odatda, fan sig‘imi yuqori bo‘ladi, ular orasida yuqori texnologiyalar sohasida faoliyat olib boradigan, ya’ni kompyuterlar, axborot texnologiyalari va mikroelektronika ishlab chiqaradigan kompaniyalar ko‘p uchraydi. Yangi mahsulotlar yaratishda ular asosan ilmiy tadqiqotlarga tayanadilar. Bunday klasterlarning eng ahamiyatli afzal tomonlari axborotlar, yuqori malakali xodimlarning chuqur bilimga egaligi va bozorlarga yangi mahsulotlarni tez sur‘atlarda yetkazib bera olish qobiliyati hisoblanadi.

Uchinchi tur klasterlarning tavsifi (S turi – innovatsiya muhiti) ma’lum darajada GREMI (Yevropa innovatsiyalar muhitini o‘rganish guruhi) olimlari guruhlarining tadqiqotlariga asoslanadi. Innovatsiya muhitida ijtimoiy aloqalar bir kompaniyada faoliyat yuritadigan alohida ishtirokchilar o‘rtasida ham, turli kompaniya xodimlari o‘rtasida ham o‘rnatiladi.

Kichik va yirik biznesning kooperativ xo‘jalik munosabatlarining odatiy shakllaridan farqli ravishda, innovatsiyalar klasteri tizimi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- ixtisoslashtirilgan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarni qamrab olgan, ichki va tashqi bozorlarda ahamiyatli darajada o‘z ulushiga ega bo‘lishga qodir yetakchi firmalarning mavjudligi;
- tengsiz ustuvor xususiyatlarni namoyon eta oladigan klasterlarning muayyan chegaradagi hududda to‘planishi;
- klaster qatnashchilarining ichki va tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulotlarni chiqarish maqsadida o‘zaro hamkorlik qilishlari;
- klaster ishtirokchilari o‘rtasida raqobatning mavjudligi;

¹⁷⁴Маршалл А. Основы экономической науки [предисл. Дж. М. Кейнса; пер. сангл. В.И. Бомкина, В.Т. Рісіна, Р.И. Столпера].–М.:Эксмо,2008.–С.233.

– axborot uzatish tarmoqlarining taraqqiy etishi hisobiga yangiliklarning jadal sur’atlarda tarqalishi¹⁷⁵.

Klaster tuzilmasini tavsiflovchi xususiyatlarga bog‘liq ravishda, ular quyidagi sinflarga ajratiladi (2-jadval).

Jahon amaliyotida innovatsiya muhitini rivojlantirish va yanada mukammallashtirishning turli usullari mavjud. Ular qatorida innovatsiyalarning rivojlangan infratuzilmasi (texnoparklar, biznes inkubatorlar, innovatsion fondlar)ning shakllanishi, texnologiyalar transfert tarmog‘ining yaratilishi, innovatsiya bo‘yicha loyihalarga bevosita va bilvosita moliyaviy ko‘maklashish, shuningdek, innovatsiya siyosatini amalga oshirishga klasterli yondashuvni aytib o‘tish mumkin.

2-jadval

Klasterlar sinfini belgilab beruvchi tavsiflar¹⁷⁶

№	Sinfi	Qisqacha tavsifi
1.	Kuchli	Klasterning samarali tuzilmasi, ishlab chiqarish davrining tashqi bosqichlarini namoyon etadi, ishtirokchilar o‘rtasida yuqori darajali raqobat va faol hamkorlik barqaror raqobat ustunligini yaratadi
2.	Barqaror	Klaster tuzilmasi barqaror rivojlanadi, biroq hozirgi vaqtda aglomeratsiyadan muhim afzalliklarga ega bo‘lish uchun ishlab chiqarish salohiyatining kritik massasi yetarli darajada to‘planmagan, faqat klaster ichida o‘zaro faol munosabatlar mavjud
3.	Potensial	Klaster tuzilmasi hozircha to‘laqonli emas, biroq tezkor rivojlanmoqda
4.	Latent	Faqat alohida klaster tuzilmalari mavjud, kommunikativ munosabatlar esa yetarli darajada emas

Nisbatan keng ma’noda innovatsiya klasteri deganda, aniq bir maqsadda tashkil etilgan, ilmiy bilimlar va biznes-g‘oyalar yuzaga keladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadigan markazlar negizida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar guruhi tushuniladi. Innovatsiya turidagi klaster tashqi muhit o‘zgarishlariga samarali ravishda moslashuvchan bo‘la olishi kerak, klasterning innovatsionlik darajasi deganda, ilmiy bilimlar yuzaga keladigan va biznes-g‘oyalar yaratila-

¹⁷⁵Печаткин В.В., Гаймалова С.М. Теоретические и прикладные аспекты формирования промышленных кластеров в регионах России. // Промышленная политика в Российской Федерации, 2006. №11. С. 27.

¹⁷⁶Манба: Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

digan markazlar, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadigan markazlarning klaster tarkibiga integratsiyalashuvi darajasini; umumiy ishlab chiqarish hajmida innovatsiya va fan sig'imi yuqori mahsulotlarning ulushi; ushbu mahsulotlar savdosini ifoda etuvchi uning ham sifat, ham miqdoriy tavsiflarini tushunish mumkin.

Klasterning qaror topishi o'z-o'zidan raqobatbardoshlikning o'ziga xos omillari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Klaster raqobatbardoshligi deganda, eng avvalo, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi muhit imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalangan holda, uzoq muddatli istiqbolda o'z raqobatbardoshligini saqlay olish qobiliyatining barqarorligi tushuniladi.

Klasterli yondashuv hukumat tashkilotlariga biznes bilan samarali hamkorlik qilish vositalarini taqdim etadi, uning o'ziga xos ko'rsatkichlari va taktik vazifalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi, mintaqa resurslarini maqsadli va asosli tarzda strategik rejalashtirish, iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va hududni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Qo'shilgan qiymat yaratishning davomli zanjirlari mintaqada investitsiyalarni va ular bilan bog'liq soliq tushumlari miqdorini oshiradi.

Shunga bog'liq holda, mintaqada raqobatbardoshlikni oshirish sohasiga oid vazifalardan biri mintaqani klasterlash salohiyatini aniqlashdan iborat. Klasterlash salohiyati – mintaqa hududida joylashgan tarmoqlar, korxonalar va infratuzilma tashkilotlarining mavjud raqobat usutunliklari, ushbu ustunliklarni jamlash va ulardan mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda foydalanish imkoniyatlaridir.

Klasterlash salohiyatini baholashda raqobat barqarorligini:

a) mintaqadagi korxonaning;

b) tarmoq barqarorligi (bir xilda yoki texnologik jihatdan deyarli bir xildagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mintaqadagi korxonalar guruhi)ni tahlil qilish ko'zda tutiladi.

Raqobat barqarorligini baholash algoritmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

birinchi bosqich – iqtisodiyot tarmoqlarining bozorda egallagan o'rnini aniqlashni nazarda tutuvchi raqobat barqarorligini miqdoriy jihatdan tahlil qilish;

ikkinchi bosqich – mintaqadagi korxonalarning muayyan sohalarda bo'yicha raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur resurs

bazasining mavjudligi va uning tarkibini, ya'ni raqobat barqarorligini sifat jihatdan tahlil qilish;

uchinchi bosqich – iqtisodiyotning aniq, xususan mintaqa korxonalarining raqobat ustunliklariga erishish mumkin bo'lgan sohalari aniqlash, ya'ni klasterlar tahlili.

Tarmoqning mintaqadagi raqobat barqarorligi va klasterlash salohiyati bahosi koeffitsiyentlar tizimi: mintaqa hududida mazkur ishlab chiqarishning mahalliylik koeffitsiyenti; jon boshiga ishlab chiqarish koeffitsiyenti; mazkur tarmoqqa hududning ixtisoslashuvi koeffitsiyenti orqali ifodalanadi.

Klasterlarning shakllanishida va ular orasidan nisbatan yetakchilarini tanlab olishda, birinchi navbatda, mahalliylik koeffitsiyenti dinamikasini baholash talab etiladi – dinamikadagi ko'rsatkichlar miqdorining ortib borishi klasterlarning kelgusida o'sish istiqboli mavjudligini, pasayishi esa ishlab chiqariladigan mahsulotlar assortimentini imkon qadar kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish zarurligi haqida yoki kelgusida klasterning istiqbolsiz ekanini tasdiqlaydi. Tarmoqlarni mana shu ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash kelgusi bosqichda tarmoqlar tahlili mazmunini belgilab beradi. Bunda olingan natijalardan qat'i nazar, tarmoqlar navbatdagi bosqich tahlilidan tushirib qoldirilmasligi kerak.

Raqobat barqarorligi shartlarining sifat jihatdan tahlili deganda, iqtisodiyotning muayyan sohalari raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan resurs bazasining mavjudligi va uning tarkibini aniqlash nazarda tutiladi.

Bu natijalarga alohida sharoitlarni tahlil qilish negizida erishiladi va ular kompleks ravishda raqobat ustuvorligi asosini tashkil etadi. Bu sharoitlar quyidagilardan iborat:

– ishlab chiqarish omillari, mazkur tarmoqda raqobat kurashini olib borish uchun zarur;

– tarmoq mahsulotlari uchun ichki bozordagi talab;

– raqobatchi ta'minotchi tarmoqlar yoki mazkur mintaqadagi boshqa yondash tarmoqlar;

– korxonalarni tashkil etish va boshqarishning samarali strategiyalarini shakllantirishga undovchi omillar, ular orasida eng muhimi ichki bozordagi raqobat hisoblanadi.

Mintaqadagi sanoat korxonalarining raqobat ustunliklariga erishish mumkin bo'lgan muayyan iqtisodiyot sohalarini aniqlab olish uchun klasterning sifat va miqdoriy tahlillarni ham qamrab olgan raqobatbardoshligini baholash zarur. Klaster raqobatbardoshligining miqdoriy tahlilida tarmoq, mintaqa, mamlakat darajasidagi klasterlarni shakllantiruvchi korxonalarining bozordagi vaziyatini aniqlash ko'zda tutiladi. Klaster raqobatbardoshligining sifat tahlili deganda, klaster tarkibiga kirgan korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan resurs bazasining mavjudligi va tarkibining tahlili nazarda tutiladi.

Ta'kidlash joizki, innovatsiya klasteri quyidagi uch muhim tarkibiy qism mavjud bo'lsagina, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin:

- ichki va tashqi bozorlarda sotiladigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yetakchi korxonalar;

- innovatsiya turdagi klasterning barcha rezidentlariga yuqori sifatli xizmatni ta'minlab berishga qodir xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining rivojlangan tarmog'i;

- yuqori sifatli mehnat resurslarini o'z ichiga olgan, investitsiya mablag'larini olish imkoniyatiga ega bo'lgan, ma'muriy to'siqlar bo'lmagan, innovatsiya turdagi klasterda yuqori darajada rivojlangan infratuzilmalar, rivojlangan ilmiy tadqiqot salohiyati va h.k. mavjud bo'lgan maqbul biznes-muhit (klaster korxonalarini uchun tashqi va ichki raqobatbardosh muhit).

Mana shu yo'nalishlar yordamida klasterning rivojlanishi natijasida quyidagilar ta'minlanadi:

- istiqbolli innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun klasterga resurslarni jalb etish;

- innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash infratuzilmalarini rivojlantirish;

- klasterning investitsiyalarni jalb etish xususiyatlarining ortishi;

- yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun takliflarning o'sishi;

- malakali mutaxassislarni qayta tayyorlash imkoniyatlarining ortishi.

AQSH tajribasi (innovatsion klasterlarning yuzaga kelishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish) shuni ko'rsatmoqdaki, innova-

siya (sanoat) klasterlari o‘zaro bog‘liq tarmoqlar zich joylashgan hududda mintaqa miqyosida qaror topishi mumkin ekan. Birinchidan, mintaqaviy innovatsiya – sanoat klasterlari negizini hamkorlikdagi ilmiy asosga tayanadigan, texnologik tarmoq deb ataladigan yangi texnologiyalar, bilimlar, mahsulotlar qaror topgan barqaror tizim tashkil etar ekan.

Ikkinchidan, klaster korxonalarida ichki ixtisoslashuv va standartlashuvni amalga oshirish, innovatsiyalarni joriy etish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati mavjudligi tufayli qo‘shimcha raqobat ustunliklariga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, innovatsiya – sanoat klasterlarining muhim xususiyati, ular tarkibida moslashuvchan tadbirkorlik tuzilmalari kichik korxonalarining mavjudligida, ular mintaqa iqtisodiyotini o‘stirishning innovatsiya tugunlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

To‘rtinchidan, mintaqaviy sanoat klasterlari kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda juda muhim o‘rin tutadi: ular kichik firmalar uchun muayyan bir tadbirkorlik sohasiga xizmat ko‘rsatish maqsadida yuqori ixtisoslashuv darajasini ta‘minlab beradi, bu esa sanoat korxonasi kapitaliga ega bo‘lish yo‘lini bir qadar yengillashtiradi, shuningdek, g‘oyalar almashinuvi va mutaxassislar tomonidan tadbirkorlarga bilimlar berish faollashadi.

Bir-biriga bog‘liq institutlar va tarmoqlar tizimining yuqori darajada rivojlanishi klasterlar raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Bir tomondan, bu bozor munosabatlari va samarali raqobat natijasi bo‘lsa, boshqa tarafdin esa, milliy innovatsiya tizimining shakllanishi va malakali kadrlarning kirib kelishi ustida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu so‘zsiz davlatning olib borgan siyosati xizmatidir.

Shunday qilib, klaster deganda, tarkibiga, shuningdek, ta‘minotchilar, texnologiyalar va nou-xau yaratuvchilar (universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari, injiniring kompaniyalari), qiymat yaratishning yagona zanjiri doirasida bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladigan bozor institutlari va iste‘molchilarni bog‘lovchilar (brokerlar, maslahatchilar)ni ham o‘z ichiga olgan mustaqil ishlab chiqarish va (yoki) servis firmalari tarmog‘i tushuniladi.

12.2. Agroklasterni rivojlantirish hududlarining eksport salohiyatiga ta'siri

Globalashuv jarayonlari respublikamizni tashqi iqtisodiy aloqalari va qishloq xo'jaligini raqobatbardoshligini oshirishga jahon xo'jaligi ko'rsatadigan ta'sirni to'liqroq hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Jahon koronavirus pandemiyasi sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportini ko'paytirish tashqi bozorlarga chiqishni davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi muammosi o'ta muhim masalalardan biridir. Bugungi kunda, koronavirus pandemiyasi sharoitida proteksionizm qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda (ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari misolida) turli shakllarda namoyon bo'lmoqda va barcha dunyo hududlarida, jumladan, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda ham kuzatilmoqda.

Ma'lumki, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, jumladan fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tarmoq eksport salohiyatini oshirish kabi muhim vazifalar qo'yilgan¹⁷⁷.


Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"da "qishloq xo'jaligi birlashmalari, fermer va dehqon xo'jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalari (shu jumladan klasterlar) bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash" ustuvor vazifasi qo'yilgan¹⁷⁸.

2015-yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish maqsadida paxta va bug'doy maydonlari qisqartirilmoqda, sabzavot, kartoshka, meva va poliz yetishtirish uchun mo'ljallangan maydon ko'paymoqda. Buning natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tarkibida paxta ulushi kamayib, meva-

¹⁷⁷Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли Фармони.

¹⁷⁸Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5853-сонли Фармони

sabzavot ulushi oshmoqda. 2018-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushi jami eksportni 9,0 foizini tashkil qilgan o‘lsa (1,32 milliard. AQSH dollari). 2017-yilda bu ko‘rsatkich 10,0% (1,35 mlrd. AQSH). Eksportni qisqartirishning sababi paxta xomashyosining ulushini meva etishtirishdan ko‘ra tezroq pasayishi hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. Agrosanoat majmuasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini eksport qilish dinamikasi, mln. AQSH doll.¹⁷⁹

Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida eksport mexanizmini takomillash-tirildi. 2018-yil noyabr oyidan boshlab yuridik shaxslar oldindan to‘lovsiz, akkreditiv ochmasdan va ulgurji savdoga litsenziya mavjud bo‘lmasdan meva-sabzavotlarni eksport qilishlari mumkin, eksport qilinayotgan meva-sabzavot mahsulotlari esa majburiy bojxona tekshiruvidan o‘tkazilmaydi. Shuningdek, 2019-yilning mart oyidan boshlab meva-sabzavot mahsulotlarini har qanday miqdorda invoys asosida kontraktsiz eksport qilishga ruxsat berildi.

Shuning uchun meva-sabzavotlarni eksportini yanada ko‘payti-rish uchun qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va uni jahon standartlari darajasida zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash zarur. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi:

¹⁷⁹<http://www.uzstat>

– davlat mahalliy ishlab chiqaruvchini qo‘llab-quvvatlash siyosatini shakllantirishi va xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayonni yagona tizim sifatida ko‘rish talab qilinadi hamda tashqi bozorlarga chiqishda qo‘shilgan qiymat zanjirini hisobga olish zarurdir;

– meva-sabzavotlarni qayta ishlash sanoati korxonalari quvvatini hududlar kesimida optimal joylashtirish va bunda eksport omillarini inobatga olish talab qilinadi;

– yangi tashqi bozorlarga kirish, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar bozorini o‘zlashtirish va unda bo‘layotgan istiqbolli o‘zgarishlarni hisobga olish (ISO 9000–2001 standarti, marketing tizimini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va b.)¹⁸⁰ .

Shuni ta’kidlash kerakki, jahon amaliyotida keng qo‘llanilib kelinayotgan va o‘z samarasini berayotgan klaster shakli respublikamizda ham oxirgi yillarda turli sohalarda izchillik bilan tatbiq etilmoqda. Oxirgi yillarda qabul qilingan bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlari bunga dalil sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, respublikamizda ilk bor klasterli mexanizmi paxta-tuqimachilik sohasida qo‘llanilgan. Uning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, “yetishtirish-qayta ishlash-sotish” zanjirining barcha ishtirokchilari umumiy manfa’atni ko‘zlagan holda faoliyat ko‘rsatadi (4-rasm).


Natijada mahsulotni ishlab chiqarish diversifikatsiyasi kengayadi. Masalan, paxta xomashyosidan 30 turdan ziyod mahsulot tayyorlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bir tonna paxta xom-ashyosidan 360 kilogramm momiq paxta, 110 kilogramm paxta yog‘i, 16 kilogramm sovun olinadi.

O‘zbekistonda hozirgi vaqtgacha tarmoq klasterlari yetarli darajada rivojlanmagan edi. Ko‘malashuvchi ishlab chiqarishlarning mavjud emasligi agrotarmog‘ining mahalliy korxonalariga jahondagi texnologik yangilanishlar bilan baravar qadam tashlashga imkon bermagan.

Agrotarmoqda klasterini yaratishda xomashyo olishdan boshlab, qayta ishlash va mahsulotni sotishgacha bo‘lgan butun texnologik

¹⁸⁰ <https://docs.cntd.ru/document/1200015260>

zanjirning yuzaga kelishi natijasidagi sinergetik samaraning shakllanishi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega, bu esa o‘z navbatida, tarmoqning innovatsion jozibadorligi ortishiga sabab bo‘ladi.



4-rasm. Paxta-to‘qimachilik klasterining ishlash modeli.

O‘zbekistonda agroklasterni rivojlanishi klaster ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilishi, innovatsiyalarga, texnologiyalarga, nou-xau, ixtisoslashgan xizmatlar va yuqori malakali kadrlarga ega bo‘lish va boshqa imkoniyatlar kengayishi hisobidan korxonalar raqobatbardoshligining o‘shishiga yordam beradi.

Agrar tarmoqlararo klaster murakkab tuzilishga ega bo‘lib, uni faoliyatining kengligi, ishtirokchilarining turli-tumanligi va ularning

hududiy joylashuvi, klaster ichidagi o‘zaro munosabatlarning turlari, shuningdek, tashqi muhitning klaster faoliyatiga ta’siri orqali aniqlash mumkin. Klasteri shakllantirish bo‘yicha tadbirlar ishtirokchilarining strategik maqsadlari, loyihani amalga oshirish maqsadlarida resurslarning qayta taqsimlanishi va institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Klasteri shakllantirish bo‘yicha institutsional ssenariyda mahalliy boshqaruv organlarining mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini amalga oshirishga yo‘naltirilgan klasterga oid tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish ko‘zda tutiladi.

Agroklasterlarning shakllanish bosqichlari davomiyligi ko‘p tomonlama resurslarning mavjudligiga, asosiy ishtirokchilarning manfaatdorlik darajasiga, institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Yuqorida aytib o‘tilganlardan kelib chiqib, kuchli agroklasterlarni ajratishning quyidagi algoritmi taklif etiladi:

– tovarlarning istiqbolli turlarini aniqlab olish, ya’ni mintaqadagi agrar tarmoq tomonidan ishlab chiqariladigan istiqbolli mahsulot turlari orasidan mahsulot eksportida ularning ulushini tahlil qilish asosida;

– agrar tarmog‘ining raqobatbardosh mahsulotlarining jahon bo‘yicha ishlab chiqariladigan hajmi va narxlari dinamikasini o‘rta va uzoq muddatli bashorat qilish;

– klaster yadrosini tashkil etishga qodir bo‘lgan iqtisodiy subyektlarning faoliyati samaradorligini aniqlab olish (istiqbolli mahsulotlarni ishlab chiqarish);

– klasteri rivojlantirish uchun zarur resurslarni belgilab olish. Tanlangan hudud doirasida joylashgan istiqbolli mahsulotlar ishlab chiqaradigan iqtisodiy subyektlarning xomashyo, moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish kuchlari va boshqalar bilan ta’minlanganlik darajasi tahlil etiladi;

– infratuzilmaning agroklaster faoliyati uchun yetishmaydigan elementlarini yaratish uchun mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish;

– klasterning muhim ishtirokchilari (ishlab chiqaruvchilar, ta’minotchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va b.)ning o‘zaro hamkorlik darajasini aniqlab olish, mutaxassislar o‘rtasida so‘rovnomani o‘tkazish

asosida klasterning salohiyatli ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlik qilish darajasi aniqlanadi.

Agroklaster strategiyasining samaradorligi, o‘z navbatida, raqobat ustunligi manbaiga aylanib boradigan mamlakat, mintaq va tarmoq xususiyatlari negizida barpo etiladi. O‘zbekiston sharoitida hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda, agrar tarmog‘ining quyidagi sohalari bo‘yicha klaster salohiyatini baholash zarur: chorvachilik majmuasi, to‘qimachilik, meva-sabzavot va uzumchilik va h.k. Tabiiy-iqlim sharoitlarini e‘tiborga olgan holda, tarmoq xususiyatlariga ko‘ra raqobat ustunligiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, eksport bozorlariga, rivojlangan infratuzilma tizimiga, tadqiqotchilik, kadrlar tayyorlash bazasiga, tajribaga va klasterlik tuzilmasining boshqa tarkibiy qismlariga egadir.

Shunday qilib, eng muhimi mamlakatni klasterli rivojlantirishning salohiyatini baholash bilan cheklanib qolmay, balki uning institutsional asoslarini va o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Zero bozor sharoitida klasterga kirgan barcha ishtirokchilar o‘z faoliyati natijalari bo‘yicha mustaqil javobgarlikni olayotgan bo‘lsa, unda qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozori subyektlari faoliyatining asosiy hal qiluvchi mezon iqtisodiy manfaatdorlik, ya’ni maksimal foyda olish hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, klasterlarda iqtisodiy munosabatlar tovar harakatlanish kanalining har bir ishtirokchining ishlab chiqarish-sotish faoliyati samaradorligini oshirishga ko‘maklashishi, har bir ishtirokchining manfaatlarini hisobga olgan holda sheriklar o‘rtasida shakllanishi hamda davlat va/yoki hudud manfaatlarini, pirovardida esa har bir iste’molchining manfaatlariga javob berishi lozim.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida respublikada agrosanoat ishlab chiqarishning yuqori qo‘shimcha qiymatga ega va yuqori raqobatbardosh xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar sifatida tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish katta ahamiyatga ega (3-jadval).

**O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik mahsulotlari
eksporti dinamikasi (mln. AQSH doll.)¹⁸¹**

T/r	Tarkibi	2017	2018	2019	O‘zgarishlar	
					(+),(-)	%
1.	Paxtadan yigirilgan ip	631,3	726,6	926,1	+294,8	146,7
2.	Tayyor kiyimlar	268,7	289,7	354,5	+85,8	131,9
3.	NAQSHli matolar	50,4	65,5	84,8	+34,4	168,3
4.	Ipak va ipak mahsulotlari	30,9	49,9	71,8	+40,9	2,3 m.
5	Paxtadan gazlamalar	53,8	65,7	69,2	+15,4	128,6
6	Boshqa mahsulotlar	31,7	36,1	51,9	+20,2	163,7

To‘qimachilik mahsulolarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosi eksportini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarib va qo‘shimcha qiymat yaratish orqali eksportni oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar nitijasidir. Jumladan Joriy yilda 1,6 mlrd. AQSH dollarga to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 9,1%ni tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 1,3 barobarga o‘tdi.

Eksport qilingan eksport mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (56,9%), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (21,8%) asosiy ulushni egallagan.

Shu nuqtai nazardan, respublika qishloq xo‘jaligi tarmoqlari eksport ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun eng jozibali sohadir. Tashqi bozorlarda bu tarmoqlar mahsulotlarini sotish uchun katta imkoniyatlar mavjud (agrosanoat kompleksida texnologik integratsiyani maksimal darajada ishlatish, to‘qimachilik mahsulotlari, tayyor kiyim-kechak, poyabzal, charm mahsulotlari va h.k. ishlab chiqarish o‘sishi bilan, MDH mamlakatlari bozoriga ustuvor yo‘naltirilganligi, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash tizimining muvozanatli rivojlanishi va boshqalar). Yani bir katta afzallik shundaki, agrosanoat majmuasi tarmoqlarida mahalliy mehnat resurslaridan foydalanish mumkin va mahsulot sifatiga zarar yetkazmasdan mexanizatsiyalashgan va katta miqdordagi qo‘l mehnati bilan ham shug‘ullansa bo‘ladi.

¹⁸¹<http://www.uzstat>

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish masalalarini ko‘rib chiqishda jahon bozorlarining globallashuvining mavjud jarayonlarini va ayrim mamlakatlarning tovarlar ishlab chiqarishda raqobatbardosh ustunliklarini amalga oshirish zarurligini hisobga olgan holda, koronavirus pandemiyasidan keyingi davrda turli yondashuvlarini hisobga olgan holda kompleks tarzda yondashish zarur.

Shu nuqtai nazardan, agrosanoat majmuasida ichki va tashqi bozorini rivojlantirish istiqbollarning asosiy bosqichlari quyidagilardir:

Qisqa muddatli davr. Eksportni rivojlantirishning asosiy institutlarini (agrokolsterlar, ixtisoslashtirilgan eksport zonolari, marketing-logistika markazlari va boshqalar) tashkil etish bilan an’anaviy savdo bozorlarini (hozirgi davrda eksportning asosiy bozori sifatida) saqlash; import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarish maqomini aniqlash (mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish); tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishda respublika va mahalliy hokimiyat organlarining vazifalarini farqlash; xomashyo resurslaridan yarim tayyor mahsulotlarga va tayyor mahsulotlarga qo‘shimcha qiymat zanjiri; lizing operatsiyalarini o‘zlashtirish, agrosanoat majmuasi qayta ishlash tarmoqlari uchun import texnologik uskunalarni tizimli ravishda sotib olishdan “modulli” shaklgaga o‘tish (samarali foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish, kadrlar bilan ta’minlash va b.) meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eksport-ishlab chiqarish zonalarini tashkil etish asosida mahalliy hududlarda “iqtisodiy o‘sishning eksportga yo‘naltirilgan modelini” sinovdan o‘tkazish va boshqalar.;

O‘rta muddatli istiqbol. Xalqaro marketing va logistika kanallariga kirish imkonini beruvchi infratuzilma bazasini, kommunikatsiya va axborot tizimlarini yaratish; agrosanoat sohasining tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish uchun maqsadli va mintaqaviy dasturlarni xorijiy kapitalni jalb qilish mexanizmi bilan amalga oshirish; texnologik yo‘nalishdagi vositachilik-innovatsion firmalarni rivojlantirish; texnologik sikl bo‘yicha qo‘shma ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish (to‘qimachilik-tikuvchilik, uzumchilik-vinochilik, sabzavot-konserva va boshqalar);

Uzoq muddatli istiqbol. Mahalliy hokimiyat organlari va mintaqaviy iqtisodiyotning xususiy sektorining xorijiy hamkorlar bilan

o‘zaro faoliyatini tashkil etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga (shu jumladan, rivojlangan mamlakatlar bozorlariga) olib chiqishni samarali qo‘llab-quvvatlash imkonini beradigan mexanizmlar; tovarlarni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun bozor iqtisodiyotining jahon miqyosidagi infratuzilmasiga integratsiya qilish. Buning uchun akkreditatsiya qilingan xorijiy firmalar bilan agrosanoat ishlab chiqarish sohasidagi qo‘shma korxonalar, bitimlar, konsorsiumlar va boshqa integratsion tuzilmalarni tashkil etish uchun xorijiy sheriklarni aniqlash maqsadida aloqalarni faollashtirish; investitsiya muhitini yaxshilash, agrosanoat majmuasiga investorlarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish; mahalliy hokimiyat organlari va xususiy sektor ishtirokida investitsiya dasturlari va loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchilar uchun teng huquqli shart-sharoitlarni ta‘minlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan, mintaqada aniq davlatlararo maqsadli dasturlar va loyihalarni amalga oshirishni malakali boshqarishga qodir yetarli kadrlar tayyorlashni ta‘minlaydigan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashning xalqaro tizimini shakllantirish; marketing faoliyatini strategik maqsadlarini aniqlash asosida mahalliy brendlarni shakllantirish.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti va iqtisodiyotning agroklastlar shaklini rivojlantirishda quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish kerak:

– koronavirus pandemiyasini salbiy oqibatlarini hisobga olgan holda, davlatlar o‘zlarining agrosanoat majmuasida tuzilmaviy siyosatlarini faollashtirishga, jahon xo‘jaligida yanada manfaatli mavqelarni egallashga yo‘naltirilgan amaliy choralarni qo‘llashga majbur qilmoqda. Boshqa mamlakatlarning agra sektorida ro‘y berayotgan tuzilmaviy o‘zgarishlar, dunyo bozorida bo‘layotgan o‘zgarishlar va shu kabilar inobatga olingan holda, har bir mamlakatning xalqaro savdoda o‘z o‘rnini topa olishi masalasi tashqi iqtisodiy aloqalar nuqtai nazaridan tobora keskin tus olmoqda;

– turli mamlakatlarning (Malayziya, Xitoy Xalq Respublikasi, Tursiya, Eron va b.) tajribasidan ko‘rinib turibdiki, agrar sektorda eksport siyosatini institutsiyaviy qo‘llab-quvvatlash agrosanoat majmuasida harakat qilayotgan iqtisodiy subyektlarning raqobat imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘mak beradi. Respublikada eksportchilarga

mahsulot ishlab chiqarishdan to uni xorijiy bozorlarda sotishgacha kompleks ko‘mak beruvchi tashkilotni tuzish, shuningdek, xorijiy tashkilotlar bilan ularning xizmatlarini jalb etish, jumladan, xalqaro savdoni tashkil etish va samaradorligini oshirishda amaliy ko‘maklashish uchun o‘zaro aloqalarni o‘rnatish taklifi ilgari suriladi;

– ilg‘or jahn tajribasi shuni ko‘rsatib turibdiki, aksariyat taraqqiy etgan davlatlarda agrosanoatda klasterlar keng rivoj topgan. Klasterlarning alohida faoliyat ko‘rsatuvchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan yaqin va uzoq istiqbolda innovatsiyalarni joriy qilish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Klasterga kirgan iqtisodiy subyektlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi (dehqon va fermer xo‘jaliklari) hamda xaridorlarning ehtiyojlarini biladigan hamda shakllangan o‘zaro munosabatlarga ega bo‘lgan qayta ishlash va savdo korxonalarini faoliyatidan daromad oladi.

Tayanch so‘zlar: klaster, raqobatbardoshlik, klaster strategiyasi, xududiy klaster, institutsional mexanizm, mintaqa, hudud, tarmoq, marketing, innovatsiya.

Nazorat savollari

1. Hududning klaster mexanizmi asosida rivojlanishini qanday tushunasiz?
2. Klaster tarkibi nimalardan iborat?
3. Klaster rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?
4. Klasterlarni qanday tiplari mavjud?
5. Klaster mexanizmining hududlarni raqobat ustunligidan samarali foydalanishdagi ahamiyati nimalardan iborat?
6. Hududlarda klasterlarning rivojlanishini institutsional asoslariga nimalar kiradi?
7. Hududiy innovatsion klaster nima?
8. Klaster strategiyasi o‘z ichiga nimalarni oladi?
9. Klaster rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishini o‘zaro bog‘liqligi nima bilan ifodalanadi?
10. Klaster rivojlanishni xorijiy tajribasi xususiyatlari nimalardan iborat?

XIII BOB. MINTAQALARNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

13.1. Axborot tizimlarini shakllantirish va uning hududiy rivojlanishga ta’siri.

13.2. Raqamli iqtisod infratuzilmasini rivojlantirish.

Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va sohaga ilg‘or aqlli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari hududda tadqiq etilganligi. Shuningdek, “Aqlli” qishloq xo‘jaligi sohasidagi xalqaro ilmiy ishlanmalar va yangiliklar, ularni O‘zbekistonda joriy etish imkoniyatlari, “Aqlli” qishloq xo‘jaligi sohasidagi jahon ishlab chiqaruvchilarining (Google, Microsoft, IBM, SAP va boshqalar) noyob texnologik yechimlari, “Aqlli” qishloq xo‘jaligini va qishloq xo‘jaligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha jahonning ilg‘or tajribasi atroflicha o‘rganiladi.

Shu bilan birga, Markazimizning bu yilgi faoliyatida xalqaro va milliy hamkor tashkilotlarimiz bilan birgalikda aynan Murojaatnomada belgilab berilgan dolzarb va muhim vazifalar hamda “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturida aks etadigan chora-tadbirlar ijrosiga qaratilgan loyihalar, tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish va ular yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali hududning iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida:

2023-yilga kelib raqamli iqtisodiyotning hudud yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko‘paytirishni nazarda tutgan holda, shu jumladan ishlab chiqarishni boshqarishda axborot tizimlari kompleksini joriy qilish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatda hisobot yuritishda dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish, shuningdek, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali uni jadal shakllantirish;

– 2020–2021-yillarda barcha sog‘liqni saqlash muassasalari, maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarini, shuningdek, qishloqlar va mahallalarni yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘iga ulash



hamda aloqa xizmatlari sifatini oshirishni ko'zda tutgan holda mamlakatning raqamli infratuzilmasini to'liq modernizatsiya qilish va zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan barcha hududlarda foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

– 2022-yilga qadar elektron davlat xizmatlari ulushini 60 foizgacha yetkazishni nazarda tutgan holda davlat axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda integratsiya qilish, davlat ma'lumotlar bazalaridagi axborotlarni unifikatsiya qilish, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibotlarini optimallashtirish va tartibga solish orqali elektron hukumat tizimini rivojlantirish;

– dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik maydonchalar yaratish orqali «raqamli tadbirkorlik»ni rivojlantirish, 2023-yilga kelib ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga yetkazish;

– ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, «Besh tashabbus» loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar hududda raqamli bilimlarga o'qitish markazini ochish. Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari – 5,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 7,6 %, axborotlashtirish xizmatlari – 3,0 %, dasturlar tuzish va tele-radio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 3,7 %, kino-, video filmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar – 0,9 % ni tashkil etdi.





1-rasm. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2019-yil,%)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng kata ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 79,2% ni tashkil etdi.

Telekommunikatsiya xizmatlarining eng yuqori ko‘rsatkichlari Jizzax (98,8%), Samarqand va Sirdaryo (97,9%), Andijon (96,9%) va Qashqadaryo (96,8%) viloyatlarida qayd etildi.

Toshkent shahri yetarli darajada rivojlangan axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga ega hududdir.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda bu yerda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar (13,4%), nashriyotchilik xizmatlari (8,6%), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo‘yicha xizmatlar (6,6%), axborot sohasidagi xizmatlar (4,8%), kino-, videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo‘yicha xizmatlarda (1,4%) da eng yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan bo‘lib, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari


tarkibida esa telekommunikatsiya xizmatlari ulushi Toshkent shahrida nisbatan past bo'lgan, bu 65,2% ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi - 5 913,0 mlrd. so'm. Buning sababi shundaki, ushbu hududda shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning aksariyati ro'yxatdan o'tgan.

Jizzax viloyati	98,8	97,9	Samarqand viloyati
Sirdaryo viloyati	97,9	96,9	Andijon viloyati
Qashqadaryo viloyati	96,8	96,7	Xorazm viloyati
Navoiy viloyati	96,4	96,3	Namangan viloyati
Farg'ona viloyati	95,5	95,3	Buxoro viloyati
Surxandaryo viloyati	95,2	94,0	Qoraqalpog'iston Respublikasi
Toshkent viloyati	89,4	65,2	Toshkent sh.

Shu bilan birga, ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish bozor xizmatlarining nisbatan katta hajmi Farg'ona (663,8 mlrd. so'm), Samarqand (613,0 mlrd. so'm), Andijon (498,6 mlrd. so'm), Namangan (454,0 mlrd. so'm), Qashqadaryo (437,1 mlrd. so'm) va Buxoro (376,4 mlrd. so'm) viloyatlarida kuzatildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylari uchun



Joriy davrda ushbu turdagi xizmatlarning eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (154,3 mlrd. so'm), Jizzax (202,6 mlrd. so'm) va Navoiy (219,8 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shadigan axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning integral elementlari quyidagilar:

- ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga axborot berish hamda internet orqali ma'lumot almashish imkoniyati;
- tezkor axborot almashishning interfaol imkoniyati va turli bozorlarda mahsulotlarni taklif qilish;
- bozor maydonini va raqamli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- sun'iy aql (ong), robototexnikalar va boshqa jarayonlar uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotdan unumli foydalanish asosida tezkor qaror qabul qilish.

Raqamli iqtisodiyot hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi shuningdek, sanoat tarmoqlari hamda xizmat ko'rsatishni samarali rivojlantirishni rag'batlantiradi. Iqtisodiyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yirik va kichik korxonalar o'rtasida mahsulotlarni rag'batlantirish uchun teng

imkoniyatlar yaratadi, bu o‘z faoliyatining samaradorligini oshiradi va sohada raqobatni ta’minlash uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

1-rasmda oliy ta’lim boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishda raqamli ta’lim muhitini shakllantirishga metodologik yondashuvlar keltirilgan.


Muvofiqligi to‘g‘risidagi qarorni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini rivojlantirishning umumiy strategik maqsadlarini hisobga olgan holda qabul qilish lozim. Shu bilan birga quyidagi jihatlarni e’tiborga olish zarur:

– IT-texnologiyalarni nafaqat o‘qitishda, balki boshqaruv jarayonlarini tashkil qilish ham qo‘llash; bu xodimlarning funksional majburiyatlarini aniq taqsimlashga hamda OTM menejmenti samaradorligini oshirishga imkon beradi;

– o‘qituvchilar malakasini tizimli ravishda oshirish (shu qatorda onlayn tartibida ham), bu esa o‘qituvchilarning OTM yo‘nalishidan kelib chiqib (ixtisosligi) o‘z uslublari va raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqishiga sharoit yaratadi;

– innovatsion jarayonlarni IT-texnologiyalaridan foydalanishi orqali nafaqat bir mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham ma’lumot va tajriba almashish imkoniyati yaratiladi. Natijada tarmoq resurslaridan professional tarzda foydalanish rivojlanadi;

– raqobatbardosh kadrlar sifati va tayyorgarligini oshirish uchun fan, ta’lim tizimi, biznes va iqtisodiyotning real sektori integratsiyasini ta’minlash.



2-rasm Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida oliy ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirishga metodologik yondashuvlar¹⁸²

¹⁸² Муаллиф томонидан тузилган.

13.2. Raqamli iqtisod infratuzilmasini rivojlantirish

O‘zbekistonda 2020-yilning “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlanishi ushbu sohaning naqadar dolzarb ekanligini anglatadi.

Mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yagona, umumlashgan tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan tegishli amaliy tadbirlar olib borilmoqda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”;

– 2018-yil 2-sentabrdagi PQ-3927-sonli “Raqamli ishonch” raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”\$

– 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022-sonli “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”\$

– 2019-yil 18-maydagi PQ-4321-sonli “Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa ushbu sohadagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash, shuningdek, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni, zamonaviy axborot texnologiyalarini davlat boshqaruvida tatbiq etishni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlanish mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan hududlarni har tomonlama rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan ilmiy salohiyatli kadrlar va turli resurslar talab etiladi.

Shu bilan birga, 2030-yilga qadar “Raqamli O‘zbekiston” konsepsiyasini ishlab chiqish yuzasidan ham chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga

o'shinish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Taraqqiyot va zamonaviy texnologiyalar bir joyda to'xtab turmaydi. U muntazam takomillashgani sayin, tabiiyki, sohaning qonunchilik asoslari ham mustahkamlanib boriladi.

Respublikamizning barcha viloyat markazlarida raqamli shaharlararo stansiyalar o'rnatildi, shaharlararo va viloyat ichidagi aloqa liniyalarida optik tolali kabellar hamda raqamli radio liniyalari o'rnatildi, televideniye va radio uzatish moslamalari modernizatsiya qilindi va o'rnatildi, CDMA simsiz radioaloqa tizimi joriy etildi. Respublikaning shaharlar va tuman markazlarining raqamli telekommunikatsiyalarni qamrab olish darajasi 100 foizga yetdi. Qishloq aholi punktlarini telekommunikatsiya tarmoqlari bilan qamrab olish darajasi 90 foizni tashkil etib, undan raqamli radio liniyalari 52 foizni tashkil etdi. O'zbekistonning telekommunikatsiya tizimi jahonning 180 ta mamlakatiga optik tolali va yo'ldoshli tizimlardan foydalangan holda 28 ta yo'nalish bo'yicha bevosita xalqaro kanallarga egaligi o'z navbatida mamlakatda raqamli iqtisodiyotga o'tish imkoniyatini beradi.

Hisobot tarmoqqa jalb qilinayotgan investitsiyalar quyidagi yo'nalishlarda amlag oshirilmoqda:

1. "Keng polosali optik tarmoqlarni rivojlantirish" loyihasi doirasida 2014–2020-yillarda tarmoq sig'imini 860 ming portga kengaytirish belgilangan. 2014–2016-yillar davrida amalga oshirilgan loyihalar doirasida keng polosali tarmoqlar sig'imi 258 ming portga, 2017-yilda 206,4 ming portga, jami 537 ming portga kengaytirilib, umumiy sig'im **1,04mln.** portdan ortdi.

2. "Optik aloqa liniyalarini qurish" loyihasi doirasida 2013–2020-yillarda 15 000 km optik tolali aloqa liniyalari qurilishi belgilangan. 2013–2016-yillarda jami 8,3 ming km, 2017-yil bugungi kunga qadar 2 350 km optik tolali aloqa liniyalari qurildi.

3. "Hududlarda mobil aloqa tarmog'ini rivojlantirish "O'zMobayl" (CDMA-450) mobil aloqa tarmog'ini rivojlantirish loyihasi doirasida baza stansiyalarini soni ko'paytirilmoqda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mobil aloqa milliy operatori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-

2126-son Qaroriga asosan “O‘zbektelekom” AK “O‘zmobayl” filiali milliy mobil aloqa operatori tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida:

Loyihaning 2-3-bosqichi doirasida tegishli telekommunikatsiya qurilmalarini keltirish bo‘yicha tender savdolari o‘tkazilib, g‘olib topilgan kompaniyalar («Huawei Technologies Co., Ltd» va «ZTE Corporation», Xitoy) bilan jami 204,8 mln. AQSH dollari miqdorida shartnomalar imzolandi.

5. 3G va 4G LTE texnologiyalari asosida mobil aloqa tarmoqlarini kengaytirish” loyihasi doirasida 2013–2020-yillarda respublika miqyosida jami 5 930 ta baza stansiyalarini ishga tushirish belgilangan bo‘lib, 3G va 4G LTE texnologiyalarini qo‘llagan “Unitel”, “Coscom”, “UMS” mobil aloqa operatorlari tomonidan 3G va 4G LTE texnologiyalari asosida joriy yilning o‘zida 1 549 ta baza stansiyalar o‘rnatilib, umumiy soni 18 032 taga yetkazildi. Respublika bo‘yicha barcha mobil operatorlar tomonidan o‘rnatilgan baza stansiyalar soni 19 740 tani hamda mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlar soni 22,8 mln. tani tashkil etdi.

6. “Keng polosali ulanish tarmoqlarini kengaytirish” hamda “Kommutatsiya qurilmalarini NGN texnologiyasi asosida kengaytirish” loyihalari doirasida 2015–2020-yillarda mos ravishda:

- keng polosali tarmoq sig‘imini 1mln. portga kengaytirish;
- 550ming raqamli kommutatsiya qurilmalarini ishga tushirish belgilangan.

7. “O‘zbekiston Respublikasi magistral tarmoqlar o‘tkazuvchanligini kengaytirish” loyihasi doirasida magistral tarmoqlar o‘tkazuvchanligini xalqaro yo‘nalishda 10 marotaba (100 Gbit/s gacha), viloyatlar markazlarigacha 4 marotaba (40 Gbit/s gacha) va tumanlar markazlarigacha 10 marotaba (10 Gbit/s gacha) kengaytirish belgilangan.


Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 2-dekabrda PQ-2267-son Qaroriga asosan Xitoy taraqqiyot banki (CDB) kredit mablag‘lari hisobidan amalga oshirilib, bugungi kunda barcha telekommunikatsiya uskunalari o‘rnatilib, ishga tushirildi.

8. Mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini joriy etish va Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish Kompleks dasturini bajarish doirasida elektron hukumat axborot tizimlari komplekslari va markaziy ma’lumotlar bazalarini yaratish bo‘yicha ko‘zda tutilgan loyihalarning 14 tasi (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali,

“Xarid”, “Soliq”, “Bojxona”, “Budjet”, “Nafaqa”, “Kliring”, “Litsenziya” axborot tizimlari komplekslari, Idoralararo integratsion platforma, Yagona identifikatsiya tizimi, jismoniy va yuridik shaxslar, avtotransport ma'lumotlar bazalari, ma'lumotnomalar reestri) joriy qilindi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlashtirish, Internet, mobilaloqa va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan innovatsiyalarni faol ravishda amalga oshiradigan zamonaviy ilg'or jamiyatni rivojlantirishning ajralmas qismidir. Bu esa hozirgi kunda dunyoda rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqilgan iqtisodiy tizimlar subyektlari mahsulotlari realizatsiyasida mahsulotni reklama qilmasdan axborot bilan ta'minlaydigan raqamli texnologiyalardan foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish uchun imkoniyatlarni aniqlashda reproduktiv yondashuvdan foydalanish asos bo'ladi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlani-----shining bir qator asosiy ko'rsatkichlarni keltirish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.

Dunyodagi raqamli iqtisodiyotning faolrivojlanishi asosan XX asrning boshida boshlangan bo'lib, bu ko'p jihatdan WorldWide Web

(WWW), Raqamli Internet, kompyuterlashtirish, robotlashtirish, axborot kommunikatsiya kompaniyalari faoliyati bilan bog‘liq. Vaqt o‘tishi bilan raqamli texnologiyalar asta-sekin inson hayotining barcha sohalariga, shu jumladan, uning iqtisodiy faoliyatiga kirib, natijada milliy iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlariga, sohalariga va hududlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan “Raqamli iqtisodiyot”ning ko‘plab ta’riflari orasida eng keng tarqalgani: “Raqamli iqtisodiyot” – bu jamiyat ne‘matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir. Raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne‘matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, o‘ziga xos nazariya bo‘lib, uning o‘rganish obyekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o‘tishi bir necha o‘n yil avvalgina boshlangan.

Tayanch so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, infratuzilma, internet, axborot tizimlari, elektron hukumat, elektron tijorat, robot, tarmoq, interaktiv xizmatlar.

Nazorat savollari

1. Raqamli iqtisodiyot deganda nima tushuniladi?
2. Axborot-kommunikatsiya sohasini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. Infratuzilmaning rivojlanish darajasiga baho bering?
4. Axborot tizimlaridan foydalanish deganda nimani tushunasiz?
5. Elektron hukumat tushunchasini ta’rifini qanday baholaysiz?
6. Internet taromog‘ini respublikada rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari qatoriga nimalar kiradi?
7. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga nimalar kiradi?
8. Interaktiv xizmatlar rivojlanishini hududiy rivojlanishga ta’sirini qanday baholaysiz?
9. O‘zbekistonda robototexnikadan foydalanish istiqbollari...
10. Elektron tijorat deganda nima tushuniladi?

XIV BOB. “YASHIL IQTISOD” VA MINTAQANI STRATEGIK RIVOJLANISHI

14.1. “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirishining nazariy-metodologik jihatlari.

14.2. Barqaror rivojlanishga erishishda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari.

Hozirgi paytda jahon iqtisodiyotining rivojlanish yangi modelini yaratish va tatbiq etishda, mamlakatlarning modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish bilan bog‘liq tadqiqotlarda global ekologik o‘zgarishlar hisobga olinmoqda va “Yashil iqtisodiyot” shakllanishi ustivor maqsad etib qo‘yilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya resurslariga o‘tish, milliy energiya tizimining modernizatsiyalash, binolar elektrojihozlarining energiya samaradorligini oshirish va elektromobil vositalardan foydalanish evaziga atmosferaga chiqayotgan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirishga e‘tibor qaratildi. Yangi sanoat obyektlarni yaratish, eksportni rag‘batlantirish, qo‘shimcha yuqori malakali ish o‘rinlari yaratishda hozirda dunyoda eski usuldagi havoga zararli gazlar uloqtiruvchi korxonalarini yaratib, atrof-muhitni vayron qilish bilan emas, balki sof energiya manba hisobiga faoliyat yurgizuvchi sanoat obyektlariga ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda fundament tadqiqotlarni kengaytirish va ularni moliyalashtirish masalalariga qaratilgan “AQSHning innovatsion strategiyasi” qabul qilingan¹⁸³. Bu borada AQSH milliy energetik xavfsiligini ta‘minlash, xalqaro raqobatbardoshlik darajasini oshirish va global iqlim o‘zgarish bilan bog‘liq bo‘lgan tahdidlarini bartaraf etish maqsadida sof energiya manbalarini joriy qilish nazarda tutilgan. Yangi texnologik ukladni yaratishning ham asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida “toza” energetika va ekologiya qaralmoqda¹⁸⁴.

Yevropa Ittifoqida ham hozirda ekologik siyosat tez suratlarda bilan amalga oshirilmoqda. Inqiroz va investitsion imkoniyatlarning

¹⁸³A Strategy for American Innovation: driving towards Sustainable Growth and Quality Jobs. Washington, September 2009. P.I-II.

¹⁸⁴Economic Report of the President, 2011. February, Washington, DC 20402-0001. P. 25.

cheklangan sharoitida ham YeIda 2020-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20%ga oshirishga qaratilgan qaror qabul qilindi¹⁸⁵.

Hamma ko'rsatkichlar bo'yicha prognozlarda ilgarilab ketgan va uglerod ikki oksidi chiqindisi hajmi bo'yicha birinchi o'rinni egallagan Xitoyda oxirgi yillarda ekologik holatni yaxshilashga va energiyani tejashga yo'naltirilgan qator qonunlar va dasturlar ishlab chiqildi.

So'ngi yillarda Xitoyda iqtisodiyotning modernizatsiyasi va energetika sohasiga doir ko'plab va uzoq yillarga mo'ljallangan qonun hujjatlar qabul qilindi. Xitoy energetik strategiyasining asosiy yo'nalishi va maqsadlari quyidagilar hisoblanadi: energiya tejamkorlikning yirik masshtabda amalga oshirilishi; atrof-muhit himoyasini hisobga olgan holda issiqlik-energetika balansini optimallashtirish; "toza ko'mir" texnologiyasini joriy qilish; bioenergetika sohasini rivojlantirish; intellektual energetik tarmoqlarni yaratish; avtomobillarning zamonaviy, ekologik jihatdan samarali dvigatellarini ishlab chiqarish. Mamlakatda atom energetikasidan tashqari qayta tiklanuvchi shamol, quyosh va bioenergiyalar rivojini ko'zda tutuvchi "Yangi energetika taraqqiyoti bo'yicha dastur" qabul qilindi. Ushbu Dastur doirasida 90-yillarning ikkinchi yarmida va 2000-yillarning boshida kichik va ekologik jihatdan zararli qazib chiqaruvchi korxonalarni kamaytirish, tarmoqni texnologik darajasini oshirish va samarali rivojlanish omili sifatida qaralib kelindi va bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Dasturda 2011–2020-yillarda nazarda tutilgan mamlakat iqtisodiyotining energosamaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga markaziy budjetdan 5 trln. yuan investitsiyalar ajratilish rejalashtirilgan. Umuman, barqaror keng qamrovli (inkluziv) o'sish modeliga ega "yashil iqtisodiyot"ga o'tish energiya balansi tuzilmasini tubdan o'zgartirishga qaratilgan ekologik innovatsiyalarni joriy qilish asosida ekologik mo'ljal olgan o'sishni amalga oshirish uchun imkon beradi.

Bunda energiya balansi tarkibida tiklanadigan energiya manbalari ulushini oshirish, resurslarni tejash hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

¹⁸⁵ Исаджанов А.А., Дадабоев У. Жаҳон иқтисодиёти глобаллашувининг экологик жihatлари. //Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Тошкент ислом университети. Илмий-таҳлилий ахборот бюллетени. 2012 йил, 3-сон.

Natijada, jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar chuqur tavsifga ega bo'lib, jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik o'lchamlarini muvofiq-lashtirishni talab etmoqda.

“Global risklar 2019” ma’ruzada ta’sir ko’rsatish nuqtai nazari-dan, beshta yetakchi global risklar qatoriga suv resurslari tanqisligi va global epidemiyalar (ijtimoiy risklar) hamda iqlim o'zgarishiga moslashish muammolari (ekologik risklar) kiritildi¹⁸⁶.

Shu bois, oxirgi o'n yillikda jahon iqtisodiyotining yangi modeli rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq tadqiqotlarda global ekologik o'zgarishlar hisobga olinmoqda. Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasini evolutsiyasi «yashil iqtisodiyot» konsepsiyasini yaratilishiga sababchi bo'ldi va jamiyat hamda iqtisodiyot tabiiyat tizimlari bilan birga ham ohang tarzda bo'lishi qayd etila boshlandi¹⁸⁷. Natijada jahon xamjamiyati tomonidan «Bizning umumiy kelajagimiz»¹⁸⁸, «XXI asr uchun kun tartibi»¹⁸⁹ hujjatlari qabul qilindi va BMTning Rio-de-Janeyroda «Atrof - muhit va rivojlanish» mavzusida konferensiya natijalari e'lon qilindi va tegishli chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi, «Global yashil yangi kurs» konsepsiyasi taklif etildi va uning asosiy mazmuni investitsiyalarni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'nal-tirish va rag'barlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo'llashga, energosamaradorlikni ta'minlashga va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq maslalani hal etishga qaratildi¹⁹⁰.

“Global yashil yangi kurs” konsepsiyasi Atrof-muhit bo'yicha BMT Dasturi (YuNEP) tomonidan 2009-yilda ilgari surilgan. Unda asosiy e'tibor sof texnologiyalar, ekologik transport, energiya samaradorligi, iqlim o'zgarishi sohasidagi strategiyalar, shuningdek iqtisodiyotni boshqa asosiy sektorlariga kamuglerodli iqtisodiyotni tashkil qilishga olib keladigan investitsiyalarni rag'batlantirishga

¹⁸⁶ Global Risk Report. World Economic Forum. 2015.

¹⁸⁷ Перелет Р. А. Направления стратегии “зеленого роста”. // <http://rospromeco.com/expertnoe-mnenie/28-analytic/expertnoe-mnenie/94-mnenie-7>

¹⁸⁸ “Наше общее будущее”. Доклад Международной комиссии по окружающей среде и развитию (МКОСР): Пер. с англ./Под ред. и с посл. С.А.Евтеева и Р.А.Перелета. - М.: Прогресс, 1989.

¹⁸⁹ Повестка дня на XXI век. ООН, 2002 г. www.un.org/russian/conferen/wssd/agenda21/

¹⁹⁰ Глобальный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЕП, 2009
www.unep.org/greenconomy/portals/30/docs/GGND-policy-brief_Russian.pdf

qaratilmoqda. Yangi, XXI asr korxonalarida yetarli miqdorda ish o‘rinlarini tashkil qilish vazifasi qo‘yildi.

Yangi global “yashil” kursida mudatlarga qarab uchta asosiy maqsad ko‘zlangan. Qisqa muddatli istiqbolda – jahon iqtisodiyotini tiklashga ahamiyatli hissa qo‘shish, mavjud ish o‘rinlarini saqlab qolish hamda yangilarini tashkil qilish, shu bilan birga eng kam himoyalangan aholi guruhlari manfaatlarini saqlab qolish. O‘rta muddatli istiqbolda – barqaror va har tomonlama iqtisodiy o‘shishni hamda Yangi ming yillikning rivojlanish maqsadlariga (MRM) erishishni ta’minlash. Bunda 2015-yilga kelib kambag‘alikning o‘ta ketgan shakllarini tugatishga alohida e’tibor qaratish kerak. Uzoq muddatli istiqbolda – uglerodli birikmalar asosida qazib olinadigan yoqilg‘iga bog‘liqlikni kamaytirish va sayyora ekotizimi buzilishining oldini olish. Mavjud ekologik tahdidlarni bartaraf etishda nafaqat mintaqaviy va milliy yondashuv, balki barcha xo‘jalik yurutuvchi subyektlar tomonidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb muammolar qatoridan joy olgan. Barqaror taraqqiyot deganda doimiy miqdoriy o‘shish kabi tom ma’nodagi barqarorlik emas, balki ekologik va ijtimoiy xususiyatlar inobatga olingan holda “nizosiz” rivojlanish nazarda tutiladi. “Barqaror” ma’nosini beruvchi “Sustainable” so‘zini “doimiy” emas, balki “mustahkam” yoki “bardavom” deb tushunish lozim.

Oxirgi vaqtda xorijda inkluziv barqaror o‘shish konsepsiyasi (inclusive sustainable growth) ancha mashhur bo‘ldi. Uning asosiy qoidalari, shu jumladan iqtisodiyot o‘shishi sur‘atlari va keng doiradagi ijtimoiy muammolar hal etilishi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligi, shu jumladan jamiyatda yaratilgan daromadlarni adolatli taqsimlash, bunda aholining nochor qatlamlariga alohida e’tibor qaratish to‘g‘risidagi xulosa dastlab 60 XX asr 80-yillarida olimlar tomonidan ishlab chiqildi¹⁹¹.

“Yashil” texnologiyalar energiya va resursni tejashga, atmosfera uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energianig muqobil manbalariga, organik qishloq xo‘jaligiga, ekodevelopmentga (atrof-muhitga kam ta’sir ko‘rsatgan

¹⁹¹ Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshkov G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics], 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.)

holda qurilishga), ilgʻor logistikaga asoslanadi. Bu oʻz navbatida iqtisodiyotga tabiatga ziyon yetkazmay rivojlanish va aholining ekologik farovonligini saqlash imkonini beradi, tabiiy kapitalni saqlash va oshirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, zaharli moddalar va uglerod chiqarilishini kamaytirdi, bioxilma xillikni kengaytiradi, shuningdek aholi daromadlari va bandligini oshiradi.

Ham birlamchi, ham ikkilamchi resurslardan ehtiyotkor va oqilona foydalanish “yashil iqtisodiyot”ga xos, bunda anʻanaviy isteʼmolga oʻrgangan jamiyat masʼuliyat bilan isteʼmol qiluvchi jamiyatga aylanadi. “Yashil iqtisodiyot” modeli inson faoliyati va tabiat hamkorligini normallashtiradi ¹⁹².

14.2. Barqaror rivojlanishga erishishda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishning strategik yoʻnalishlari

Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA)ning prognozlariga koʻra, 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish koʻlamining ikki barobarga ortishi natijasida dunyo yalpi ichki mahsulotini 1,1%ga (2018-yil narxlarida 1,3 trln. AQSH doll.) oshadi. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energiya isteʼmolidagi ulushi 36%ga borishi natijasida bu tarmoqda band boʻlganlar soni 2017-yildagi 9,4 mln. kishidan 13,5 mln. kishiga oshadi. Bu davr mobaynida qazib olinuvchi energiya tarmogʻida 2,4 mln. ish oʻrni kamayadi¹⁹³. Prognozlarga koʻra, 2030-yilda standart ssenariyga boʻyicha tovarlar va xizmatlarning xalqaro savdosi 50 trln. AQSH dollarni tashkil qiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari koʻlamining ikki barobarga oshishi esa qazib olinuvchi yoqilgʻi-energiya resurslari savdosining qisqarishi hisobiga tovarlar va xizmatlarning xalqaro savdosi hajmini 0,1 %ga kamaytiradi¹⁹⁴.

IRENA tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish mamlakatning makroiqtisodiy

¹⁹² Navstrechu zelenoy ekonomike. Puti k ustoychivomu razvitiyu i iskoreneniyu bednosti obobshchayushchiy doklad dlya predstaviteley vlastnykh struktur [Towards a Green Economy. Ways to Sustainable Development and Poverty Alleviation Is a General Report for Representatives of Power Structures]. Available at: http://old.ecocongress.info/5_congr/docs/doklad.pdf (accessed: 30.11. 2017).

¹⁹³Уша ерда.


¹⁹⁴ International Renewable Energy Agency. REthinking Energy 2017. P. 27.

ko'rsatkichlariga, xususan, YaIM o'sishi, aholi bandligi, tashqi savdo va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda atrof-muhit ifloslanishini oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Yevroittifoq mamlakatlarida 2030-yilgacha suv energiyasidan foydalanish hajmining oshishi hisobiga issiqxona gazlari 40%ga kamaytirish, buning oqibatida esa YaIMning o'rtacha 0,46%ga, bandlikning 0,5%ga oshishiga erishilishi prognoz qilinmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya iste'molini oshirishning turli choralari tufayli 2030-yilgacha Germaniyada YaIM 3%ga, ish o'rinlari soni 1%ga oshishiga, Irlandiyada 2020-yilga borib shamol energiyasi ulushining oshirilishi tufayli YaIM 0,2-1,3%ga, ish o'rinlari sonining 7450 gacha oshishiga, Saudiya Arabistonida qayta tiklanuvchi energiya quvvatining 54 GVt.ga ortishi tufayli 2032-yilgacha YaIMning 4%ga, ish o'rinlari sonining 137 mingga ortishiga, SO₂ chiqarishga qarshi siyosat orqali AQSH da 2030-yilgacha YaIM 0,6%ga, ish o'rinlari soni bir millionga o'sishiga sabab bo'ladi¹⁹⁵. Xalqaro energetika agentligi prognoziga ko'ra¹⁹⁶, 2050-yilga borib barcha elektroenergetikaga yo'naltiriladigan barcha investitsiyalarning 77%i qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha (15 ming GVtgacha) loyihalarga to'g'ri keladi. Bunda asosiy loyihalar quyosh va shamol energiyasiga to'g'ri kelishi kutilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo'naltirilgan global investitsiyalarning qiymati 2005–2018-yillarda 87 mlrd. AQSH dollardan 334 mlrd. AQSH dollargacha ortdi. Ushbu investitsiyalarning asosiy qismi quyosh va shamol energiyasiga to'g'ri kelgan (1-rasm).

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bu maqsadlarga erishishni sezilarli darajada ta'minlaydi. Bundan tashqari, QTEM energiya ta'minoti imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, qishloq va chekka hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash imkonini beradi. Shunday ekan, QTEM o'zgaruvchan iqtisodiy va iqlim sharoitlarida barqaror, moslashuvchan hamda xavfsiz energiya ta'minotining instrumenti hisoblanadi. Shuning uchun so'nggi yillarda Yevropa Ittifoqi QTEMda ushbu texnologiyalarni keng joriy qilish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

¹⁹⁵ International Renewable Energy Agency – IRENA. “Renewable energy benefits: measuring the economics”. 2016. P. 16.

¹⁹⁶<https://assets.kpmg/content/dam/kpmg/ru/pdf/2019/12/ru-ru-renewable-energy-sources-for-oil-and-gas.pdf>



1-rasm. 2005–2018-yillarda global energetika konyukturasida qayta tiklanuvchi energetikaga yo‘naltirilgan investitsiyalar, mlrd. AQSH doll.¹⁹⁷

Yevroittifoq 2009-yilda Qayta tiklanuvchi energetika bo‘yicha direktivada 2020-yilgacha uchta: atmosferaga chiqariladigan parnik gazlari miqdorini 1990-yilga nisbatan 40%ga kamaytirish, so‘nggi energiya iste‘molida QTEM ulushini 27%ga yetkazish, umumiy birlamchi energiya iste‘molini 2007-yilga nisbatan 27%ga qisqartirishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi¹⁹⁸. Keyinroq Yevroittifoq rahbariyati 2030-yilgacha energetika va iqlimni saqlash sohasida yangi tashabbuslar Paketini ishlab chiqdi. Bu maqsadlar Yevropa Ittifoqida nisbatan raqobatbardosh, xavfsiz va barqaror energetik tizimni yaratishga hamda 2050-yilgacha atmosferaga chiqariladigan parnik gazlarini kamaytirish bo‘yicha uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan (2-rasm).

Ushbu strategiya QTEM va past uglerodli texnologiyalarni rivojlantirish, yangi elektr tizimlarini qurishga xususiy investitsiyalarni rag‘batlantiradi hamda investorlar uchun jozibador bozorlarni shakllantiradi.

¹⁹⁷Bloomberg New Energy Finance. KPMG International. Renewable energy as a new development step for oil and gas companies. 2019 г. С. 5.

¹⁹⁸ Directive 2009/28/EC of the European Parliament and of The Council of 23 April 2009. on the promotion of the use of energy from renewable sources and amending and subsequently repealing Directives 2001/77/EC and 2003/30/EC. –P. 18. URL: <https://gisee.ru/upload/2009-28.pdf>(Мурожаат санаси: 27.04.2020)

2030 yilgacha strategik maqsadlar		
atmosferaga chiqariladigan parnik gazlari miqdorini 1990 yilga nisbatan 40 foizga kamaytirish	so‘nggi energiya iste‘molida QTEM ulushini 27 foizga yetkazish	umumiy birlamchi energiya iste‘molini 2007 yilga nisbatan 27 foizga qisqartirish

2-rasm. 2030-yilgacha energetika va iqlimni saqlash sohasida yangi tashabbuslar Paketining strategik maqsadlari¹⁹⁹

2030-yilgacha energetika va iqlimni saqlash sohasida yangi tashabbuslar Paketining muzokarali jihati shundan iboratki, bu paket 2009-yilgi Qayta tiklanuvchi energetika bo‘yicha direktivada (2009/28/EC) belgilangan majburiyatlardan farqli o‘laroq Yevroitifoqqa a‘zo mamlakatlarga milliy maqsadli indikatorlar majburiyatini bermaydi. 2030-yilgacha energetika va iqlimni saqlash sohasida yangi tashabbuslar Paketida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar umumiy yo‘nalish sifatida qabul qilinsa-da, har bir davlat energetika sohasida o‘z milliy siyosatini ishlab chiqadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo‘lgan talabning oshishi natijasida ushbu turdagi energiya manbalarini ishlab chiqarishga sarflanuvchi xarajatlar miqdori kamayib bormoqda. Xususan, so‘nggi yigirma yillikda QTEM orqali olinadigan 1 kVt-soat elektr energiyasiga xarajatlar 2,5 AQSH doll. dan 0,05-0,10 AQSH doll. gacha (GESlarda – 0,05; shamol stansiyalarida – 0,06; geotermal – 0,07; quyosh elektr stansiyalarida – 0,10) pasaydi. Bugungi kunda qazib olinuvchi energiya hisobiga hosil qilinadigan elektr energiyaning tannarxi katta yigirmatalik (G20) mamlakatlarida 0,05-0,17 AQSH doll./k-Vt-soatga teng²⁰⁰. 2030-yilga borib esa QTEM asosida hosil qilingan elektr energiyasining tannarxi qazib olinuvchi energiya hisobiga hosil qilinadigan elektr energiyaning tannarxidan pasayishi ham kutilmoqda.

¹⁹⁹Справочник по возобновляемой энергетике Европейского Союза. Аналитический обзор. Институт энергетики НИУ ВШЭ. Москва. 2018. –С. 7-8.

²⁰⁰Rentechno. Цена солнечной энергии: глобальная дефляция. [Электрон ресурс]. URL: <https://rentechno.ua/blog/re-power-cost.html>(Мурожаат санаси: 29.05.2020)

Bugungi kunda Barqaror rivojlanishga erishishda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishning strategik yo‘nalishlariga ijobiy ta’sir qiluvchi qator omillar mavjud:

Birinchidan, an’anaviy energiya resurslarining cheklanganligi. Ko‘pchilik ekspertlarning fikricha, 40-60-yillardan keyin jahonda an’anaviy energiya resurslarining butunlay tugashi boshlanadi. An’anaviy energiya resurslari zaxiralarining tugallanib borishi va tanqisligi natijasida o‘z-o‘zidan va tabiiy tugallanmaydigan jarayon natijasida tezda tiklanadigan hamda to‘ldiriladigan tabiiy resurslar yordamida hosil qilinadigan qayta tiklanuvchi energiyaning ahamiyatini oshirib boradi.

Ikkinchidan, an’anaviy energiya resurslariga bo‘lgan talabning doimiy o‘sib borishi. Bu shunga olib keladiki, mamlakatimizda energiya samaradorligi va tejamkorligini oshirish sharoitida ham birlamchi energiya resurslariga bo‘lgan talabning o‘shishini, energiya resurslaridan optimal foydalanish va muqobil energiya manbalarini keng ko‘lamda joriy qilishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Uchinchidan, jahon bozorida neft va tabiiy gaz narxining doimiy o‘sib borishi. Bugungi kunda dunyo energetika konyunkturasida neft va tabiiy gaz energiyaning asosiy manbalari hisoblanadi va bu ikki resurs jahonning ko‘pchilik mamlakatlari uchun yoqilg‘i-energetika balansining asosiy komponenti bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchidan, yalpi ichki mahsulot hajmi va aholi sonining oshib borishi sharoitida mamlakatlarning tashqi energiya resurslariga bog‘liqlikning vujudga kelishi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng ko‘lamda joriy qilishga asoslangan iqtisodiyotni modernizatsiyalash mamlakatimizning yoqilg‘i importiga bog‘liqligini kamaytirish, mamlakatimizdagi mavjud neft, gaz va ko‘mir kabi yoqilg‘i resurslari zaxirasining bir qismini tejash imkonini beradi.

Beshinchidan, QTEMning juda katta salohiyatiga egaligi. O‘zbekistonda quyosh energiyasining yillik yalpi potentsiyali 55,9 mlrd. t.n.e. tashkil qilib, uning texnik potentsiyali 176,8 mln. t.n.e.ga teng²⁰¹. Shunga qaramay mavjud yillik texnik potentsiyalining 0,3% gina, ya’ni 0,6 mln. t.n.e. ga teng qismigina foydalanilmoqda.

²⁰¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Электр энергетикада назорат бўйича давлат инспекцияси. [Электрон ресурс]. URL: <https://www.energonazorat.uz/ru/energoberezhnie/obzor-energeticheskoy-otrasli-uzbekistana.html> (Мурожаат санаси: 27.08.2019)

Oltinchidan, qayta tiklanuvchi energiya turlarining ekologik tozaligi. Ma'lumki, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashishning kuchayishi natijasida yer-atmosfera tizimi radiatsion energetik balansining buzilishi hamda issiqxona gazlarining oshishi juda katta iqlim o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda.

Qayta tiklanuvchi energetika rivojlanishi ijtimoiy va ekologik muhitga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi, xususan iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlari kamaydi va aholi salomatligi yaxshilanishiga olib keldi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamining ortishi tufayli jahondagi ekologik vaziyatning yaxshilanishi bilan bir qatorda ushbu turdagi energiyaning tamom bo'lmasligi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligiga katta hissa qo'shadi, an'anaviy energiya manbalari importiga bog'liqlikni kamaytiradi, uzoq va chekka hududlarni energiya bilan ta'minlash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval.

Global energetika konyukturasida 2010–2019-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishning strategik yo'nalishlariga jalb qilingan investitsiyalar hajmi dinamikasi, mlrd. AQSH dollar²⁰²

Davlatlar	yillar									
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Xitoy va Hindiston	43,9	51,4	61,6	66,4	91,1	126,9	116,0	156,3	101,9	92,7
Rivojlangan davlatlar	24,0	26,7	33,9	26,1	32,4	39,6	29,0	39,7	50,7	59,5
Boshqa rivojlanayotgan davlatlar	145,1	186,5	144,5	119,3	141,7	133,9	135,0	119,2	127,5	130,0
Dunyo bo'yicha jami	238,5	286,6	253,7	231,7	288,1	317,3	293,9	331,4	296,0	301,7

Global energetika konyukturasida 2019-yil qayta tiklanuvchi energetika rivojlanishining yuqori ko'rsatkichlariga erishildi va

²⁰²Bloomberg NEF and United Nations Environment Programme (UNEP), REN21. Renewables 2020 Global status report. Paris-2020. P. 166.

umumiy yangi o‘rnatilgan quvvatlar hajmi 200 GVtni²⁰³ tashkil qildi. So‘nggi 10 yillikda energetikaning ushbu tarmog‘iga qariyb 2,8 trln. AQSH dollar miqdorida investitsiyalar yo‘naltirilgan bo‘lib, asosiy investor mamlakatlar sifatida Xitoy va Hindiston yetakchilik qilgan. Birgina bu ikki mamlakat tomonidan 2010–2019-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsion mablag‘lar rivojlangan mamlakatlar jami investitsiya oqimidan 2,5 barobarga ortiq ekanligini ko‘rish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishning strategik yo‘nalishlariga jalb qilingan investitsiyalarning texnologik tarkibi dinamikasi, mlrd. AQSH dollar²⁰⁴

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari	yillar									
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Shamol energiyasi	97,8	83,3	78,3	83,3	111,1	119,7	123,5	133,4	132,7	142,7
Quyosh energiyasi	102,0	160,1	144,0	120,4	147,8	176,6	145,9	180,8	143,5	141,0
Biomassa va chiqindilar energiyasi	17,3	20,9	15,4	14,6	13,1	10,4	15,2	7,4	11,5	11,2
Bioyoqilg‘i	10,1	10,5	7,7	5,1	5,5	3,6	2,1	3,3	3,3	3,0
Suv energiyasi	8,2	7,7	6,3	5,7	7,4	4,2	4,3	4,0	2,3	2,5
Geotermal energiya	2,8	3,8	1,7	2,4	2,9	2,5	2,7	2,4	2,5	1,2
Okean to‘lqini energiyasi	0,3	0,3	0,3	0,2	0,4	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2

Ilm-texnika taraqqiyotining jadal o‘sib borishi natijasida, so‘nggi 10 yillikda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishning ko‘plab

²⁰³ Renewables 2020 Global status report. REN21 members. UN Environment Programme. Industry associations. Inter-governmental organizations. Science and academia. Governments. NGOS. Paris-2020. –P. 15.

²⁰⁴ Frankfurt School–United Nations Environment Programme Centre for Climate & Sustainable Energy Finance and BloombergNEF, Global Trends in Renewable Energy Investment 2020 (Frankfurt: May 2020). Paris-2020. –P. 247.

strategik yoʻnalishlari orasida shamol va quyosh energetikasini rivojlantirish loyihalari sezilarli darajada oʻsishga erishdi. Xususan, shamol energiyasidan foydalanish sohasiga 2010–2019-yillar davomida jami 1,1 trln. AQSH dollari, quyosh energetikasiga esa qariyb 1,5 trln. AQSH dollar miqdorida investitsiyalar yoʻnaltirilgan boʻlib, bu mablagʻlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM)ga jalb qilingan jami investitsiyalarning 90,1%ini tashkil qilgan.

Biomassa va chiqindilar energiyasiga ajratilgan investitsiyalar 2010–2019-yillar mobaynida oʻrtacha yillik 13,1 mlrd. AQSH dollarni tashkil qilib, ushbu davrda ularning hajmi qariyb 35%ga kamaygan. Shuningdek, bioyoqilgʻi, suv energiyasi hamda geotermal energetikaga ajratilgan investitsiyalar hajmi ham soʻnggi 10 yillikda sezilarli darajada kamaygan. Xususan, bu uch turdagi energiyani rivojlantirishning strategik yoʻnalishlari uchun yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi 2019-yilda 2010-yildagi 21,1 mlrd. AQSH dollaridan 6,7 mlrd. AQSH dollarigacha kamaygan (2-jadval). BMTning Atrof-muhit tashkiloti (United Nations Environment Programme), Amerika taraqqiyot banki (Inter-American Development Bank – IDB) va nufuzli tashkilotlar tomonidan har yili chop etiladigan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” xalqaro hisobotining 2020-yilgi sonida keltirilgan tahlillarga koʻra, bugungi kunda dunyo umumiy energiya isteʼmolida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 19,3%ni tashkil qilmoqda²⁰⁵. Ushbu turdagi energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dunyo boʻyicha oʻrtacha 26%ni tashkil qilgan²⁰⁶. Yaqin kelajakda qayta tiklanuvchi energiya manbalari oʻz ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu turdagi energiyadan foydalanish koʻlamini kengaytirish koʻpchilik mamlakatlar energiya siyosatining asosiga aylanadi. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining soʻngi energiya isteʼmolidagi ulushi 2030-yilgacha 32%ni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda. Bu koʻrsatkich rivojlangan va sanoatlashgan davlatlarda, xususan, Avstriyada 2020-yilgacha 45%, Daniyada 2050-yilgacha 100%, Braziliyada 2030-yilgacha 45%, Germaniyada 2030-yilgacha 30%, 2050-yilgacha 65%ni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda. Osiyoning

²⁰⁵ Renewables 2020 Global status Report. REN21 Steering Committee.Paris. 2020. –P. 31.

²⁰⁶ Статистический Ежегодник мировой энергетики 2019.

URL:<https://yearbook.enerdata.ru/renewables/renewable-in-electricity-production-share.html>

санаси: 12.11.2019)

(Мурожаат

rivojlangan davlatlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining energetik balansdagi ulushi nisbatan past ko'rsatkichga ega, xususan, Xitoyda birlamchi energiya iste'molida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 2019-yilda 8,4%ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2030 yilga borib esa 20%ga, Janubiy Koreyada 2019-yilda 1,7%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2030-yilgacha 11%ga yetishi prognoz qilinmoqda (3-jadval).

3-jadval.

Ayrim davlatlarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishda strategik yo'nalishlarning asosiy parametrlari²⁰⁷

Davlat	Birlamchi energiya iste'molidagi ulushi		So'nggi energiya iste'molidagi ulushi	
	2019-yildagi ulushi	Maqsadli strategiya	2019-yildagi ulushi	Maqsadli strategiya
Yevroittifoq (EU-28)	13,3 %		18,9 %	32 % - 2030-y.
Albaniya	34,4 %	18 % - 2020-y.	34,9 %	38 % - 2020-y.
Avstriya	30,1 %		33 %	45 % - 2020-y.
Belorussiya	5,5 %		5,7 %	32 % - 2020-y.
Braziliya	40,3 %		43,3 %	45 % - 2030-y.
Xitoy	8,4 %	20 % - 2030-y.	7,8 %	18 % - 2030-y.
Daniya	30 %		36,1 %	100 % - 2050-y.
Finlandiya	31,2 %		41,2 %	32 % - 2020-y. 40 % - 2025-y.
Germaniya	13,8 %		16,5 %	18 % - 2020-y. 30 % - 2030-y. 45 % - 2040-y. 65 % - 2050-y.
Fransiya	9,6 %		16,6 %	23 % - 2020-y. 33 % - 2030-y.
Gretsiya	12,1 %		18 %	35 % - 2030-y.
Janubiy Koreya	1,7 %	6,1 % - 2020-y. 11 % - 2030-y.	2,7 %	
Yaponiya	5,8 %	14 % - 2030-y.		
Niderlandiya	4,9 %		7,4 %	14 % - 2020-y.
Norvegiya	49,2 %		72,8 %	67,5 % - 2020-y.
Portugaliya	26,8 %		30,3 %	47 % - 2030-y.
Polsha		12 % - 2020-y.	12 %	15,5 % - 2020-y.
Tojikiston	37 %		44,6 %	50 % - 2020-y.
Ukraina	3 %	18 % - 2030-y.	1,9 %	11 % - 2020-y. 25 % - 2035-y.

²⁰⁷ Renewables 2017 Global status Report. REN21 Steering Committee. UN Environment Programme. Industry associations. Inter-governmental organizations. Science and academia. Governments. Paris-2020.-P. 206-208.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy so‘nggi energiya iste‘molidagi ulushi 2,92%ni tashkil qilmoqda, bu ko‘rsatkich 2030-yilga 16%ga, 2050-yilgacha 19%ga yetishi prognoz qilinmoqda²⁰⁸.

Bugungi kunda global so‘nggi energiya iste‘molida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 19,3%, qazib olinuvchi yoqilg‘i-energiya resurslari 78,4% va atom energiyasi 2,3%ni tashkil qilmoqda²⁰⁹. Organik qazib olinuvchi yoqilg‘i resurslari, xususan neft narxi, uning qazib olinishi tannarxi juda qimmat. Agarda qazib olishini qiyin kechadigan yangi neft konlari ulushi ortib borsa, bu yoqilg‘i turining narxi yanada oshib boradi. Ayni vaqtda esa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qiymatining kamayish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Yildan yilga aholi uchun issiqlik va elektr energiyasining qiymatini pasaytirish imkonini beruvchi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining innovatsion texnologiyalari ishlab chiqilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ekologik toza energiya ishlab chiqarish AESdagiga nisbatan taxminan 20 baravar qimmatga tushadi. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, jahondagi ko‘mir zaxiralari 270 yilga, neft 50 yilga va gaz 70 yilga yetadi. AESlarda ishlatiladigan uran zaxirasi esa 5 718 400 tonnani tashkil etadi. U 2500-yilga yetishi hisoblab chiqilgan. Ayrim davlatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishda AESlarning ulushi yuqori bo‘lib, 12 mamlakatda bu ulush 30 %dan oshadi. Xususan, Fransiyada – 75%, Slovakiyada – 54%, Belgiyada 51%, Ukrainada – 46% elektr energiya AESlar orqali ishlab chiqariladi²¹⁰.

Qator afzalliklariga qaramay, atom elektr stansiyalarining ayrim kamchiliklari mavjudki, ushbu kamchiliklar global energetika tizimida ushbu sohaning ma‘lum bir ulushini belgilab beradi. Atom elektr stansiyalari asosiy kamchiliklariga quyidagilarni kiritish mumkin: uran yonilg‘isi xavfli hisoblanadi, uni qayta ishlash va saqlash murakkab jarayon bo‘lib, yirik moliyaviy mablag‘larni talab qiladi; atom elektr stansiyalarini qurish uchun juda katta kapital qo‘yilmalar va juda ko‘p

²⁰⁸International Renewable Energy Agency (IRENA). Renewable Capacity Statistics 2018. – P. 2-4. http://www.irena.org/DocumentDownloads/Publications/IRENA_RE_Capacity_Statistics_2017.pdf

Жаҳон банки маълумотлари: <http://data.worldbank.org/indicator/EG.FEC.RNEW.ZS>

²⁰⁹Renewables 2019 Global status Report. REN21 Steering Committee. –P. 31.

²¹⁰Мировая атомная энергетика. Официальный сайт Южно-Украинского энергокомплекса. URL: https://www.sunpp.mk.ua/ru/nuclear/world_power_engineering (Мурожаат санаси: 09.04.2020)

suv kerak bo‘ladi; atom elektr stansiyalari ko‘p miqdorda radioaktiv chiqindilar chiqaradi hamda ularni saqlash uchun murakkab va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan infratuzilma talab etiladi; atom elektr stansiyalari bilan baxtsiz hodisa yuz berish ehtimoli judayam kam bo‘lsa-da, biror baxtsiz hodisa sodir bo‘lsa o‘ta og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining energiya sig‘imi so‘nggi yillarda keskin kamayib borayotgan bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlar ko‘rsatkichlaridan hamon ancha pastligicha qolmoqda. Mamlakatimizda 2000–2017-yillarda YaIMning energiya sig‘imi 2 barobardan ko‘proq ijobiy tomonga siljidi va 2017-yilda 1000 AQSH doll. YaIM yaratish uchun neft ekvivalentida 480 kg.ni tashkil qilgan. Bugungi kunda YaIMning energiya sig‘imi ko‘rsatkichining dunyo bo‘yicha o‘rtacha qiymati 240 kg.n.e./1000 AQSH dollarni tashkil qilmoqda. O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti energiya sig‘imi ko‘rsatkichi Yevroittifoqning umumiy ko‘rsatkichidan qariyb 4 barobarga, dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan 2 barobarga ortiqligi mamlakatimizda yaqin kelajakda energiya resurslaridan samarali foydalanishning yetarlicha imkoniyatlari borligini ko‘rsatadi^{211,212}.

Jahon Bankining ma‘lumotlariga ko‘ra O‘zbekiston iqtisodiyoti dunyo bo‘yicha energiya sig‘imi eng yuqori bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekistonning YaIM energiya sig‘imi ko‘rsatkichi qo‘shni mamlakat Qozog‘iston ko‘rsatkichidan 1,3 va Germaniya ko‘rsatkichidan 3 barobarga ortiq. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarida eskirgan asosiy vositalar ulushining ko‘pligi hisobiga mamlakat umumiy energiya iste‘molining 40% sanoat tarmoqlari iste‘moliga to‘g‘ri keladi. Jahon banki tomonidan O‘zbekiston sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish uchun 200 mln AQSH doll. hajmida investitsiya mablag‘larini yo‘naltirildi. Bu investitsion mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston iqtisodiyotining energiya sig‘imini 2030-yilga borib 50% ga qisqartirish prognoz qilinmoqda²¹³.

²¹¹Eurostat. [ENECO.UA](http://eneco.ua). - Portal on Energy Efficiency and Resource Saving. URL: <http://eneco.ua/ru/publication/statisticheskaya-informaciya/energoemkost-vvp-v-stranah-evropy-1995-2015> (Murojaat sanasi: 04.05.2020)

²¹²Ўзбекистон Республикасининг 2035 йилгача ривожланиш Стратегиясининг концепцияси. Буюк келажак. Т.: 2019. -Б. 131. <http://parliament.gov.uz/ru/events/opinion/24286/> (Murojaat sanasi: 11.11.2019)

²¹³World Bank. <http://www.vseмирnyjbank.org/ru/news/press-release/2018/01/30/industrial-enterprises-to-become-more-energy-efficient-reducing-overall-energy-consumption-in-uzbekistan>

Bugungi kunda mamlakatimiz energiya balansida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan neftning aniqlangan umumiy zaxirasi 590 mln. barrelni (yoki 80,5 mln. tonna) tashkil qilmoqda. So‘nggi yillarda gaz ishlab chiqarish va iste‘molining ortishi, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamining oz bo‘lsa-da, oshishi tufayli neft iste‘moli va shunga mos ravishda bu yoqilg‘i turini ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada kamayib bormoqda. Mamlakatimizda 1991-yilda neft iste‘moli yiliga 10,7 mln. tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilda O‘zbekistonda 2,6 mln. tonna neft iste‘mol qilingan. Yillik neft ishlab chiqarish hajmi 1991 yilda iste‘mol hajmidan qariyb 4 marotaba kam miqdorni, ya‘ni 2,8 mln. tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich oshib borib, 1995-yildan deyarli iste‘mol hajmiga mutanosiblikda kamayib borgan. 2018-yilda mamlakatimizning umumiy yillik neft ishlab chiqarish hajmi 2,9 mln. tonnani tashkil qilgan. Mamlakatimiz neft iste‘moli va ishlab chiqarishining kamayish tendensiyasi so‘nggi yillarda iqtisodiyotimizda energiya resurslari sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, umuman olganda energiya samaradorligini oshirish ustuvor masalalardan biri sifatida qolayotganligi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston birlamchi energiya iste‘molida asosiy ulushni gaz tashkil qiladi. Uning energiya balansidagi ulushi deyarli 80%ni tashkil qiladi. O‘zbekiston gaz qazib olish bo‘yicha dunyoda 11-o‘rinda va uni iste‘mol qilish bo‘yicha 10-o‘rinda turadi. Aholi jon boshiga gaz iste‘moli bo‘yicha mamlakatimiz dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan 3,5 barobar yuqori ko‘rsatkichga ega, ya‘ni bu miqdor 1,6 ming m³/kishi/yil ni tashkil qiladi²¹⁴. Mamlakatimizda 2018-yil holatiga aniqlangan umumiy gaz zahiralarini hajmi 1210,5 mlrd. m³ni tashkil qilgan. Yillik gaz qazib chiqarish ham 1991–2018-yillarda 41,9 mlrd. m³dan 56,6 mlrd. m³ga oshgan bo‘lsa, ushbu davrda yillik iste‘mol mos ravishda 32,7 mlrd. m³dan 42,6 mlrd. m³ga ko‘paygan.

“O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan 2030-yilga qadar aniqlangan gaz zahiralarini miqdorini 2,2 marotaba oshirish va 5,6 mlrd. t.n.e.ga yetkazishni rejalashtirilmoqda. Bunda ishonchli uglevodorod xomashyo bazasini yaratish va 2030 yilgacha bo‘lgan davrda gaz qazib olish darajasini qo‘llab-quvvatlash uchun mavjud gaz zaxiralarini

²¹⁴<https://neftegaz.ru/analysis/view/8429-Neft-gaz-i-energetika-Uzbekistana> (Мурожаат санаси: 02.08.2018)


oshirish va gaz qazib chiqarishni yillik 1,1-1,5 barobarga muntazam o'sib borishini ta'minlash zarur bo'ladi. Aksionerlik jamiyatining hisob kitoblariga ko'ra, 2030-yilgacha neft va gaz tarmog'ini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida aniqlangan tabiiy gaz zaxiralari hajmini 2,393 trln. m³ga, neft zaxiralarini 132,4 mln. tonnaga, kondensatlar zaxirasini 102,6 mln. tonnaga oshishi prognoz qilinmoqda²¹⁵.

Jahonda yetakchi neft kompaniyasi hisoblangan British Petroleum tomonidan 2019-yilda chop etilgan hisobotda O'zbekiston birlamchi energiya iste'molida ko'mirning ulushi 2,7%ni tashkil qilishi keltirilgan²¹⁶. Ushbu yoqilg'i turining umumiy zahirasi 1,832 mlrd. tonnani tashkil qilmoqda. Mamlakatimizda ko'mirning yillik iste'moli 1991-yilda 3,118 mln. t.n.e.ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1992–1995-yillarda keskin kamaydi, 1996–2015-yillarda sezilarli bo'lmagan darajada oshib bordi. Ko'mir iste'moli hajmi 2016–2018-yillarda keskin ortishi kuzatildi hamda 2018-yilda bu ko'rsatkich 3,1 mln. t.n.e.ga yetgan. 1991–1995-yillarda ko'mir iste'moli va ishlab chiqarish o'rtasidagi tavovut sezilarli darajada yuqori bo'lgan, xususan, 1991-yilda iste'mol ishlab chiqarish hajmidan deyarli ikki barobar ortiq bo'lgan. Keyingi yillarda esa mamlakatimiz ko'mir sanoati tarmog'ida iste'mol va ishlab chiqarish o'rtasida mutanosiblik yuzaga kelgan. Ko'mirga bo'lgan talab va qazib chiqarish hajmi o'rtasidagi farq talab taqchillikni yuzaga keltirmoqda, xususan, 2018-yilda talabning qazib chiqarish hajmidan 100 ming tonnaga ortiqligini ko'rish mumkin (3-rasm).

Ko'mir taqchillikni oldini olish hamda ishonchli uglevodorod xomashyo bazasini yaratish maqsadida, mamlakatimizda 2020-yilgacha bo'lgan davrda ko'mir qazib olish darajasini keskin oshirish vazifasi qo'yilmoqda. Bugungi kunda dunyoda ko'mir qazib olish bo'yicha Xitoy, AQSH, Hindiston, Germaniya, Rossiya va Ukraina kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda. O'zbekiston 2018–2020-yillarda "Sharg'un ko'mir" AJni modernizatsiya qilish asosida Surxondaryo viloyatida joylashgan Sharg'un ko'mir konidan bugungi kunda qazib olinayotgan 150 ming tonna toshko'mirni 900 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilmoqda.

²¹⁵<http://www.biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/46632--rol-nxk-luzbknftgazr-v-ekonomichskom-razvitii-toplivno-energtichskogo-komplksa-rpubliki-uzbkistan->

²¹⁶British Petroleum. BP Statistical Review of World Energy. London. June 2019. 68th edition. – P. 9.



3-rasm. O‘zbekistonning 1991–2018-yillardagi aniqlangan ko‘mir zaxiralari, yillik iste‘moli va ishlab chiqarish hajmi²¹⁷

Loyihaning umumiy qiymati 105,5 mln. AQSH dollarni tashkil qilmoqda. Sharg‘un ko‘mir konining bugungi kundagi zaxirasi qariyb 33 mln. tonnani tashkil qilmoqda²¹⁸. Loyihaning joriy qilinishi natijasida yillik qazib olish hajmi 0,9 mln. tonnaga yetkazilsa, Sharg‘un ko‘mir koni 35-40 yil davomida mamlakatimiz ko‘mir sanoatida yirik ta‘minotchi kon vazifasini o‘taydi.

Ma‘lumki, milliy energiya balansi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘ladi, jumladan, mavjud tabiiy resurslar, iqtisodiyot tarkibi va boshqalar. Dunyo tajribasidan ma‘lumki, gaz qazib olishga ixtisoslashgan mamlakatlar, neft va ko‘mir ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mamlakatlarga nisbatan kam ekologik salbiy ta‘sirlarni yuzaga keltiradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va atom energiyasi keng ko‘lamda foydalaniladigan mamlakatlar esa “barqaror rivojlanish” konsepsiyasining tarkibiy qismi hisoblangan ekologik indikatorlari bo‘yicha yuqori ustunlikka ega. Bugungi kunda O‘zbekiston energiya balansining asosiy qismini gaz tashkil qiladi. Ushbu yoqilg‘i energiyasi turining mamlakatimiz birlamchi energiya iste‘molidagi ulushi 2018-yilda 83,4%ni tashkil qilgan. So‘nggi yillarda ko‘mir ishlab iste‘moli va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foyda-

²¹⁷Муаллиф томонидан тузилган. Манба: British Petroleum. BP Statistical Review of World Energy. London. June 2019. 68th edition. P.36,38,39. <https://www.bp.com/content/dam/bp/business-sites/en/global/corporate/pdfs/energy-economics/statistical-review/bp-stats-review-2019-full-report.pdf>

(Мурожаат санаси: 20.06.2019)

²¹⁸<http://kommersant.uz/news/uzbekistan-uvelichit-dobychu-uglya-na-mestorozhdenii-shargun>.

lanish ko‘lamining ortishi natijasida energiya balansida neftning ulushi kamayishi kuzatilmoqda, xususan, neftning energiya balansidagi ulushi 2016-yilda 7,6%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 5,9% gacha kamaygan.

Mamlakatimizda ko‘mir sanoatini tubdan modernizatsiya qilish va uni qazib olish darajasini keskin oshirish chora-tadbirlari natijasida so‘nggi yillarda energiya balansi tarkibida ushbu energiya turining ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, 2016-yilda ko‘mir iste‘molining birlamchi energiya iste‘molidagi ulushi 2,3%ni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018-yilda 3,0%ga yetgan. Ko‘mir iste‘molining oshishiga asosiy sabablardan biri issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg‘i-energiya resurslari iste‘moli tarkibida ko‘mir ulushining oshishidir. Xususan, uglevodorod xom-ashyosi yonishi hisobiga elektr energiyasi ishlab chiqarishda ko‘mirning ulushi 2005-yilda 4,8%ni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich bosqichma-bosqich oshirilib 2020-yilda 14,7%gacha yetkazilishi prognoz qilinmoqda. Elektr energiyasini hosil qilishda gazning ulushi esa kamayib boradi. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga borib 2005-yilga nisbatan 11,1%ga kamayishi kutilmoqda²¹⁹.

Energiyaga bo‘lgan umumiy talabni to‘liq qondirish, yuqori iqtisodiy samaradorlik, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish kabi qator masalalarni hal qilish imkonini berganligi uchun, so‘nggi yillarda mamlakatimizda umumiy energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi ortib bormoqda. Ushbu energiya manbalarining umumiy quvvati 2000–2018-yillarda jami 403 MVt.ga oshib, 2018-yilda 1844 MVt.ni tashkil qilgan. Bugungi kunda mamlakatimiz energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi qariyb 3%ni tashkil qilmoqda, jami elektr energiyaning esa o‘rtacha 10-12%i QTEMLarga to‘g‘ri kelmoqda.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, eng avvalo quyosh energiyasidan foydalanish sohasida ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining “Fizika-Quyosh” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi hamda Quyosh energiyasi xalqaro instituti tashkil qilingan.

²¹⁹Аллаев К. Какие альтернативыу альтернативной энергетики? Экономическое обозрение. № 5 (2017). – С. 25.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti energiya sig‘imi ko‘rsatkichi rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichidan 1,7-2 barobarga ortiqligi mamlakatimizda yaqin kelajakda energiya resurslaridan samarali foydalanishning yetarlicha imkoniyatlari borligini hamda energetika sohasi bo‘yicha olib borilayotgan siyosatimiz oldida hal qilinishi kerak bo‘lgan energiya resurslaridan optimal foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, energiya sig‘imini kamaytirish, energiya muqobil manbalaridan keng ko‘lamda foydalanish kabi ustuvor masalalar turganligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda iqtisodiyotni energiya resurslari bilan ta‘minlash quyidagi ikki vazifani hal etish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin:

Birinchidan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish yo‘li bilan mamlakatimizning yoqilg‘i-energetika balansini diversifikatsiyalash. Bunda elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda an‘anaviy yoqilg‘i turlarini qayta tiklanuvchi energiya manbalariga almashtirish orqali ularning ulushini kamaytirishga erishiladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishning energiya sig‘imini qisqartirish bo‘yicha uzoq muddatli dasturlarni hamda sanoat tarmoqlarida ekologik holatni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

BMTning Atrof-muhit tashkiloti (United Nations Environment Programme), Amerika taraqqiyot banki (Inter-American Development Bank – IDB) va nufuzli tashkilotlar tomonidan har yili chop etiladigan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” xalqaro hisobotining 2019- yilgi sonida keltirilgan tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda dunyo umumiy energiya iste‘molida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 19,3% ni tashkil qilmoqda²²⁰. Ushbu turdagi energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2018-yilda dunyo bo‘yicha o‘rtacha 26%ni tashkil qilgan²²¹. Yaqin kelajakda qayta tiklanuvchi energiya manbalari o‘z ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu turdagi energiyadan foydalanish ko‘lamini kengaytirish ko‘pchilik mamlakatlar energiya siyosatining asosiga aylanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya

²²⁰ Renewables 2019 Global status Report. REN21 Steering Committee. –P. 31.

²²¹ Статистический Ежегодник мировой энергетики 2019.

URL: <https://yearbook.enerdata.ru/renewables/renewable-in-electricity-production-share.html>

manbalarining so‘ngi energiya iste‘molidagi ulushi 2020-yilgacha 20%, 2030-yilgacha 27%ni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda. Bu ko‘rsatkich rivojlangan va sanoatlashgan davlatlarda, xususan, Avstriyada 2020-yilgacha 45%, Daniyada 2020-yilgacha 35%, 2050-yilgacha 100%, Braziliyada 2030 yilgacha 45%, Germaniyada 2030-yilgacha 30%, 2050-yilgacha 60% ni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda. Osiyoning rivojlangan davlatlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining energetik balansdagi ulushi nisbatan past ko‘rsatkichga ega, xususan, Xitoyda birlamchi energiya iste‘molida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 2017-yilda 10%ni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020-yilgacha 15%, 2030-yilga borib esa 20%ga, Janubiy Koreyada esa 2020-yilgacha 6,1%, 2030-yilgacha 11%ga yetishi prognoz qilinmoqda (4-jadval).

4-jadval

Ayrim davlatlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha maqsadli strategiyalar²²²

Davlat	Birlamchi energiya iste‘moli		So‘nggi energiya iste‘moli	
	Ulushi	Maqsadli strategiya	Ulushi	Maqsadli strategiya
Yevroittifoq (EU-28)			16 %	20 % - 2020-y. 27 % - 2030-y.
Albaniya		18 % - 2020-y.	35 %	38 % - 2020-y.
Avstriya			33 %	45 % - 2020-y.
Belorussiya			5,7 %	32 % - 2020-y.
Braziliya			39,4 %	45 % - 2030-y.
Xitoy	10 %	15 % - 2020-y. 20 % - 2030-y.		
Daniya			30 %	35 % - 2020-y. 100 % - 2050-y.
Finlandiya			39,3 %	40 % - 2025-y.
Germaniya			14 %	18 % - 2020-y. 30 % - 2030-y. 45 % - 2040-y. 60 % - 2050-y.
Fransiya			15 %	23 % - 2020-y. 32 % - 2030-y.
Gresiya			15 %	20 % - 2020-y.
Janubiy Koreya		6,1 % - 2020-y.		

²²² Renewables 2017 Global status Report. REN21 Steering Committee. –P. 187-194.

		11 % - 2030-y.		
Yaponiya	5,8 %	14 % - 2030-y.		
Niderlandiya			6 %	16 % - 2020-y.
Norvegiya			69 %	67,5 % - 2020-y.
Portugaliya			28 %	40 % - 2030-y.
Shvetsariya		24 % - 2020-y.		
Polsha		12 % - 2020-y.	12 %	15,5 % - 2020-y.
O‘zbekiston			3,0 %	16 % - 2030-y. 19 % - 2050-y.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy so‘nggi energiya iste‘molidagi ulushi 2,92%ni tashkil qilmoqda, bu ko‘rsatkich 2030-yilga 16%ga, 2050-yilgacha 19%ga yetishi prognoz qilinmoqda²²³.

O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalarining juda katta salohiyatiga ega. Xususan, mamlakatimizda quyosh energiyasining yillik yalpi potentsiyali 55,9 mlrd. t.n.e. (qayta tiklanuvchi energiya manbalari umumiy salohiyatining 99,7%ga teng) va uning texnik salohiyati 176,8 mln. t.n.e. (qayta tiklanuvchi energiya manbalari umumiy texnik salohiyatining 98,6% ga teng) ni tashkil qiladi. Uzoq hududlarda qishloq xo‘jaligi uchun katta istiqbolli hisoblangan shamol energiyasining yillik umumiy salohiyati 2,2 mln. t.n.e. ni tashkil qilmoqda²²⁴.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda quyosh energiyasining mavjud yillik texnik salohiyatining 0,3% gina, ya’ni 0,6 mln. t.n.e. ga teng qismigina foydalanilmoqda²²⁵. Bundan tashqari, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi, chorvachilik chiqindilari hamda g‘o‘za poya orqali biogaz olish bo‘yicha “O‘zbekistonda biogaz texnologiyalarini rivojlantirishga ko‘maklashish” loyihasi boshlangan. Chunki, biogaz ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo manbalarining mamlakatimizning barcha hududlari bo‘yicha taqsimlanganligi tufayli avtonom qurilmalarni yaratish iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi.

²²³ International Renewable Energy Agency (IRENA). Renewable Capacity Statistics 2017. – P. 2-4. http://www.irena.org/DocumentDownloads/Publications/IRENA_RE_Capacity_Statistics_2017.pdf

Жаҳон банки маълумотлари: <http://data.worldbank.org/indicator/EG.FEC.RNEW.ZS>

²²⁴Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Электр энергетикада назорат бўйича давлат инспекцияси. [Электрон ресурс]. URL: <https://www.energonazorat.uz/ru/energoberezhnie/obzor-energeticheskoy-otrasli-uzbekistana.html>

²²⁵Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Электр энергетикада назорат бўйича давлат инспекцияси. [Электрон ресурс]. URL: <https://www.energonazorat.uz/ru/energoberezhnie/obzor-energeticheskoy-otrasli-uzbekistana.html>

Bu loyiha mamlakatimizda biogaz ishlab chiqarish salohiyatini baholash va tekshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha O'zbekistonda qator milliy vazifalar²²⁶, xususan 2030-yilgacha arzon, ishonchli va zamonaviy energiya ta'minotidan umumiy foydalanishni ta'minlash, energetika muvozanatida tiklanuvchan manbalardan olinadigan energiya ulushini jiddiy ravishda ko'paytirish, energiya samaradorligini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatkichni ikki baravar oshirish, zamonaviy va barqaror energiya bilan ta'minlash uchun infratuzilmani kengaytirish va texnologiyalarni modernizatsiya qilish vazifalari belgilandi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish bugun va yaqin kelajakda iqtisodiyotimizda energiya samaradorligining oshishi, energiyaning muqobil manbalaridan foydalanish ko'lamini kengayishiga, ekologik toza energiya siyosatiga erishishga, natijada esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkonini beradi. Bugungi kunda mamlakatimiz energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi qariyb 3%ni tashkil qilmoqda, jami elektr energiyaning esa o'rtacha 10-12%i QTEMLarga to'g'ri kelmoqda^{227,228}. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha ko'plab maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida 2025-yilga borib mamlakatimizda elektr energiyaning 20%i (jumladan, GESlar – 16,1%, quyosh energiyasi – 2,3% va shamol energiyasi – 1,6%) qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga ishlab chiqariladi^{229,230}.

Tayanch so'zlar: ekologiya, atrof-muhit, yashil iqtisod, iqlim, ekotizim, elektr energiya, muqobil energiya, quyosh energiyasi, qayta

²²⁶Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 октябрдаги “2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 841-сон қарори.

²²⁷URL: <https://data.worldbank.org/indicator/EG.FEC.RNEW.ZS?view=chart>

²²⁸URL:<https://yearbook.enerdata.net/renewables/renewable-in-electricity-production-share.html>

²²⁹URL:<https://regulation.gov.uz/ru/document/4105>

²³⁰Ўзбекистон Республикасининг 2035 йилгача ривожланиш Стратегиясининг концепцияси. Буюк келажак. Тошкент-2019. –Б. 136.

tiklanuvchi energiya, BMT, ekologik xavfsizlik, konsepsiya, barqarorlik.

Nazorat savollari

1. Hududning barqaror rivojlanishi deganda nima tushuniladi?
2. Barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. Orol bo‘yi mintaqasining ekologik ahvoriga baho bering.
4. Tabiiy resurslardan ratsional foydalanish deganda nimani tushunasiz?
5. “Yashil iqtisod” tushunchasi ta’rifini qanday baholaysiz?
6. “Yashil iqtisod”ning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga nimalar kiradi?
7. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga nimalar kiradi?
8. Muqobil energiya ishlab chiqarishni barqaror rivojlanishga ta’sirini qanday baholaysiz?
9. O‘zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanish istiqbollari...
10. Ekologik xavfsizlik deganda nima tushuniladi?

XV BOB. MINTAQADA INNOVATSION IQTISODNI RIVOJLANISHI VA UNI STRATEGIK RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

15.1. Xalqaro raqobatni o‘shish sharoitida hududiy innovatsiya ekotizimlarni shakllanishi.

15.2. Hududlarda ilmiy g‘oyalarni tijratlashtirishning xorij tajribasi.

“Raqamli iqtisodiyot”ning jadal rivojlanishi, kapital bozorlari va yangi texnologiyalar o‘rtasidagi aloqalari jadallashib borishi, yangi texnologiyalarning ijtimoiy yo‘nalganligini mustahkamlash, bilim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mahsulotlar va xizmatlarni yaratish va ulardan keng ko‘lamli foydalanish hududlarni innovatsion rivojlantirish uchun institutsional asos sifatida mintaqaviy ekotizimlar paydo bo‘lishiga olib keldi²³¹.

Bu chuqur jarayonlar global muammolarga javob sifatida zarur shart-sharoitlarni yaratib, ularsiz innovatsion faoliyatning asosiy bo‘limlari, subyektlari va obyektlarini yagona integratsiyalashgan ekotizimga organik ravishda bog‘lash mumkin emas edi. Bunday shartlar sifatida quyidagilar e‘tirof etish mumkin: 3.0 modeliga asoslangan universitet tizimi (tadqiqot, texnologik zanjirlar, malakali kadr resurslari, tijratlashtirish va boshqalar), tarmoq texnologiyalari, yagona raqamli makon, iqtisodiy va institutsional muhit, milliy va mintaqaviy miqyosdagi yirik innovatsion loyihalar, davlatning integratsion roli, jamiyatning innovatsion madaniyati va boshqalar.

Hozirgi dunyo xo‘jaligini globallasuvi sharoitida raqobatbardosh iqtisodiyotlarning o‘zaro bog‘liqlik muammosini qat’iy ilmiy tahlil qilish zarurati yuzaga kelganki, u bozor o‘zgarishlari sharoitida milliy iqtisodiyotlarning raqobat afzalliklarini belgilab beruvchi obyektiv va subyektiv omillar va sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning amaliy jihatlarini ham birgalikda o‘rganishni taqozo etadi²³².

²³¹Дагаев А.А., Яковлева А.Ю. Экосистема инноваций (региональные особенности формирования и развития) // Федерализм. 2011. № 4(64). С. 55-64.

²³²Джанстер П., Хасси Д. Анализ сильных и слабых сторон компании. Определение стратегических возможностей. – М.: Вильямс, 2004. – 504 с.

Innovatsion faoliyat, ya'ni xo'jalik faoliyati subyektlari tomondan fan-texnika, tashkiliy, boshqaruv va boshqa turdagi yangiliklarni yaratish, foydalanish va keng yoyish jarayonlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonining mazmunini tashkil etadi. Bugungi kunda yuqori rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi to'rt darajaga ajratiladi, bular: xomashyoni qazib olish va dastlabki ishlov berish tarmoqlari; an'anaviy og'ir (material va mehnat sig'imi yuqori) sanoat tarmoqlari; yuqori texnologik tarmoqlar (hightech), ular material va mehnat sig'imining nisbatan pastligi, biroq qo'shilgan qiymatda ilmiy tekshirish va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) xarajatlar ulushining juda yuqoriligi bilan belgilanadi; "yumshoq" (soft) texnologiyalar (xizmatlar) tarmog'i, masalan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, tizimli integratsiya, konsalting, ta'lim va h.k.²³³.

Hududlarda innovatsion faoliyatni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash vositalari tizimini shakllantirish muvofiq institutsional bazani yaratish, shuningdek, sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi (1-jadval).

Tahlil natijalariga ko'rasanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni respublikadagi ulushi bo'yicha eng yuqori o'rinda Andijon – 10,8% (2016-yilda 11,0%), Navoiy – 13,8% (9,5%), Toshkent – 16,6% (15,1%) va Qashqadaryo – 6,3% (8,6%) viloyatlar tashkil qiladi.

Respublika qishloq xo'jaligi korxonalarining hozirgi zamon sharoitida yutuqlaridagi muhim omillar, amaliy tadqiqotlar, ishlab chiqarish kuchlari va texnologiyalarini yangilash, ishlab chiqarish vositalarini moderinizatsiyalash, eng avvalo, innovatsion-texnik salohiyatning bosh zaxirasi sifatida ishlab chiqarishni texnik jihozlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini ko'tarish (mevasabzavot, uzum, paxta xomashyosi kabi), qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi vajiymoiy infratuzilmasini takomillashtirish va ayniqsa, ijodiy salohiyatini rivojlantirishdir.

²³³ Кузьминов Я., Яковлев А.: Модернизация экономики: глобальные тенденции, базовые ограничения и варианты стратегии. Препринт WP5/2002/01.–М.: ГУ-ВШО, 2002.с.157.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish dinamikasi²³⁴

Hududlar	Hajmi, mlrd.so‘m		Ulushi, %		O‘zgarishi, 2019-yil 2016-yilga nisbatan	
	2016	2019	2016	2019	mlrd. so‘m	(+), (-)
O‘zbekiston Respublikasi	111 869,4	322 535,8	100,0	100,0	210 666,4	-
Qoraqolpog‘iston Respublikasi	4 265,7	12 736,1	3,8	3,9	8 470,4	+0,1
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	7 965,7	33 122,3	7,1	10,3	25 156,6	+3,2
Buxoro	5 569,6	14 798,2	5,0	4,6	9 228,6	-0,4
Jizzax	2 001,2	4 586,1	1,8	1,4	2 584,9	-0,4
Qashqadaryo	9 632,2	20 360,1	8,6	6,3	10 727,9	-2,3
Navoiy	10 657,9	44 438,1	9,5	13,8	33 780,2	+4,3
Namangan	3 475,7	8 818,1	3,1	2,7	5 342,4	-0,4
Samarqand	7 446,0	15 783,6	6,7	4,9	8 337,6	-1,8
Surxondaryo	2 200,7	4 231,3	2,0	1,3	2 030,6	-0,7
Sirdaryo	3 522,3	7 293,0	3,1	2,3	3 770,7	-0,8
Toshkent	16 864,7	53 484,8	15,1	16,6	36 620,1	+1,5
Farg‘ona	8 040,7	18 661,2	7,2	5,8	10 620,5	-1,4
Xorazm	2 802,7	8 538,6	2,5	2,6	5 735,9	+0,1
Toshkent sh.	23 511,9	52 747,5	21,0	16,4	29 235,6	-4,6

Bu qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning hududiy tabaqalashishi bilan belgilanadi (2-jadval).

Tahlillarni ko‘rsatishicha, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni respublikadagi ulushi bo‘yicha eng yuqori o‘rinda Andijon – 10,8% (2016-yilda 11,0%), Samarqand – 13,1% (11,9%), Toshkent – 9,6% (12,6%) va Qashqadaryo – 9,1% (8,1%) viloyatlar tashkil qiladi.

Biroq, mintaqalarni innovatsion rivojlantirishning ushbu bog‘lovchi, tizimni shakllantiruvchi omillari ma‘lum bir shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda samarali ishlashi mumkin: viloyatning innovatsion jarayonini yo‘lga qo‘yish uchun yetarli bo‘lgan texnologik va intellektual salohiyat.

²³⁴Муаллиф томонидан тузилган.

**Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi
(amaldagi narxlarda)²³⁵**

Hududlar	Hajmi, mlrd.so‘m		Ulushi, %		O‘zgarishi, 2019-yil 2016-yilga nisbatan	
	2016	2019	2016	2019	mlrd. so‘m	(+), (-)
O‘zbekiston Respublikasi	48 431,1	224 265,9	100,0	100,0	175 834,8	-
Qoraqolpog‘iston Respublikasi	1 384,1	8 769,3	2,9	3,9	7 385,2	+1,1
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	5 311,3	24 314,9	11,0	10,8	19 003,6	-0,2
Buxoro	4 455,7	19 436,2	9,2	8,7	14 980,5	-0,5
Jizzax	2 412,0	14 105,9	5,0	6,3	11 693,9	+1,3
Qashqadaryo	3 939,9	20 415,1	8,1	9,1	16 475,2	+1,0
Navoiy	2 380,9	9 934,2	4,9	4,4	7 553,3	-0,5
Namangan	3 568,2	16 832,2	7,4	7,5	13 264,0	+0,1
Samarqand	5 781,8	29 294,7	11,9	13,1	23 512,9	+1,2
Surxondaryo	4 158,3	18 152,0	8,6	8,1	13 993,7	-0,5
Sirdaryo	1 857,0	7 984,8	3,8	3,6	6 127,8	-0,2
Toshkent	6 115,5	21 632,7	12,6	9,6	15 517,2	-3,0
Farg‘ona	4 032,4	18 946,3	8,3	8,4	14 913,9	+0,1
Xorazm	3 034,0	14 447,6	6,3	6,4	11 413,6	+0,1

Viloyatda innovatsion tarmoqlar ishtirokchilari sonining doimiy o‘sishi, shu jumladan, unga yangi ijtimoiy guruhlarning jalb etilishi natijasida; innovatsion rivojlanishga qaratilgan mintaqaviy ekotizim (rasmiy va norasmiy elementlarni o‘z ichiga oladi); viloyatdagi aksariyat xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jismoniy shaxslar va umuman iqtisodiyotning innovatsiyalarga bo‘lgan talabi mavjudligi; innovatsion tizimini zarur moliyalashtirishni imkon beradigan yetarli darajadagi iqtisodiy rivojlanishi (YaIM, shu jumladan aholi jon boshiga, korxonalar investirlari va boshqalarning o‘sishi).

Rivojlangan jahon davlatlarida mintaqaviy innovatsiya siyosatini shakllantirishda tizimli yondashuvdan foydalanish, ayniqsa, jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi quyidagi zamonaviy tendensiyalar fonida muhim ahamiyat kasb etdi:

– yuqori sifatli inson kapitali uchun raqobat jahon innovatsion rivojlanishning eng muhim xususiyatiga aylanmoqda, yuqori malakali kadrlar harakatchanligining o‘sib borishi ham bilim tarqatishni ta’minlaydi;

²³⁵Муаллиф томонидан тузилган.

– bilimlarni tarqatish jarayonida raqamli texnologiyalarning roli innovatsion faoliyatning yanada o‘shishi uchun dolzarb bo‘lib bormoqda, bilimlarni tarqatish jarayonlari alohida iqtisod va mintaqalar chegarasidan chiqib ketdi;

– globallashtirish kompaniyalarni tobora yuqori texnologiyalar bilan raqobatlashishga majbur qiladi va ayni paytda mintaqalardagi innovatsiyalarni ekotizimini rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

– Innovatsion ekotizimlarni hududiy tamoyillaraga ko‘ra tasniflash ularni quyidagi turlarini ajratish imkoniyatini berdi:

– jahon innovatsion ekotizimi, global innovatsion ekotizimning asosiy maqsadi tan olingan bilim sohalarida (raqamli iqtisodiyot, energetika, biotexnologiya, nanotexnologiya va boshqalar) yutuqlarni amalga oshirish uchun global innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun atrof-muhit va shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, jahon patentlash tizimini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, yangi texnologiyalarning ochiqligi va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish;

– milliy innovatsion ekotizimlar (MIET), fundamental tadqiqotlar va ishlanmalar, ventur investitsiyalari, innovatsion jarayonlarini tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan turli institutlarni o‘z ichiga oladi. Ular jamiyatning innovatsion madaniyatini va innovatsion tadbirkorlikni shakllantirib, yangi g‘oyalar yaratish, ularni tijoratlashtirish, ushbu maqsadlar uchun ijodiy fikrlovchi shaxslarni jalb etish va milliy strategik innovatsion rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlar to‘g‘risida axborot bilan ta‘minlash ta‘minlash va boshqalarni o‘z ichiga oladi (innovatsiyalarga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot davlat dasturlari, Niderlandiya, ilmiy tadqiqot ishlariga soliqlarni kamaytirish dasturi, Buyuk Britaniya);

– mintaqaviy ekotizimlari (regional innovation ecosystems), milliy innovatsion ekotizimning eng muhim qismi, chunki hudud ham iste‘molchi, ham innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tuzilmadir, shu jumladan hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion rivojlanishni ta‘minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimdir (Silikon vodiysi, Sofiya Antipolis, Bangalor, Shenchjen, Kembridj, Garvard va b.);

– mahalliy innovatsion ekotizimlar (texnopolislar, texno- va agroparklar va boshqalar), texnopolisni (technopolis) shakllantirish innovatsion jarayonlarni jadallashtirish, texnik va texnologik innovat-

siyalarni tez va samarali qo‘llash uchun yaratilgan maxsus hududiy tuzilmadir (Sukuba-Yaponiya, Dedok-Janubiy Koreya, Innopolis-Tatarstan Respublikasi, Astana-Qozog‘iston Respublikasi, IT-park O‘zbekiston Respublikasi va b.);

– korporativ (tarmoq) innovatsion ekotizimlari ochiq innovatsiyalar nazariyasi, xususiyl-davlat hamkorligi platformasida innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tavakkalchiliklarni taqsimlash, korporatsiyalar ichida ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish va kichik innovatsion korxonalar (start-aplar) tarmog‘ini yaratish tizimi sifatida rivojlanmoqda (Maks Plank jamiyati, MPG – Garching Innovation GmbH, Germaniya Federativ Respublikasi.);

– tadbirkorlik innovatsion ekotizimlari, iste‘molchilar nazarida innovatsion mahsulotlarning bozordagi jozibadorligini oshirish, yangi biznes modellarini joriy qilish va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga (yagona reklama konsepsiyasini qo‘llash, birgalikda foydalanish uchun mo‘ljallangan infratuzilmani yaratish, brendlarni shakllantirish va b.) qaratilgan (EXIST – University_based start_ups, Germaniya Federativ Respublikasi)²³⁶.

MIET mafkurasi Yevropa Ittifoqiga (YeI) a‘zo mamlakatlarning katta qismida, AQSH va Yaponiyada ayniqsa keng yoyilgan. Biroq hozirgi vaqtgacha MIT tushunchasining yagona ta‘rifi mavjud emas. MIETni shakllantirishga yagona bir nazariy va uslubiy yondashuvlar ham ishlab chiqilmagan. Shuningdek, turli mamlakatlarda MIET oldiga turli maqsadlar qo‘yilishi ham mumkin. Masalan, Fransiyada MIET maqsadi iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarida qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishdan, Germaniyada esa raqobatbardosh texnologiyalarni rivojlantirishdan iborat.


1-rasmda rivojlangan mamlakatlardagi MIET modellarining o‘ziga xos jihatlarni umumlashtiruvchi tuzilmaning shartli sxemasi keltirilgan.

Qayd etib o‘tilgan elementlarning o‘zaro munosabatlarini tavsiflab beruvchi mazkur model xususiyl (tadbirkorlik) sektorning roli yirik korporatsiyalarning va fan sig‘imi yuqori kichik firmalarning ilmiy markazlaridagi xususiyl tadqiqotlar va ishlanmalar asosida texnologiyalar yaratish hamda innovatsiyalarni bozor maqsadlarida o‘zlashtirishdan; davlatning roli esa-fundamental bilimlarni (universitetlarda) va yuqori texnologiyalar majmuini qaror toptirishda, shuningdek, innovatsiya

²³⁶Проскурнин С.Д. Создание самоорганизующейся инновационной экосистемы в зонах особого территориального развития. // Региональная экономика и управление. 2017. № 4. С. 23.

faoliyati uchun infratuzilmalarni hamda maqbul institutsional muhitni yaratib berishdan iborat ekanini ko'rsatadi.

Yangi innovatsion biznes va davlat bozor sharoitlarida faoliyat yuritib turgan MIET modellarining jahon tajribasida sinovdan o'tganlariga ko'proq e'tibor qaratdi.




1-rasm. Rivojlangan mamlakatlardagi milliy innovatsion ekotizimni tarkibiy tuzilmasi²³⁷

Fan va innovatsiyalarni soliq bo'yicha rag'batlantirish tizimlarining sekin-asta shakllanib borishi, intellektual mulkchilik

²³⁷Илмий адабитётларни умумлаштириш асосида тузилган.

huquqlarining qonuniy ta'minoti, tijorat jihatdan o'ziga torta oladigan innovatsiya loyihalarni yaratishga qodir yangi innovatsiya institutlarining qaror topishi (masalan, innovatsiya loyihalarini xalqaro ekspertizasi bilan birga "Skolkovo" loyihasi, Rossiya Federatsiyasi texnologik rivojlanish fondi, Fan-texnika sohada kichik korxonalarni rivojlantirishga yordam ko'rsatish fondi va b.) namoyon etmoqda.

"Skolkovo" innovatsion loyihasini yaratish (2010-yilda tashkil topgan) maqsadi ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish ekotizimini shakllantirishdan iboratdir. Kutilayotgan natija o'z-o'zini boshqaradigan va rivojlantiradigan ekotizim, innovatsion tadbirkorlikni va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun qulay, global bozorda muvaffaqiyatli bo'lgan start-ap kompaniyalarini yaratishga qaratilgan infratu-zilmani yaratish (2-rasm).



2-rasm. "Skolkovo" innovatsion ekotizimining asosiy elementlari²³⁸

Mana shu elementlar yordamida ekotizimning rivojlanishi natijasida quyidagilar bilan ta'minlanadi:

– istiqbolli innovatsion loyihalarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, bular qatoriga quyidagilar kiradi: energo samaradorlik va resurs tejamkorligi (energiyani uzatish, taqsimlash va saqlash, yangi materiallar va qoplamalar, sensorlar va b.), yader texnologiyalari (xafvsiz texnologiyalar, plazma texnologiyalari va b.), kosmik texnologiyalari va telekommunikatsiyalar (aerokosmik texnologiyalar, dronlar va b.);

²³⁸ www.sk.ru

– biotibbiyot texnologiyalari (farmatsevtika, simulyator-robotlar, molekular darajadagi tadqiqotlar va b.), dasturaviy ta’minot va strategik kompyuter texnologiyalari (IoT- “Internet buyumlar”, sun’iy intellekt, Big Data va b.);

– malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlarining kengayishi. “Skolkovo” fan va texnologiya instituti (Skoltex)-Massachusetts texnologiya instituti (AQSH) ishtirokida 2011-yilda tashkil yetilgan no davlat ta’lim va ilmiy-tadqiqot institutidir. Skoltex fanva texnologiyalar institutida tadqiqotchilar va innovatsion tadbirkorlarni yangi avlodi tayyorlanmoqda, ularning aksariyat qismi magistrantlar va aspirantlardir (2020-yilda 1200 kishini tashkil qildi). Shu jumladan, 67% talabalar innovatsion loyihalar va start-ap kompaniyalarini shakllantirishda faol qatnashayaptilar, xorijiy talabalar – 17% hamda 60% professor-o‘qituvchilar xorijiy universitetlardan jalb qilingan;


– “Skolkovo” innovatsion markazining xalqaro gimnaziyasi maktabgacha va maktab ta’limi bo‘yicha barcha xizmatlarni taklif etadi, Skolkovo ochiq universiteti (SOU) – bu Rossiya Federatsiyasining innovatsion ekotizimiga ilmiy, texnologik va tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo‘lgan talabalar, aspirantlar, kreativ fikrlovchi yosh olimlarni jalb qilishga xizmat qiladi, shu bilan birgalikda mentorlik akademiyasi ham faoliyat olib bormoqda;

– ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini amaliyot bilan hamkorligi: davlat va mahalliy boshqaruv organlari bilan o‘zaro hamkorlik (mintaqalarda innovatsion biznesga qulay sharoitlar yaratish, innovatsion rivojlanishni samarali yo‘nalishini tanlash va imtiyozlar tizimini shakllantirish, mahalliy bozor sharoitlariga javob beradigan yangi texnologiyalarni olib kirish, risklarni minimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va b.); davlat korxonalari bilan hamkorlik (davlat buyurtmalari va tenderlar haqida ma’lumot olish, yirik xo‘jalik yuritish subyektlariga texnopark rezidentiga aylanishga imkon berish, hamkorlar qidirish orqali yangi bozorlarga chiqish, davlat kompaniyalari resurslarini texnoparkni rivojlantirish loyihalariga jalb qilish va b.); ilmiy tadqiqotchilar bilan hamkorlik (intellektual mulkni himoya qilish xizmatlari, ilmiy laboratoriyalardan foydalanish imkoniyati, hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, innovatsion mahsulotlarni bozorga olib chiqish va b.);

–maxsus moliyaviy manbalarga va investorlarni jalb qilish imkoniyatlarini ochiqligi, axborotlarga, institutlarga va grantlarga ega bo‘lish (kichik – 1,5 mln., o‘rta – 5,0 mln.rubl va katta grantlar – 300,0 mln.rublgacha), venchur jamg‘armasi, yirik kompaniyalar mablag‘lari va xususiy investorlar resurslaridan foydalanish va boshqalar.

“Skolkovo” innovatsion hamjamiyatiga integratsiya qilish maqsadida, xorijiy start-ap kompaniyalari uchun maxsus xalqaro “Softlending” dasturi qabul qilingan. Dastur doirasida mutaxassislar tomonidan ma’ruzalar, seminarlar, treninglar, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash (akseleratsiya bosqichi, mentorlar maslahati, venchur investorlarni talabi va b.) mexanizmlari, servis xizmatlarini tashkil qilish va boshqa savollar bo‘yicha maslahat ishlari tashkil qilindi. Dastur doirasida O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi tashabbusi bilan mamlakatimizning yigirmadan ortiq start-ap kompaniyalari rahbarlari texnoparkning innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish borasidagi imkoniyatlari bilan tanishdi. Shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi bozorlariga yangi innovatsion mahsulotlar va xizmatlar bilan kirish bo‘yicha maslahatlar berildi, texnoparkning kovorking markazida ishlash imkoniyatlari bilan tanishildi, ilmiy laboratoriyalar faoliyati o‘rganildi hamda “Skolkovo” loyihasi ishtirokchisi yuridik maqomini olish uchun birinchi qadamlar qo‘yildi. “Skolkova” loyihasi ishtirokchisi yuridik maqomini olish bosqichlari 3-rasmda keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda fan va texnologiyalar taraqqiyotining o‘zaro muvofiqlashtirish, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni yaxshilash, fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi va yo‘lga qo‘yildi, hududlarga innovatsiyalarni jalb qilish asosida modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilindi. Innovatsion strategiyani amalga oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri samarali hududiy ekotizimini qaror toptirish hisoblanadi:



2-rasm. “Skolkovo” loyihasi ishtirokchisi yuridik maqomini olish bosqichlari ²³⁹

– hududiy innovatsion ekotizim elementlarining o‘zaro munosabatlari yirik korporatsiyalarning va fan sig‘imi yuqori kichik firmalarning ilmiy markazlaridagi xususiy tadqiqotlar va ishlanmalar asosida texnologiyalar yaratish hamda innovatsiyalarni bozor maqsadlarida o‘zlashtirishdan, davlatning roli esa fundamental bilimlarni (universitetlarda, ilmiy tekshirish muassasalarida va b.) va yuqori texnologiyalar majmuini qaror toptirishda, shuningdek, innovatsiya faoliyati uchun infratuzilmalarni hamda maqbul institutsional muhitni yaratib berishdan iborat ekanini ko‘rsatadi;

– rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalarni bilimlarga ega bo‘lish sohasidan ishlab chiqarish sohasiga o‘tkazilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga intellektual mulk va innovatsion ekotizim elementlarini yaratish orqali erishish mumkin. Infratuzilma obyektlari deganda, biznes-innovatsiyalar, telekommunikatsiyalar va savdo tarmoqlari, texnologik brokerlar agentliklari, texnoparklar, biznes-

²³⁹ www.sk.ru

inkubatorlar, innovatsion-texnologik markazlar, konsalting firmalar (akseleratorlar), moliyaviy va boshqa tuzilmalar tushuniladi;

– hududlarda innovatsion salohiyatidan foydalanish bo‘yicha mavjud mexanizmlarning asosiy kamchiligi innovatsion faoliyatni amalga oshirishning barcha bosqichlari uchun tizimli, aniq tuzilishga ega institutsional bazaning rivojlanmaganligi hisoblanadi, shuningdek, uning qatoriga davlat tomonidan ko‘rsatiluvchi yordam choralari, innovatsion faol korxonalar faoliyati uchun maqbul sharoitlarning hamda innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yetarli darajada mavjud emasligini ham qo‘shish mumkin;

– hududlar iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarning natijaviyligi na faqat ekotizim subyektlarining (innovatsion firmalar, ilmiy tashkilotlar, baznes-inkubatorlar va boshqalar) faoliyati bilan belgilanmaydi, balki ularning bir-birlari bilan bilimlarni yaratish va ularning natijalaridan foydalanish jarayonlarida ularning o‘zaro munosabatlarini samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi (iqtisodiy manfaatdorlik, motivatsiya, qadriyatlar, m‘yoriy mezonlar, institutsional muxit va boshqalar asosida).

15.2. Hududlarda ilmiy g‘oyalarni tijratlashtirishning xorij tajribasi.

O‘zbekiston Respublikasida va yetakchi xorijiy mamlakatlarda texnologiyalarni transfer qilish jarayonlari, shuningdek, real iqtisodiyot tarmoqlari va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlanmalarni joriy qilishning natijalari bilan amaliy tanishib chiqishni ta‘minlash yo‘li bilan mahalliy innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni tijratlashtirish uchun sharoitlar yaratish zarurdir.

Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, ichki va tashqi bozorlarda jamoat va xususiy sektorlardan ilg‘or va ilmiy hajmdor texnologiyalarni faol tarqatish, bozor ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish, tarmoq korxonalarining jadal rivojlanishiga ko‘maklashadigan mintaqaviy va xalqaro aloqalarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot muassasalari, xususiy tadbirkorlik va investorlar o‘rtasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish muhimdir.

Bu borada ilmiy g'oyalarni tijoratlashirishning xorijiy tajribasini o'rganish, xorijiy innovatsion va ilmiy markazlarni, yetakchi investitsion fondlarni, texnologik agentliklarni, innovatsion klasterlar, texnoparklar va boshqa manfaatdor subyektlarni mahalliy innovatsion ishlanmalarni amalga oshirishda ishtirok etishga faol jalb etish borasida yetarli darajada chora-tadbirlar amalga oshirish zarurdir.

Muayyan bir sohada aniq vakolatlari, xizmatlari, resurslar va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada joylashishi innovatsion klasterning asosiy ko'rinishi sifatida qaraladi. Bunda innovatsion klaster yondashuvi mavjud investitsiya kuchlarini tezkor amalga oshirish yo'llarini va davlat hokimiyati va siyosatining zarur chora-tadbirlarini topish maqsadida biznes hamjamiyati va davlat vakillari o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni tartibga solish uchun asos bo'la oladi. Ushbu jarayonda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash orqali yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri bo'lib, oliy ta'lim maskanlari o'rnini "uchlik zanjirida" alohida ta'kidlash zarurdir.

Bugungi kunda universitetlar ta'lim va ilm-fan markazi bo'lib, ilmiy tadqiqotlar uning faoliyatining asosi hisoblanadi. Hozirgi bosqichda universitetlar mamlakat milliy iqtisodiyotining holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kerak, ammo ular mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun o'z vazifasini to'liq bajarmayapti. Birinchidan, har doim ustuvor ahamiyat kasb etgan universitetlarni budjetdan moliyalashtirish darajasi pasayib borishini inobatga olish lozim. Ikkinchidan, ushbu jarayonda ko'p kanalli moliyalashtirish, zamonaviy universitetning iqtisodiy faoliyatida muhim omil hisoblanadi. Uchinchidan, bugungi kunda universitetlar mamlakat bilan bir xil iqtisodiy vaziyatda turibdi; bu talabalar uchun davlatning ehtiyoji oshishi, malakali kadrlar, davlat buyurtmalarini va davlat budjeti masalalarini bilan bog'liq.

Ta'lim maskanlari, ilmiy tadqiqot tashkilotlari o'z faoliyatini olib borishi uchun hozirgi kunda ularning ilmiy g'oyalarni tijoratlashirish bilan bevosita bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu tashkilotlarning iqtisodiy sharoiti yangi moliyalashtirish manbalarini, boshqarish uchun yangi texnologiyalarni va ishtirokchilar uchun yangi rol modellarini izlashni talab qiladi. Misol uchun o'quv va ilmiy faoliyat natijalarining tijoratlashuvi universitetlarda kechayotgan

jarayonlarga turlicha qarashimizni ta'minlaydi. O'quv ilmiy faoliyat majmuasi texnologik, moliyaviy va tijorat jihatlari bilan to'ldiriladi. Zamonaviy sharoitlarda universitet faoliyatini tijoratlashirish faqat zarurat emas, balki uni muvaffaqiyatli rivojlantirish formulasi hamdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishning yana bir usuli oliy ta'lim, fan va biznesni integratsiyalashuvidir. Ilm-fan intensiv mahsulotlar va texnologiyalar tijorat korxonalarini ortib borayotgan qiziqish universitetlarda ilmiy ishlanmalar natijalarini foydalanish imkonini beradi, universitet tomonidan o'zi ishlab chiqargan yoki yaratgan biznes-loyiha mahsulotini tijoratlantirishi lozim va u kapitalini jalb etish imkonini oshiradi va ilmiy o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

3-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalar va ilmiy g'oyalarni tijoratlashirishning moliyaviy qo'llab-quvvatlash tajribasi²⁴⁰

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Qaror qabul qilish mexanizmi	Mamlakatlarda amalda	Milliy iqtisodiyotda moslashish imkoniyati (O'zbekistonda)*
Davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish	Davlat kreditlari (qaytariladigan) va grantlari; Bank kreditlari olish uchun davlat kafolatlari; strategik muhim mahsulotlar uchun davlat buyurtmalarini joylashtirish; tadqiqotda ishtiroki (50% gacha); soliq imtiyozlari; tezlashtirilgan amortizatsiya; milliy yuqori texnologiyali mahsulotni saqlab qolish uchun eksport-import kvotalar; to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilganda soliq imtiyozlari; patentlar yuritish va natijalarini budjetdan moliyalashtirishda ularni himoyasini ta'minlash uchun xarajatlarni tuzib chiqish (taxminan 10% patentlar himoya qilish uchun ketadi.); barcha xarajatlarni ishlab chiqarish xarajatlariga to'liq tavsiflash investitsiya kiritilgan tashkilot zimmasida bo'ladi	AQSH, Italiya, Belgiya, Angliya, Shvetsiya, Kanada	+++
Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish	Xolding kompaniyalarining sho'ba korxonalarini bo'lgan patentli va venchur capital firmalarining mavjudligi yoki tashkil etilishi. Ikki tomonlama soliqqa tortishning yo'qligi	Shvesiya AQSH	+
Ilmiy tadqiqotlar uchun soliq solishni takomillashtirish	Investorlarni topish uchun axborot tizimi tuzilmasi bo'yicha hisobotlarni tayyorlashda davlatga amaliy yordam va maslahatlar berish. Strategik bitimlar uchun 1999-yilda qabul qilingan xalqaro buxgalteriya standartlariga o'zgartirishlar kiritish	Yevropa Ittifoqi, AQSH	+

²⁴⁰ Н.И. Комков, Н.Н. Бондарева "Проблемы коммерциализации научных исследований и направления их решения" мақола маълумотлари ўрганилиб муаллиф томонидан такомиллаштирилди.

Milliy innovatsion ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash	Tadqiqot va rivojlantirish uchun moddiy xarajatlarni kamaytirishda zamonaviy mexanizmlarini joriy etish (ilmiy tadqiqot orqali mijozni aniqlash, kelajak bozorni himoya qilish, intellektual mahsulot yaratishda xorijiy olimlarni jalb etish, mahalliy savdo brendlarini himoyalash)	Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya	++
	Milliy brendni rivojlantirish dasturini qo'llab-quvvatlash	AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya	+++
	Qonunlarini kuchaytirish orqali yirik firmalarning ishlab chiqishda ta'sirini cheklash, kichik va o'rta innovatsion korxonalarini qo'llab-quvvatlash	AQSH, Yevropa Ittifoqi	+
	Litsenziyalashtirish yoki spin-off kompaniyalari yaratish orqali kompaniya tashabbuslarini hamkorlikda moliyalashtirish	Germaniya, Angliya	+
Texnologiyalar transferi professionalizatsiyasini mustahkamlash, jumladan, ilmiy-tadqiqot institutlaridan sanoatga o'tish	Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish (uzluksiz moliyalashtirish, konsalting va shartnoma tuzishning dastlabki bosqichida qo'llab-quvvatlash, natijalarni milliy va xalqaro investorlarga taqdim etishga yordam beradi)	Angliya	++
	Litsenziyalash yoki spin-off kompaniyalari yaratish orqali patentlash va tijoratlashtirish jarayonini osonlashtirish, kompaniya tashabbusi bilan hamkorlikda moliyalashtirish (vazirlik, uning jamg'armasi orqali qo'llab-quvvatlanadi, patentlash agentliklari, baholash va mintaqadagi bir necha oliy o'quv yurtlari uchun yangiliklarni tijoratlashtirish uchun idoralar, shuningdek, boshqa tadqiqot institutlari ko'maklashadi)	Germaniya	+++
	Oliy texnologik institutlari "virtual" tadqiqot institutlari hisoblanib kompaniyalar va davlat tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.	Niderlandiya	+
	Kadrlar almashinuvini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	Germaniya	++
	Xalqaro klaster tadqiqot dasturi-yetti dasturi asosida, hamkorlik va innovatsion faoliyatning ishonchligi va moslashuvchanligini oshirish, tadqiqot tizimi qobiliyatini yaxshilash; sanoat fondlari tizimini ishlab chiqarishga qaratilgan	Finlandiya	++
Tijoratlashtirish uchun yuqori daromadli natijalarni tanlash	Hukumat, akademik tadqiqotlar va xususiy biznes – texnologiyalar transferi tashkilotlari o'rtasida innovatsion vositachilar mexanizmini ishlab chiqish va qo'llash	AQSH, Yevropa Ittifoqi	++

* bu yerda (+++) – yuksak istiqbolli yechim; (++) – istiqbolli yechim; (+) – nisbatan istiqbolli yechim.

Xorijiy mamlakatlarda ilmiy g'oyalarni tijoratlashuvi jarayoni ko'rsatishicha, AQSHda ko'plab davlatlar hukumatlari (Viskonsin, Michigan, Minnesota, Nyu-York, Illinoys, Kaliforniya va boshqalar.) yangi texnologiyalar markazlari yaratish maqsadida yuqori texnologiyali firmalar va davlat tadqiqot universitetlari o'rtasida yaqinroq aloqalarni tashkil rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yganlar.

Ushbu tizimni “Fan-texnika bog‘lari” deb nomlanishi bunday hamkorlikni tashkil etish shakli – yuqori texnologiyali biznes uchun inkubator turi va oliy o‘quv yurtlari ilmiy faoliyati uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Isroil universitetlari ilmiy faoliyatini tijratlashtirish katta tajribaga ega, universitetlar keng ko‘lamli tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi va ilm-fan rivojiga hissa qo‘shadi. Isroilda dunyoda birinchi marta, yuqori texnologiyali sanoat loyihalari universitet dasturlari tuzilgan. Bundan tashqari, universitetlar (ko‘pincha mahalliy va xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda) mahsulotlarni tijorat bilan savdo qiladigan texnik ishlanmalari asosida sanoat sho‘balarini yaratadilar. Isroil universitetlari tomonidan olingan patentlar soni universitet ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligi ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

4-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalar va ilmiy g‘oyalarni tijratlashtirishning tashkiliy qo‘llab-quvvatlash tajribasi²⁴¹

Tashkiliy qo‘llab-quvvatlash muammosi	Qaror qabul qilish mexanizmi	Mamlakatlarda amalda	Milliy iqtisodiyotda moslashish imkoniyati (O‘zbekistonda)*
Tadqiqot institutlari va olimlar sonining yetarli, ortiqcha yoki yetishmasligi	Innovatsiya - talab va taklifning bozor regulatorlari harakati natijasida umumiy tadqiqot salohiyatining 2/3 qismiga egalik qiluvchi biznes sektorining mavjudligi	Yevropa Ittifoqi	+++
	Texnopark va texnokompleksning ko‘p tarmoqli korporatsiyalar tizimining rivojlanishi	Yevropa Ittifoqi	+++
	Institut va universitetlarning imkoniyatlarini birlashtiruvchi innovatsion-institutlar deb ataluvchi Klaster ilmiy birlashmalar tizimini ishlab chiqish, texnologiyalarni sotish nuqtalarini aniqlash	Germaniya	+++
Fan-texnika siyosatini sanoat siyosati bilan interpenetratsiya qilish va birlashtirish	Sanoat va tijorat bozorida ehtiyojlarini tiborga olgan holda yangi texnologik xolding kompaniyalarni rivojlantirish (patentlash qo‘llab-quvvatlash, litsenziyalash, sngidan yaratish va rivojlantirish)	Shvetsiya (Karolinska)	++
Jamoaviy va xususiy tashabbuslarni davlat tomonidan qo‘llab-	Oliy texnologik institutlar mavjud kompaniyalar va davlat tadqiqot tashkilotlarining "virtual" ilmiy institutlari sifatida faoliyati	Niderlandiya	+

²⁴¹ Н.И. Комков, Н.Н. Бондарева "Проблемы коммерциализации научных исследований и направления их решения" мақола маълумотлари ўрганилиб, муаллиф томонидан такомиллаштирилди.

quvvatlash	Davlat-xususiy hamkorlik uchun Klaster tarmoqlari va platformalarni yaratish	Yevropa Ittifoqi	+++
	Kadrlar almashinuvini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	Germaniya	++
	Xalqaro Klaster tadqiqot dasturi-butun tadqiqot tizimining hamkorlik qilish va innovatsiya faoliyatining ishonchliligi va moslashuvchanligini oshirish qobiliyatini oshirishga qaratilgan yetti dastur; sanoat fondlari tizimini ishlab chiqish	Finlandiya	++
Tijoratlashtirish jarayonini boshlash uchun yuqori daromadli natijalarni tanlash	Davlat ilmiy tadqiqotlar va xususiy biznes - texnologiyalar transferi tashkilotlari o'rtasida innovatsion vositachilar mexanizmini ishlab chiqish va rivojlantirish	Yevropa Ittifoqi, AQSH	+++

* bu yerda (+++) – yuksak istiqbolli yechim; (++) – istiqbolli yechim; (+) – nisbatan istiqbolli yechim

Muhim qadamdan biri bu o'z tadqiqot va innovatsion loyihalarning, balki sanoat va korporativ ustuvorliklarni belgilaydigan bozor loyihalarida ham sarmoya kiritishi kerak bo'lgan sanoat yoki korporativ korxonada fondini yaratishdir.

²⁵⁷Козлов М.П. Кластерный подход как механизм активизации инновационного развития субъектов агропромышленного производства // Экономика, труд, управление в сельском хозяйстве. –М., 2015, №1(22), с. 24.

²⁵⁸ Щетинина И.В. Перспективы развития агропромы шленных кластеров в России // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. –М., 2015, №3, с. 51-55.

**Mintaqalarning ilmiy-texnik salohiyatini tadqiq etish
uslublarining tavsifi²⁵⁹**

Metodika	Mezonlar						Mintaqa salohiyatini tadqiq etishga qo'llanish mumkinligi
	Dastlabki ma'lumotlardan foydalan olish mumkinligi va ularning obyektivligi	Metodikaning va uni hisoblash uslubi soddaligi	Natijalarni ko'rsatib berish aniq-ravshanligi	Quyidagilar nuqtai nazardan baholash imkoniyatlari			
				Mazmuni	faoliyat ko'rsatishi	Rivojlanishi	
Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini integral baholash metodikasi (Yaponiya)	±	+	+	+	-	-	±
Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini kompleks baholash metodikasi (SShA)	±	+	±	+	±	+	±
Bilimlar indeksini hisoblash metodikasi (Vsemirniy bank)	+	+	+	+	-	+	+
Yig'ma innovatsion indeksini hisoblash metodikasi (Niderlandi)	±	+	+	+	-	+	+
Mintaqalarning innovatsion faolligini tarkibiy tahlil qilish	±	+	+	+	±	-	±
Mintaqalarning innovatsion faolligini regression tahlil	±	-	±	+	±	-	+

²⁵⁹ илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган.

qilish							
Mintaqaning innovatsion salohiyatini omilli tahlil qilish	+	±	±	+	-	±	+
Mintaqalarni klasterlashtirish va innovatsion tizimning rivojlanish ko'rsatkichlari	+	+	+	+	-	+	+
Mintaqalarni ularning innovatsion rivojlanganligi darajasi bo'yicha reyting baholash	+	+	+	+	-	+	+
Belgilar: «+» - metodika mazkur mezonni qanoatlantiradi; «-» - metodika mazkur mezonni qanoatlantirmaydi; «±» - metodika mazkur mezonni qisman qanoatlantiradi.							

Xususan, Fransiyada klasterlar lokal sanoat guruhlari, universitet va tadqiqot institutlari o'rtasida sherikchilik asosida tashkil etilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olib, integral ko'rsatkichlar asosida mintaqaning innovatsion salohiyatini taqqoslama baholash metodikasi ishlab chiqish taklif etiladi. Mazkur metodikani yaratishda amalda mavjud bo'lgan dastaklar va yuqorida ko'rib chiqilgan metodikalarni tahlil qilish yo'li bilan olingan ijobiy tajribalardan foydalanilgan va quyidagilar hisobga olingan:

- rasmiy statistika hisobotida keltirilgan indiktorlar tizimi orqali bevosita o'lchanadigan ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'lgan salohiyatni baholash (miqdoriy tahlil);

- sotsiologik tadqiqotlar tizimi orqali salohiyatni baholash (sifat tahlili), uning mohiyati tanlov usullardan foydalanishdan iborat;

- ham mintaqaning innovatsion salohiyatini rivojlantirish dinamikasini, ham ularning taqqoslama integral baholashni aks ettirish uchun tanlov indikatorlar tizimini zarurligi va yetarliligi;

- mintaqaning innovatsion salohiyatni baholash bo'yicha grafik-tahliliy natijalarni ko'rsatib berish.

Mintaqa iqtisodiyotining ixtisoslashuvi va kompleks rivojlanishi mintaqaning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini oshirish va

mintaqa aholisining ehtiyojlarini eng samarali qondirishni ta'minlashga qaratilgan.

Mintaqaning kompleks rivojlanishi eng oqilona tarmoq va mintaqaviy nisbatlarni ta'minlash, eng maqbul munosabatlarni o'rnatish va saqlashni o'z ichiga oladi:

- ixtisoslik va yordamchi tarmoqlar, shuningdek xizmat ko'rsatish tarmoqlari;
- ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan kooperatsiya asosida ish olib boradigan tarmoqlar;
- yengil va og'ir sanoat;
- sanoat va qishloq xo'jaligi;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma;
- ishlab chiqarish sohasi va xizmat ko'rsatish sohasi.

Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish kompleksligining muhim tarkibiy qismi – hududlarda investitsiya jarayonlarini tashkil qilishdir (3-jadval).

Investitsiya resurslarini jalb etish O'zbekiston hududiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyasining muhimligi nafaqat uning milliy jamg'armalar darajasidan yuqori bo'lgan investitsiyalarni amalga oshirish va ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

3-jadval

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (so'm)²⁶⁰

Hududlar	2014	2015	2016	2017	2018	O'zgarishlar 2018-2012	
						(-)(+)	%
O'zbekiston Respublikasi	1224,0	1431,7	1608,6	2227,8	3769,6	2545,6	307,9
Respublika Qoraqalpog'istan	2280,6	3388,2	2094,0	1542,2	3641,1	1360,5	159,6
Andijon	581,0	678,4	745,3	999,6	1550,3	969,3	266,8
Buxaro	2023,4	2264,0	3237,6	6254,2	5105,4	3082	252,3
Jizax	969,6	1033,1	1125,1	1361,9	2693,9	1724,3	277,8

²⁶⁰Ўзбекистон Республикаси давлат статисти кумитасика материаллари асосида тузилган.

Qashqadaryo	1613,1	1969,9	2389,3	3583,4	5193,4	2580,3	321,9
Navoiy	1933,5	1965,1	3168,1	4185,4	10920,2	8986,7	564,7
Namangan	714,7	863,8	1074,8	1340,3	2992,5	2277,8	418,7
Samarqand	730,0	912,0	1001,6	1189,4	1878,3	1148,3	257,3
Surxandaryo	646,8	773,0	879,1	1427,1	2848,3	2201,5	440,3
Sirdaryo	1288,1	1382,2	1660,3	2011,1	3280,2	1992,1	254,6
Toshkent viloyat	1466,6	1595,0	1507,5	2087,2	3898,4	2431,8	265,8
Farg'ona	672,0	731,6	747,8	822,4	1516,8	844,8	225,7
Xorazm	950,0	884,7	885,8	1215,1	1655,6	705,6	174,2
Toshkent	2527,2	2877,4	3848,1	5552,7	10627,8	8100,6	420,5

To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyasi kirib kelishining ahamiyatga molik asoslaridan yana biri texnologik jihozlarni, boshqaruvning va ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy usullarini olib kirish, jahonga mashhur kompaniyalarning savdo markalaridan, nou-xaulardan foydalanish imkoniyatlari, mahsulotlar eksportini yanada kengaytirish maqsadida transmilliy kompaniyalarning jahon bozorlariga chiqish yo'llariga ega bo'lish va boshqa shu kabilarni ham sanab o'tish mumkin. Iqtisodiyoti o'zgarib borayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyasi iqtisodiy o'sish, bandlik, real sektorga investitsiyalarning eng muhim manbasi sifatida ko'riladi. A.V. Vaxabov, G.X. Roziqova va Sh.X. Xajibakiyevlarning fikricha, deyarli barcha modernizatsiya loyihalarida chet el investitsiyalar muhim rol o'ynagan, chunki ular o'zlari bilan yangi texnologiyalarni mutaxassislarni olib kirgan, bu esa o'z navbatida, innovatsion tarmoqlar va ishlab chiqarishlarning rivojlanishiga yordam bergan²⁶¹.

To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalar investorlarining mazkur mamlakatda ishlab chiqarishni joylashtirish qaroriga ta'sir etuvchi, ya'ni motivatsiyasi omillariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: resurslarni ko'zlovchi (resource seeking FDI); samaradorlikni oshirish maqsadidagi (efficiency seeking FDI); bozorni kengaytirish maqsadidagi (market seeking FDI); strategik aktivlarni ko'zlovchi (strategic asset seeking FDI)²⁶².

²⁶¹ Вахабов А.В., Разыкова Г.Х. и Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. –Т.: Молия, 2011 148 с.

²⁶²Dunning J. The Globalization of Business. – London: Routledge, 1993. – p.67.

To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyasi alohida nazariyalarining, xususan, "Ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi nisbat nazariyasi" (E. Xeksher va B. Olin), "Mamlakatni investitsion rivojlantirish yo'li" (R. Narulla), D. Danning "Xalqaro ishlab chiqarishning eklektik paradigmasi"ning amaliy ahamiyati shundaki, ular to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari sabablari, omillari, tur va modellarini, kompaniyalarning faoliyatini izohlab beradi, firma bilan bir qatorda mamlakatning raqobat ustunliklariga e'tiborni kuchaytiradi. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi xalqaro nazariyaning katta qismini MDH mamlakatlari amaliyotida qo'llash mumkin²⁶³. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi to'g'risidagi deyarli har bir nazariyada alohida bir qoida va xulosalarni topish mumkin bo'lib, ularni chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda inobatga olish mumkin. Bunda faqat ulardan foydalanishning O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturlarini shakllantirishda muhim tarkibiy qism bo'la oladigan shart va mezonlarini aniqlab olish zarur²⁶⁴.

Hududlarda ixtisoslashuv tarmoqlar tuzilmasini shakllantirish mintaqaning iqtisodiy makonidan foydalanish samaradorligini oshirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashning bosh yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. Ixtisoslashuv tarmoq tuzilmasining mohiyati uning qismlari va ular o'rtasidagi munosabatlarning eng maqbul nisbati bo'lib, resurslarda obyektiv cheklovlar mavjud bo'lganda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun iqtisodiyotning samarali ishlashi uchun sharoit yaratadi.

Mintaqalarning resurs salohiyati, kategoriyasi faqat resurslar yoki ularning turlaridan ko'ra kengroq tushunchadir. Ushbu turkumda, shuningdek, ishlab chiqarish uchun resurslarni foydalanish hajmini o'z ichiga oladi, ularning harakatlari va o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatini belgilaydi. Shu sababli, "resurs salohiyati" kategoriyasini ko'rib chiqishning ahamiyati mintaqalarni rivojlantirishning samarali natijalariga erishish maqsadlari va

²⁶³Мисакян М.Н., Кокушкина И.В., «Теории прямых иностранных инвестиций: практическое значение для переходных экономик», С.-П., «Проблемы современной экономики», 2006. №4 (24).

²⁶⁴Надирханов У. «Методологические аспекты привлечения прямых иностранных инвестиций в Республике Узбекистан», Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития: материалы V Форума экономистов.-Т., 2013. с.155.

vazifalari hozirgi vaqtda mavjud bo‘lmagan resurslar bilan emas, balki resurs salohiyatidan samarali foydalanish bilan belgilanadi.

Shuning uchun bunday o‘zgarishlarning shartlari va omillarini tahlil qilib, biz tabiiy resurslarning mavjud ilmiy tasnifidan va mintaqaviy ishlab chiqarishda ulardan foydalanish darajasidan kelib chiqamiz (4-jadval).

Ushbu resurslarning holati foydalanish darajasi va intensivligiga bog‘liq. Qishloq mintaqalari uchun nafaqat ma’lum tabiiy resurslarning mavjudligi, balki ularning o‘zaro hamkorligi, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i va uning atrofida qo‘shimcha ishlab chiqarishni tashkil qilish, tarixiy jihatdan qishloq joylarida joylashgan mahsulotlari bilan birgalikda qayta ishlash korxonalarini shakllantirish (klaster mexanizmi) va b.

4-jadval

Hududiy tabiiy resurslarni turlari bo‘yicha tasniflash²⁶⁵

№	Nazvanie	Soderjanie
1	Foydalanilayotgan resurslar	Qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlar, o‘rmon xo‘jaliklari, suv resurslari, shaharlar hududlari va b.
2	Zaxiradagi resurslar	Qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yerlar, kelajakda foydalanish uchun ajratilgan resurslar.
3	Resruslar salohiyati	Aniqlangan resurslar, lekin hozirgi davrda amaliyotda foydalanilmayotgan resurslar

Mintaqaiy resurs bazasidan samarali foydalanish va mustaqillik davrida amalga oshirilgan maqsadli dasturlar natijasida quyidagi iqtisodiy tarmoqlarning tuzilmasi shakllandi:

Yoqilg‘i-energetika majmuasi korxonalari. O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari tarkibida elektroenergetika, neft va gaz sanoati muhim o‘rin egallaydi. Respublika rivojlangan energetika bazasiga ega, mavjud elektr stansiyalar quvvati iqtisodiyotning energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlab berishga qodir. Neft va tabiiy gaz konlari burg‘i quduqlarining mahsuldorligi va qazib olish tannarxi bo‘yicha ularni o‘zlashtirish jihatidan, shuningdek, chet el investitsiyasini jalb etish hisobidan ham samarali sanaladi. Elektr energetikasi sohasida

²⁶⁵ Дюйзен Е.Ю. К вопросу о сущности, составе и роли ресурсного потенциала организации // Российское предпринимательство. 2017. № 11 (233). С. 58—62

Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasida quvvati 450 megavatt bo'lgan 2 ta bug'-gaz qurilmasini barpo etish yo'li bilan kengaytirish ishlari olib boriladi. Toshkent issiqlik elektr stansiyasida quvvati 370 megavatt bo'lgan bug'-gaz qurilmasi ishga tushiriladi. Navoiy issiqlik elektr stansiyasida quvvati 450 megavatt bo'lgan ikkinchi bug'-gaz qurilmasini barpo etish orqali kengaytirish ishlari bajariladi. Toshkent issiqlik elektr markazida kogeneratsion gaz turbinali texnologiyani joriy etish, Toshkent issiqlik elektr markazida kogeneratsion gaz turbinali texnologiyani joriy etish, «Angren» konini modernizatsiya qilish orqali Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5 energiya bloklarini yil davomida ko'mir bilan ishlashga o'tkazish va b. Ko'mirning katta zaxiralari mavjud, ulardan kompleks tarzda foydalanish (kaolin, nodir metallar, kvarts qumlar va b.) Angren konini samarali o'zlashtirishga yordam beradi;

Qora va rangli metallurgiya tarmog'i. Ushbu tarmoq korxonalarini Navoiy (qimmatbaho va nodir metallar va b. ishlab chiqarish) va Toshkent (mis, qo'rg'oshin-rux va volfram-molibden ishlab chiqarishi, O'zbekiston metallurgiya kombinati va b.) viloyatlarida ayniqsa rivoj topgan.

Kimyo va neft kimyosi sanoati. Kimyo sanoatini rivojlantirish, modomiki u iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari qatorida hamda respublikaning eksport salohiyatini belgilab beruvchi tarmoq hisoblanar ekan, islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi zamon bosqichida ustuvor umumdavlat vazifasi bo'lib hisoblanadi. Kimyo majmuasida yirik institutsional o'zgarishlar yuz berdi, hozirgi kunda eksportni kengaytirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga mo'ljallangan yirik ustuvor dasturlar va innovatsion loyihalar ana shular hisobidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Mana shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimiz kimyo tarmog'ini rivojlantirish mahalliy xomashyo resurslaridan to'liq foydalanishga asoslanadi. Respublika kimyo sanoati bugungi kunda katta miqdordagi ishlab chiqarish-iqtisodiy va xomashyo salohiyatiga, shuningdek, yuqori eksport imkoniyatlariga ega. Surg'il koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo kompleksini qurish, Sho'rtan gaz-kimyo kompleksida ishlab chiqarilayotgan tozalangan metan negizida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha qurilish ishlari davom ettiriladi. Qo'ng'iroq soda zavodining ikkinchi navbatini qurish va ishga tushirish,

Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ishlab chiqarish quvvatini 200 ming tonnadan 600 ming tonnaga oshirish va boshqa loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kimyo sanoati korxonalarini qurilishini jadallashtirish va yangi turdagi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida» 11.03.2009-y. PQ-1071-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadlarida «O'z kimyosanoat» DAK korxonalarida kimyo sanoati mahsulotlarining yangi turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi. Tarmoq korxonalarida fosfatlashgan ammiak selitrasini, «A» markali metanol, ammiak ishlab chiqarish uchun katalizatorlar, karbamid-ammiak selitrası (KAS), trinatriy fosfat va b.ni ishlab chiqarish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Mashinasozlik majmuasi. Tarmoqni rivojlantirish yo'nalishlarida avtomobillar, avtobuslar, akkumulatorlar, elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish eng istiqbolli hisoblanadi (jumladan, Xorazm viloyatida «Damas» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil etish, «Quyuv-mexanika zavodi» sho'ba korxonasida metall quyishni rekonstruksiya qilish va boshqa yirik loyihalar). Mashinasozlik tarmog'i mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish deganda, tarmoqning eksport salohiyatini o'stirish maqsadlarida chet el investitsiyalarini jalb etish orqali yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish nazarda tutiladi.

Qurilish materiallari sanoati. Tarmoq ham tashqi, ham ichki bozor ehtiyojlarini qondirish bo'yicha sement, temir-beton konstruksiyalar, devor materiallari, oyna-shisha va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish asosida katta imkoniyatlarga ega(jumladan, Jizzax viloyatida 760 ming tonna portland sement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, «Bekobod sement» ochiq aksiyadorlik jamiyatida yangi liniya qurish hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan sement ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilindi va b.).

Yengil sanoat. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida paxta yetishtirib beradigan eng yirik davlat hisoblanadi. Respublika paxta tolasi ishlab chiqarishda dunyoda beshinchi o'rinni va uning eksporti bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. Tarmoq oldiga ichki bozorni mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli tovarlar bilan to'ldirish;

raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni tashqi bozorga olib chiqish; paxta va boshqa mahalliy xomashyoni yanada chuqur va kompleks qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymat darajasiga ega tayyor tovarlarni ishlab chiqarish; mahalliyashtirish (hozirgi vaqtda chet eldan keltiriladigan butlovchi buyumlar va furnituralar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish); chet el investitsiyasini jalb etish; yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish; mamlakatning aholi zich mintaqalarida yangi ishlab chiqarishlarni yaratish yo‘li bilan bandlik muammosini hal qilishda ishtirok etish kabi vazifalar ko‘ndalang qo‘yilgan. To‘qimachilik korxonalarini modernizatsiya qilish muammolari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2009–2011-yillarda to‘qimachilik sanoati korxonalarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish hamda mahalliy nooziq-ovqat iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2009-yil 20-avgust 236-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik sanoati korxonalarini jadal rivojlantirishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 28-mart 2011-yil PQ-1512-sonli qaroriga muvofiq amalga oshirildi;

Oziq-ovqat sanoati. Respublika oziq-ovqat sanoati tarkibiga unyorma, go‘sht-sut, meva-sabzavot va boshqa tarmoqlar kiradi. Rivojlangan xomashyo bazasi tarmoqning eksport salohiyatini o‘stirishga yordam beradi, shuningdek, chet el investitsiyalarini jalb etish ham bunga keng yo‘l ochadi²⁶⁶.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari istiqbolli mintaqaviy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish jarayonida boshqariladigan uzoq muddatli iqtisodiy siyosatning asosiy boshlang‘ich

²⁶⁶Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2007–2011 йиллардаги даврда қурилиш материаллари sanoati корхоналарини модернизация қилиш, техникавий ва технологик қайта жиҳозлаш дастури тўғрисида»ги; 01.06.2007 й. ПҚ-646-сонли; «2007–2011 йиллардаги даврда ёғ-мой sanoati корхоналарини модернизация қилиш ва техникавий қайта жиҳозлаш дастури тўғрисида»ги 12.06.2007 й. ПҚ-651-сонли; «Ўзметкомбинат» айб ишлаб чиқаришини 2007–2011 йиллар даврида модернизациялаш, техникавий ва технологик қайта жиҳозлаш дастури тўғрисида»ги 10.07.2007 й. ПҚ-669-сонли; «2007–2011 йиллар мобайнида кимё sanoati корхоналарини модернизация қилиш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш дастури тўғрисида»ги 27.07.2007 й. ПҚ-677-сонли; «2011 йилгача бўлган даврда фармацевтика тармоғи корхоналарини модернизация қилиш, техникавий ва технологик қайта жиҳозлаш дастури тўғрисида»ги 19.11.2007 й. ПҚ-731-сонли қарорлари; «2008–2009 йилларда автомобиль sanoati корхоналарини модернизация қилиш, техникавий ва технологик қайта жиҳозлаш дастури тўғрисида»ги Вазирлар Маҳкамасининг 05.12.2007 й. п ВҚ-741-сонли; «2007–2011 йилларда пахта тозалаш sanoati корхоналарини модернизация ва реконструкция қилиш дастури тўғрисида»ги 03.04.07й. № 70-сонли қарорлари.

qoidalari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida uzoq muddatli davrning turli bosqichlarida quyidagi natijalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

Birinchi bosqichda (2019–2021-yillar) makroiqtisodiy barqarorlik bozor munosabatlarining institutsional bazasini yaratish, real sektorning tarmoqlari ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, inson kapitalini yaxshilash va aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar amalga oshirilishi orqali iqtisodiyotning yangi shart-sharoitlarga va bozor mexanizmlariga moslashishi yuz beradi.

Ushbu bosqichda korrupsiyani cheklash va xufiyona iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tovar va moliya bozorlarini rivojlantirish hamda adolatli raqobat shart-sharoitlarini shakllantirish, ekologik va resurslarni tejaydigan standartlarni joriy etish qismi bo‘yicha davlat institutlari salohiyatini mustahkamlash vazifalarini hal etish muhim o‘rin tutadi.

Ikkinchi bosqichda (2022–2025-yillar) qayta ishlovchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish, foydalanayotgan resurslar samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi bozor va ishlab chiqarish tuzilmalarini shakllantirish hisobiga iqtisodiyot tarmoqlarida sifatli tuzilmaviy o‘zgarishlarga erishiladi.

Ushbu bosqichda samarali bandlikni kengaytirishda va boshqa ijtimoiy muammolarni hal etishda uning ulushini ko‘paytirish yo‘li bilan iqtisodiy o‘sish sur‘ati jiddiy ravishda oshadi. Institutlar salohiyati mustahkamlanishiga qarab ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari sifati oshadi, kichik biznesni industrilashtirish va yangi sanoat siyosatiga o‘tish uchun shart-sharoitlar yaratiladi, yirik davlat xo‘jalik birlashmalarida menejment sifatining oshishi ularning qo‘shilgan qiymatni yaratishning global zanjiriga kirishini ta‘minlaydi.

Uchinchi bosqichda (2026–2030-yillar) eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyot tabiatdan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish sohasiga an‘anaviy bo‘lmagan resurslarni va energiya manbalarini jalb etish hamda inson kapitalini sifatliroq rivojlantirish hisobga olingan holda iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik rivojlantirish negizida jadal sur‘atlarda rivojlantiriladi.


Konsepsiyaning har bir bosqichida strategik ustuvorliklarning oldinga qo'yilgan vazifalar bilan bog'liqligini ta'minlashga yo'naltirilgan tizimli ijtimoiy-iqtisodiy siyosat amalga oshiriladi. Bu ularning kelishilganligini ta'minlaydi. O'z navbatida har bir bosqichda hal etiladigan vazifalar iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarini va mamlakat mintaqalarini rivojlantirishga tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilishning sifatliroq darajasida aniq chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi bilan mustahkamlanadi.²⁶⁷

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari asosida aniq omillar va shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini ishlab chiqarishni mintaqaviy tashkil etishda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari juda dinamik va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi, ayrim mintaqalarni rivojlantirishning strategik jihatlari tufayli o'zgarishi mumkin. Aholini joylashtirish va mamlakatning asosiy iqtisodiy salohiyati, yoqilg'i-energetika va xomashyo resurslarini joylashtirishda yuqori mintaqaviy nomutanosiblik katta qo'shimcha transport xarajatlari bilan bog'liq. Shu bilan birga, muammoni faqat iqtisodiy deb hisoblash mumkin emas. Bu ijtimoiy, strategik va boshqa muammolar majmuasi.

Hozirgi davrda hudud aholisini ish bilan ta'minlash va daromad manbani kengaytirishda xizmatlar bozorini kengaytirish va sohani rivojlantirish muxim ahamiyat kasb etadi (2-rasm).

Shunday qilib, iqtisodiy mintaqani kompleks rivojlantirish ostida xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, mintaqaviy resurslardan yanada to'liq foydalanish, mintaqaviy nisbatlarni takomillashtirish bilan birgalikda samarali ixtisoslashuvni ta'minlaydigan va butun tuman iqtisodiyoti samaradorligini oshirishga, mintaqa mintaqavida yashovchi aholi farovonligini oshirishga qaratilgan mintaqaning ko'p maqsadli barqaror rivojlanishi tushuniladi.

²⁶⁷Ўзбекистон Республикасини 2030 йилга қадар ижтимоий-иқтисодий комплекс ривожлантириш концепцияси.<https://regulation.gov.uz/ru/document/9413>



2-rasm. Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmini o'sish sur'atlari²⁶⁸

Hududiy rivojlanishning ixtisoslashuv tarmoqlarini shakllantirish va kompleks rivojlantirish maqsadida qabul qilingan bir qator qarorlar va ularni bosqichma-bosqich joriy etilishi mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirishga, innovatsiya mexanizmlarini takomillash-tirish asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobat-bardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

²⁶⁸Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси материаллари асосида тузилган.

XVII BOB. MINTAQALAR IQTISODIYOTINING SALOHIYATI VA UNING BARQAROR RIVOJLANISH BILAN BOG‘LIQLIGI

17.1. Hududlar iqtisodiy salohiyatining baxolash usullari va ulardan foydalanish imkoniyatlari.

17.2. Hududiy mehnat resurslarini prognoz qilish va rejalashtirish.

Jahon tajribasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida hududlar iqtisodiy rivojlanishi, ularning iqtisodiy salohiyati muhim va ajralmas qism ekanligini ko‘rsatdi. Hech bir mamlakat yo‘qki, barcha hududlari bir xil geografik, iqlimiy va iqtisodiy resurslarga ega bo‘lsa. Iqlimi, geografik joylashuvi, tabiiy boyliklar va aholi soni notekis taqsimlangan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati har qanday mamlakat iqtisodiyoti o‘shining qo‘shimcha manbalari hisoblanadi. Hududlardagi iqtisodiy salohiyatining miqdori uning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi, raqobat va aholi turmish darajasini belgilab beradi. Hududlararo iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi nomutanosiblik uzoq muddatli davrda mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘shiga jiddiy to‘siq bo‘ladi. Shuning uchun so‘nggi yillarda hududlar iqtisodiy salohiyatining mohiyati, omillari va hududiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari milliy iqtisodiyot rivojlanishida yanada muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy salohiyat nomutanosibligi sharoitida ulardan optimal foydalanish milliy iqtisodiyot oldida turgan muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Hududlar iqtisodiy salohiyati hamda hududlarning iqtisodiy rivojlanishi masalalari Yevropa komissiyasining Yevropa hududiy tadqiqotlar markazi (European Commission European Research Area)²⁶⁹, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Rivojlantirish markazi (OECD Development Centre)²⁷⁰ Yevropa iqtisodiy komissiyasi (Economic Commission for Europe – ECE), Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari bo‘yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya

²⁶⁹ European Commission European Research Area. Regional Economic Development: Andrea Ascani, Riccardo Crescenzi, Simona Iammarino. URL: <http://www.ub.edu/searchproject/wp-content/uploads/2012/02/WP-1.3.pdf>

²⁷⁰ OECD Development Centre. Rethinking the (European) foundations of Sub-Saharan African regional economic integration: a political economy essay. September 2010. 2 rue André Pascal, 75775 PARIS CEDEX 16, France. URL: <https://www.oecd.org/dev/46013902.pdf> (Мурожаат санаси: 12.04.2018).

(Economic and Social Commission for Asia and the Pacific – ESCAP), Lotin Amerikasi va Karib dengizi mamlakatlari bo‘yicha iqtisodiy komissiya (Economic Commission for Latin America and the Caribbean – ECLAC), G‘arbiy Osiyo bo‘yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya (Economic and Social Commission for Western Asia – ESCWA)²⁷¹ va boshqa xalqaro nufuzli tashkilotlarning hisobotlarida keng yoritilgan.

Shuningdek, bu masalalar bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarini amalga oshirgan. Xususan, AQSHlik iqtisodchi olimlar Brian Richard²⁷² va Richard M. McGahey o‘z tadqiqotlarida AQSHda hududlar iqtisodiy salohiyatini o‘rganishgan hamda hududlar iqtisodiy salohiyatining iqtisodiy o‘sishga ta‘sirini baholashgan²⁷³. Rus iqtisodchi olimi V.I. Menʃikova²⁷⁴ hududlar iqtisodiy salohiyatini aniqlashning bir nechta uslubiy yondashuvlarini o‘rgangan, hududlar iqtisodiy salohiyatini tizimli tarkibiy qismlarga ajratgan. Yana bir rus olimi N.A. Chijova²⁷⁵ o‘z tadqiqotlarida hududlar iqtisodiy salohiyati va uning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar klassifikatsiyasini amalga oshirgan.

Iqtisodiy salohiyat iqtisodiy tushuncha sifatida murakkab, ko‘p jihatli, qo‘shilgan va birlashtirilgan iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro aloqa va munosabatlarini anglatadi. Salohiyat (oltincha “potential” – kuch) – bu manbalar, imkoniyatlar, vositalar, qaysidir vazifalarni hal qilish va aniq maqsadlarga erishishda foydalaniladigan zaxiralar, aniq bir sohada alohida shaxs, jamiyat va davlatning imkoniyatlaridir²⁷⁶.

Hudud iqtisodiy salohiyati deganda, hudud iqtisodiyoti, uning tarmoqlari, korxonalar, ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, aholi talablarini va jamiyat ehtiyojlarini qondirish

²⁷¹ Economic Commission for Europe (ECE), Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (ESCAP), Economic Commission for Latin America and the Caribbean (ECLAC), Economic Commission for Africa (ECA) and Economic and Social Commission for Western Asia (ESCWA) A Regional Perspective on the Post-2015 United Nations Development Agenda.

²⁷² Brian Richard. Tools for Regional Economic Development: Regional Economic Analysis Tools. Center for Governmental Studies Northern Illinois University.

URL: http://cgs.niu.edu/SOI/Jan.24_Jan.31/Jan24_morning.pdf (Murojizat sanasi: 13.04.2018)

²⁷³ Richard M. McGahey. Regional Economic Development in Theory and Practice.

URL: https://www.brookings.edu/wp-content/uploads/2016/07/retoolingforgrowth_chapter.pdf (Murojizat sanasi: 13.04.2018)

²⁷⁴ В.И. Меньщикова. Экономический потенциал региона: терминология, структура, модель. ISSN 1810-0201. Вестник ТГУ, выпуск 4 (84), 2010.

²⁷⁵ Н.А. Чижова. К вопросу социально-экономического потенциала региона: теоретический аспект. Вестник Алтайского государственного аграрного университета № 7 (105), 2013.

²⁷⁶ Большой экономический словарь / под ред. А.Н. Азрилияна. М., 1999. С. 477.

uchun mahsulotlar, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning yalpi imkoniyatlari tushuniladi²⁷⁷. Hududlar iqtisodiy salohiyati ularning o‘z hududiy resurslari hisobiga ijtimoiy-iqtisodiy tizimni yuritish imkoniyati sifatida qarash ham mumkin.

Hududlar iqtisodiy salohiyatining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: mehnat resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma, tabiiy-resurslar va atrof-muhit sharoitlari. Boshqa tomondan hududlar iqtisodiy salohiyati juda murakkab tarkibga ega. Hudud iqtisodiy salohiyatining funksional darajalarini ikkiga ajratish mumkin. Birinchi daraja miqdoriy daraja hisoblanadi. Bu daraja hududning iqtisodiy faoliyati, ishlab chiqarish quvvatlarini asosiy omillari hisoblanuvchi tabiiy, xo‘jalik, mehnat, moliyaviy, investitsion va infratuzilma salohiyatini inobatga oladi. Ikkinchi daraja sifat darajasi hisoblanib, u o‘z ichiga geosiyosiy, boshqaruv va informatsion salohiyatni o‘z ichiga oladi ..

Hududning tabiiy-resurs salohiyati hududda mavjud tabiiy resurslarning foydalanishdagi va kelajakda foydalanishi kutilayotgan barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Tabiiy resurslar zaxiralarining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turishi tufayli ularni baholash tarixiy tomonlama nisbiy hisoblanadi. Barcha tabiiy resurslar ikki asosiy belgisi: kelib chiqishi (tabiiy) va foydalanishi (iqtisodiy) bo‘yicha klassifikatsiyalanadi.

Tabiiy jihatdan klassifikatsiyalanganda resurslar: mineral, suv, tuproq-yer, biologik (o‘simlik va xayvonot), issiqlik (quyosh, geotermal, yer osti suvlari va okean sathidan chuqurligi), harakat kuchlari (shamol, suvning tushishi va ko‘tarilishi), yangi noan‘anaviy resurslar, bioorganizmlar va boshqa resurslarga ajratiladi. O‘z navbatida hududning energiya resurslari birlamchi va ikkilamchi energiya resurslariga ajratiladi. Birlamchi energiya resurslari tabiat resurslaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri olinadigan energiya manbalari hisoblanadi. Bunday energiya resurslariga neft, toshko‘mir, tabiiy gaz kabi energiya manbalarini kiritish mumkin. Birlamchi energiya resurslaridan boshqa barcha energiya manbalari ikkilamchi energiya resurslarini tashkil qiladi. Bunday energiya resurslari birlamchi energiya resurslaridan yoki ikkilamchi energiya resurslaridan ishlab chiqarilishi mumkin.

²⁷⁷ Любимова М.В., Нестеров В.П., Дмитриева В.С. Проблемы оценки социально-экономического потенциала региона// Региональная экономика: теория и практика. 2007. №4. С. 13-14.

Ayrim turdagi energiya manbalari ham birlamchi ham ikkilamchi energiya resursiga kiritilishi mumkin. Masalan, tabiiy resurslar, xususan suvning tushishi, shamol, quyosh nurlari, to‘lqin, okean suv sathining ko‘tarilishi va tushishi hisobiga olinadigan elektr energiyasi birlamchi energiya turiga kiritiladi. Neft, tabiiy gaz, ko‘mir, chiqindilar, atom energiyasi, geotermal va quyosh issiqlik energiyasi hisobiga olingan elektr energiyasi ikkilamchi energiya turiga kiradi. Issiqlik energiyasi ham birlamchi va ikkilamchi energiya turiga kiritilishi mumkin. Geotermal energiya va quyosh issiqlik energiyasi kabi tabiiy resurslar hisobiga olinadigan issiqlik energiyasi birlamchi energiya hisoblansa, neft, tabiiy gaz, ko‘mir, chiqindilar va atom energiyasi hisobiga olinadigan issiqlik energiyasi ikkilamchi energiya turiga kiradi.

Iqtisodiy jihatdan klassifikatsiyalanganda resurslar: sanoat (yoqilg‘i, energetika, metall, agrokimyoy, qurilish, suv, yog‘och materiallari va boshqalar), qishloq xo‘jaligi (tuproq-yer, xususan, sug‘oriladigan va lalmikor yerlar, sug‘orish uchun suv, yillik harorat yig‘indisi, ovlanadigan hayvonlar va boshqalar), noishlab chiqarish sohasi (aholi ehtiyojlari uchun sun‘iy suv havzalari, shaxarlar atrofidagi o‘rmonlar, tabiatni muhofaza qilish, dam olish va sog‘lomlashtirish rekreatsion resurslari, baliqchilik va boshqalar) ga bo‘linadi.


Hududlar iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi mehnat resurslari asosan: ularning miqdori, ta‘lim darajasi va malakasi bilan xarakterlanadi. Hudud aholisining qancha qismi mehnatga layoqatli ekanligi, ya‘ni mehnat resursiga kiritilishi bilan bir qatorda, har 1000 ishchiga to‘g‘ri keladigan oliy va o‘rta maxsus ma‘lumotga ega ishchilar soni ham hudud mehnat resurslari salohiyatini ko‘rsatadi. Hududlar mehnat resurslari soni, ta‘lim darajasi va malakasining oshishiga ta‘sir qiluvchi muhim omillarga²⁷⁸: mehnat resurslarini motivatsiya qilish tizimi, mehnat resurslarining yashash sharoiti va ish faoliyati qulayliklari, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, hududda ta‘limni tashkil qilish darajasi va sifati, hududiy mehnat resurslarini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligi, ish beruvchi va ishchilar o‘rtasidagi munosbatlarni tartibga solishning

²⁷⁸У.Ю.Кузькин, Повышение эффективности использования трудового потенциала региона . –С. 226.

URL:<http://eprints.kname.edu.ua/2494/1/%D0%9A%D0%A3%D0%97%D0%AC%D0%9A%D0%98%D0%9D%D0%95.%D0%AE..pdf>(Мурожаат санаси: 13.04.2018)

huquqiy-me'yoriy asoslari, ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish, infratuzilmani yaxshilash kabilarni kiritish mumkin.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda hududlar iqtisodiy salohiyatining turlicha elementlari keltiriladi. Ularni umumlashtirgan holda, hudud iqtisodiy salohiyati: mehnat salohiyati, tabiiy resurs salohiyati, moliyaviy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, ilmiy salohiyat, budjet salohiyati, soliq salohiyati, axborot salohiyati, intellektual salohiyat, boshqaruv salohiyati, tadbirkorlik salohiyati, investitsion salohiyat, innovatsion salohiyat kabi elementlardan tashkil topishini aniqlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Hudud iqtisodiy salohiyatining tarkibiy modeli²⁷⁹

Ko'pchilik mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududlar iqtisodiy rivojlanishiga erishish uchun ulardagi mehnat resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma, tabiiy-resurslar va atrof-muhit sharoitlaridan samarali foydalanish hamda iqtisodiy salohiyatni oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hududlarning geografik va siyosiy joylashuvidan kelib chiquvchi o'ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

²⁷⁹ В.И. Меньщикова. Экономический потенциал региона: терминология, структура, модель. ISSN 1810-0201. Вестник ТГУ, выпуск4 (84), 2010. –С. 61-62.

Demak, hududlar iqtisodiy salohiyati mamlakat barqaror iqtisodiy o‘shining ajralmas qismi sifatida hududlararo tabiiy, mehnat va boshqa resurslarning almashinuvi, hududlararo iqtisodiy hamkorlik, mamlakat darajasidagi turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatning turli iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan hududlari o‘rtasida rivojlanishning mutanosibligini, mahalliy budjetlar barqarorligi ta‘minlash, nomarkazlashgan holda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, aholini turmish darajasini yaxshilash, uzoq muddatli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish kabi masalalar yaqin kelajakda ko‘pchilik mamlakatlarda turgan ustuvor vazifa sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Ma‘lumki, hududlar iqtisodiy salohiyati iqtisodiyotni boshqarish usullari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, hududiy ustunliklardan ratsional foydalanish, davlat va hudud o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni birlashtirish usullarini o‘z ichiga oladi. Hududning integral xarakteristikasi uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan aniqlanadi. Buning asosi sifatida milliy boylik, yalpi va so‘nggi mahsulot, milliy daromad, asosiy fondlar qiymati, yashash uchun zarur bo‘lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishning mutlaq hajmlarini ifoda etadigan iqtisodiy salohiyat hisoblanadi.

Hududiy darajada ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning mohiyati ijtimoiy va iqtisodiy siyosat yaxlitligidan kelib chiqadi. Hududlar iqtisodiyotining tarkibiy qismlari orasida tabiat, inson, ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlovchi daraja, tarkib va dinamika alohida ajralib turadi. Shuning uchun hududlar iqtisodiy salohiyatini baholashda sanoatning ustuvor tarmoqlari ulushini aniqlash, asosiy ishlab chiqarish fondlarining sifat o‘lchovlari va tarkibi, ishlab chiqarish tizimlarining ilm-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishga moslashuv imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘pchilik iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy salohiyatni baholashning asosiy ikki yo‘nalishi keltiriladi: takror ishlab chiqarish va xususiyatlar bo‘yicha. Birinchi yo‘nalishda ishlab chiqarish omillari samaradorligi ko‘rsatkichlari murakkabligidan kelib chiqib, hudud nisbatan yopiq tizim sifatida qaraladi. Ikkinchi yo‘nalishdan foydalanilganda hududning boshqa hududlar bilan o‘zaro aloqalari inobatga olinib, yalpi tahlil amalga oshiriladi.

Rossiyalik iqtisodchi olim A.O.Polinev tomonidan hudud iqtisodiy salohiyatini baholashning bir necha usullari berilgan²⁸⁰:

– asosiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni o‘rnatish usuli;

– indekslarni jamlash usuli;

– interval (oraliq) balli baholash usuli;

– barcha hududlar va barcha baholangan asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ranjirlash asosida integral ko‘rsatkichlarni qurish usuli;

– balli baholash usuli bilan bog‘liq holda hududlarni intervalsiz, omillar asosida ranjirlash usuli.

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini baholash quyidagi bosqichlar ketma-ketligida amalga oshirilishi mumkin²⁸¹:

– hududiy darajada iqtisodiy salohiyatni va salohiyatning alohida qismlarini xarakterlovchi ko‘rsatkichlarni saralash, shuningdek iqtisodiy salohiyatni aniqlash nuqtai nazaridan ularning ahamiyatini aniqlash;

– ko‘rsatkichlarni taqqoslanuvchi ko‘rinishga keltirish, natijalarga ta’sir ko‘rsatuvchi hajmdorlikni bartaraf etish;

– hudud iqtisodiy salohiyatining ko‘p darajali agregatsiyalangan ko‘rsatkichlari hisob-kitobi.

A.R.Safiuliin tomonidan ishlab chiqilgan “Hududning strategik matritsasi” nomli modelida hududlarning iqtisodiy salohiyati quyidagi ko‘rsatkichlar guruxini keltirilgan²⁸²:

– aholi (soni, hudud maydoniga nisbatan zichligi);

– maydon va yashash uchun tabiiy-geografik sharoitlar;

– hudud iqtisodiyoti (yalpi hududiy mahsulotning mutloq qiymati va uning aholi jon boshshiga hisoblangan ko‘rsatkichlari);

– hudud infratuzilmasini umumlashtirilgan holda baholash (avtomobil, temir va havo yo‘llari, elektroenergiya, gaz, suv ta’minoti va boshqalar);

– hudud innovatsion rivojlanishini baholash (tadqiqot salohiyati, patent faolligi, korxonaning innovatsion salohiyati va boshqalar);

²⁸⁰ Полінев А.О. Межрегиональная экономическая дифференциация: методология анализа и государственного регулирования. М.: УРСС, 2015. С. 104.

²⁸¹ Фролова И.В. Теоретические основы и практические приемы рейтинговой оценки инвестиционного потенциала регионов Южного Федерального округа // Финансы и кредит. 2016, № 24. С. 41.

²⁸² Сафиулиин А.Р. Инвестиционная привлекательность территории как фактор ее конкурентоспособности // Экономические стратегии. 2015, № 8. С. 34.

– boshqarish darajasini baholash (hal qilinadigan vazifa va masalalarning ko‘laminig to‘g‘rilovchi koeffitsiyenti va hududning boshqa o‘lchovlari o‘rtasidagi aloqalar baholanadi).

Bu modelga ko‘ra yakuniy baho hudud strategik salohiyatining joriy va prognoz baholanishini o‘z ichiga oladi.

V.I. Buvalseva va M.V. Sokolovskiy hudud iqtisodiy salohiyatini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar guruhlarini ajratadi:

– iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi ko‘rsatkichlari: yalpi hududiy mahsulotning aholi jon boshiga qiymati, sanoat mahsuloti hajmi, asosiy ishlab chiqarish fondlari, asosiy fondlarning eskirganlik darajasi, asosiy kapitalga investitsiya, eksport va import hajmi, aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi qoldig‘i, aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi, real sektorning moliyaviy natijalari, zarar ko‘rgan korxonalarining ulushi va boshqalar;

– ijtimoiy soha rivojlanish ko‘rsatkichlari: aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha daromadlar, yashash minimumi, aholi o‘rtacha daromadlarining yashash minimumiga nisbati, aholining eng ko‘p daromadli 10% qatlami daromadlarini, eng kam ta‘minlangan 10% aholi daromadlariga nisbati, aholining ijtimoiy-madaniy obyektlar bilan va injenerlik infratuzilmasi bilan ta‘minlanganligi, yashash minimumi darajasidagi daromadga ega aholi qatlamining umumiy aholi sonidagi ulushi, ishsizlik darajasi, kichik korxonalarda ish bilan badlik darajasi va boshqalar;

– moliyaviy soha rivojlanish ko‘rsatkichlari: moliyaviy resurslarning umumiy balansi, moliyaviy ta‘minlanganlik, aholi jon boshiga budjet profitsiti va defitsiti, hududiy qarz mablag‘larining aholi jon boshiga qiymati, moliyaviy-kredit tizimining tarkibi va boshqalar.

– P.A. Ibragimova tadqiqotlarida hudud iqtisodiy salohiyatini baholashning quyidagi ko‘rsatkichlari keltirilgan:

Iqtisodiy salohiyatdan foydalanish koeffitsiyenti:

$$K_{исф} = \frac{ЯХМ}{ИС}$$

Iqtisodiy salohiyatning faol qismidan foydalanish koeffitsiyenti:

$$K_{исф\phi} = \frac{ЯХМ}{ИС_{\phi\text{аол}}}$$

Iqtisodiy resurslarni jalb qilish koeffitsiyenti:

$$K_{\text{ИРЖ}} = \frac{ИС_{\text{фаол}}}{ИС}$$

Hududning iqtisodiy resurslari samaradorligi koeffitsiyenti:

$$K_{\text{ИРС}} = \frac{ИС}{P}$$

Xususiy salohiyatdan foydalanish koeffitsiyenti:

$$K_{\text{ХСФ}} = \frac{ХД_i}{ИС_i}$$

Bu yerda, YaXM – yalpi hududiy mahsulot, IS – iqtisodiy salohiyat, $ИС_{\text{фаол}}$ – iqtisodiy salohiyatning faol qismi, R – hududning iqtisodiy resurslari, $ХД_i$ – *i* resurs turi bo‘yicha hudud daromadi miqdori, $ИС_i$ – *i* resurs turi bo‘yicha xususiy iqtisodiy salohiyat.

Hududlar iqtisodiy salohiyati va ularni baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hududlar xususiyatlaridan kelib chiqib, uning iqtisodiy salohiyatini baholash usullaridan foydalanish turli hududlar uchun turlicha bo‘lishi mumkin. Bunda tanlanadigan usul hududning iqtisodiy salohiyatini obyektiv baholash vazifasiga javob berishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham hududlar iqtisodiy salohiyatini baholashning mavjud usullari turli afzallik va kamchiliklarga ega (1-jadval).

1-jadval

Hududlar iqtisodiy salohiyatini baholashning ayrim metodologik yondashuvlarining taqqoslama tahlili²⁸³

Baholash metodologiyasi	Usulning afzalliklari	Usulning kamchiliklari
Resurslarni qiymat asosida baholash	- salohiyatning tarkibi va dinamikasini baholash imkoniyatlari; - yagona obyekt va umumiylik uchun mavjud imkoniyatlar tahlili.	- resurslar o‘tkazish koeffitsiyentlarining subyektiv tanlanishi.
Indeks tahlil	- oddiylik, yirik hisoblashlarning mavjud emasligi.	- shakllantiriladigan natijaviy ko‘rsatkichlarda har bir omil-

²⁸³ Кириллова О.С. Экономический потенциал как база оценки налогового потенциала региона // Финанси и кредит. 2016, № 6. С. 20.

		ning bir xil axborotga egaligi; - salohiyat tarkibi va dinamikasini tahlil qilish uchun foydalanishdagi qiyinchilik.
Optimallashtirilgan model	- optimal tadbirlarni joriy qilish imkoniyati.	- zarur axborot bazasining mavjud emasligi; - hisoblashning murakkabligi.
Korrelyatsion-regression usul	- har bir resurs ta'sir darajasining hisobi.	- salohiyat dinamikasini baholashning murakkabligi; - nevozmojnost ko'p miqdorda bo'lmagan kuzatuvlarni qo'llash imkoniyatining mavjud emasligi.

Shunday qilib, hudud iqtisodiy salohiyatini baholashning yuqorida ko'rib o'tilgan usullari va tadqiqotlar hudud iqtisodiy salohiyatining quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi:

- hudud iqtisodiy salohiyati ikki tomonlama yondashuv doirasida taqdim etiladi, birinchi tomondan, erishilgan hududiy rivojlanish darajasi, boshqa tomondan, uning yanada rivojlanish imkoniyatlarini;

- hudud iqtisodiy salohiyati turli xil resurslarning mavjudligi, foydalanilayotgani va foydalanilmayotganidan qat'i nazar ularning joylashishi. Bunda resurslardan foydalanish darajasi salohiyatni amalga oshirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi;

- alohida olingan har bir hudud uchun iqtisodiy salohiyat faqatgina shu hududgagina tegishli bo'lgan uzining maxsus xususiyatlariga ega bo'ladi va aynan bu xususiyat bo'yicha hududni boshqa hududlar bilan taqqoslash imkoni mavjud emas;

- hududiy iqtisodiy salohiyat miqdori hududning raqobatbardoshligini aniqlab beradi. O'z-o'zidan, bu miqdor qanchalik katta bo'lsa, hududning tashqi bozorlarda barqaror o'rni saqlashi va rivojlanishiga sabab bo'ladi;

